

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

***MAMASOLI JUMABOYEV***

# **BOLALAR ADABIYOTI**

(Darslik-majmua)

*Kasb-hunar kollejlarining „Maktabgacha  
ta'lim“ bo'limi o'quvchilari uchun*

To'rtinchi nashri

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2010

Ushbu darslik 2002- yilda o‘tkazilgan „Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti“ respublika tanlovida birinchi o‘rinni egallagan.

Mas’ul muharrir:

**Safo Ochil**, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

**H. Boltaboyev**, filologiya fanlari doktori, professor.

**H. Karimov**, filologiya fanlari doktori, professor.

**T. Adashboyev**, bolalar shoiri.

Yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish, ularni mamlakatimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek ulug‘ maqsadni ko‘zlab yozilgan mazkur „Bolalar adabiyoti“ (darslik-majmua) kitobi kasb-hunar kollejlarining „Maktabgacha ta’lim“ bo‘limi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan bolalar adabiyotiga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

J **480300000031–130** Buyurtma var – 2010  
353(04)–2010

© „O‘qituvchi“ nashriyoti, 2001

ISBN 978—9943—02—200—3

© „O‘qituvchi“ NMIU, 2010



## BOLALAR ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

„Kelajak bugundan boshlanadi, — degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqida, — hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi“.

Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, ornomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Ha, bu ulkan ishda bolalar adabiyotining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Kattalar adabiyoti kabi bolalar adabiyoti ham o'z oldiga bolalarning yoshi, saviyasiga qarab muhim ta'lif va tarbiyaviy masalalarni qo'yadi. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari kichkintoylarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi zarur.

Bolalar adabiyoti pedagogika bilan mustahkam bog'langandir. Bu ikki fanning ham maqsad va vazifasi bir: yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berib, ularni davrimizning munosib farzandlari qilib yetishtirishdir.

Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib, chiniqtirishda, ularni vatanparvar va mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, mustaqil davlatimizga katta yordam berishlari kerak.

Mustaqil O'zbekistonimiz oldida juda ko'p masalalar bilan bir qatorda ham jismoniy, ham aqliy jihatdan chiniqqan, ma'naviy yetuk, hayotning turli sohalarida faollik bilan ish olib borishga qodir o'qimishli kishilarni voyaga yetkazishdek buyuk ishlar turadi. O'z navbatida, bunday ulkan vazifalar bolalar adabiyoti oldiga ham yuksak talablar qo'yadi. Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarning ongi va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Shu sababli bunday kitoblar tarbiyaviy nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar adabiyotini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagicha uch guruhga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2–7 yosh).
2. Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (7–10–11 yosh).
3. O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi (12–14 va undan yuqori).

**Maktabgacha ta’lim  
yoshidagi bolalar  
kitobxonligi**

Bu davrda, asosan, ota-onalar va tarbiyachilar katta rol o‘ynaydilar. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo‘ladilar. Shunga qaramay, o‘zlarini qurshab olgan olamni tezroq bilib olishga, uni o‘rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar, bog‘chalarda esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ya’ni ularga badiiy asarlardan parchalar o‘qib berishlari lozim. Bunday asar yoki matn parchasining hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Bu davr bolalari tinglaydigan asarlarning ko‘pchiligini ertak, qo‘sishq, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridaq talablarga to‘la-to‘kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun qo‘l keladi. Ammo shu narsani ta’kidlab o‘tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotidagi muhim, ibratli voqe va hodisalarni badiiy timsol orqali bolalar nutqiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Shoir Anvar Obidjon „Suhbat“ she’rida bolalar yaxshi ko‘radigan g‘ozlar to‘g‘risida so‘z yuritadi. Ma’lumki, bolalar jonivorlar, xususan, qushlarga ko‘proq qiziqadilar. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, bu she’r bola hayotida muhim rol o‘ynaydi. Voqeja juda oddiy va sodda. O‘zaro suhbatdan ma’lum bo‘ladiki, g‘ozlarning qorni och, ularni boqish kerak. Buni shoir so‘z o‘yini vositasida ifoda etadi:

- G‘ozlar, bir so‘z deysizmi?  
— G‘a-g‘a-g‘a!
- Nega patni silaysiz?  
— G‘oq-g‘oq-g‘oq.

— Totli suli yeysizmi?  
— Ha-ha-ha.

— Mendan nima tilaysiz?  
— Boq, boq, boq!

Bu xildagi she'rlar kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, turmush taassurotlarini to'plab, ulardan xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Bolalarning, ayniqsa, jajji qizaloqlarning sevimli mashg'u-lotlaridan biri qo'g'irchoq o'ynashdir. Yo'ldosh Sulaymonning „Qo'g'irchoq“ she'rida qo'g'irchoqlarni asrab-avaylash, oddiy bir o'yinchoq vositasida kattalarning mehnatini e'zozlash masalasi o'rtaga tashlanadi:

Quyosh bilan teng turib,  
Ozoda kiyintirib,  
Senga taqamiz marjon,  
Qo'g'irchoq, qo'g'irchoqjon.

Qo'ldan qo'yamaymiz sira,  
Yuqtirmaymiz gard, shira.  
Ovunchoqsan bizlarga,  
Qo'g'irchoqsan bizlarga.

Har qanday yozuvchi mактабгача та'lim yoshidagi bolalarga o'qib beriladigan asar tilining badiiy jihatdan puxta-pishiqligiga, tushunarli, aniq va ravonligiga alohida e'tibor beradi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar hayot haqida muayyan tasavvur berishi bilan birga katta zavq-shavq bag'ishlaydi. Masalan, Valijon Ahmadjon „Qo'ziqorin“ she'rida shunday yozadi:

Yomg'irli kun o'rmonda  
Tug'ildi qo'ziqorin.  
„Ho'l bo'lmasin boshim“ deb  
Tez kiyvoldi qalpog'in.

Qarang, qanday chiroyli o'xshatish. Bu she'rni kichkintoylar bir zumdayoq yodlab oladilar. Shu oddiy qo'ziqorin tasviri kichkintoylarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbatlarini oshiradi. Abdunabi Boyqo'ziyevning „Qizimiz ta'nasi“ deb nomlangan she'ri ham jajji kitobxonlarda katta taassurot qoldiradi:

Ayajon, vo-oy,  
Ayajon, vi-iy,  
Og'riyapti tishim-iy,  
Konfet yesang tishing og'rir, deysiz-u,  
Ketaverasiz qutichani qulflamiy.

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o‘zлari tinglagan asarları yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

**Maktab yoshidagi kichik  
bolalar kitobxonligi**

Bu yoshdagi bolalarda kitobga munosabat avvalgisidan farq qiladi. Bu bolalarning yoshi va bilim saviyasi bilan bog‘liq. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar, asosan, tarbiyachilar, ota-onalar yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu ishni o‘zлari mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi.

Bu yoshdagi bolalarga ham tabiat, Vatan, vatanparvarlik, odob, o‘qishga, onaga muhabbat g‘oyasi singdirilgan asarlar ko‘proq tavsija qilinadi. Jumladan, Uyg‘unning „Ikki ona“ she‘rini o‘qish va yod oldirish foydadan xoli bo‘lmaydi:

Mening ikki onam bor,  
Ikkisi ham mehribon,  
Biri meni sut berdi,  
Biri esa shirin non.  
Biri menga til berib,  
Bulbul qilib sayratdi.  
Biri meni bag‘rida  
Gullar kabi yayratdi.  
Biri tug‘gan onamdir,  
Ikkinchisi hur Vatan.  
Ikkisiga barobar  
Qurbon bo‘lsin jon-u tan.

She‘rni tinglagan kichkintoy qalbida onaga, ona-Vatanga bo‘lgan muhabbat hissi yanada jo‘sh uradi.

Robiddin Is’hoqovning „Iltimos“ she‘ri bu davr bolalariagi orzu, havas haqida yozilgan. Odatda, bu yoshdagi bolalarda kattalarning ishiga, mehnatiga qiziqish kuchli bo‘ladi. Bu g‘oya „Iltimos“da lo‘nda qilib berilganligi kenja kitobxonda katta taassurot qoldiradi:

Akajon, traktorni  
Men bir minib ko‘ray-chi,  
Mamajon aka bo‘lib  
Men ham rulni buray-chi.

11—12 yoshdagi bolalar sehrli-fantastik ertak, sarguzasht, hikoya, qissa va dostonlarni sevib o‘qiydilar. Anvar Obidjonning „Dahshatli Meshpolvon“ (ertak-qissa), Quddus Muhammadiyning „Erkinjon oyga chiqibdi“ (doston), Yusuf Shoman-surning „Oydan kelgan bolalar“ (doston), Olloyorning „Fazogir chumoli“ (ertak-qissa) kabi asarlari shu yoshdagi bolalarga mo‘ljallab yozilgan.

#### O‘rta va katta yoshdagি bolalar kitobxonligи

Bu yoshdagi bolalar o‘zlarini mustaqil ravishda kitob o‘qib qolmay, balki kitob qahramonlarining xatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar, zarurat bo‘lsa, ular ko‘rsatgan mardlik va jasoratlarni takrorlashga hozirlanadilar.

Ularga xalqimizning shonli tarixi, bugungi hayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin. „Shiroq“, „To‘maris“ kabi afsonalar bilan birga, Elbek, Oybek, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Shukur Sa‘dulla, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboev, Qambar Ota, Safar Barnoyev va boshqalarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutasakkirlaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Navoiy va boshqalarning asarlari bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, bolalar adabiyoti o‘ziga xos xusu-siyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg‘a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur anglash va sevishga yordam beradi.





## BOLALAR FOLKLORI

Folklor asarlarini tinglab voyaga yetayotgan bolalarning o'yinlari, sho'xliklari, xayollari, qiziqishlari, gap-so'zlari... Bular bolalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan omillardandir. Agarda kattalar bu o'ziga xos bolalar dunyosini tushunib, uni to'g'ri baholay olsalar, bolalarning kelajagi uchun katta ish qilgan bo'ladilar.

Alla, ertak, topishmoq, maqollarda kuzatganimizdek, odamlarga, jonivorlarga, tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, do'stlik va o'rtoqlikning ilk tuyg'ulari, yaxshilikka nisbatan uyg'ongan dastlabki minnatdorchilik hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash — bularning bari bolaning ma'naviy dunyosini boyitishi, uning xayoli va tasavvurini kengaytirishi lozim.

Har bir kishi, folklorda zikr etilganidek, eng baxtiyor va betashvish bolalik yillarida taxminan quyidagi qobiliyatlarni egallab olgan bo'lishi lozim. Ya'ni o'ynab va sho'xlik qila turib, u: nima yaxshi-yu nima yomonligini, narsalar dunyosini, hayvonot dunyosini, odamlar dunyosini anglab boradi. Buning ustiga dunyoni bilish shunchaki yuzaki bir kuzatuv emas: kecha u yomg'irning nimaligini bilmas edi, bugun esa ertalab uni ko'rди-yu, ayni paytda dunyoda tarnovlar bo'lishini, chumchuqlar sovuqda surpayib, yum-yumaloq bo'lib olishini ham bilib oldi. Bu ertalabki kashfiyotlar edi, tushga borib esa u mushukchani qo'rqtib yuborsa, yunglari surpayib, ko'zlari yashil rangda chaqnab ketishini ham birinchi bor ko'rdi.

Darhaqiqat, bolalarning o'yinlariga, chizgan rasmlariga astoydil razm soling, gaplarini tinglang. Shunda siz ularning olamni naqadar yorqin, aqlga sig'mas darajada mo'jizakor bir tarzda ko'ra bilishlarini payqaysiz. Ular o'zlarining sezgirliklari tufayli, hatto qo'rqinchli ertaklarning ham qandaydir qiziq joylarini ilib oladilar, kundalik voqealarning esa kattalar sezmay qoladigan muhim jihatlarini ko'ra biladilar.

Mana shu musaffo tuyg'ulari uchun ham kishilar bolalikni sevadilar va uni butun umr mammuniyat bilan xotirlab yuradilar. Betashvish bo'lgani uchun emas, musaffo tuyg'ulari uchun sevadilar uni.

Shu boisdan kattalar bolalarni quvonchdan mahrum etmasliklari, ularning yangilikka boy bo'lgan va doimo o'zgarib turuvchi hayotdan olgan taassurotlarini, his-hajajonga to'la hayratli tuyg'ularini toptamasliklari kerak.

Har birimiz ham bolalikda kunlarning uzoqligi, har bir kunning voqealarga boy o'tgani, tushda osmonda uchib yurish naqadar yoqimligi, oddiygina uyning shifti ham naqadar baland, hovli oldidagi bog' juda katta, huv naridagi o'tloqzor esa, qanchalar sirli tuyulganini eslashni istaymiz.

Lekin quyoshtan taraladigan chinakam nur — yog'duni hammamiz ham yaxshi xotirlay olamizmi? Yangi o'yinchoq, yangi kitobchalarining yoqimli hidini qay birimiz aniq eslaymiz? Oddiy hodisalar ham qanchalar tantanavor va muhim bo'lib tuyulgani va qachonlardir yuz bergen olis voqealar xuddi kechagidek xotiraga mahkam o'rnashib qolganini-chi?

Hamma yoqdan moychechak gulining o'tkir isi keladigan oppoq, tebranib turuvchi dalalar-chi? Shunda to'satdan uzoqda ko'ringan ona... Uning ovozi... Har tomonga go'yo uzun-uzun oltinrang chiziqchalarsimon quvnoq nur taratayotgan saxiy quyosh-chi?

Ularni kattalar sira ko'rmaydilar, bolalar esa ko'radilar. Negaki ular o'zları tinglagen ertaklarida bunday ajoyib-g'aroyib voqealarni ko'p bor eshitishgan. Hatto rasmini ham chizganlar.

Bolalar chizgan rasmning bo'yog'i juda tiniq bo'lishi ham bejiz emas. Bolalik paytida yaxshilik bilan yomonlik ham mana shunday aniq ko'rindi. Bolalikda yo sevishadi, yoki nafratlanishadi, bolalar xatti-harakatlarining o'rtamyonasi ham bo'lmay, faqat yo yaxshi, yoki yomon bo'lishi mumkin.

Ularda hayot tajribasi, bilimi hali yetarli emas-u, ammo chiroyli va xunukni, samimiyat va soxtalikni his etish tuyg'ulari nihoyatda o'tkir bo'ladi.

Tevarak-olamni mana shunday tiyraklik bilan his etgan odamlar tufayligina biz musiqa eshitib, yaxshi kitoblarni o'qib, chinakam san'at asarlarini ko'rib, cheksiz huzur-halovat olamiz. Ular ohanglar, so'zlar, ranglar vositasida dunyoning nafosati-yu, uning donishmandligini bizga yaqqol ko'rsatib beradilar, chunki iste'dodning o'zi aslida bolalik ta'sirchanligidan, oddiy narsadan go'zallik topa bilish hislatidan boshlanadi, bu xislat esa hayotiy tajriba va ma'naviy yetuklik tufayli boyib boradi.



Alladir hayotda sevimli qo'shiq,  
Onalar kuylaydi yurakdan jo'shib.  
Bolsasin umriga umrlar tilar,  
Allaga dildagi niyatim qo'shib.  
Bu qanday sinoat, men bilolmadim,  
Ta'rifiga so'zlar topa olmadim.  
Allalar eshitib, o'sib-ulg'aydim,  
Dard cheksam, allani tinglab sog'aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so'zi, hammaning allaga, onaga iqrornomasi, ta'zimi. Yoshi ulug'mi, kichikmi alla eshitgan, alla og'ushida, ta'sirida o'sgan, ulg'aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo'lgan.

Alla xalq og'zaki ijodining eng oliv turi hisoblanadi. Allada onaning o'yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebranadi, orom oladi, o'zini-o'zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi. E'tibor bering:

Tol beshikni tebratib,  
Ona aytar qo'shig'in.  
Qo'shiq bilan tebratar  
Dunyoning tol beshigin.  
Bu beshikda ulg'ayar  
Necha ming, millionlar.  
Ona mehri ziyosi  
Yuraklarga yo'l olar.  
Bu beshikda tinglashar  
Mayin-mayin allalar.  
Uchib o'tgan yel bilan  
Olam bo'ylab taralar.  
Tol beshikni tebratib,  
Ona aytar qo'shig'in.  
Qo'shiq bilan tebratar  
Dunyoning tol beshigin.

Alla qadimiy xalq qo'shig'i. Alla va beshik hamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino „...Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lган iste'dodi hosil qilinadi“, deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog'inini o'zi suygan, e'zozlagan har narsadan yuqori qo'yib alla aytadi:

Sen bog'imning bahori,  
Sen umrimning nahori,  
Sen qalbimning ohori,  
Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo'ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo'shib jo'shib kuylaydi. Bola birinchi navbatda sog'lom fikrli, el-yurt o'g'loni bo'lib kamol topishi kerak. Allada shu g'oya yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,  
Uxlab qolsin, alla-yo.  
Bo'lsin inson sarasi,  
Obro' olsin, alla-yo, alla.

Inson birdaniga yuqori martabali, o'qimishli, oq-qorani ajrata oladigan bo'lmaydi. Buning uchun qunt bilan o'qish, o'rganish, ilmli bo'lish kerak. Quyidagi alla ham juda jozibali chiqqan:

Ko'chalarda o'ynab yursin,  
Maktablarda o'qib yursin.  
Mulla-yu mudarris bo'lsin,  
Martabasi ulug' bo'lsin.

Chaqaloq olamga kelishi bilan dastlab ota-onani taniydi. So'ng oila a'zolari, jonivorlar, parranda-yu darrandalar bilan oshno bo'ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyoj qilishi, parvarishlashi, o'stirishi, ko'paytirishi lozim. Shu ma'noda inson ruhiga o'z kuyi, qo'shig'i bilan quvonch bag'ishlaydigan qush-bulbulni ham ehtiyoj qilishi zarurligi bir qator allalarning asosini tashkil etadi:

Bulbul sayrar yozina, alla-yo, alla,  
Qulluq hush ovozina, alla-yo, alla.  
Bermang bulbula ozor, alla-yo, alla,  
Bulbul beozor qushdir, alla-yo, alla.

Qadimda och-yupun hayot kechirgan mehnatkash xalq o'z farzandini kelajakda mard-pahlavon, botir bo'lib kamol topib, yurt himoyachisiga aylanishiga umid bog'lagan. Shu bois ham alla qo'shiqlarida farzandlarini yo'lbars yurakli, qoplon bilakli bo'lib voyaga yetishlari uchun allalar to'qib, farzandi ongiga, shuuriga quyib tarbiya qilganlar:

Yo'lbarslarday yuraklim, alla,  
Qoplonlarday bilaklim, alla.  
Yaxshi-yomon kunimda, alla,  
Menga juda keraklim, alla.

Ona allasida bolasining ertasi, kelajagi porloq ekanligiga qattiq ishonch ifodasini ko'ramiz. Quyidagi alla ana shulardan biri sifatida kitobxonda katta taassurot qoldiradi:

Alla, bolam-ey,	Alla, erkatoy,
Guli lolam-ey.	Og'zing to'la moy,
Tezroq katta bo'l,	Baxting munavvar,
Mushtoq olam-ey,	Sharofatga boy,
Alla, alla-yeys.	Alla, alla-yeys.
Yorqin kelajak,	Alla erkatoy,
Seni kutajak.	Mushtoq senga toy,
Toza qalbingga	Uxlasang qalbing
Sevinch to'ljak,	Ochadi chiroy,
Alla, alla-yeys.	Alla, alla-yeys.

Ovuntirish-allani hamma — onalar, buvilar, bobolar aytish-gan. Alla asta-sekin ommaviy qo'shiqqa aylanib, qo'shiqlar uzoq yillar davom etgan. Aytaylik, chaqalojni birinchi bor beshikka solayotganda aytildigan qo'shiqlar. Beshik aslida bir yog'och-taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg'akka huzurbaxsh joy bo'lishi har bir beshik qo'shig'ida chiroyli ifodaga ega:

Beshigi taxta,  
Orqasi paxta.  
Egasi keldi,  
Kuchugi och.  
Ichida yotganni  
Bahrini och.

Chaqaloq beshikda maza qilib uxbab, orom olgach, norasidani beshikdan olayotganda aytildigan qo'shiq ham nihoyatda muxtasar aytigan. Alloh beshikdagi chaqaloqqa xotirjamlikni ato etganligini, shu sababli hech qanday sharpu-dushman uning uyqusini buza olmaganligini quyidagi to'rtlikdan bilib olish qiyin emas:

Taqa-tuqi gavora bo'lsin,  
Dushmani ovora bo'lsin.  
Uyqusi beshikda qolsin,  
Dushmani eshikda qolsin.

Xalqda chaqaloq uchun xavfli kunlar ham borligi alohida qo'shiqlarda ta'kidlanadi. To'qqiz kunlik bo'ldimi, tamom, u yashab qolishi, endilikda xavf-xatardan butunlay xoli bo'lib olganligi, do'st ustiga do'st orttirib shu xonadonning haqiqiy a'zosiga aylanib qolganligi quyidagi qo'shiqda to'la-to'kis ifoda etilgan:

To'qqizdan o'tdi bu bacha,  
Endilikda o'lmas bu bacha.  
Bog'larning g'o'rasi bu bacha,  
Bolalar jo'rasi bu bacha.  
Shu uyning to'risi bu bacha,  
Shams-u qamar-u sitora  
Hamrohi shu bacha.

Xalq hayotda hech qachon shoshilmaydi, shoshqaloqlikka yo'l ham qo'ymaydi. Hamma narsa o'z o'rnida, o'z yo'lida bir me'yorda davom etishini orzu qiladi. Bu gapning tasdig'ini o'sha yangi olamga kelgan chaqaloq, u bilan bog'liq bo'lgan rasm-rusum misolida bilib olish mumkin. Mana, bolaning tishi ko'rindi. Bu voqeа ota-onas uchun ham, shu oila a'zolari-yu butun qavm-qarindoshlar uchun ham katta voqeа. Negaki, endilikda bola o'zi mustaqil ovqat yeysi, hayot uchun, yashash uchun kurashadi:

Bahor keldi, qish chiqdi,  
Chaqaloqqa tish chiqdi.  
Kichkintoy deb o'ylamang,  
Unga ham yumish chiqdi.  
Ovqatini chaynashga  
Har kuni bir ish chiqdi.

Bolaning o‘tirishi ham hammaga katta quvonch bag‘ishlaydi. Bu haqda xalqning to‘qigan mana bunday hazilomuz qo‘shig‘i xonama-xona, oilama-oila ko‘chib yuradi:

O‘tirsin-o o‘tirsin,  
Boshini guldan to‘ldirsin.  
Shuginani ko‘rgan qizlar,  
O‘zini osib o‘ldirsin!

Xuddi shuningdek, bola tetapoya qilib birinchi bor oyoq chiqarganda aytiladigan qo‘shiq ham juda jozibali:

Adoq-adoq yurisin,  
Tikon shunga kirmasin.  
Ko‘zi qattiq bandalar  
Ko‘zi shunga kirmasin.

Kiyim-lattaning umri qisqa, deyishadi keksalar. Bu gap xalq qo‘shiqlarida ham o‘z ifodasini topgan. Bolaga yangi kiyim kiydirilayotgan paytda aytiladigan qo‘shiqlarda xalq gapning lo‘ndasini aytib qo‘ya qolgan:

Tepa-tepa to‘zdirmay,  
Mingan otim o‘zdirmay.  
Sen — bir yillik,  
Men — ming yillik.  
Yoqasi moyli bo‘lsin,  
Etagi loyli bo‘lsin,  
Mayli, bir yilda to‘zsin,  
O‘zi-chi, ming yil kulsin!

Xalq qo‘shiqlarida rasm-rusumlar rang-barang. Hammasi o‘rinli, hammasi zarur. Masalan, qizaloqning sochini ilk bor yuvib-taraganda sochning uzunligi, qalinligi, ko‘rsa-ko‘rgudakligi, katta-kichikning havasini keltiradigan darajada ko‘rkamligi obdon maqtaladi. Ayrim qo‘shiqlarda sochning ta‘rifi oy-u quyosh bilan bog‘lab kuylanadi. Baquvvat sochning uzunligi cho‘zsa oy va quyoshga ham yetib borishi quvnoq misralarda ifodalanadi:

Oyda — quloch  
Kunda — tutam.  
Senga — kuyov,  
Menga — palov.

Shu zaylda beshik qo‘shiqlari kenja avlod kamolotida o‘ziga xos tarbiya rolini o‘taydi. Kichkintoylar ota-onalaridan, bobo-

momolaridan chiroqli, ta'sirli alla, qo'shiqlar tinglab, tillari biyron, o'ktam, ziyrak bo'lib voyaga yetar ekanlar, endilikda o'zлari ham hayot yo'llarida qo'shiq to'qib, qo'shiq qanotida o'sib-ulg'ayishga harakat qiladilar. Bunday qo'shiqlarning oliv namunasi „Chittigul“ turkumiga kiradigan qo'shiqlar bo'lishi mumkin. „Chittigul“da mavzu nihoyatda rang-barang va juda jozibali. Chunonchi:

Oq sholiga ko'k sholi,  
Oq sholini oqlaylik,  
Ko'k sholini ko'klaylik,  
Yaxshi kunga saqlaylik,  
Ha-yu, chittigul,  
Ha-yu, chittigul, —

singari misralariga nazar soladigan bo'lsak, bu qo'shiqda, asosan, g'alla-sholi to'g'risida gap ketadi. Sholining turi, rangini eslatish orqali sholi hosili juda mo'l bo'lganligini; bu mo'l-ko'l sholini pala-partish qilib yeb-tamomlamasdan, balki uni ehtiyotlab, tejamkorlik bilan ishlatish darkorligi bolalar tilidan chiroqli tasvirlangan. Qarang, bugungi kunda tejamkorlik, iqtisod haqida bolalarga ko'p gapiramiz. Yuqoridagi qo'shiqdan ayon bo'lishicha, ota-bobolarimiz azaldan har bir narsani tejab-tergab ishlatishni o'z farzandlariga qattiq o'rgatib kelishgan.

Endi mana bu misralarga razm soling:

Jo'xorilar bo'ldi oq,  
Qo'nma, shum qorayaloq!  
Agar qo'nsang, urayin,  
Bo'lar oyog'ing cho'loq.  
Haq, huvv!

Ko'riniб turibdiki, kattalarning mehnati bilan jo'xori ekilgan. Bugungi kunda u hosilga kirgan. Agar jo'xori qo'riq-lanmaydigan bo'lsa, qush-qumursqalar yeb, ekinni barbod qiladi. Bu ish kenja avlod — bolaga topshirilgan. Bolaning g'ayrat-shijoati, ekinni saqlab qolish uchun urinishi, o'ylaymizki, bugungi bolalarga ham namuna bo'ladi. „Agar qo'nsang, urayin, Bo'lar oyog'ing cho'loq“ deyishi qaysi bolani kattalarning mehnatiga ko'maklashishga da'vat etmaydi deysiz!

Bolalarning aytishuv — „Oq terakmi, ko'k terak“ qo'shiqlari ham hamma zamonlarda katta shuhrat qozonib kelgan. Bu

qo'shiqda, ko'pincha, o'ziga xos obro'-e'tiborga muyassar bo'lgan bolalar tilga olinadi. Ularning ibratomuz jihatlari bolalar o'rtasida ta'kidlanishi qo'shiqning yanada jozibali chiqishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bu aytishuv qo'shig'i bugungi kun, bugungi bolalar to'g'risida bo'lsa, yanada ajoyib bo'lishini quyidagi parchadan bilish mumkin:

Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Erkin qo'zichoq kerak!  
Ola-bula kapalak,  
Orqa sochim jamalak,  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Xayri qizaloq kerak!  
Oppoq-oppoq oq kurak,

Ko'm-ko'k, ko'm-ko'k, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
O'zi a'lo o'qiydi,  
Tartibli ham odobli.  
Hammani sevar,  
Tikishda chevar,  
Barchadan chaqqon,  
Hammaga yoqqan  
Go'zal Ozoda kerak!

Bu kabi aytishuv qo'shiqlari bolalarni mehnatkash, odob-axloqli, o'qimishli bo'lib kamol topishga da'vat etadi. Bunday qo'shiqlar qanotida o'sgan har bir bola sog'lom fikrli, elsevar bo'lishiga hech shubha yo'q.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, alla-qo'shiqlar bolalarning estetik zavq-shavqlarini oshiradi. Ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.



## MAQOLLAR

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, mehnatkash kishining biror voqeа-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki,

ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlari, o'yfikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, churroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini oshirishga ko'maklashuvichi vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda bola tarbiyasi, odob yotar ekan. E'tibor bering:

„Avval salom, keyin kalom“, „Avval o'yla, keyin so'yla“, „Bola aziz, odobi undan aziz“, „Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan“, „Odob bozorda sotilmas“, „Odobning boshi til“, „Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l“, „Yaxshi xulq kishining husni“, „Ustozingga tik qarasang, to'zasan, hurmat qilsang, asta-sekin o'zasan“, „To'g'ri o'zar, egri to'zar“.

Bunday iboratomuz maqollar ro'yxatini yana cho'zish mumkin.

Bola to'g'riso'z, odobli, aqli bo'lib kamol topmog'i lozim. Ana shunday bola bor ovoz bilan:

— Ong ko'zimiz ochamiz,  
Tong ko'zimiz ochamiz.  
Boqamiz keng olamga,  
Barchaga teng olamga! —

deydigan bo'ladi. Ularning bu yo'llarida, harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o'rni, albatta, katta bo'ladi.

Bola kamolotida, birinchi navbatda, salom-alik turadi. Salom-alikni o'rgangan, uni kanda qilmaydigan har bir bolaning ishi yurishadi, omadi chopaveradi. Axir xalq, „Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi“, degan hikmatni bekorga aytmagan. Har qanday holatda ham salom og'irni yengil qiladi, oldindagi to'siq va g'oyalarni zabit etishda madadkor bo'ladi.

Ko'plab ertaklarimizda uchraydigan odamzod dushmanlari — devlar, jinlar, yalmog'iz kampirlar, ajdarlar huzuriga odamzod borganda, ularga salom bergenida „Gar saloming bo'Imaganda ikki yamlab bir yutardim“, degan gapni qiladilar. Yuqorida eslab o'tganimizdek, salom-alikni dillariga jo qilib olgan bolalar hech qachon kam bo'lmaydilar.

Inson hamisha biror qarorga kelishi, fikr bildirishi, gapireshi uchun dilidagi so'zining nechog'lik to'g'ri-noto'g'ri ekanligining mag'zini chaqib, so'ngra aytishi lozim. Aksincha, o'ylamay-netmay, og'ziga kelgan gapni aytsa, do'stlari, muallimlari, odamlar o'rtasida izza bo'lib qolishi hech gap emas:

O'ylamasdan so'zlash qanday?  
Menimcha, bu mumkin emas.  
Odam o'ylab so'zlaydi,  
O'ylamasang so'z unmas.  
O'ylamasdan so'zlagan so'z  
Odamni qilar xafa.

Yo'q, bugina emas, quruq valdirayveradigan bola „Quruq so'z qulorra yoqmas“ deganlaridek, o'zini-o'zi hijolat qiladi, el o'rtasida uyatga qoladi:

So'zi lop-lop, havoyi,  
So'zining yo'q mag'iz-moyi.  
Shunday bola so'zin el  
Degan puchak, quruq yel.  
Yoqmas degan qulorra,  
Bormas degan uzoqqa.

Mehnatkish xalq to'g'ri so'zlaydiganlarni, o'rnida gapiradiganlarni bog'bonga va u parvarish qiladigan daraxtga ham qiyoslaydi:

Egri shoxni bog'bon ham  
Kesib tashlar ko'rgan dam.  
Shu sabab to'g'ri o'zar,  
Egri esa ozar, to'zar.

Bunday g'oya bir qator ertaklarda, rivoyatlarda ham ilgari surilgan. Luqmoni Hakim bilan bog'liq „Sukunatning xosiyati“ rivoyati necha asrlardan beri kenja avlod tarbiyasida muhim o'rin egallab keladi:

„Luqmoni Hakim kunlardan bir kuni hazrati Dovudning oldiga boribdi. Dovud odatdagidek,sovut, zirhli kiyimlar tayyorlash, ya’ni temir-tersaklar orasida ishlab o’tirgan ekan.

Luqmoni Hakim dunyoga kelganidan buyon bunday ustaxonaga kirmagan, bunday kiyimlarning tayyorlanishini ko’rmagan ekan. Shu bois bunday zirhli kiyimlar qanday ekanligini, uni kimlar kiyishini so’ramoqchi bo’libdi. Ammo ustoz „Avval o’yla, keyin so’yla“, „Sabr qil — sabrning tagi oltin“, deb o’rgatgan ekan. Shunga amal qilib, sabr qilibdi. Kiyimning tayyor bo’lishini kutib turibdi. Hazrati Dovud kiyimni tayyorlab, kiyib olibdi-da, shodlanib Luqmoni Hakimga shunday debdi:

— Luqmoni Hakim, mana ko’rdingizmi, men sovuq temirdan qanday issiq kiyim tayyorladim. Buni kiyib, bemalol jangga kirib, bosqinchi dushmanning dodini berish mumkin.

Bu gapni eshitgan Luqmoni Hakim: „Sukut qanday buyuk aqlilikdir. Ustozimning aytganini qilib, sukut saqladim-da, qo’pol xatodan saqlandim“, debdi ichida.

Har bir bola ilmli, uquvli, kasb-hunarli bo’lib kamol topishi lozim. Agar inson bunday xususiyatlarga ega bo’lsa, bиринчи navbatda o’zi hayotda qiyalmay, o’zgalarga muhtoj bo’lmay umr kechiradi. Ikkinchidan, bunday insonlar ham o’z oilasini qiyalmay boqadi, ham ona-Vataniga ko’mak beradi. Xalq bejiz bu haqda quyidagi maqollarni to’qimagan:

Bilim — kuchda,  
Kuch — bilimda.

Go’zallik — ilm-u ma’rifatda.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Ilm — aql bulog‘i,  
Aql — yashash chirog‘i.

Ilmlining so’zi — o’q,  
Ilmsizning so’zi yo‘q.

Oltin olma, bilim ol,  
Bilim olsang, bilib ol.

Hunar oshatar, mehnat yashnatar.

Hunari borning oltin bilagi bor.

Xalqimiz mardlarni yoqtiradi. Shu bois u ming yillar jarayonida million marta qayta-qayta sinovdan o’tkazib, bu

haqda ta'sirli, foydali, har bir inson amal qilsa, ibrat olib yashasa, aslo dard qolmasligi mumkinligi to'g'risida yuzlab maqollar to'qigan.

Mehnatkash xalq hamisha yaxshilikka intilgan, kurashgan. O'zidan yaxshi nom qoldirish uchun tinimsiz izlangan, chora topgan, maqsadiga erishgan. Mana bu maqolga e'tibor bering:

Yigit borki, yetti pushtigacha nomi qolar,  
Yigit borki, kunda nomi yo'qolar.

Bu maqolga amal qilib, xayrli ishlarni qilgan, yaxshi, ibratli oila qurgan, ona-Vatan uchun kurashgan, kerak bo'lsa, jangga kirib mardlik, dovyuraklik ko'rsatgan odamning nomi el og'zida doston bo'ladi, tildan tilga, avloddan avlodga, bobodan bobokalonga meros bo'lib o'tadi. Aks holda dong taratish, odamlarning olqish-rahmatiga muyassar bo'lish o'rniga, yomonotliq bo'lib, el-yurt nafratiga uchrab badnom bo'ladi:

„Vatani borning — baxti bor“, „Tug'ilgan yering — vataning“, „Ot aylanib qozig'ini topar“, „Vatansiz inson — kuysiz bulbul“, „Ko'lning otini balig'i chiqarar“, „Baliq suv bilan tirik, odam — el bilan“, „Bulbulga bog' yaxshi, kaklikka tog“, „Har ko'katning o'z suygan tuprog'i bor“, „Har toycha o'zi suv ichgan bulog'ini maqtar“, „Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor“, „Qush ham ketsa keladi, o'z elini sevadi“ va hokazo.

E'tibor bergen bo'lsangiz yuqorida „Tug'ilgan yering — vataning“, degan maqolni tilga olib o'tdik. Demak, insonning tug'ilib o'sgan joyi, ya'ni kindik qoni to'kilgan maskan uning vatani ekan. Shuning uchun bu muqaddas diyorni sevish, e'zozlash, qadriga yetish, uning tinchligi, osoyishtaligi, go'zalligi, obodligi uchun kurashish lozim.

Insonning o'zi, uyi — oilasi, ona-Vatani tinch bo'lsa, bu bitmas-tuganmas shodlik, baxt. Mana shu baxt uchun kurashish g'oyasini kichkintoy qalbiga singdirib borish foydadan xoli bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda quyidagi maqol muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

Ona yurting omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.

Tirik jon borki ovqat yeydi. Ovqat iste'mol qilmaydigan jonzotning o'zi yo'q. Insonlarning oziqasi yer bilan. Yerga

ishlov berish, mehnat qilish orqali g‘alla, sabzavot, ziravor ekinlari yetishtiriladi. Buning uchun hosili yig‘ishtirilib olingan yerni dam olsin, o‘ziga ko‘p kuch to‘plasin, keyingi yilda mo‘l-ko‘l hosil bersin, degan niyat bilan kuzda haydab-chopib qo‘yiladi. Shu ish bo‘lmasa, yaxshi natijaga erishish mumkin emas. Buni bolalar kichikliklaridan bilib olmoqliklari lozimligi „Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda“ maqolida ilgari surilmoqda.

Hayotda kuzatgan bo‘lsangiz barcha jonzotlarning o‘z uyi, ini, uyasi bo‘ladi. Hatto chumolilar, arilar ham o‘z uyasiga talpinadi, topgan-tutganlarini uylariga tashiydi. Qushlarni-ku qo‘yavering. Bir rivoyatda qadim podshoh-lardan biri bulbulning ovoziga xushtor ekan. Yon-atrofdagi maskanlardan birorta ham bulbul topa olmabdi. Nihoyat o‘zga yurtdan bir bulbulni tuttirib kelib, qafasga soldiribdi. Bulbul ozod, erkin qush bo‘lganligi uchun, o‘z uyidan, avlod-ajdodidan judo bo‘lganligi uchun unga shohning berilib parvarish qilishi-yu muhabbat yoqmas ekan. U o‘z elini, qavm-qarindoshini sog‘inganidan yuragi dardga, qonga to‘la ekan. Jonivor qalbidagi dard-alamlarini qo‘sish qilib aytar ekan. Podshoh esa, bulbulning dardli qo‘sish‘ini tinglab rohat qilar ekan.

Oradan yillar o‘tib, bulbul qafasdan asta boshini, so‘ngra tanasini chiqarib olibdi-da, o‘z eli — to‘dasi tomon parvoz qilibdi. Yo‘lda unga shamol duch kelib:

— Bulbuljon, qayoqqa ketyapsan? — deb savol beribdi.

Bulbul unga:

— O‘z uyimga, qavmimga ketyapman, — deb javob qaytaribdi.

— O‘z eling, u yerdagi uylar, dov-daraxtlar, maysazorlarga o‘t ketdi, kuyib vayrona bo‘ldi. Yo‘lingni boshqa tomonga o‘zgartir, — debdi shamol.

— Yo‘q, shamol! Demak, sen hali yurt, vatan, kindik qoning to‘kilgan joy har kim uchun juda muqaddas va mo‘tabar ekanligini bilmas ekansan. Men tug‘ilib o‘sgan go‘sha bo‘stonmi, vayronami, u mening joyim, Vatanim. Men o‘sha vayronani, kultepani deyman! — deb o‘z yo‘lida davom etgan ekan.

Hayotda insonning tanasi sog‘ bo‘lsa, juda ko‘p yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Xalq xuddi shu fikrni ilgari surib: „Sog‘liging

— boyliging“, „Sog‘likda xo‘rlik yo‘q“, „Sog‘ aql — bol aql“, „Boylikning boshi — sog‘lik“, „Bola sog‘ligi — ona sog‘ligi“, „El sog‘ligi — vatan boyligi“, „Tansihatlik — tuman boylik“ kabi maqollarni yaratgan.

Ona-Vatanni bor qiladigan, elni boy-u badavlat qiladigan ham odam. U sog‘lom, esli-hushli bo‘lsa, o‘qimishli, mehnatkash elsevar bo‘lsa, bu Vatan boyligi hisoblanadi. Chunki bunday odam hayotda o‘z o‘rnini topib yashaydi. Agar o‘quvchi bo‘lsa, xushxulq bo‘ladi, maktabda a’loga o‘qiydi, yurish-turishda tengdoshlariga o‘rnak, ibrat namunasini ko‘rsatadi, kichiklarga mehribonchilik qiladi, kattalarning yumushlarini ado etadi. Agar u oilali bo‘lsa oilasiga yaxshi qaraydi. Bolalarining tarbiyasiga e’tibor beradi. O‘zi mehnat qilayotgan joyida o‘z ishining ustasi bo‘ladi. Oila, el, Vatan uchun qayg‘uradigan bo‘ladi. Bunday kishilar yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, vatan boyligi hisoblanadi. Bu sifatlarga ega bo‘limganlar esa na o‘ziga, na oilasiga, na ona-Vataniga foydasi tegmaydi. Ular xor-zorlikka mubtalo bo‘ladilar va quyidagi rivoyatdagi ishyoqmas, dangasa, birovdan qorniga ovqat tilab yeydigan tanbalga aylanib qoladilar:

O‘tgan zamonda bir kambag‘al-qashshoq donishmandning oldiga kelib:

— Otaxon, yeishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q. Juda qiyaldim, nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib „dod“ desam ekan? — debdi.

Donishmand chol:

— Sen kambag‘almisan? — desa, u:

— Ha, bola-chaqalarim ham, o‘zim ham ochman, qiynalib ketdik, — deb nihoyatda zorlanibdi.

Donishmand chol:

— Xo‘p, bo‘lmasa menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray? — desa, haligi yigit:

— Yo‘q, o‘ng qo‘lim o‘zimga kerak, sotmayman, — debdi. Shunda donishmand chol:

— Bo‘lmasa o‘ng ko‘zingni sot, — debdi. Yigit:

— Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, — debdi.

Donishmand chol shu tarzda yigitning tana a‘zolarini birma-bir „sotgin“ deb aytib chiqibdi. Yigit „yo‘q“ javobini qaytaraver-gach, donishmand chol yigitga:

— Ha, to‘rt muchang sog‘ bo‘lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? Kishining tan-joni sog‘ligi — tuman boyligi-ku! „Sog‘ tanda — sog‘ aql“ deb bekorga aytishmagan. Sog‘ bo‘lsang har qanday ishni bajarishga qurbing yetadi, qo‘ling-dan keladi, kuning o‘tadi, — deb javob bergan ekan.

Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to‘g‘rilik hamda rostgo‘ylik ulug‘lanib, yomonlik, yolg‘onchilik va qalloblik qoralanadi.

Yuqoridagi sharhlardan ko‘rinadiki, xalq maqolini qo‘llab, yetti o‘lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo‘lmaydi.

Hozirgi paytda ham maqol janri takomillashib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.



## TOPISHMOQLAR

Qadim-qadim zamonlardan o‘zbek xalqi o‘z bolalarini kuchli, epchil, aqli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. O‘sha paytlarda hali bolalarga ta’lim-tarbiya beradigan maktablar yo‘q edi. Shuning uchun ham xalq turli o‘yinlar o‘ylab topgan. Masalan, „Bekinmachoq“, „Chillak“ka o‘xhash o‘yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo‘la borgan. Xo‘sish, endi bolalarning zehnnini charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o‘yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o‘rtasida topishmoqlar aytish shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun, vaqtini tez o‘tkazishga qaratilganday ko‘rinadi. Aslida esa topishmoqlar fikr qayrovidir, ular orqali bola obrazli fikrlaydigan va obrazli so‘zlaydigan bo‘ladi. Topishmoqlar bolada so‘z boyligining orta borishiga va nutqining o‘sishiga yordam beradi. Bolaga topishmoq topishni o‘rgatish unda fikrlashning asta-sekin yuksalishiga sabab bo‘ladi. Demak, xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri topishmoqdir. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt real vogelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq

o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go‘zal, obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi. Bu janr ikki kishi yoki jamoa o‘rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An’anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman, har bir obyektga badiiy tus berilgan holda obrazlash-tirish, taqqoslash, o‘xshatish orqali jumboqlanganadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan obyekt —narsa yoki tabiat hodisalarning otini aytib berish, ma’nosini topish, yashiringan narsani yechish, bilihdan iborat.

Shu narsa diqqatga sazovorki, har bir topishmoq turmush bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Topishmoqda atrofimizdagи narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urfatlari aks etadi. Shuningdek, tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga katta yordam beradi.

Xalq og‘zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo‘lgan topishmoq ikki qismdan iborat bo‘lib, topishmoqning asosiy qismi bo‘lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obyektnarsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, obyektni badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o‘xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birgalikda bir butunlikni tashkil etadi.

Topishmoq o‘z ichiga borliqdagi hamma narsa va hodisalarni, ularning turli-tuman ko‘rinishlarini qamrab oladi. Osman, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat hodisalari; odam, uning a’zolari; hayvonot dunyosi; qushlar, hasharotlar; daraxt, turli xil o‘simpliklar, meva, sabzavotlar; uy-ro‘zg‘or buyumlari; mehnat qurollari, umuman, hamma narsalar haqida ko‘plab topishmoqlar yaratilgan.

Zero, topishmoq hozirgi vaqtida ham o‘zining g‘oyaviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar, ayniqsa, kichkintoylarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o‘rgatadi.

Yaxshi tarbiya — bolalarni istagan paytda ojizni himoya qilishga tayyor turuvchi insonparvar kishilar sifatida voyaga yetkazishdan iboratdir. Bolalikda bu hayvonlarni himoya qilishdan, hatto ninachilar, kapalaklar va gullarga rahmdil bo'lishdan boshlanadi.

Deylik, deraza oldida ikki bola turibdi. O'g'il bola — ikki yoshda, qiz esa to'rtda. Ular oynaga burunlarini taqagancha ko'chani tomosha qilishyapti. Oxiri ko'chaga qarash jonlariga tegib, oynaga urilayotgan kapalakni tutib olishdi-da, qanotlarini yilib tashlab, uning o'rmalashini tomosha qila boshlashdi. Ularga bu juda qiziq tuyulardi. Avval uchib yurgan edi, endi bo'lsa o'rmalayapti.

— Dada, oyi, — deyishdi ular hayajonlari oshib-toshib. — Bu yoqqa kelib, mana buni ko'ringlar!

Ularning bu o'yiniga dadasingning negadir qaragisi ham kelmadi.

— Kapalakning qanoti ham xuddi sizlarning qo'llaringizga o'xshaydi, — dedi u. — Mabodo kuchli bir odam sizlarni ham kapalakka o'xhatib o'ynaganda yaxshi bo'larmidi? Hech kimning va hech narsaning jonini og'ritmaslik kerak.

Tabiiyki, bolalar nima qilishlarini bilmay, bir-birlariga tikilib qolishadi. Ana shunda ota jahlidan tushib, avval o'zi aytib bergen, bolalarning o'zları o'qigan tabiatni — jonivorlarni, parranda-yu darrandalarni, qurt-qumursqlarni o'ldirmaslik, parvarish qilish, ko'paytirishdek vazifalarni ularning eslariga solsa va shu yo'sinda jozibali topishmoqlar aytishni boshlab yuborsa, ayni muddao bo'ladi.

Uy hayvonlari, jonivorlar orasida hamma uchun yaqini, suyuklisi, e'zozlisi sigir hisoblanadi. Har qanday holatda ham sigir oila boquvchisi, yordamchisi hisoblanadi. U parvarish qilinsa, o'z vaqtida o't-yemi berib turilsa, sut-u qaymoq bilan mehmon qilaveradi. Uning haqidagi topishmoq ham juda hayratlanarli:

Erta ketar laylixon,  
Kechda kelar laylixon,  
Turli-tuman bog'chalardan,  
Yig'ib kelar laylixon.

Bolalar uchun hayvonlar ichida qiziqarlisi tuyu hisoblanadi. Bizning elimizda tuyu o'troq hayvonlardan bo'lishiga qaramay, bu jonivor hamisha bolalarni o'ziga rom qilib keladi. Uning

tuzilishi, o'rkachlari, tuyoqlari, og'zidan oq ko'pik chiqarishi, yantoq yeishi, suvsiz, o'tsiz bir qancha vaqt hayot kechirishi, kuch-quvvatda tengsizligi xalq tomonidan to'plangan ko'plab topishmoqlarda o'z aksini topgan. Tuyalar to'g'risidagi har qanday topishmoqni bolalar zo'r mammuniyat bilan tinglaydilar va zukkolik bilan yechadilar:

— Bir qiziq hayvon,	Bo'yni kamalak,
Yelkasida tog'.	Yemishi yantoq.
Fil emas, ammo	Yurar sahroda
Izlari yalpoq.	Haftalab chanqoq.
Ipakdek mayin	Top-chi, Ruqiya,
Junlari yumshoq.	Bu nima?

— . . .

Bolalar, ayniqsa, o'g'il bolalar otni yaxshi ko'radilar. Ular hamisha ot boqish, uni parvarish qilish, cho'miltirish, minish, o'z chavandozliklarini ot poygalarida, uloqlarda namoyish qilish fikri bilan yashaydilar. Shu ma'noda ot haqidagi mana bu jumboqni ham osongina yechib oladilar:

To'rt oyoqlik,  
Temir tuyoqlik.

Uy hayvonlari va jonivorlari ichida qo'y o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U nihoyatda nozikta'b bo'ladi. O't-yemni haddan tashqari saralab yeydi. Hatto har qanday o't-maysani bir tishladimi, tamom, ikkinchi marta unga qayrilib ham qaramaydi. Bu xususiyat quyidagi topishmoqda o'z aksini topgan:

Kishi ko'rsa kishnamas,  
Yerdan cho'pni tishlamas.

Topishmoq-jumboqni hamisha aqli, esli-hushli, bilimdon, dono bolalar yecha oladilar. Chunki har bir topishmoqda kishini o'ylantiradigan, chuqur xayolga, o'yga boradigan jihatlar mavjud bo'ladi. Yo'lbars to'g'risida to'qilgan quyidagi topishmoq xuddi shu haqda bahs yuritadi:

Man-man, maniki,  
Har tirnog'i o'n ikki.  
Qildan ola to'ni bor,  
Quyrug'ida xoli bor.  
Uni topgan yigitning  
Aqlining koni bor.

Parranda va qushlar haqida yaratilgan minglab topishmoqlar bolalarni har doim o'ziga tortib keladi. Bular orasida xo'rozning xatti-harakati, o'zini tutishi, qanotini qoqib, bo'yini cho'zib „qu-qu“ deyishi qaysi bolaning fikrini o'ziga tortmagan deysiz:

Bir qo'shni bor avval boshdan,  
Soqoli uning qizil go'shtdan.  
Faqat turib shovqin solar,  
Xabari yo'q hech bir ishdan.

Mehnatkash xalq tomonidan to'qilgan ayrim ertaklarda, rivoyatlarda jonivorlarning kulgili tomoni ochib beriladi. Bir rivoyatda to'rt xil jonivorning hayotda qo'rkoqligi kulgiga olinganligini ko'ramiz. O'shalardan birinchisi — chittak qush osmon yiqilib ketishidan qo'rqiб, oyog'ini osmonga ko'tarib yotadi; ikkinchisi — laylak ikki oyog'ini qo'ysa yerga botib ketishidan qo'rqiб doim bittasini ko'tarib turadi; uchinchisi — chuvalchang ko'p loy yesam yer tugab qoladi, deb qo'rqiб och yuradi; to'rtinchisi — ko'rshapalak inson uning go'zalligiga mastun bo'lishidan va boshqa qushlar kabi tutib qafasga solishidan qo'rqiб kunduzlari uyasidan chiqmaydi.

Ana shular orasida laylak bolalar qalbiga yaqin turadi. Xalq qo'shiqlarida, ertak, rivoyatlarida go'yo u bahorni, yozni boshlab keladigan qush sifatida qaraladi.

Laylak keldi yoz bo'ldi,  
Qanoti qog'oz bo'ldi,  
Laylakjonning kelishi,  
Biz bolalarga soz bo'ldi, —

qo'shig'ining bolalar orasida hamisha avj pardasida bo'lishining sababi ham ana shunda. Laylak haqida yaratilgan quyidagi topishmoqda keltirilgan jumboqni bolalar hech qiyalmay yechib oladilar:

Uzun-uzun yelgan qush,  
Inda yotgan ilonni  
Pol ko'rganda bilgan qush.  
Bo'ynin quloch uzitgan.  
Tumshug'i bilan putini  
Qaysi avliyo qizartgan.

Biz yuqorida topishmoqlarning mavzusi juda rang-barang ekanligini aytgan edik. Buni ari, kapalak, chigirtka, qo'ng'iz,

chayon, chumoli, o'rgimchak, pashsha, chivin misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ular orasida kechasi-yu kunduz ishlab charchamaydigan, o'zaro ahil chumolilarga bag'ishlangan topishmoqlar fikrimizga asos bo'ladi:

— Yerdagi jonivorlarning,  
Eng kichigi, mittisi.  
Dalaga chiqar uydan,  
Kelsa bahorning isi.  
Tizilishib barchasi,  
Mehnatga tushar shaxdam.  
Tashir ushoq, don-u has.  
Zahmatkashdir, bilmas dam.  
Yashash zavqin mehnatdan,  
Ekanligin biladi.  
O'ng-u so'lga yugurib,  
Tolmay mehnat qiladi.

Xalq topishmoqlari orasida inson a'zolariga bag'ishlangan ko'plab topishmoqlar kichkintoylar quvonchiga quvonch qo'shib kelmoqda. Shu narsa ham jozibaliki, chevar xalq o'zi to'qigan asarida inson a'zolariga alohida urg'u beradi. Har bir a'zoning inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishini pardoz-andozi bilan tinglovchi ongiga yetkazadi. Ana shunday a'zolardan biri — tish topishmoqda yuksak darajada ta'rifga ega:

Biz-biz edik, biz edik,	Shuni topgan bolaning
O'ttiz ikki qiz edik.	Yuz yigirma ikki yoshi.
Ikki safga tizildik,	Bir uychada turadi,
Birin-ketin uzildik.	O'ttiz ikki pahlavon.
Shov tegrimonning toshi,	Birdek kiygan libosi,
Oltin egarning boshi.	Birdek ahil-jonajon.

Topishmoq janri yozma adabiyotning rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Chunonchi, u Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Qudrat Hikmat, Anvar Obidjon va boshqa qalamkashlar tomonidan yaratilgan nazm va nasrda o'z ifodasini topgan.

Masalan, G'afur G'ulom „O'yashni o'rganamiz“, „Buni toping, qizlarim“ asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganligini ko'ramiz. „Buni toping, qizlarim“ topishmoq asari kichkintoylarning ong, tushuncha, fikrlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

— To‘ni silliq, tuki yo‘q.  
Hammasi to‘q, po‘ki yo‘q,  
Ichi qizil, ko‘ki yo‘q,  
Uni cho‘qolmas chumchuq,  
Bu nima, qizim Qunduz?  
— Bumi, dadajon? (Taruvez).

— Marjon-marjon yumaloq,  
Yaproqlari shapaloq,  
Qora, qizil, sariq, oq,  
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab boq.  
Sen ayt, Mamlakat qizim.  
— Bumi, dadajon? (Uzum).

— Malla tukli, sap-sariq,  
Murabbosi mazalik.  
Palovga bossa bo‘lar,  
Omborga ossa bo‘lar.  
Tishlab ko‘rib, ayt, Mehri,  
— Bumi, dadajon? (Behi).

Mayda yoqutday qizil,  
Shirin, nordon, xilma-xil,  
Qalin, taxir po‘sti bor,  
Hamma yerda do‘sti bor,  
Sen ayt-chi, qizim Gulnor.  
— Bumi, dadajon? (Anor)

Yuqoridagi sharhlardan ko‘rinadiki, bola topishmoqsiz o‘smaydi. U kattalar, bolalar davrasida ko‘plab fikrlar qayrovi — jumboq tinglaydi, o‘zi ham qatnashadi va yechadi. Bu esa uning kelajakda o‘ziga pishiq-puxta, aqli, zakovatli inson bo‘lib kamol topishi uchun mustahkam zamin bo‘ladi.



## TEZ AYTISHLAR

Insoniyat odobining va odamiylik asosining ulug‘ qasri ustunlaridan biri — so‘zlash va nutqning qimmatbaho gavharini muloyimlik va odob parmasi bilan teshmoq hisoblanadi. Insoniyat kamoloti va bilimining baland martabalaridan biri chiroyli gapirish va chiroyli so‘zlash bo‘lib, bu bog‘ning guli ilk bahoristonning nasimi bilan ochiladi. Yunon hakimlarining aytishlaricha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir va har kimsaning bilimi miqdori uning so‘zları orqali ma’lum bo‘ladi. Inson yuragidagi fikrini, yutuq va quvonchini, dard va alamlarini o‘zgalar bilan dardlashishi, baham ko‘rishi lozim. Chiroyli, burro, dona-dona qilib gapirish ham bir mahorat, san‘at hisoblanadi.

Xalqda chaqaloq olamga kelishi va unga parvarish ishlari boshlanishi bilanoq ota-onas, buvi-bobolar, birinchi navbatda, uning ko‘zi, tiliga ko‘proq e’tibor beradilar. Ko‘zlarining nurafshon, tilining burro bo‘lishi uchun bor kuch, mahoratlarini ayamaydilar. Inson gapirmsa, soqov bo‘lsa, bu juda og‘ir, mushkul savdo hisoblangan. Shunga ko‘ra qadim-qadim

zamonlarda bolaga alla-qo'shiq aytishda onalar bu haqdagi ezgu niyatlarini quyidagi kabi misralarda ifoda etishgan:

Uyingga bug'doy to'lsin,  
Tiling ham burro bo'lsin,  
Alla, bolam, alla-yo,  
Jonim bolam, alla-yo.  
Ko'rар ko'zim, alla-yo,  
So'zlar so'zim, alla-yo!

Xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va muhim janrlaridan biri tez aytish bolaning tilini ravon, burro qilishidan tashqari, aqliga aql qo'shadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, o'zini qurshab olgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Boshqacha ibora bilan aytganda, yangi avlod har gal o'zidan avvalgi avlodlar kashf etgan narsalarni hisobga oladi, o'zlashtiradi. Bu yo'l, shubhasiz, boshqalariga qaraganda oqilona, foydali, porloq kelajak yo'lidir.

Tez aytishni qayta-qayta mashq qilish, berilgan matnni osongina dilga, tilga jo qilib olish har tomonlama foydalidir. So'z o'yini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zamirida bir nechta vazifalar yotadi. Shulardan birinchisi qayta-qayta mashq qilish, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo'ladi. Bularning hammasi yig'ilib kelib bola tarbiyasiga bog'lanadi. Bola olamga kelishi bilanoq uni kelajakda komil inson bo'lib o'sishi uchun mana shunday chora-tadbirlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Bu ish kechiktirilsa, natija chiqmay qolishi mumkin. Zero, butun hayoti va ijodini inson salomatligiga qaratgan Ibn Sino ham buni qattiq ta'kidlaydi:

„Yigit bilan qiz turmush qurishibdi. Oradan to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat-u to'qqiz daqqa o'tgach, farzand ko'rishibdi.

— Bolamizni qanday tarbiya qilamiz? — debdi xotini eriga.

— Uni shunday tarbiya qilaylikki, katta bo'lganda el-yurtiga foydasi tegadigan bo'lsin, — debdi eri.

Xotini ham:

— To'g'ri aytasiz, men ham shuni o'ylab turgan edim. Yaxshisi, ustoz Ibn Sinodan so'rab ko'raylik-chi, u kishi nima derkin, — debdi.

Bu gap eriga ham ma'qul tushibdi. Er-xotin bolani ko'tarib, Ibn Sinonikiga kelishibdi. U kichik bir kulbada yashar, shunday bo'lsa-da, dong'i olamga ketgan ekan.

Ibn Sino ularni yaxshi kutib olibdi, nima ish bilan kelganliklarini so'rabdi.

— Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz. Toki katta bo'Igach, el-yurtga foydasi tegadigan kishi bo'l-sa, — deb so'rabdi.

— Qachon tug'ildi? — deb so'rabdi Ibn Sino.

— Ertal bilan tug'ildi, — deb erining o'rniga xotini javob beribdi.

— Ey bolalarim, — debdi Ibn Sino, — bola erta tongda tug'ilgan ekan, hozir choshgoh bo'ldi, kechikibsizlar. Bola tug'ilishi bilan uning tarbiyasi haqida qayg'urish kerak edi“.

Ko'riniib turibdiki, bolaning sog'lig'i, es-hushi, shu bilan birga nutqiga ham jiddiy munosabatda bo'lish zarur. Tez aytish oddiy, sodda, bolaga tanish misollar vositasida amalga oshiriladi. Novvoylar haqidagi tez aytishlarga e'tibor bersak, ularda novvoylarning mehnatlari ancha jiddiy, o'ta mas'uliyatli ekanligi ta'kidlanadi. Chunki bu yerda tayyorlangan mahsulotni odamlarga manzur qilish lozim. Shu sababli novvoy xamirga qayta-qayta ishlov beradi, tuz-namagini raso qiladi, tandir harorati ham me'yorida bo'lishi talab etiladi. O'shandan keyin yopilgan nonning obi-tobida bo'lishi o'ta sergaklik bilan kuzatiladi. Nonning kuyib ketmasligi, xom bo'lib qolmasligini payqay bilish ham katta mahoratdir. Mana shu vazifalarni a'lo darajada ado etgan novvoy o'z mahoratini har qancha ko'z-ko'z qilsa, maqtasa arziyi:

Novvoy non yopar,  
Nonni novvot deb sotar, —

kabi tez aytishlar shu asosda yuzaga kelgan.

Asal eng shifobaxsh, hamma birdek suyib iste'mol qila-digan taomlardan biri. Ko'pchilik bolalar asal qanday qilib paydo bo'lishini bilmaydilar. Unga bag'ishlangan quyidagi tez aytishda asal bunyodkori — asalarini boqish, parvarish qilish tufayli bu mahsulot paydo bo'lishi haqida gap ketadi:

Mamadali, Asadali, Asqarali  
Boqishadi asalari,  
To'plagani asal bari.

Kichkintoylar uy jonivorlarini, ayniqsa, mushuk, kuchuk, buzoq, uloq, qo'zichoqlarni xush ko'rishadi. Bular haqidagi topishmoqlarni jon-dillari bilan tinglashadi hamda o'zлari ham takror-takror aytishadi. Quyidagi kabi tez aytishlar ularning qalblarida bir umrga muhrlanib qoladi:

Yosh mushuk,  
Mosh mushuk.  
Mosh mushuk,  
Bosh mushuk.

Mehnatkish xalq o'z ijodida hech narsaga befarq qaramagan. Hatto insonning kiyim-kechagi, boringki, dastro'mol-u sochiqlar to'g'risida ham munosabat bildirgan. Qarang, „Sodiq sochini sochiqqa artdi“. Bu tez aytishga asos bo'lgan narsa, bиринчи navbatda, inson yuvinib-taranib, pokiza bo'lib yurishi lozim. Ikkinchidan, o'zi tutadigan buyum ham risoladagidek bo'lmosg'i kerakligi tez aytishda ko'zga tashlanib turibdi.

Odamzod ota-onas, buvi-bobolar yordami, ularning aytib beradigan alla-qo'shiq, maqol, masal, topishmoq, ertaklari bilan kamol topadi, o'sadi, ulg'ayadi. Odob, o'qish, kasbhunarni egallah ham shu zaylda kamolot cho'qqisiga ko'tariladi. Inson qanchalik og'ir-bosiq bo'lsa, u hamisha ezgulik sari intilsa, kurashsa, kam gapirib ko'p o'qisa, o'rgansa, o'z sohasining yetuk kishisi bo'lsa, u baxtiyordir. Ana o'shanda xalq to'qigan quyidagi tez aytish ham zoye ketmagan bo'ladi:

Ko'p so'zning ozi yaxshi,  
Oz so'zning o'zi yaxshi.

O'zbekistonning yerosti va usti boyliklari juda ko'p. Biz bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi. Marmar toshimizning sifati, chidamliligi, ko'rkamligi jahonga mashhur. Shu mavzuga bag'ishlangan tez aytish bolalarda ona-Vatanimiz boyligiga faxr hislarini yanada jo'sh urdirib yuboradi:

G'ozg'onning marmari jahonga mashhur,  
Bizning g'ozg'onchilar shuning uchun mag'rur.

Tez aytish bolalarda aqliy o'tkirlikni tarbiyalaydi. Masalan, „O'ktam ko'm-ko'k, ko'rkam ko'klam rasmini ko'm-ko'k qalamda chizmoqchi“, „Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir“.

Xalq og‘zaki ijodida alliteratsiya hamda muayyan tovushlar takrori asosiga qurilgan tez aytish namunalari she’riy shaklda ham yaratiladi:

Sora allalaydi,  
Lola arralaydi.

Non yasashasansi?  
Sholi sanashasanmi?

Shunday qilib, tez aytish bolalarni biyron so‘zlashga o‘rgatib, ularga estetik zavq-shavq bag‘ishlab, tillarini burro qilib, fikr va qobiliyatlarini, xotiralarini mustahkamlaydi.



## MASALLAR

---

Kichkintoy tarbiyasi juda muhim va o‘ta mas’uliyatlari ishlardan hisoblanadi. Buning uchun bolalarni o‘z tuyg‘u va o‘y-xayollari dunyosiga olib kirish lozim. Bu yo‘lda ota-onaga, buvi-boboga, tarbiyachiga masal juda qo‘l keladi.

Masal bola aqlining rivojiga, qiziqishiga imkoniyatlar ochib beradi. Ular yordamida bolalarning go‘daklik chog‘laridanoq adolatparvarlik, do‘slik, o‘rtoqlik tuyg‘ularining shakllanishi, tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbatlarining oshishi uchun keng yo‘l ochiladi. Bolalar har bir masaldagi yaxshi-yomonni, gunoh-savobni bilib, mag‘zini chaqib, tushunib o‘sadilar. Bu esa, ularning kelajakda oqko‘ngil, mehnatkash, ota-onaga, ona-Vatanga, hayvonot olamiga muhabbatli bo‘lishlari uchun ko‘prik vositasini ado etadi.

Masal eshitib, tinglab o‘sgan har bir inson kelajakda, albatta, o‘ylab, chamalab, aql bilan ish ko‘radigan, qissadan hissa chiqaradigan bo‘ladi. Masallar ko‘proq hayvonlar, jonivorlar, parranda-yu darrandalar, o‘t-o‘lanlar misolida bo‘ladi. Vaqt kelganda bular ustidan kulinadi, xulosalar chiqariladi. Masallar, og‘zaki, yozmada nasr va nazmda bo‘ladi. Masalda ko‘pincha axloqiy-ta’limiy fikr va ma’nolar ifodalangan bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodining bu janri ham alla-qo‘sish, topishmoq, maqol, ertak kabi insoniyatga xizmat qiladi, o‘sib-ulg‘ayib, komil inson bo‘lish uchun yordam beradi. Zero, insonni hayvondan ajratadigan sifatlardan birinchisi aql, odob, tarbiya, so‘zlash quvvati va tildir. Inson aqli, zehni bilan yaxshi va yomonni, foyda va zararni ajrata oladi. Aql — inson rohatining madoridir.

Bir donishmand „Aqling bilan qara, ko‘z xoindir, qalbing bilan eshit, qulqoq yolg‘onchidir“, degan ekan. Inson bir ishga kirishar ekan, eng avval shu ishni aql kabiadolat o‘lchovida o‘lchab, keltiradigan foyda yoki zararini o‘ylab, so‘ngra shu ishga harakat qilishi lozim. O‘zi uncha tushunmagan ish haqida uni yaxshi tushunadigan mutaxassis maslahatini olish tavsiya etiladi.

Go‘zal xislatlar komillikning bir nishonasidir. Go‘zal axloq ham aqlning kamolga erishganidan dalolat beradi. Bir majlisda hech kimga so‘z bermay, ezmalik qilib so‘zlay bermaslik, johil va nodonning so‘zlariga sukut bilan javob berishlik inson uchun g‘olibiyat va sadoqat bo‘lib, buning aksi esa pushaymonlik va tubanlikdir.

Hayotda beaql, o‘ylamay, o‘ziga o‘zi xulosa chiqarmay yashaydigan odamlar ham bor. Ayniqsa, do‘s-t-o‘rtoq tanlashda tag-tubini so‘rab-surishtirmay, kasb-korini bilmay, fe‘l-atvorini o‘rganmay turib do‘s bo‘ladiganlar, albatta, quyidagi rivoyatda aks ettirilganidek, o‘zini o‘zi nobud qiladi, halok bo‘ladi:

Bir bog‘bonning tog‘ yaqinida g‘oyatda dilkusho bog‘i bor edi. Dehqon o‘sha bog‘da umr kechirardi. Bir kuni zerikib bog‘dan tashqariga chiqdi, tog‘ etaklarini tomosha qilib yurdi, shu vaqt yuksak tog‘lardan quyiga tushgan bir ayiqqa duch keldi. Ular bir-birlariga ulfat bo‘ldilar. Ayiq o‘sha dehqonning suhbatiga ko‘ngil berdi, u bilan birga bog‘ga keldi, shirin mevalardan yeb do‘sligi mustahkam bo‘ldi.

Mabodo dehqon soya-salqin joyda dam olib uxbab qolsa, ayiq uning yonida o‘tirib, pashshalarini qo‘rirdi. Bir kun bog‘bon uxbab, ayiq pashshalarini qo‘rib o‘tirgan edi, pashshalar dehqonning yuz-ko‘ziga hujum qilishdan to‘xtamadilar. Bir tarafdan quvlasa, ikkinchi tomondan yopirildi. Ayiq ularning hammasini birdaniga o‘ldirish fikriga tushdi. Pashshalar dehqonning yuz-ko‘ziga yopirilib qo‘ngan vaqtini poylab turib, dehqonning boshiga xarsang tosh bilan bir tushirdi, dehqonning boshi majaqlanib ketdi. Pashshalarga ziyon yetmadni, ular uchib ketdilar.

**Hissa:** Nodonning do‘sligi ham ayiqning do‘sligiga o‘xshash bo‘ladi. Har kim nodonni o‘ziga do‘s, ulfat deb hisoblasa, dehqonning holiga tushishi mumkin.

*Bayt:*

Al'amon, yuz al'amon, nojinslardan al'amon,  
Yaxshi ulfatlar bilan bo'lg'il hamisha, ey javon!

Inson oddiy, sodda, o'z ishiga pishiq, puxta bo'lsa, kattayu kichiklarga, jonivorlarga mehribon, rahmdil bo'lsa, uning hayotda obro'-e'tibori olamcha bo'ladi. Aksincha, takabbur bo'lsa, odamlarni ranjitsa, dillariga ozor beradigan bo'lsa, jonivorlarga rahm-shafqat qilmasa, tez orada jazosini tortadi. Xalq bunday takabbur, faqat o'z mansaatini o'ylab ish ko'radiganlarni xush ko'rmaydi. Bunga yorqin misol „Kalila va Dimna“dagi mana bu masaldir:

„Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jadallik bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoldi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

— Ey dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir burchakdan bir ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir damda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan „Dilozorning jazosi ozor ekan“, degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt bir tarafdan tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib, g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogoh bir och tulki kelib qoldi. Tipratikan nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'anatib qorniga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli, deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shashib, qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. Shu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko‘rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o‘q bilan uni jo-bajo qildi. Qoplondonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o‘tib qoldi. Unga qoplondonning terisi yoqib qolib, ovchi bilan urisha boshladи. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplondonning terisini olib yo‘lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan edi, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, u shu on halok bo‘ldi“.

Bolalarga shunday ta’lim-tarbiya berish kerakki, ular o‘sib-ulg‘ayganlaridan keyin aslo kibr-havoga berilmasliklari, maqtanchoq bo‘lmasliklari lozim. Ochko‘zlik, tamagirlilik, maqtanchoqlik, o‘zini katta tutish yaramas odatlardan hisoblanadi. Kimki shu yo‘ldan borsa, albatta, u el-yurt o‘rtasida obro‘-e’tiborini yo‘qotadi, xorlig-u zorlik bilan halok bo‘ladi.

Hammaga ma‘lumki, chumoli juda mehnatkash bo‘ladi. U kechasi-yu kunduzi harakatda bo‘ladi, ishlaydi. Uning o‘zgalar bilan suhbatlashishga, dam olib o‘tirishga vaqt yo‘q. U hamisha shoshiladi. „Qish g‘amini yozda ye“ maqoliga qat’iy amal qiladigan chumoli o‘ziga oziq-ovqat qidiradi, topadi, uyiga tashiydi, sudraydi.

Chumoli ertani o‘yaydi, ovqat yig‘adi. Bu bilan o‘z uyida bolalarining, keksalarning, yordamga muhtoj bemorlarning qornini to‘ydiradi. Ari esa uning teskarisi. U ochko‘z, maqtanchoq, surbet. Hoziri-yu huzuri qabilida ish ko‘radiganlardan. Kunlardan bir kuni arining ko‘zi zo‘r mashaqqat bilan iniga don sudrab borayotgan chumoliga tushib qoladi. Yengiltak, maqtanchoq, tamagir, surbet ari:

— Ey, chumoli! O‘zingni bu qadar azobga qo‘yishingdan nima foyda? Bu ishni ne sababdan ixtiyor qilding? Mening hayotim, yemish-ichishimga qarab ish tutsang bo‘lmaydimi? Podsholar dasturxonidagi har qanday taom mensiz yeyilmaydi. Shamolni minib uchaman, istagan yerga qo‘naman, nayzamni yovning jigariga sanchaman. Xullas, nimani ko‘nglim tilasa shuni yeypman, — dedi.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, bunday maqtanchoq, bosar-tusarini bilmay qolganlar, odatda, hayotda qoqiladilar. Yo halok bo‘ladilar, yoki xalq orasida obro‘-e’tiborlarini yo‘qotib yolg‘izlanib qoladilar. Maqtanchoq, o‘ziga ortiqcha erk bergen, chumolining ustidan kulgan ari bir parvoz bilan

to‘g‘ri qassobning do‘konidagi mixga osib qo‘yilgan go‘shtga qo‘ndi. Qassob qo‘lida pichog‘i bilan uni mo‘ljalga oldi va nimtalab tashladi. Shu yerda poylab turgan chumolilar esa uni sudrab ketdilar.

Bolalarni shunday tarbiyalash lozimki, ular kelajakda sog‘lom fikrli, halol, pok inson bo‘lib o‘sxinlar. Qachonki, bola ishlamay, peshana teri to‘kmay topilgan narsadan hazar qiladigan, o‘zgalar mol-mulkiga ko‘z olaytirmaydigan bo‘lib voyaga yetsa, kelajakda haqiqiy inson bo‘ladi. Demoqchimizki, bola mehnat qilib, mehnatga ko‘maklashib o‘ssin. Axir mehnat insonga baxt-saodat keltiradi. Yalqovlik va ishsizlik esa falokat girdobiga yetaklaydi.

Bir masalda baliqchi tutgan baliqlarini uyiga olib kelar ekan, bir zolim yo‘lto‘sar uning baliqlarini tortib oladi va uradi. Baliqchi bunday duo qildi: „Yo rabbiy, meni zaif, uni quvvatli qilib yaratdingki, u menga zulm qildi. Maxluqotingdan birini unga ro‘para qil, toki butun olam undan ibrat olsin. Yo rabbiy, sen har narsaga qodirsan!“

Zolim baliqlarni pishirib yeyayotgan paytda tomog‘iga qiltanoq tiqildi. Nafas ololmay qoldi. Tabiblarga yugurib davo topolmadi. Kechga yaqin Allohga yolvordi. Zolim tushida „Falon odamning haqini berasan, shundan so‘ng xastalikdan qutulasan“ degan nidoni eshitdi. Uyg‘onar-uyg‘onmas, shoshilib baliqchini qidirib topdi. Unga ming dirham berib halollahdi. Allohning izmi bilan xastalikdan qutuldi.

*Bayt:*

Mehnat ila hal bo‘ladir har mushkul,  
Komi dil mehnat ila bug‘doy hosil.

Jamiki jonzot o‘ziga do‘st, o‘rtoq, hamkor qidiradi. Do‘stga butun ixtiyorini beradi, sirini, yurak dardini aytadi. Do‘stga ishonib, unga suyanib, undan ko‘mak olib yashaydi. Kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini beradi. Do‘stlikning qoidasi, sharti shunday. Arslon bilan kuchuk voqeasiga bag‘ishlangan bir asarda do‘stga sadoqat, vafodorlik nafaqat odamlar o‘rtasida, balki hayvonlar orasida ham borligini ko‘ramiz.

London hayvonot bog‘ida tomoshabinlardan pul yoki yirtqichlar uchun yemish sifatida it, mushuk olinar edi.

Bir odam hayvonlarni ko‘rmochchi bo‘ldi va ko‘chadan bitta kuchukchani tutib keltirdi. Haligi odamni tomoshaga kir-gizishdi, kuchugini esa yemish o‘rnida arslonga tashlashdi.

Kuchukcha dumini qisgancha qafas burchagiga borib suykaldi. Arslon unga yaqinlashib, hidlab ko'rdi.

Kuchukcha chalqancha yotib panjasini ko'tardi va dumini likillatdi. Arslon unga panjasini qo'yib, ag'dardi.

Kuchukcha sakrab turib, arslonning oldida orqa oyoqlari bilan tikka turdi. Arslon kuchukka tikilib qoldi, kallasini o'girib, atrofga alangladi va o'ljasiga tegmadi.

Xo'jayin qafasga go'sht tashlagan edi, arslon bir bo'lagini uzib olib, kuchukchaga berdi.

Kechqurun arslon uqlash uchun yotganda kuchukcha uning yoniga cho'zilib, kallasini panjasiga qo'ydi.

Shundan buyon kuchukcha arslon bilan bitta qafasda yashay boshladi, arslon unga tegmadi, yemishini yeb, kuchukcha bilan birga uxlari, birga o'ynar edi.

Bir kuni bir janob tomoshaxonaga kelib, kuchukchasini tanib qoldi, u kuchukcha o'ziniki ekanini aytib, xo'jayindan qaytarib berishni so'radi. Xo'jayin qaytarmoqchi bo'ldi, ammo kuchukchani arslon qafasdan chiqarmadi.

Shunday qilib, yil bo'yi arslon bilan kuchukcha bir qafasda yashadi.

Keyingi yili kuchukcha kasal bo'lib, o'lib qoldi. Arslon yemishga ham qaramas, kuchukchaga panjasini qo'ygancha hidlagani-hidlagan edi.

Arslon kuchukchaning o'lganini bildi-yu, junlarini hur-paytirib sakradi, dumi bilan o'zini savalay ketdi, qafas devoriga urildi va polni, eshik zulfini g'ajiy boshladi.

Arslon uzzukun o'zini qafasga urib, na'ra tortdi, so'ng jonsiz kuchukcha yoniga cho'zilib, jimb qoldi.

Xo'jayin arslon dardini unutar deya qafasga boshqa kuchukchani qo'yib yubordi, ammo arslon uni shu zahoti tilka-pora qilib tashladi. Keyin o'lik kuchukchani panjalari bilan quchoqlagancha besh kun qimirlamay yotdi-da, oltinchi kuni u ham o'lib qoldi.

Bu hikoyada arslon haqiqiy do'stlik yo'lini tutdi, chin do'stlik namunasini ko'rsatdi. Quyidagi eshak bilan ot haqidagi masalda esa buning teskarisini ko'ramiz. Do'st, hamkorning iltimosi, iltijosi, yalinib-yolvorishiga qulq solmagan otning ahvoliga endi maymunlar ham yig'laydigan bo'lganligi afsuslanarlidir.

Bir boyning bir-birlariga yaqin, do'st, hamfikr, yelkadosh, safdosh bir oti bilan eshagi bor edi. Bir kuni ular yo'lda ketar ekanlar eshak otga shunday debdi:

— Do'stim, sog'lig'im yaxshi bo'lmay qoldi, boz ustiga yelkamdag'i yuk ham juda og'ir. Bu ahvolda manzilga yetib bora olmayman, yukimdan ozginasini ol.

Ot do'sti eshakning yalinib, yolborishiga qulq solmabdi. Eshak sog'lig'ining yomonligidan, yukning og'irligidan yiqlib tushib, o'lib qolibdi. Sohib eshakning bor yukini, qolaversa, uning terisini ham otga ortib qo'yibdi. Ot faryod ko'taribdi:

— Uh, sho'rim qurisin men bechoraning! Holimga voy men badbaxtning! Do'stimga ozgina ko'maklashgim kelmagan edi, endi bo'lsa, bor yukini, qolaversa, uning terisini ham ko'tarib ketyapman. Uh!..

Inson olamga kelar ekan, o'qishi, ilm olishi, kasb-hunar egasi bo'lishi lozim. Agar inson o'qimasa, o'rganmasa, bilmasa, hayotda moddiy va ma'naviy tomondan qiynalib, bir parcha nonga zor bo'lib, xaroblikda umr kechiradi.

Hatto kasb hisoblanmasa-da, u o'tinchi bo'lsa, o'tin yig'ib, tashib, sotib bola-chaqa boqib yursa-yu, shu ishni ham tark etsa, bunday insonning tirikchiligi o'tmay qoladi, bola-chaqasini boqishga qurbi yetmay sarson-sargardon bo'lib ishsiz qoladi, ochlik, yupunlikka giriftor bo'ladi. O'tmishda ikki qalin do'st o'tinchilik qilishar, o'tinni eshakka yuklab shaharga olib kelib sotishardi. Ular shu tariqa halol tirikchilik qilib kun kechirardilar. Ikki do'st qora kunlari uchun biroz pul ham jamg'arib qo'yishdi. Kunlardan bir kun o'z kasbining qadriga yetmagan, farosat bobida no'nogroq ikkinchi do'st birinchisiga dedi:

— Og'ayni, odamlarga bir nazar tashla, hammasi jon koyitmasdan rizqini topib yuribdi. Nega biz o'zimizni bunchalik qiyaymiz. Kel, bundan ko'ra boshqa biron osonroq, zahmatsiz ish bilan shug'ullanaylik.

Aqli va tajribali og'ayni shunday deb javob berdi:

— To'g'ri aytasan, hamma odam o'z rizqini topib yuribdi. Lekin har kim o'z kasb-hunari bilan mashg'ul. Shuning uchun hayotimiz bir yo'sinda, tartibli o'tayotir. Biz odamlarga o'tin yetkazib beramiz. Ular bizga non tayyorlab berishyapti. Mabodo, biz o'z kasbimizni tashlasak, bundan ming bad og'ir kunlarga giriftor bo'lamiz.

Johil o'rtog'i o'z donishmand og'aynisining bu hikmatona gaplariga qulq solmadi. Eshagini sotib, pul jamg'armalarini oldi-yu, kasb-kor axtarib bozorga yo'l oldi. Biroq hech qanday kasb-kordan xabari bo'limgani uchun tez kunlarda bor pullarini sarf qilib, nochor ahvolga tushib qoldi. Uning o'rtog'i esa avvalgidek o'z kasb-korini qilar, o'tinlarini sotib, asta-sekin pul to'plardi. U kasb-hunar o'rganishga ahd etib uzoq tahsil ko'rdi, mohir kosib bo'lib elga tanildi.

**Hissa:** Hech bir inson o'z kasb-koridan shikoyat qilmasligi va tahsil ko'rmay, boshqa kasb sohibi bo'lishga intilmasligi zarur. Zero, barcha kasb-hunarlarda aziz, xalq ehtiromiga loyiq insonlar bor. Shuningdek, har bir kasb-hunarda manfur, odamlar nafratiga duchor bo'lgan kimsalar ham bor. Bilgan hunarni tashlab, bilmagan hunarga qo'l urish oldidan oqqan suvning qadrini bilmay, cho'lda suv axtarmoq bilan barobardir.

*Bayt:*

Iqtidoring yetmagan ishni qilma,  
Sababsiz o'zingni donishmand bilma.

Bu yerda yana bir narsani ham ta'kidlab o'tish lozimki, masal janri nafaqat og'zaki, balki yozma adabiyotda ham mavjud. Masal janrini Navoiy, Gulxaniy, Muqimiyy, Zavqiy, Avloniy, Hamzalar ijodida ko'plab uchratish mumkin.

Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Yamin Qurbon, Muxtor Xudoyqulov, Samig' Abduqahhor, Anvar Obidjonlar bu janrni yuqori ko'tardilar va ko'tarmoqdalar. Bugungi masalchi-qalamkashlarimiz tobora o'qimishli, ta'sirli, tarbiyaviy ahamiyati yuksak masallar yaratmoqdalar.



## ERTAKLAR

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va

afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o'zining badiiy ifodasini topgan.

Ana shu buloq singari jo'shqin, ummondek tubsiz, bebahoy xazina bo'l mish ertak o'zining g'oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha mehnat ahlini o'ziga maftun etib kelgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, ursodatlari bilan juda yaqin bog'langan bo'lishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidadir. Ertak — insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to'lib-toshgan. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysunganini ifodalaydi. Ertaklarda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dashman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq o'z ertaklarida badiiy obrazlar orqali o'z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni o'rta ga qo'ygan va o'zicha hal etgan. Bu fikrlar, intilishlar, orzu-havaslar ommanning didiga, ruhiga yaqin obrazlar orqali ravon, jonli tilda yetkazib berilgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun katta va kichikka, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali insonning ijtimoiy axloq normalari ham shakllanadi. Ba'zan bu axloqiy normalar masal tarzida, allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan. Xalqning kelajakka ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga ergashish kabi g'oyalalar ertaklarda yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklaridagi bu motivlar g'oyaviy-emotsional ta'sirni kuchaytiradi, mehnatkashlarning zulmkorlarga qarshi nafrat-g'azabini oshiradi va xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi.

Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta'sir qiladi va ma'naviy hissiyotni uyg'otadi. Ertaklar insonni o'z kuchi, o'z huquqi, o'z ozodligini anglatishi, undagi mardlik va vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishi bilan ham ma'naviy oziq berib kelgan.

Xalq ertaklari el-yurtni ko'z qorachig'iday avaylab-asraguvchi ajoyib vatanparvar qahramonlarni ulug'ladi; ayollarning haq-huquqini himoya qildi; osmonda uchishni, oyga yetishni orzu qildi, „Oynayi jahon“lari orqali yer yuzida bo'layotgan voqealarни bilib turdi, uzoqni yaqin qildi; „Ochildasturxon“lari

bilan noz-u ne'matlar yaratdi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlarni, noma'lum, noma'qul hislatlarni tanqid ostiga oldi; mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, to'g'rilik, saxiylik g'oyalarini ilgari surdi, ulug'ladi. Safarga otlangan botirning bir siqim tuproqni o'zi bilan birga olib ketganligini hikoya qiluvchi ertakni eslang. Ana shu bir siqim vatan tuprog'i o'zgalar yurtida unga kuch-quvvat ato etadi, yaralanganda dardiga malham bo'ladi, maqsadga yetishida madad beradi.

Ana shunday xalq prozasi — ertakda, ayniqsa, romantik tasvir kuchli bo'ladi. Unda qahramon jabr-jafo chekadi. Lekin oxiri baxtiyor bo'ladi, tengsiz jangda, kurashda g'olib chiqadi. Bunda romantik yechim — xotima xalqning idealidan, uning orzu-umididan kelib chiqadi. Busiz mumkin emas, ertak xalqning o'z kuch-qudratini anglab olishga madad berishi, uni baxtiyor kelajakka tomon ilhomlantirishi, kurashga chorlashi va shu kurashning (abstrakt bo'lsa-da) g'alabasiga ishontirishi kerak. Bunday optimistik yo'nalish turli ertaklar (hayvonlar haqidagi ertaklarda ham, sehrli-affsonaviy ertaklarda ham, ijtimoiy-maishiy ertaklarda ham, hayotiy ertaklarda ham)da usurib turadi. Misol tariqasida „Kambag'al qiz“, „Podachining qizi“, „Zumrad va Qimmat“, „Ota vasiyati“, „Ko'k qo'chqor“, „Uch og'ayni botirlar“, „Kambag'al-qashshoq“, „Ahmadlar“ kabi ertaklarni olib ko'raylik. Bunday ertaklarda mehnatkash xalqning mung va zori, qayg'u va hasrati ham, quvonchi va baxtli, shod va erkin kunlarga intilishlari ham o'z ifodasini topgan, yaxshi yashash haqidagi ezgu niyat, orzu-umidi aks etgan.

O'tmishda qashshoq yashagan, og'ir mehnatdan tinka-madori qurigan, och-yupun, bir parcha nonga zor bo'lgan kishilar farovon turmush, yaxshi kunlar haqida orzu-istaklarini o'z og'zaki ijodlari orqali bayon qilganlar.

Mehnatkash xalqning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday ertaklarning qahramonlari turli toifadagi kishilar: biri cho'ri, biri ishsiz — qashshoq, biri podachi, biri ovchi — mergan. Lekin barchasining ham intilishi va niyati bir: yaxshi yashash, sevgilisi visoliga yetish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo'lish — bu yo'lida duch kelgan to'siq va g'ovlardan dovyuraklik va jasorat ko'rsatib o'tishdan iboratdir.

Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko'rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo'ladilar.

**Maktabgacha ta'lif  
yoshidagi bolalarga o'qib,  
hikoya qilib beriladigan  
ertaklar**

Kichkintoy bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'ladi. Avval eslatib o'tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini

bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odobaxloq to'g'risida bo'lgani ma'qul.

Bu davr bolalariga „Chivinboy“, „Qizg'anchiq it“, „Tuya-qush bilan qoplon“, „Maqtanchoq quyon“, „Rostgo'y bola“, „Arilarning g'azabi“, „Tulki bilan turna“, „Sholg'om“, „Qumursqa“, „Kaptar sovg'asi“ kabi ertaklarni o'qib berish foydalidir.

Bog'cha tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o'rgatish, kichkinligidanoq unga bir yumush berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto „ish“ deyishga loyiq bo'lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi.

Bola bog'chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab bo'lmasligini ma'lum darajada idrok etgani ma'qul. Bog'chada bajarishi kerak bo'lgan yumushlarni bolaning o'zi erkin ishlasin, xatolari uchun o'zini javobgar sezsin. Yosh qalb o'zi bajarayotgan ishning natijasini anglasin, fikr yuritishga, to'g'ri ishlashga, g'ayrat qilishga ko'niksin.

Ammo bolada bunday malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. To'g'ri tarbiyani juda erta, oiladan, bog'chadan boshlash kerak. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi.

Ishga o'rganish va o'rgatishda e'tibor beriladigan narsa — har ishni o'z vaqtida bajarishga odatlantirishdir. Ishga odatlaniш ham, uni o'z vaqtida bajarish ham tarbiyada katta ahamiyatga ega. Har ish o'z vaqtida qilinmasa, ko'p yumushlar yig'ilib qoladi, yuzaki, sisatsiz, pala-partish bajariladi.

Shuning uchun har qanday ishni o‘z vaqtida g‘ayrat va matonat bilan ado etish lozim. Chunki dunyodagi barcha tirik mavjudot harakat qiladi, intiladi va shu tufayli hayotda zarur bo‘lgan narsalarga yetishadi. Hatto arilar, chumolilar va qushlar ham tinimsiz mehnat qilib, yozdan boshlab qish g‘amini yeydilar.

Shu o‘rinda xuddi inson kabi tinib-tinchimas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to‘qigan „Qumursqa“ ertagi o‘qib, hikoya qilib berilsa, samarasi yaxshi bo‘ladi.

Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko‘p mehnat qilsa, sog‘lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo‘l-may umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlari bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg‘ir, yer, o‘t, mol, bo‘ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi.

Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to‘g‘riso‘zlik, halollik, birovlarni aldamaslik kabi g‘oyalar ifodalangan asarlar tashkil etgani ma’qul. Masalan, turkman xalq ertagi „Rostgo‘y bola“ni olib ko‘raylik. Ertak qahramoni to‘g‘riso‘zligi, kattalarning pand-nasihatlariga quloq solishi bilan yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Rus xalq ertagi „Sholg‘om“ bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o‘rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma’no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli.

Ertakda boboning sholg‘om ekishi va yirik sholg‘omni ko‘plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo‘q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo‘ladigan jihatlar ko‘p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg‘omga ishlov beradi, ter to‘kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug‘lanadi.

Ikkinchidan, bola atrofidagilar bilan ahil, do‘sst bo‘lib ulg‘ayishi kerak. Kimki do‘sstar bilan, jamoa bilan hamfikr, hamkor bo‘lib o‘sса, o‘ziga ham, o‘zgalarga ham yaxshi. Ertakdagи kattakon sholg‘omni yerdan tortib, sug‘urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertakning uchinchi jihat shuki, u maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichkintoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonni ham boqish, asrash-avaylash lozim ekanligini chuqrroq his qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishga juda qiziqadilar. Hayvonot olamida ham do'stga mehribonchilik, g'amxo'rlik mavjudligi „Arslon bilan it“, „Echki, qo'y va bo'rilar“ kabi ertaklar orqali beriladi. „Tuyaqush bilan qoplon“ ertagida hayvonlar o'rtasida bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiyo ko'maklashish g'oyasi yotadi.

Qoplanning boshiga musibat tushdi. Tomog'iga katta bir suyak qadalib qoldi. Dod-faryod qildi. Tuyaqush qoplonga yordamga kelib:

— Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay, — debdi qoplonga.

Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug'ini qoplanning og'ziga solib, tiqilib qolgan suyakni sug'urib tashlabdi.

Qoplanning ko'zları ravshan bo'lib, o'limdan qutulibdi.

Biroz orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:

— Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi ikkalamiz do'st bo'lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz, — debdi.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar.

Xalqda, o'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umr bo'l, unga yaxshi-yomon kunlarida riyokorlik ko'rsatma, degan gap bor. Tuyaqush bu yo'ldan bormaydi. Oradan ko'p vaqt o'tadi. U jo'rttaga qoplanni sinamoqchi bo'lib, kunlardan bir kun:

— Voy dod, o'lyapman, qoplon, meni qutqar! — deya bor ovoz bilan qoplanni yordamga chaqiradi.

Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r va mehribon bo'lganligi uchun zudlik bilan tuyaqushning oldiga „shox-butoqlar orasidan ustidagi junlari yulinib, harsillab yetib kelibdi“. Lekin u tuyaqushning yuzida tabassumni ko'rib hayron bo'ladi. Tuyaqush surbetlik bilan „Ko'rmaganimiga ancha vaqt bo'ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qolmadi-

mi, deb seni sinab ko‘rmoqchi edim“, deydi. Bu gapdan qoplon qattiq ranjiydi, dili og‘riydi, do‘stidan ko‘ngli qoladi.

Do‘stni aldagán aslida o‘zini aldaydi. Birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga boshqa ishonmaydi. Tuyaqush ham shunday bo‘ladi. Bir kuni bo‘ri uni ushlab oladi. Tuyaqush qancha baqirib-chaqirmasin, qoplon „Do‘stim jo‘rttaga dodlayapti“, deb o‘ylaydi va oldiga kelmaydi. Tuyaqush bo‘riga yem bo‘ladi.

Qo‘li ochiq, saxiy bo‘lish, do‘stga sadoqat ko‘rsatish bu davrda o‘qiladigan ertaklarning asosiy mag‘zini tashkil etishi kerak. „Tulki bilan Turna“ ertagiga nazar tashlasak, bu holning butunlay teskarisini ko‘ramiz. Dunyoda tulki zotidek mug‘ambir, aldamchi, riyokor mavjudot bo‘lmasa kerak. Ko‘p ertaklarda turna insonga yaqin yuradi, unga ko‘maklashadi, yordam beradi, saxiylikda ibrat ko‘rsatadi.

Ertakda tulki va turnanining do‘st tutingani haqida gap boradi. Maqtanchoq, mug‘ambir, ayyor tulki oddiy, sodda turnani uyiga chaqirib:

— Albatta kelgin, jonginam, albatta, azizim, juda yaxshilab mehmon qilaman! — deydi.

Ba‘zan yangi do‘stning fe‘l-atvori qanday ekanligini o‘zi yaxshi bilmay yurakdagi borini oshkor etadigan bolalar kabi turna ham tulkiga ishonadi, chinakamiga meni mehmon qilar ekan-da, degan o‘y-xayol bilan uning uyiga keladi. Tulki shirguruch pishirib, turnanining oldiga taqsimchada qo‘yadi. Turna uzun tumshug‘i bilan taqsimchaga taq-taq uradi, ammo hech narsa yeya olmaydi. Ayyor tulki esa bir zumda shirguruchni o‘zi yeb qo‘yadi.

Ertakda turnaga alam qiladigan joyi shuki, tulki o‘zi pishirgan taomni o‘zi yeb tugatsa-da, xushomadgo‘ylikdan qaytmaydi. „Aybga qo‘ymaysan-da, jon do‘stim! Yaxshilab mehmon qilishga boshqa narsa topa olmadim!“ deb surbetligini ochiq namoyish etadi. Bu esa bolalarning qahr-g‘azabini keltiradi. Ertak hayotda tulki kabi ochko‘z, aldamchi bo‘lmaslikka da‘vat etadi.

Turna ham bo‘sh kelmaydi. Tulkini uyiga chorlab, bo‘yni ingichka xurmachaga o‘zi tayyorlagan ovqatni qo‘yib, uni bir zumdayoq uzun tumshug‘i bilan o‘zi yeb qo‘yadi. Turnanining topqirligi kichkintoylarni xursand qiladi. Ularda qilmish-

qidirmish, birovga nima qilsang, albatta, o'zingga qaytadi, degan tushuncha paydo bo'ladi.

Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlarini tinglagan ertaklari yordamida atrof-olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilish orqali ma'naviy dunyosi boyib, voyaga yetadilar.

## QUMURSQA

(O'zbek xalq ertagi)

O'tgan zamonda bir kishi safarga chiqqan edi. Bir soydan o'tishga to'g'ri kelibdi. Qish vaqt ekan. Suv muzlagan edi. Eshakning keyingi oyog'i muzga toyib yiqilib, beli sinibdi. U kishi xafa bo'lib, muzga qarab shunday debdi:

— Ey, muz aka, sen eng zo'rmisan?

Muz:

— Men zo'r bo'lsam, kun meni erita olarmidi?

Shunda u kishi kunga qarab:

— Ey kun, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Kun:

— Men zo'r bo'lsam, bulutlar mening ko'zimni to'sib olarmidi?

Shunda u bulutga qarab:

— Ey bulut aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Bulut:

— Men zo'r bo'lsam, yomg'irlar meni teshib-teshib o'tarmidi?

Shunda u yomg'irga qarab:

— Yomg'ir aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

— Men zo'r bo'lsam, yerga singib ketarmidim? — deb javob beribdi.

U yerga qarab:

— Yer aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Yer:

— Men zo'r bo'lsam, o'tlar teshib chiqarmidi? — debdi.

Shunda o'tga qarab:

— O't aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

O't:

— Men zo'r bo'lsam, mollar yulib-yulib yutarmidi? — debdi.

Molga qarab:

— Mol aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Mol:

— Men zo'r bo'lsam, bo'rilar yermidi? — debdi.

So'ngra bo'ridan so'rabdi:

— Bo'ri aka, sen eng zo'rmisan?

— Men zo'r bo'lsam, menganlar otarmidi? — debdi bo'ri.

— Mengan aka, sen eng zo'rmisan? — debdi haligi kishi.

Mengan:

— — Men zo'r bo'lsam, o'q soladigan xaltamni sichqon va kalamushlar qirqib tashlarmidi?

Shunda u kishi sichqonga qarab:

— Sichqon aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Sichqon:

— Men zo'r bo'lsam, qumursqalar qulog'imdan chimchib-chimchib chaqib olarmidi? — debdi.

— Qumursqa aka, sen eng zo'rmisan? — debdi.

Qumursqa:

— Men zo'r, men zo'r, — debdi. — Otangning olti yuz botmon bug'doyini olti tog'dan oshirib yeganman, pochchangning yuz botmon bug'doyini yetti tog'dan oshirib yeganman. Men zo'r, men zo'r, men zo'r!

— Qorning nima uchun katta? — deb so'rabdi u kishi.

— Jigarim zo'r, — debdi qumursqa.

— Beling nima uchun ingichka? — deb so'raganda, „Mehnatim zo'r!“ deb javob beribdi qumursqa.

— Kallang nima uchun katta? — debdi u kishi.

— Davlatim zo'r! Mehnatim zo'r, davlatim zo'r, men zo'r, men zo'r! — debdi qumursqa.

## QIZG'ANCHIQ PAK

(Koreys xalq ertagi)

Qadim zamonda Olmos tog'larida Pak degan qizg'anchiq bir odam yashar ekan. Ko'ziga nima ko'rinsa, hammasini olgisi kelar, ko'zi hech to'ymas ekan.

Bir vaqt uning qopqoniga burunduq tushib qolibdi, u oddiy emas, kumush yungli burunduq ekan.

Pak suyunib ketib, burunduqni ushlab, o'ldirmoqchi bo'libdi. To'satdan burunduq tilga kirib:

— O'ldirma, meni qo'yib yubor. Istaganingcha boylik beraman, — debdi.

— Istaganimcha boylik berasanmi? Shunday qilki, nimaga qo'limni tekkizsam, u narsa kumushga aylansin, uni mendan boshqa odam ololmasin, shu shart bilan seni qo'yib yuboraman, — debdi qizg'anчиq Pak.

— Istaganing bajo keltiriladi, — deb javob beribdi burunduq.

Qizg'anчиq Pak qopqonni ushlasa, qopqon kumush bo'lib qolibdi. Pak burunduqni qo'yib yuborib, uyga yuguribdi. Suyunganidan esini yo'qotib chopibdi.

Uyning eshigini ushlagan ekan, oldida kumush eshik paydo bo'libdi. Uyga kirib yog'log'ini ushlasa, u ham kumush bo'lib qolibdi. Boshmog'ini yechib, uni ostonaga qo'ygan ekan, boshmoq kumush bo'lib qolibdi. Yerdagi bo'yra ham Pakning qo'li tegishi bilanoq kumushga aylanibdi. Bunday boylikni ko'rgan qizg'anчиq Pak esini yo'qotib, uyda va hovlida chopib, hamma narsani ushlayveribdi. Axir charchab qorni ochib, ovqat yegisi kelibdi. Buni ko'ringki, ovqatlar ham kumushga aylanaveribdi.

Tovoqchada guruch olsa, tovoqcha ham, guruch ham, ovqat yeydigan cho'plar ham darrov kumush bo'lib qolibdi. Pakning ovqat yegisi kelibdi-yu, hech yeyolmabdi. „Bir iloj qilib chidarman, — deb o'ylabdi qizg'anчиq Pak. — Lekin mening boyligimga hammaning havasi keladi!“

To'g'ri, Pakka havasi kelgan odamlar ham topilibdi!

Lekin ko'p o'tmay yo'g'on Pak ingichka Pakka aylanib qolibdi: kun sayin ozib, tez kunda cho'pdek bo'lib qolibdi. Qizg'anчиq Pak o'zining sovuq, qattiq kumush o'rniiga yotib, ochlikdan va sovuqdan o'lib ketibdi.

## NON VA TILLA

(Arab xalq ertagi)

Qadim zamonalarda Abbas ismli bir kambag'al kishi yashagan ekan. U bir parcha non topish uchun ertadan kechgacha qora terga botib mehnat qilar ekan. Qo'li biroz ishdan bo'shagan paytlari esa, „Zora biror xazina topib olsam“, deb shirin xayollar surarkan.

Kunlardan bir kuni u dalada ishdan charchab, jazira-ma issiqdan toliqibdi-da, biroz hordiq chiqargani daraxt

tagiga o'tiribdi. Shunda u, „Ollohim menga shunday bir sehrli kuch-qudrat ato etsaki, qo'lim tekkan hamma narsa tillaga aylanib qolaversa. Shunda men rohat va farog'atda yashab, qora mehnatdan qutulgan bo'lardim“, deb orzu qilibdi.

Abbos shu gaplarni ko'nglidan kechirishi bilanoq, g'oyib-dan bir tovush kelibdi.

— Ey Abbas! Sen hozir nimani orzu qilgan bo'lsang, niyattingga yetasan. Biror buyumga qo'lingni tekkizishing bilan u shu ondayoq tillaga aylanadi!

Abbos o'z quloqlariga ishonmabdi. Ammo shunday bo'lsa ham, egilib yerdan kichkina bir tosh olibdi. Uning qo'li tegishi bilanoq, toshcha tillaga aylanib qolibdi. Abbas boshqa toshchalarga tegsa, ular ham tillaga aylanib qolaveribdi. Abbas bu holdan juda sevinib ketibdi va shunday reja tuzibdi: „Hozir shaharga boraman-u tosh-kesaklarni to'plab, tillaga aylantirib olaman... Keyin juda ko'p yer sotib olaman. Daryo bo'yida shohona saroy qurib, atrofini jannatmakon bog'ga aylantiram... Eng chopqir tulporlarni sotib olaman, liboslarim ham faqat asil va shohona bo'ladi...“

U shunday shirin orzular va rejalar bilan o'rnidan turmoqchi bo'lgan ekan, ammo ochlikdan majolsizlanib, o'rnidan turolmay qolibdi. Shunda Abbas, „Uyimdan keltir-gan tushligimni yeya qolay“, deb daraxt yonida turgan tugunchaga qo'lini cho'zibdi. U bir bo'lak nonni og'ziga solishi bilan tishlari qattiq narsaga botibdi. Og'zidan olib qarasa, non ham tillaga aylanib qolgan emish. Tuguncha ichida piyoz ham bor ekan, Abbas uniyam shosha-pisha qo'lga olibdi. Ammo piyozga qo'li tegishi bilan u ham tillaga aylanib qolibdi.

Abbos juda qo'rqib ketibdi. Axir, hamma yeydigan narsalari ham tillaga aylanib qolaversa, u ochlikdan o'lib ketadi-ku! Hamma yog'i tillaga ko'milib ketsa-yu, yeyishga hech vaqosi bo'lmasa. Bu qanday gap bo'ldi?

Bir mahal Abbas ko'zini ochsa, daraxt tagida xayol surib, mudrab qolgan ekan. U yengil nafas olib, o'rnidan turibdi. Yelkasidan tog' ag'darilganday bo'lib, yengil tortibdi.

— Xayriyat-ey, bularning hammasi tushim ekan-ku! — deb sevinib ketibdi.

## ARILAR G‘AZABI

*(Ozarbayjon xalq ertagi)*

Bor ekan-da, yo‘q ekan, dunyoda bir fil bo‘lgan ekan. U tinib-tinchimagan va juda sho‘x ekan. Har safar bo‘larbo‘lmasga janjal chiqaraverar ekan. Kunlarning birida o‘rmonda u xartumi bilan bir daraxtni o‘rab olib, uni silkitaveribdi. Sal bo‘lmasa daraxtni ildiz-pildizi bilan yerdan sug‘urib olay debdi. Daraxt tagida o‘rmon arilarining ini bor ekan. Filning silkitishidan arilar ini buzilib ketishi mumkin ekan.

— Fil aka, — iltimos qilishibdi arilar, — bizning uyimizni buzmang.

— Uylaringning menga nima keragi bor? — javob beribdi fil. — Sho‘xlik qilgim kelgan edi-da.

— Voy, fil akajon-ey, — deyishibdi arilar, — biz sizga o‘ynamang deyayotganimiz yo‘q. Boshqa daraxtning tagida o‘ynay qoling.

— Shu yerdan boshqa yoqqa ketmayman, — tixirlik qilibdi fil. — Bu vijdonsizlarni qara-ya, o‘zлari zing‘ircha-yu, yana birovga aql o‘rgatishlarini-chi.

— Fil akajon, — uni ogohlantirishibdi arilar, — agar uyimizni buzadigan bo‘lsangiz, sizni o‘ldiramiz.

— Qo‘llaringdan kelganini qilinglar, — deb kulibdi fil. — Sizlardan qo‘rqadigan ahmoq yo‘q.

Arilar inlariga kirib, kattalar bilan maslahatlashishibdi-da, fildan yana bir marta iltimos qilib, bordi-yu, shunga ham ko‘nmasa, uni to o‘lguncha chaqishga qaror qilishibdi. Arilar ancha vaqtgacha filni bu ishdan qaytarishga urinishibdi. Lekin fil ularga e’tibor ham bermabdi.

Shunda arilar filga baravar yopishib, boshi, ko‘zi, qulog‘i, xartumi va butun badaniga ignalarini sanchishaveribdi. Birpasda fil shishib, naq tog‘day bo‘lib ketibdi. Filning hayqirig‘i butun o‘rmonni tutib ketibdi. Nihoyat, fil holdan toyib, gumburlab yerga yiqilibdi. Arilar uni o‘rab olishib:

— Xo‘s, endi holingiz qalay, filjon? — deyishibdi.

Fil uyalganidan hatto boshini ham ko‘tara olmabdi.

— Fil akajon, — deyishibdi arilar, — siz haybatingizga ishonib, bizni qiyナadingiz. Lekin shuni bilingki, kuchsizlarni qiyнaganning holiga voy bo‘ladi.

## YOLG'ONCHI

*(Arman xalq ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir podsho bo‘lgan ekan. Kunlarning birida u har tomonga jarchilar yuboribdi. Ular xalqqa shunday xabar qilibdilar:

— Odamlar-u odamlar, kimda-kim yolg‘onchilikda g‘olib chiqsa, podshohimiz unga oltin olma beradilar!

Podshoning huzuriga har yoqdan odamlar kela boshlabdi. Shahzodalar, vazir-u nozirlarning bolalari va boshqalar kelibdi. Ammo kelganlarning hech biri podsho ko‘nglini ovlay olmabdi.

Bir kuni podsho huzuriga bir kambag‘al kosib katta xum ko‘tarib kelibdi.

— Senga nima kerak? — deb so‘rabdi podsho.

— Assalomu alaykum, podshohi olam, — debdi kosib. — Men o‘z haqimni olgani keldim: siz mendan bir xum oltin qarzdorsiz-ku.

— Yolg‘on, — debdi podsho. — Men sendan hech narsa qarzdor emasman.

— Yolg‘onmi? Unday bo‘lsa, o‘sha oltin olmani marhamat qilib menga bersinlar.

Podsho uning ayyorligini sezib, o‘zini go‘llikka sola boshlabdi.

— Yo‘q, aldayotganing yo‘q.

— Aldamayotgan bo‘lsam, unda qarzingizni bering.

Podsho kosibning yutganini tan olib, bir og‘iz ham gapirmay, oltin olmasini unga bergen ekan.

Bu davr bolalari maktabga bora-  
digan, o‘zları mustaqil ravishda  
ozmi-ko‘pmi kitoblar o‘qiydigan  
darajada bo‘ladilar. Ularga o‘qish

**Maktab yoshidagi kichik  
bolalarga tavsya  
etiladigan ertaklar**

uchun tavsya etiladigan ertaklarning ham ko‘p qismi ona-Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o‘qish haqida bo‘lishi talab etiladi. „Zumrad va Qimmat“, „Oltin tarvuz“, „Dehqon bilan ayiq“, „Haqqush“ (tojik xalq ertagi), „Danak“ (qirg‘iz xalq ertagi), „Kuch va topqirlik“ (latish xalq ertagi), „O‘tinchi yigit“, „Bo‘ri bilan echki“ singari ertaklar kichik maktab yoshidagi bolalar sevib o‘qiydigan asarlardir.

Bu yoshdagagi bolalarga ko‘proq ig‘vo, g‘iybat, munofiqlikdan yiroq bo‘lgan ertaklar yoqadi. Negaki, chin,

mukammal tarbiyali bola boshqalarga ozor yetkazmasligi, takabburlik qilmasligi, hech kimga past nazar bilan qaramasligi, rostgo'y bo'lishi lozimligini kichkintoylar avval tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Yaxshi bola o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli, xushmuomala bo'lishi lozimligi ularga ma'lum. Chinakam inson va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Qarindosh-urug'lariga mehribon, mehr-oqibatli bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, nojo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xhash go'zal xislatli bolalarni el sevadi, e'zozlaydi. „Zumrad bilan Qimmat“ ertagidagi Zumrad xuddi shunday fazilatlarga ega obrazlardan biridir.

Zumrad xalq orzu qilgan, e'zozlagan qizlarning yorqin timsoli. Bugungi qizaloqlar ertakdagagi Zumraddan ibrat olishlari, unga o'xshagan chiroyli, odobli, muloyim, aqlli, mehnatsevar bo'lishlari lozim. Qarang, yo'lida lolalar, rang-barang gullar uni ko'rib boshlarini egib, salom berarkanlar. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, qo'shiqlar aytib berar ekanlar. Xo'sh, bunday maqtov, bunday e'zoz qaysi qizaloqqa yoqmaydi! Hammaga yoqadi. Bunga tuyassar bo'lish uchun esa, halol inson bo'lish, kattalarning, ota-onalarning, muallimlarning o'git-nasihatlariga qattiq amal qilish kerak. Ana o'shandagina xuddi Zumrad kabi mol-u davlatga, shon-sharafga, hurmatga sazovor bo'lish mumkin.

Zumrad aslida kim? U bir o'gay ona qo'lida so'kish, qarg'ish eshitib bir burda nonga muhtoj bo'lib yurgan qizcha. Zumrad el sevadigan darajada chiroyli, odobli, muloyim, aqlli. Uni bir ko'rgan, bir suhbatlashgan kishi yana ko'rsam, suhbatlashsam deb orzu qiladi.

Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko'radi, hayvonlarni, tabiatni, maysa-yu o'tloqni sevadi, ularni avaylaydi. Hammasiga muloyim boqib, qo'li bilan silab-siypalab erkalaydi. Bundan gullar, o't-o'lanlar, bulbullar quvonib, unga qo'shiqlar aytib berishadi.

Ammo shu gullar kampirning arzandasini sevmas, uni erkalamas ekanlar, bu qiz gullarga ozor berar, ularni yulib tashlab, tepkilar ekan, lolalar, gullar Qimmatning kelishini

bilib qolsalar, qovoqlarini solib, yumilib qolarkanlar. Yovuz kampir bundan g'azablanar ekan va buni Zumraddan ko'rар ekan. Bir kuni kampirning niyati buzilib, Zumraddan qutulmoqchi bo'libdi, cholni chaqirib olib, unga dag'dag'a qilibdi. „Qizingni o'rmonga olib borib adashtirib kelmasang, men sen bilan turmayman!“ debdi.

Ota nochor. U kampirga o'ta itoatkor. Negaki kampir uni jerkib, haqorat qilib, yuragini olib qo'ygan, itoatkor kimsaga aylantirgan. Chol Zumradni aldab, qorong'i, qo'rqinchli o'rmonda adashtirib keladi. O'rmonda yolg'iz zor qaqshab qolgan qizchaga gullar shu'la sochib, yo'lini nurafshon qilib turadi. Zumrad sehrgar huzuriga kirar ekan, unga egilib salom beradi, boshidan kechirgan voqealarni bir-bir bayon qiladi. Qushlarning Zumradni maqtab sayrashlari kampir qalbini shodlikka to'ldiradi.

Zumrad mehnat bolasi. Mehnat qilgan elda aziz, deganlaridek, uning yelib-yugurib ishlashi kampirga xush yoqadi. „Oppoq qizim, shirin qizim, do'mbog'im, mun-chog'im!“ deya uni erkalaydi, peshanasidan o'pib, sochini silaydi.

Zumrad halol-pokligi, shirin so'zligi, mehnatkashligi, kattani hurmat, kichikni e'zozlashi bilan sehrgarning muhabbatini qozonadi.

Shu sababli sehrgar Zumradni tengsiz boylik bilan sihaydi, uni baxtiyor qiladi.

Mehnatkash xalq o'z farzandlarini xuddi Zumrad kabi ishchan, mehribon, iboli, boy-badavlat bo'lishini orzu qilgan. Lekin Qimmat kabi erka, tanti, ishyoqmaslarni yomon ko'rigan. Qimmat obrazi dangasa, erkatoy, injiq, qo'pol, toshbag'ir ayrim farzandlarni eslatadi. O'zbek ertaklarida o'zidan kattalarni hurmat qilish va keksalarni e'zozlash, odamoxunlik va mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odobni ulug'lash asosiy masalalardan hisoblanadi. Xo'sh, Qimmatda yuqoridagi fazilatlardan qaysi biri mavjud? Hech qaysisi yo'q.

Mana, ota Qimmatni ham kimsasiz o'rmonda adashtirib, tashlab ketdi. Sehrgarnikida yashar ekan, unga onasi birorta ham shirin so'z o'rgatmaganligi, mehnat qilishni bilmaganligi sababli kampirga qo'pol-qo's muomalada bo'ladi. Tekintomoqligi qattiq pand beradi. Sehrgar qizni sevmaydi, ertak ham aytib bermaydi, kitob va qo'g'irchoqlar ham hadya qilmaydi.

Ertakdagi sehrgar kampir juda muloyim, mehribon.  
Mana, uning Qimmatga murojaati:

— Tomdan o'tin olib tush, qizim!

Qizning javobini eshititing:

— O'zingiz olib tusha qoling, malayingiz yo'q!

Bu tarbiyasizlik, odobsizlikdan boshqa narsa emas.

Xalq bunday o'zboshimcha qizni ham, farzandiga to'g'ri tarbiya bera olmagan onani ham yoqtirmaydi. Shuning uchun har ikkalasi o'limga mahkum — ajdar yutib yuboradi. Bu holga xalq aslo achinmaydi, aksincha to'g'ri bo'libdi, deb mammun bo'ladi.

Kitobxon bolalar ham hayotda Qimmat qiyofasiga tushib qolmaslik uchun odobli, xushmuomala bo'lishga, mehnatni sevishga, ko'proq dars tayyorlashga, kitob o'qishga intilishga harakat qiladi. Qimmatning ishyoqmasligi, odobsizligi uchun hamma yomon ko'rishini eslang. Hatto uning yurish-turishi, xatti-harakati sehrgar kampirga ham ma'qul bo'lmaydi. Dangasaligi, kekkayganligi, qo'rs-qo'polligi o'zining boshiga yetadi.

Bu yoshdagi bolalar ko'chat ekish, uni parvarish qilishda kattalarga dastyor-ko'makchi. Ko'pincha, o'zлari ham bog'bon-chilik ishlariga berilib ketishadi. „Danak“ ertagidagi Bahromning bir dona danakni yerga ekib, uni ko'kartirishi, u mevali daraxtga aylangunicha parvarish qilishi yosh kitobxonlarni ham ilhomlantiradi.

Bahromning danagi daraxtga aylanib, meva bera boshlagach, alvasti bolani yeb, daraxtga ega bo'lib olish niyatida uni qopga solib, uyiga olib ketibdi.

Alvasti hovlisiga yetib kelibdi-da, qopni supaga qo'yibdi, qozonga yog' solib, olov yoqibdi.

Bahrom qopni amallab teshib, oq terakning tepasiga chiqib olibdi. Alvasti kelib ko'rsa, bola yo'q.

— Bolaginam, qayerga ketding? — deb so'rabdi u.

— Men bu yerdaman! — Bahrom terakning ustidan ovoz beribdi.

— Bolajonim, u yerga qanday chiqding?

— Temirkurakni olovda qizdirib, ustiga o'tirdim. Kurak yuqoriga uchdi, qarasam, daraxt tepasida turibman, — debdi Bahrom.

Kampir Bahrom aytgandek qilgan ekan, kuyib o'libdi. Bahrom shunday qilib, o'zini ham, daraxtni ham alvas-tidan qutqarib qolibdi.

Mehnatkash xalq bechorahollik bilan hayot kechirgan, ko'pincha, ochlik, yupunlik ularning bir umr hamrohi bo'l-gan. Uzun tunlari bir-birlarini ovutish, ko'ngillarini ko'tarish maqsadida ertaklar aytishgan. Xalq to'qigan ertaklarda unumli mehnat qilish, farzand rohatini ko'rish, baxtiyor bo'lish, oliyjanoblik, ezgulik g'oyalari yotadi. O'rni kelganda birdaniga katta boylikni qo'lga kiritib, el-yurtni, boy-badavatlarni qoyil qoldirish mehnatkash xalqning ezgu tilagi bo'lib kelgan. „Oltin tarvuz“ ertagi xuddi shunday orzu-niyat, oliv istak bilan to'qilgandir.

„Oltin tarvuz“ yosh kitobxonga ko'p jihatdan ibratli. Unda, eng avvalo, mehnat ulug'lanadi, dehqon o'z yeriga qayta-qayta ishlov beradi. Ikkinchidan, parranda-yu darrandaga g'amxo'rlik qilish g'oyasi ilgari suriladi. Dehqon laylakning majruh oyog'iga taxtakach bog'lab davolaydi. Uchinchidan, ochko'z bo'lmaslikka da'vat etiladi — dehqonning uyida hech vaqosi yo'q. Laylakni so'yib yeishi mumkin edi, ammo u bu ishni qilmaydi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bo'lgan ekan. Uning atigi bir tanob yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-kunduz tinmay mehnat qilib kun ko'rар ekan. Bahor kelib qolibdi. Dehqon yer hayday boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo'lib, yaqinidagi katta soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yerga qulab tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti siniq ekan. Dehqon haligi laylakni darrov uyiga olib borib, siniq qanotiga taxtakach bog'lab, bir qancha vaqt uni boqibdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.

Laylakka qayta umr bag'ishlagan dehqon biror narsadan umidvor emas. Shu majruh laylakni davolab, behisob boylikka ega bo'laman, degan fikr xayoliga ham kelmagan. Laylak tashlab ketgan urug'ni ekib, unga ishlov berar ekan, oltin tarvuz yetishadi degan tushunchaning o'zi unda bo'limgan.

Dehqon ochko'z emas, bir parcha nonni ham o'zgalar bilan, qo'ni-qo'shni, o'ziga o'xshagan kambag'allar bilan baham ko'radi. Sabr-toqat bilan taruzlar obdon pishib yetilishini kutgan dehqonning „yaqin qarindoshlarini, oshna-

og‘aynilarini ham mehmonga chaqirishi“ kitobxon bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi.

Dehqon bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o‘zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og‘aynilarini mehmonga chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo‘yib ikkinchisini so‘ymoqchi bo‘libdi, o‘tmabdi, uchinchisi ham shunday bo‘libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo‘lishibdi. Yerga bir urib yorib qarasalar, ichi to‘la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib ko‘rishibdi. Ularning ham ichi tilla emish. Dehqon sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo‘lib, uyulariga tarqabdilar. Uch tup tarvuzning har biri o‘ntadan solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig‘ib olibdi. Shunday qilib kambag‘al dehqon juda boyib ketibdi.

Xalq o‘z ertagida voqeani yanada rivojlanТИRIB, hayotiy ziddiyatlarni kuchaytirib tasvirlaydi. Kambag‘allarning boyib ketishi, ko‘pincha, badavlat kishilarda hasad tug‘diradi.

Ertakda ana shunday jirkanch odamlarning ashaddiy yovuzliklari, boylik va davlat deb qing‘ir ishlarga ham qo‘l urishlari qo‘shti — xasis boy obrazni orqali fosh etiladi.

Dehqon yaxshilik qilgani uchun behisob boylikka ega bo‘lganini eshitgan boy, sog‘ laylakning oyog‘ini ataylab sindirib, davolaydi. U ham tarvuz urug‘ini boyning dalasiga tashlab ketadi. Biroq tarvuzdan oltin emas, balki qovog‘ari chiqib, ko‘pchilikni chaqadi.

Boyning halok bo‘lishi yosh kitobxonda achinish hissini uyg‘otmaydi. Aksincha, tabiatga, qushlarga ziyon yetkazganligi, boylik ustiga behisob boylikka erishish uchun qasddan laylakning oyog‘ini sindirganligi sababli bolalar uni qora-  
laydilar.

## BIRLASHGAN O‘ZAR

(O‘zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir bek bo‘lgan ekan. Uning ziyrak, vafodor, dumi uzun tozisi bo‘lgan ekan. Tozi har kuni bekka ikki-uchta quyon, yovvoyi tovuq tutib berar, hovlisini qo‘riqlarkan. Bek bilan xotini undan juda rozi ekanlar. Bir kuni dumi uzun tozi ov qilgani qamishzorga kirib ketibdi.

U yerda ochligidan holdan toyib yotgan laychani ko'ribdi-yu:

— E, yalqov laycha, ag'anab yotaverasanmi? Yur men bilan, xo'jayinim menga issiqliq in qurib bergan. Ovqat yeydigan yaloq qo'ygan. Qish kunlari borib, sandalning poygak tomonida isinaman, xo'jayinim indamaydi. Juda yaxshi odam, — debdi. Laycha rozi bo'lib, tozi bilan birga boribdi. Bek ham xizmatkor ikkita bo'lganidan xursand bo'lib, ularga ovqat beribdi. Shunday qilib, tozi bilan laycha issiqliq uychada yashayveribdilar.

Kunlarning birida ikkalasi ov qilgani o'rmonga borsalar, cho'zilib yotgan shaqalni ko'rib qolibdilar. Shaqal qo'rqiб ketibdi. Tozi bilan laycha: „Qo'rhma, yuraging yorilmasin, nimaga yetibsan?“ deyishibdi.

— Yegulik narsa yo'q, ochman, madorim quriyapti, — debdi shaqal.

— Undoq bo'lsa, bizlar bilan yur. Bek xo'jayinimiz bor, o'zi ko'p yaxshi odam. Ov qilib beramiz, xotini ovqat pishirib beradi, — debdi tozi.

Ana endi uchalasi har kuni beshta-oltitadan yovvoyi tovuq, quyon, kaklik, bulduruq tutib kelaverishibdi. Bekning xotini bo'lsa, yegulik pishirib beraveribdi.

Bir necha kundan keyin ular ovga borib, o'rmonda Sher bilan yo'lbarsga duch kelibdilar.

— Bizlarga sherik bo'linglar, birga ov qilamiz, birlashishning xosiyati ko'p bo'ladi, — deyishibdi sher bilan yo'lbarsga it va shaqal. Sher bilan yo'lbars ham o'ylab ko'rib rozi bo'libdilar. Xullas, beshovlari bekning xizmatini qilaveribdilar. Ov o'ljasni ham ko'payaveribdi, bekning xotini ham jonivorlarga yaxshi qarayveribdi.

Gapning qolganini bu yoqdan eshiting. Kuni bitib bekning xotini qazo qilibdi. Xo'jayin g'am-anduhga girifstor bo'libdi. Tozi, laycha, shaqal hamda yo'lbars, sher maslahatni bir yerga qo'yib, bekni uylantirmoqchi bo'libdilar. Tozi maslahatboshi bo'lib, shaqalga uqtiribdi.

— Shaharga borasan, hindi savdogarning do'koniga kirasan, sher ham sen bilan borib, atrofni poylab tursin. Kelunga lozim bo'lgan zarrin, kimxob, shoyilar olib chiqib yuklaysan, sher olib keladi.

Bu maslahatni og'aynilar ma'qullabdilar. Shaqal bilan sher shaharga boribdilar. Hindining do'koniga kirib, qimmatbaho asl

narsalarni olib kelibdilar. O'sha vaqt bir zolim podsho bo'lib, uning juda chiroylu, odobli qizi bor ekan. Endi beshovi yana maslahat qilib, bekka shu podshoning qizini olib bermoqchi bo'libdilar. Tozi yana bosh maslahatchi bo'libdi.

— Shaqal bilan sher podshoning saroyiga borib poylab tursin-da, qiz eshikdan chiqishi bilan, ushlab qopga solib, olib kelinglar.

Shaqal bilan sher podshoning saroyiga yetib boribdilar. Qizning yotoqxonasi orqa devorini tirnabdilar, enaga kampir chiqib:

— Ey, kim u, qasir-qusur qilayotgan? — debdi va pisib yotgan sher bilan shaqalni ko'rmay qaytib borib uxlabdi.

Sal o'tgach, yana taqillatbdilar.

Kampir yana inqillab chiqibdi. Ammo hech nimani ko'rmay, yana qaytib kirib ketibdi. Uchinchi martasida qiz kampirga:

— Ey, bibijon, siz ovora bo'lib chiqmang, ko'zingiz ham o'tmaydi. Men o'zim qarayman, — deb eshikdan chiqqan ekan, poylab turgan sher bilan shaqal uni mahkam ushlab qopga solibdilar-u, yo'lga ravona bo'libdilar. Ertasi kuni bek-nikida katta to'y bo'libdi. Bek go'zal malikaga uylanganidan xursand bo'libdi. Beshala og'ayni xizmatni bajo keltiraversinlar-u, bu yoqdagi hangomaga qulqoq bering.

Qizning bedarak yo'qolganini eshitib, darg'azab bo'Igan podsho amir-u amaldorlariga buyruq beribdi:

— Qizimni yer-u ko'kdan bo'lsa ham toping. Kimki topib kelsa, xazinamdan bo'yi baravar tilla beraman. Topolmasanglar, hammang boshlaringdan judo bo'lasanlar.

Yasovullar to'rt tarafga ot qo'yib, malikani axtarib ketibdilar. Ammo hech biri qizni topolmabdi. Shaharda bir ayyor kampir bor ekan. U podsho huzuriga kirib:

— Qizingizni uzoq shaharga olib qochib ketganlar. Men topib kelaman, aylanay shohim. Lekin bir shartim bor. Asl ustalariningizga ayting, menga uchadigan sandiq yasab bersinlar. Bu qulog'ini burasam mag'ribga, u qulog'ini burasam mashriq tarafga uchadigan bo'lsin, — debdi. Podsho amri bilan kampir aytganday qilib ustalar sandiq yasashibdi. Yosuman kampir sandiqqa tushib olib, bir qulog'ini buragan ekan, sandiq havoga ko'tarilib, bekning hovlisiga yaqin yerga tushibdi. Kampir hech kim ko'rmasin deb sandiqni shox-butoqlar

bilan yashirib, sekin bekning darvozasi yoniga borib yig'lab o'tiraveribdi. Ovdan qaytib kelayotgan bek kampirdan:

— Ha, bibijon, nimaga yig'lab o'tiribsiz? — deb so'rabdi.

— Ey, begin, nimasini aytay sizga. Uch o'g'lim bor, ularni voyaga yetkazib, uyli-joyli qildim. Endi kelinlarim meni sig'dirmay quvib yuborishdi. Yordam bering, deb sizga arzga keldim, — debdi. Bekning kampirga rahmi kelib:

— Undoq bo'lsa, menikiga kiring, keliningiz bilan yurasiz! — debdi. Kampirni ko'rgan zahotiyoq bekning xotini:

— Bu kampirni nimaga olib keldingiz? — debdi.

— Indama, bir just non bilan bir kosa oshni kim ham yemaydi, seni duo qiladi, — debdi bek. Oradan ancha kun o'tibdi. Bek yana tozi, shaqal, laycha, yo'lbars, sherlari bilan shikorga chiqib ketibdi.

— Qizim, ziq bo'ldim, sen ham ziq bo'lgandirsan, yurgin, aylanib kelaylik, — debdi kampir malikaga mehribonlik qilganday. Bekning xotini ham ko'nibdi. Ikkovi aylanib yurib sandiq turgan joyga boribdilar.

— Bibijon, bu qanaqa sandiq ekan, biram yaxshi-ya, — debdi malika sandiqni ko'rib.

— Bu havoda uchadigan sandiqqa o'xshaydi. Ichiga kirib ko'rmaymizmi? — debdi kampir. Ikkovlari sandiqqa tushibdilar, kampir sandiq qopqog'ini yopibdi-yu, qulog'ini burabdi. Sandiq osmonga ko'tarilib, to'g'ri podshoning saroyiga borib qo'nibdi. Qizini ko'rib xursand bo'lgan podsho kampirga bo'yи baravar tilla beribdi.

Ana endi podsho qizini topgani uchun xursand bo'lib yuraversin-u gapni yana bek tomonidan eshiting. Bek tozi, shaqal, laycha, yo'lbars, sher bilan shikordan qaytib kelsa, uyda kampir bilan xotini yo'q emish. Tozi bekasini kampir o'g'irlab ketganini sezibdi-yu, yo'lbars bilan sherga:

— Yana saroya borasanlar va podshoning qizi uxmlayotgan uyning eshigini qoqasanlar! — debdi. Og'aynilar uzoq yo'l yurib, yarim tunda saroya yetib boribdilar va malika yotgan uyning eshigini qoqibdilar. Qiz qanday qochishni bilmay, yig'lab o'tirgan ekan, hayvonlar oldiga yugurib chiqibdi. Ertalab podsho yana qizning g'oyib bo'lganini eshitib kampirni chaqirtiribdi:

— Qizimni yana o'g'irlab ketibdilar. Borib olib kelsang, davlatimning yarmini beraman, — debdi!

— Shohim, agar qaytib borsam, sochimni bittadan yilib, go'shtimni qiyma qilib, suyaklarimga o't qo'yadilar. Endi qizingizni ularning qo'lidan urushib, qon to'kib olasiz, boshqa chorasi yo'q! — debdi kampir. Podshoning amri bilan behisob lashkar to'planibdi. Kampirni lashkarboshi qilib tayinlabdi va yo'lga tushishibdi.

Bek behisob lashkarni ko'rib:

— Endi meni o'ldirib, xotinimni olib ketadilar. Uyim kuydi, xonavayron bo'ldim, — deb qo'rqib ketibdi. Tozi bekka tasalli berib:

— G'am yemang, begin, biz lashkar topamiz! Qani, laychavoy, bir vovulla, — deb laychaga buyuribdi.

Laycha vovullagan ekan, hovli itga to'lib ketibdi. Shaqal uvillagan ekan, shaqallar yetib kelibdi. Sher bilan yo'lbars na'ra tortgan ekanlar, sher bilan yo'lbarslar yopirilib kelibdi. Buni ko'rgan podsho, uning lashkarlari va kampir zo'rg'a qochib qutulibdilar. Bek esa vafodor hayvonlariga katta ziyofer qilib beribdi.

Birlashgan o'zar, deb bekorga aytimas ekan-da.

## KAPTAR SOVG'ASI

(*Tamil xalq ertagi*)

Qadim zamonda kichkina qishloqning bir chekkasida Kijavan ismli bir dehqon yashagan ekan. Uning na bir yaqin qarindosh-urug'i, na bir uzoq tanishi bor ekan. Kijavan bo'lsa, bundan sira o'kinmas, odamlarning o'rniga o'rmon qushlari, hayvonlari bilan do'stlashib yurar ekan. Kimning do'sti ko'p bo'lsa, u zerikarmidi? Kijavan ham qush-u hayvonlar tilini juda yaxshi bilar, o'rmonda yashovchilarning birortasi bilan uchrashib qolsa, suhbatlashib, ancha yengil tortar ekan. Qushlar Kijavanni ko'rishlari bilanoq, shod-u xurramlik bilan chug'ur-chug'ur qilishar ekan.

Bir kuni Kijavan juda qattiq och qolibdi. Biror narsa tamaddi qilay desa, hech vaqosi yo'q. O'ylab-o'ylab, oxiri tayoq olib, o'rmonga jo'nabdi. O'rmonni aylanib-aylanib, u yerda ham yeydigan hech narsa topolmay, uyiga qaytibdi. Yo'lda ketayotib:

— Menga yordam ber, — degan zaif bir tovushni eshitib qolibdi. Kijavan bunday qarasa, u yerda bir kaptar yiqilib yotgan emish.

— Men ucholmayman, qutqargin, — deb yalinibdi u Kijavanga.

Kijavanning bechora kaptarga rahmi kelibdi. Uni yerdan avaylab ko'tarib olib, bag'riga bosganicha, yo'lida davom etibdi. Kapasiga kelib, qushni ehtiyotkorlik bilan yumshoq o'ringa yotqizibdi.

— Tuzalib ketguningcha menikida yashaysan. Hech narsadan qo'rqmagin, seni xafa qilishlariga yo'l qo'ymayman. Qo'limdan kelganicha senga yordam beraman. Lekin hozircha senga ovqat beray desam, uyda yeydigan hech vaqo yo'q, — debdi xafa bo'lib Kijavan.

— Qayg'urma, — debdi kaptar uni tinchlantirib, — o'rmonda mango daraxti bor. Daraxt kavagining ichida guruch bor, borib ana shu guruchni olib kelgin.

Kijavan fursatni boy bermay, mango daraxtini izlab, o'rmonga jo'nabdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, ammo negadir daraxtni uchratmabdi. U oxiri horib-charchab, bir teshik ustida o'tirib, bunday qarasa, ro'parasida mango daraxti o'sib yotgan emish. Kijavan engashib daraxt kavagiga qarasa, bir qism guruch turibdi. Uning atrofida esa oltin-u kumush, olmos-u dur va boshqa har xil qimmatbaho toshlar yog'du sochib yotibdi. Ammo Kijavan bu narsalarga parvo qilmabdi. „Bu toshlarni nimayam qillardim, axir uyimni bezatish niyatim yo'q-ku?“ deb o'ylabdi.

U faqatgina guruchni olib, orqasiga qaytibdi. Uyining shundoq ostonasida yana bir kaptarni ko'ribdi. U eshikni ochishi bilan kaptar pir etib ichkariga kiribdi-da, yarador kaptarning yoniga borib qo'nibdi. Ikkala qush ham shod-u xurram bo'lib, sayrab yuborishibdi. Kijavan ularga guruch beribdi. Qushlar chaq-chaqlashib guruchni cho'qilashga tushishibdi. Dehqon bo'lsa, ularning yoniga o'tirib olib, qushlarni rosa tomosha qilibdi.

— Nega sen o'zingga guruchdan qoldirmading? — deb so'rabdi ikkinchi kaptar.

— O'zi bir siqimgina guruch bo'lsa, sizlarga zo'rg'a yetadi, xolos. Hechqisi yo'q, men chidayman, o'lmayman, — deb xotirjam javob qilibdi Kijavan.

Ikkinchi kaptar kulbadan uchib chiqib ketibdi-da, tumshug'ida nimanidir ko'targanicha qaytib kelibdi. Keltirgan narsasi tilla uzuk ekan.

— Bu uzukni o‘zingga ol. Sen uni qo‘lingdan yechmaguningcha, nimaiki istasang u sening buyruqlaringni bajo keltiradi, — debdi kaptar.

— Agar bu gaplaring to‘g‘ri bo‘lsa, senga rahmat! — deb minnatdorchilik bildiribdi Kijavan. Menga ozgina non bilan sut bo‘lsa, bas, boshqa hech nimaning hojati yo‘q.

U bu so‘zlarni aytib ulgurmasdanoq, dasturxonda issiq kulcha non bilan bir piyola sut paydo bo‘libdi. Kijavan sutni ichib, nonning bir burdasini yebdi va qolganlarini kaptarlarga ushatib beribdi.

Shundan keyin dehqon Kijavan baxtli yashay boshlabdi. Unga nimaiki zarur bo‘lsa, do‘sti kaptar sovg‘a qilgan uzuk hammasini birpasda muhayyo qilar ekan.

**O‘rta va katta yosh-dagi bolalarga  
o‘qish uchun tavsiya  
etiladigan ertaklar**

Maktabgacha ta‘lim va kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, hajm jihatidan kichkina, mazmuni sodda va teran-

ligidan tashqari rasm va bo‘yoqlarga boy bo‘lishi zarur. Bu ikki guruhga mansub o‘quvchilarga tavsiya etiladigan ertaklar vositasida tabiat, ona-Vatan, hayvonot olami haqida, to‘g‘ri-so‘z, odobli bo‘lish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e’zozlash singari ezgu tuyg‘ular ularning ong-tushunchalariga yetkaziladi.

Bu yoshdagi bolalar uchun dovyuraklikka, vatanparvarlikka, yaxshi kasb-kor egasi bo‘lish, xalq va Vatan uchun jon fido qilishga chorlovchi „Pahlavon Rustam“, „Uch og‘ani botirlar“, „Egri bilan To‘g‘ri“, „Ona yer farzandi“, „Sardorning oyni ushlab olmoqchi bo‘lgani“ (turk xalq ertagi), „Ilon terisini yopingan pahlavon“ (no‘g‘ay xalq ertagi), „Donishmand qiz“ (xitoy xalq ertagi), „Qadrdon uyingning mixi“ (shved xalq ertagi), „Chollar, ho‘kizlar, Bo‘rka va pop“ (gruzin xalq ertagi) singari ertaklarni tavsiya etish mumkin.

Ota-bobolarimizdan qolgan ibratomuz bir gap bor: yaxshi hayot kechirish insonning o‘ziga bog‘liq. U nechog‘li to‘g‘ri-so‘z, aqli, tadbirli, pok ko‘ngilli bo‘lsa; do‘stga, vatanga xiyonat qilmasa, yolg‘on gapirmasa, topshirilgan ishni vaqtida bajarib, va‘dasiga vafo qilsa, bunday zotni el yurakdan yaxshi ko‘radi.

Kimki zolim va mutakabbir bo‘lsa, bir kuni buning jazosini topadi. Tarixga nazar solsak, necha-necha zo‘r davlat

va qudratga ega bo'lgan kishilar vaqtি kelib, ehtiyoj va zarurat girdobiga g'arq bo'lganiga, aksincha, umri yo'qchilik, kambag'alchilikda o'tgan odamlar halol mehnati, odamiyliги tufayli baxt, tolega yor bo'lib, boylik va davlatga ega bo'Iganliklarini ko'ramiz.

Umrni ezgu ishlarga, yaxshilik qilishga bag'ishlash eng noyob fazilatdir. Birinchi navbatda ota-onalarimizga muhabbat, hurmat, ularning barcha xizmatini qilish — bo'y nimizdagи muqaddas burch. Bu sharaflı burchni ado qilib, ota-onal olqishini olgan farzand, shubhasiz, dunyoda baxtli, saodatlı bo'lib yashaydi. Buning yorqin namunasini „Uch og'a-ini botirlar“ ertagida ko'rish mumkin. Ertakdagи ota uzoqni ko'zlab ish ko'radiganlardan. U o'g'illariga yaxshi tarbiya beradi. Natijada o'g'illari ota izidan borib, komil insonlar bo'lib kamol topadilar. Ota duosi, o'git-nasihatlarini dillariga jo qilib olganliklari uchun ular hayotda kam bo'lmaydilar.

Uch zabardast o'g'il. Uchovlarning qo'llari ko'ksida, otaga ta'zimda. Aql, kuch-jasoratda tengi yo'q bu yigitlar odobda ham hammani qoyil qoldiradilar. Ota kambag'al bo'lsa-da, botir-pahlavon o'g'illari ko'zining tirikligida hayotda o'z yo'llarini topib olishlarini orzu qiladi.

Odamning qanchalik tarbiyali va halol-pokligi do'st orttirganda, safarga chiqqanda; mard-pahlavonligi esa kurashda, jangda bilinadi. Ota xuddi shunday reja, mo'ljal bilan farzandlarini safarga jo'natadi. Ertakni sinchiklab o'qib, ota nasihatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bilimdon, uzoqni ko'ra oladigan, aql-zakovatda tengsiz bir inson ekanligini sezamiz. Otaning farzandlariga aytadigan so'zi — nasihatni bir jumlagina. Lekin uning ma'nosi, ta'siri, kuchi olamcha bor.

Ota nasihatini bir necha bo'limlarga ajratib o'rganish mumkin. Nasihatning birinchisida har bir ota-onal o'z farzandi olamga kelishi bilan unga yaxshi, o'ziga munosib ism qo'yib, to'y-tomoshasini o'tkazib, o'qitishi, xat-savodli qilishi haqida gap boradi:

— O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim.

Hamma zamonlarda ham bola tarbiyasi eng muhim masala hisoblangan. Nasihatda xuddi ana shu xususda so'z boradi. Bolani

chinakamiga sog'lom, tetik, baquvvat qilib voyaga yetkazish, ona-Vatan himoyasiga tayyorlash, foydali mehnatga o'rgatish yosh bo'g'in kamolotida muhim o'rinda turishi aytildi:

— Sizlarni uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog'lom vujudli qilib tarbiyaladim — quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim — yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqtymay o'stirdim — qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz.

Nasihatning uchinchi bo'limi juda muhim. Unda to'g'ri, halol, pok inson bo'lish, o'zgalar mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, kamtarlik suv bilan havodek zarurligi, ayni paytda, maqtanchoqlik va dangasalik yomon illatlarga olib kelishi ta'kidlanadi:

— Yana uch narsani aytaman, quloqlaringizga quyib olinglar, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasa bo'lmang — baxtsiz bo'lmaysiz.

„Uch og'a-ini botirlar“ ertagini qahramonlari mehribon, qattiqqo'l, talabchan ota tarbiyasini olganliklari uchun safar tashvishlarini osonlik bilan daf etadilar. Yo'lda o'zlariga duch kelgan barcha to'siq va g'ovlarni yengib o'tadilar. Botir va dovyurakligi bilan el-yurt olqishini olib, baxtiyor bo'ladilar.

Yoshlar kelajakda yaxshi xulq, ezgu niyat va go'zal fazilatlar egasi bo'lishlari uchun nima qilishlari lozim? Buning uchun aniq maqsad yo'lida qiyinchiliklardan qo'rmaslik, ottona, tarbiyachi va muallimlarning maslahatlariga amal qilish, vaqtini faqat foydali ishlarga sarflash, kuch-g'ayratni ilm-u fan tahsili uchun surf qilish kerak.

Ha, bolalar uchun hayotda eng buyuk va sharaflı yo'l bor. Bu yo'ldan aslo chiqmaslik va adashmaslik zarur. Bu yo'l insoniylik yo'lidir. Unga amal qilgan kishi hamisha baxt-u saodat sohibi bo'ladi. U odamlarga ma'naviy kuch-quvvat beradi, kishini to'g'rilikka boshlaydi. Shuningdek, xalq baxtsaodati uchun yashash, yaxshilik qilish, kattalarning hurmatini joyiga qo'yish ham kishining insoniy burchidir.

Bizning bu fikrimizni „Egri bilan To'g'ri“ ertagi orqali isbotlash mumkin. To'g'riboy halol, pok, yaxshi niyatli inson. U ro'zg'or tebratish, tirikchilikni o'nglash uchun mardikorlik qilishga majbur. Biron ish topish uchun safarga otlangan. Bisotida bitta oti bor, xolos.

Yo‘lda tasodifan Egriboy bilan hamroh bo‘lib qoladi. U oqko‘ngil bo‘lgani uchun uzoq yo‘l mashaqqatini yangi hamroh bilan tortmoqchi bo‘ladi. Sherigim charchadi. Otni navbat bilan minaylik. Bo‘lmasa bu do‘slikdan emas, deb otni Egriboyga beradi. Ko‘ngli qora, munofiq Egriboy esa otni olib qochadi. Donolar oltinning sofligi o‘tda, insonning to‘g‘riliqi omonatga xiyonat etmasligida, deb bekorga aytmagan ekanlar. Egriboy egrilagini qilib do‘siga xiyonat qiladi.

To‘g‘riboy yo‘lda ko‘p adashadi, tunda o‘rmonda qolib ketadi, noiloj eski tandir ichiga kirib tunaydi. Kechasi o‘rmon yirtqichlari tandir atrofiga to‘planishib, asrlon-shoh boshchilida g‘alati suhbat qurishadi.

Tulki doston boshlaydi:

— Og‘aynilar, men sizlarga aystsam, o‘n yil bo‘ldiki, o‘rmon yoqasidagi g‘orda yashayman. O‘n yildan beri davlat yig‘aman. Mendagi mol-dunyo hech kimda yo‘q.

Navbat shaqalga keladi:

— O‘rmonga tutashgan katta tepalik ostida yashayman. U yerda bir sichqonim bor, har kuni tush paytida inidan chiqadi, uni qirq bitta tillasi bor, shuni o‘ynagani-o‘ynagan. Tillani o‘ynab-o‘ynab, yana iniga olib kirib ketadi.

Ayiq uning so‘zini bo‘libdi:

— Bu ham uncha qiziq emas. O‘rmonda bir tup sadaqayrag‘och o‘sadi. Qayrag‘ochning pastida ikkita shoxchasi bor. Ana shu shoxlarning barglari hamma kasalga davo. Uni ezib ichilsa, har qanday jonivor o‘sha zamonoq dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi. Men bolalarimni shu bilan davolayman.

Uning orqasidan bo‘ri tilga kiradi:

— Og‘aynilar, bizning ham qiziq hikoyamiz bor, — deb gap boshlaydi u. — O‘rmon yoqasida o‘n ming qo‘y boqiladi. Har kuni ikkita bo‘rdoqini yeypman, meni ushslash uchun cho‘ponlar qopqon qo‘yishadi, tuzoq solishadi, ammo pisand qilmayman. Lekin qirda Kimsan chol degan dehqonning bir kuchugi bor. Shu kuchukni cho‘ponlar sotib olishsa bormi, sho‘rim quriydi.

Yo‘lbars unga qo‘sishimcha qiladi:

— Rost aytasan, qo‘ylarga o‘xshash o‘n ming yilqi ham o‘rmon atrofida o‘tlab yuribdi. Men har kuni birini yeypman. Ular orasida bir ayg‘iri bor. Kimki uni minsما va bir qo‘liga qildan eshilgan kamon, bir qo‘liga uzun gavron olib, meni

quvsal, kamonni bo‘ynimga solib, gavron bilan ursa bormi, bir umr yilqilar oldiga yo‘lamas edim.

Tadbirkorlik, aql bilan ish ko‘rgan To‘g‘ribboy bu suhbatda eshitganlarini amalga oshiradi. Hatto yetti yil bemor yotgan shoh qizini davolab, malikaga uylanadi. U umr bo‘yi ishlab, mehnat qilib, peshana teri to‘kib tirikchilik o‘tkazganligi sababli podshoning in’omidan voz kechadi:

— Menga beklik to‘g‘ri kelmaydi. Men sodda va to‘g‘ri odamman. O‘rmon yoqasidagi tepalikdan bir uy qurishga ruxsat bersangiz bo‘lgani. O‘sha yerda dehqonchilik qilib, kun o‘tkazaman, — deb javob beradi.

„Tog‘-tog‘ bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashti“ deganlaridek, To‘g‘ribboy o‘rmon yoqasidan o‘ziga imorat qurib, umr kechirib yurganida yomon xatti-harakati, yolg‘onchiligi bilan uzoqqa borolmagan Egriboyga yana duch kelib qoladi. U Egriboyga turmushda nimagaki erishgan bo‘lsa, o‘sha tandir sababchi ekanligini gapirib beradi.

Ochko‘z Egriboyning egriligi, aldamchiligi boshini yeysi, u tandir ichida yirtqichlarga yem bo‘ladi.

Xullas, xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, ertaklar bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashda katta o‘rin tutadi.

## URTO‘QMOQ

(O‘zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir kampir bilan chol bor ekan. Ular ovchilik bilan tirikchilik o‘tkazar ekanlar.

Bir kuni chol tuzoq qo‘yib o‘tirgan ekan, tuzoqqa bir katta laylak ilinibdi. Yugurib borib uni tuzoqdan chiqargan ekan, laylak odamga o‘xshab so‘z boshlabdi:

— Ey chol, men laylaklarning boshlig‘iman. Meni qo‘yib yubor. Nima tilasang shuni beraman, mening makonim ana u ro‘paradagi tog‘ning orqasida, „Laylakvoyning uyi qayda?“ deb so‘rasang, hamma aytib beradi.

Chol laylakni qo‘yib yuboribdi, ertasiga ertalab turib, Laylakvoyning sovg‘asini olib kelmoq uchun yo‘lga tushibdi. Oz yurib, ko‘p yurib, bir joyga boribdi, bir to‘da qo‘y boqib yurgan cho‘ponga duch kelib, undan:

— Bu qo‘ylar kimniki? — deb so‘rabdi. Cho‘pon:

— Laylakvoyniki, — debdi va cholni yo‘lga solib yuboribdi.

Cho'pon bir joyga borib, yilqi boqib yurgan yilqichidan so'rabdi:

- Bu yilqilar kimniki?
  - Laylakvoyniki.
- Chol:
- Laylakvoy menga sovg'a va'da qilib edi, nima so'ray?
  - degan ekan, yilqichi:

Laylakvoyning bir xumchasi bor. „Qayna, xumcha!“ desa, tilla qaynab chiqadi, shu xumchani so'rang, — debdi.

Chol yetti kecha-yu yetti kunduz deganda Laylakvoyning uyiga yetibdi. Eshikdan kirib:

- Assalomu alaykum! — debdi. Shunda Laylak:
- Naq saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir yutardim. Sovg'aga kelgandirsan. Qani, nima so'raysan? So'ra! — debdi.
- Men sizdan „Qaynarxumcha“ni so'rayman, — debdi chol. Laylakvoy bir fursat xayol surib turib, keyin cholga bir tovoq tilla bermoqchi bo'lgan ekan, chol bunga ko'nmabdi. Axiri „Qaynarxumcha“ni beribdi. Chol „Qaynarxumcha“ni olib jo'nabdi. Yurib-yurib qishloqqa yetibdi. Dam olgani o'sha qishloqdagi bir oshnasinikiga kiribdi-da, unga:
- Mana bu xumchaga qarab turing, men biroz dam olay, lekin „Qayna, xumcha!“ demang, — deb tayinlab, o'zi uyquga ketibdi.

Oshnasi „Qayna, xumcha!“ deb qichqirgan ekan, xumchadan tilla qaynab chiqaveribdi. Uy egasi shoshib-pishib, tillalarni yig'ib olib, xumchani berkitib qo'yibdi. „Qaynarxumcha“ o'rniga boshqa bir xumchani olib kelib qo'yibdi. Chol o'midan turib, xumchani ko'tarib jo'nabdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz deganda uyiga kelibdi.

- Chol kampirga qarab:
- Qani, kampir, dasturxon yoz, hozir tillaga boy bo'lamiz, — debdi.

Kampir dasturxon yozibdi. Chol dasturxon o'rtasiga xumchani qo'yib, bor kuchi bilan „Qayna, xumcha!“ deb baqiribdi. Xumchadan tilla qaynab chiqmabdi. Chol yana baqiribdi, tilla yana qaynamabdi. Cholning jahli chiqib: „Ha la'nat Laylakvoy, meni aldab, boshqa xumcha beribdi, yana boshqa sovg'a so'rayman“, debdi.

Chol erta bilan yo'lga chiqibdi. Yilqichilar oldiga borib:

— Laylakvoy meni aldadi, endi nima so‘ray? — debdi. Yilqichi o‘ylab turib:

— „Ochילדasturxon“ni so‘rang, uni yozib „Ochil, dasturxon!“ desangiz, har xil noz-ne’matlar tayyor bo‘ladi, — debdi.

Chol Laylakvoyning eshididan kirib:

— Assalomu alaykum, Laylakvoy, — debdi. Laylak:

— Naq saloming bo‘lmasa, ikki yamlab bir yutardim. O‘tgan gal senga „Qaynarxumcha“ni berib edim, shu yetmadimi? — debdi. Chol hamma voqeani aytib:

— Meni aldabsan, „Qaynarxumcha“ning o‘rniga boshqa xumcha beribsan, endi sendan „Ochילדasturxon“ni so‘ragani keldim, — debdi.

Laylakvoy o‘ylab qolibdi. Oxiri „Ochילדasturxon“ni cholga sovg‘a qilibdi.

Chol yo‘lga tushibdi, oz yurib, ko‘p yurib, o‘tgan gal dam olgan qishloqdagi og‘aynisinikiga qo‘nibdi. So‘ngra unga:

— Mana shu dasturxonni saqlab qo‘ying, men biroz dam olay, lekin „Ochil, dasturxon!“ demang, — deb tayinlabdi. Chol uyquga ketibdi. Uy egasi: „Ochil, dasturxon!“ deb qichqirgan ekan, dasturxonda yetmish xil ovqat tayyor bo‘libdi. Uy egasi hamma ovqatni yig‘ib olib, dasturxonni almashtirib qo‘yibdi.

Chol uyqudan turib, dasturxonni ko‘targanicha yo‘lga tushibdi va uyiga kelib:

— Kampir, qanaqa ovqat desang ham hozir tayyor bo‘ladi, — deb dasturxonni o‘rtaga qo‘yibdi-da, „Ochil, dasturxon!“ degan ekan, hech qanaqa ovqat chiqmabdi. Chol g‘azablanib, „Laylakvoy qurg‘ur meni yana aldagan ekan, endi borib boshqa sovg‘a so‘ray“, debdi.

Ertasi saharlab chol yo‘lga chiqibdi. Yilqichining oldiga borib:

— Birodar, endi Laylakvoyni nima so‘ray? — debdi. Yilqichi aytibdi:

— „Urto‘qmoq“ni so‘rang. Dushmaningiz ko‘pga o‘xshaydi, agar „Ur, to‘qmoq“ desangiz, oldingizda kim bo‘lsa ham, uni urib tashlaydi.

Chol yana Laylakvoyning uyiga borib, eshikdan:

— Assalomu alaykum, — deb kiribdi. Laylakvoy:

— Yana nega kelding? „Qaynarxumcha“ni olding, „Ochil-dasturxon“ni olding, yana nima kerak? — degan ekan, chol Laylakvoyna qarab:

— Bu gal ham aldading, Laylakvoy. „Ochildasturxon“ o‘rniga boshqa dasturxon beribsan, endi sendan arzimas bir narsa so‘rayman: menga „Urto‘qmoq“ni ber, — debdi. Laylak:

— „Urto‘qmoq“ni olsang ola qol, menga uning keragi yo‘q, — deb cholga „Urto‘qmoq“ni beribdi.

Chol to‘qmoqni olib, yo‘lga tushibdi. Yurib-yurib, o‘sha o‘zi bilgan qishloqqa kelib, oshnasiga:

— Mana shu to‘qmoqni olib qo‘ya turing, men biroz dam olay, lekin „Ur, to‘qmoq!“ deya ko‘rmang, deb yotib uxlabdi. Uy egasi to‘qmoqni uydagilarga ko‘rsatib, sinamoqlik uchun „Ur, to‘qmoq!“ degan ekan, to‘qmoq ularni bosh-ko‘zi demay savalay ketibdi. Ularning dod-voylariga chol uyg‘onib qolibdi. Uydagilar yig‘lashib:

— Ota, aytинг, to‘qmoq urishdan to‘xtasin. Biz xumchan-gizni, dasturxoningizni qaytarib beramiz, — deyishibdi. Chol: „Tur, to‘qmoq!“ deb qichqirgan ekan, to‘qmoq urishdan to‘xtabdi; uy egasi darrov ichkaridan „Qaynarxumcha“ bilan „Ochildasturxon“ni chiqarib beribdi. Chol ularni olib yo‘lga tushibdi, yetti kecha-yu yetti kunduzda uyg‘a kelibdi.

Chol xumchani o‘rtaga qo‘yib, „Qayna, xumcha!“ degan ekan, xumchadan tilla qaynab chiqibdi. „Ochil, dasturxon!“ degan ekan, yetmish xil ovqat tayyor bo‘libdi. Chol bilan kampir bir umr yemagan ajoyib ovqatlarni yeyishibdi, juda xursand bo‘lishibdi.

Tillalarni chol beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga ulashibdi. Shunday qilib, chol bilan kampir murod-maqsadiga yetibdi.

## HAQQUSH

(*Tojik xalq ertagi*)

Bir baliqchi bo‘lgan ekan. U ertalabdan kechgacha daryo bo‘yida o‘tirib baliq tutar ekan. Tutgan baliqlarini bozorda sotarkan. Bu pul xotini ikkisining tirikchiligiga zo‘rg‘a yetar ekan.

Kunlardan bir kuni baliqchi ov qilayotgan daryo bo‘yiga Haqqush uchib kelibdi-da, daraxtga qo‘nib, baliqchi nima qilayotganini kuzata boshlabdi.

Baliqchi oqshomga yaqin bitta kichkina baliqchani tutibdi, xolos. Buni ko‘rgan qush undan:

— Bu baliqchani nima qilmoqchisiz? — deb so‘rabdi.

— Nima qillardim, baliqchani bozorga oborib sotib, non

olaman. Uyda kampirim ikkimiz tamaddi qiladigan hech vaqo yo‘q, — debdi baliqchi.

— Sizlarga achinaman! — debdi Haqqush. — Mayli, shunday bo‘la qolsin, har kuni hovlilaringga kattakon baliq olib kelaman. Qarigan chog‘laringda qiyalmay yashanglar. Ammo faqat Haqqush haqida hech kimga og‘iz ocha ko‘rmanglar.

Shu kundan boshlab Haqqush har kuni baliqchingining hovlisiga kattakon baliq olib keladigan bo‘libdi. Kampir baliqni bo‘lib-bo‘lib qovurar, baliqchi esa ularni bozorga olib borib sotar ekan. Chol bilan kampir tezda boyib ketishibdi, hatto bog‘i bor uy ham sotib olishibdi. Bir kuni baliqchi har galgidek bozorda qovurilgan baliq sotayotgan ekan. Birdan uning yonidan podshoning jarchisi o‘tib qolibdi. U:

— Kim Haqqushni qayerdan topishni aysa, shoh unga yarim podsholigi va qizini beradi! — deb qichqiribdi.

Bu so‘zlarni eshitgan baliqchi chol o‘rnidan sakrab turmoqchi bo‘libdi-yu, ammo Haqqushga jim yuraman deb va‘da bergenini eslab, yana joyiga cho‘kibdi.

Ammo jarchi o‘rnidan sakrab turmoqchi bo‘lgan cholni sezib qolibdi. U Haqqush haqida biror narsa bilsa kerak deb o‘ylab, cholni podsho huzuriga sudrab olib boribdi.

— Qariyapman, — debdi podsho, — o‘nlab tabiblar turli xil dori-darmonlar berib meni yashartirolmadi. Bir tabibning aytishicha, Haqqush qoniga yuvinsam, qayta yashararmishman. Agar o‘scha qushni tutib bersang, yarim podsholigim bilan qizimni bergenim bo‘lsin. Agar qushni tutib berishga ko‘nmasang, o‘limga buyuraman.

— Ammo Haqqush shunday kattaki, — debdi baliqchi, — uni yuzta odam ham tutishi qiyin.

— Men senga to‘rt yuzta odam beraman, faqat qushning qayerga uchib kelishini ko‘rsatsang, bas. Odamlarim, albatta, uni tutishadi, — debdi podsho.

Baliqchi chol shoh xizmatkorlarini uyiga olib borib, Haqqush har kuni hovlisiga uchib kelishini va baliq tashlab ketishini aytib beribdi.

— Qushni havoda tutib bo‘lmaydi, — deyishibdi xizmatkorlar.

— Unga ovqat tayyorlab, yerga tushib yeb ketishga ko‘ndir. Shunda uni tutib olamiz.

To‘rt yuzta odam baliqchingining hovlisida qushni poylashibdi. Baliqchi kosaga yemish solib, hovli o‘rtasiga qo‘yibdi-da,

qushning kelishini kuta boshlabdi. Qush uchib kelishi bilan baliqchi:

— Ey Haqqush, kel, hovlimga qo'n! Mehmon bo'l! — deb qichqiribdi.

Qush yerga qo'nib kosadagi ovqatdan cho'qilay boshlabdi. Shunda to'rt yuz odamning hammasi unga tashlanibdi. Qush qanotlarini qoqib ko'kka talpinibdi.

Baliqchi qushning oyog'idan ushlab qolishga ulguribdi va u ham qush bilan birga havoga ko'tarilibdi. Podsho xizmatkorlari esa baliqchining oyog'idan mahkam ushlab olishibdi. Shunday qilib, hammasi bir-birining oyog'idan ushlagancha qush bilan birga ko'kka ko'tarilishibdi. To'rt yuz odam zanjirga o'xshab havoda muallaq qolibdi.

Haqqush esa borgan sari yuqorilayveribdi. Baliqchining qo'llari tolib, panjalari ezilib ketibdi. Shunda qushning oyog'ini qo'yib yuboribdi. Odamlarning hammasi yerga qulab majaqlanibdi. Insofsiz baliqchi ana shunday jazo topgan ekan.



(obzor)

Kichkintoylarning otaxon kuychisi, atoqli bolalar adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to'xtalib shunday degan edi: „Umrim davomida inkor qilolmaydigan haqiqatim shuki, kichkintoylarning hayotda to'g'ri yo'lni topib, dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo'lga solishda kitobdan-da muhimroq vosita yo'q ekan. Shuning uchun ham ota-onalarning birinchi vazifasi o'z farzandiga kitobga mehr uyg'otishi, deb bilaman.

Gohida fan va texnika taraqqiyoti tufayli badiiy adabiyotga e'tibor susayyapti, degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go'zallikka ehtiyoj tuyg'usi bor ekan, san'at asarlari ham o'zining bahosini hech qachon yo'qotmaydi.

Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni shavq bilan o'qiydiganlar safi ortib borayotganini ko'rish quvonarlidir". Rus adibi M. Gorkiy kitob insoniyatning aqliy kamolot bosqichiga ko'tarilishida naqadar bebafo rol o'ynayotganini uqtirib:

— O'zimda mavjud hamma narsalar uchun kitob oldida burchdorman. Men kitoblarni sevaman, ularning har biri menga bir mo'jiza, yozuvchi esa sehrgar bo'lib ko'rindi. Men kitoblar haqida chuqur hayajonlanishsiz, quvonch va shavq-zavqsiz gapira olmayman. Kitob meni o'zimga tanish bo'lgan hayot ichidan olib o'tadi, ammo hamma vaqt insonda men ilgari sezmag'an va bilmagan qandaydir yangi narsani o'rgatadi, — deganida ming bora haq edi.

Kitobdan xolisroq suhbатdosh yo'q. Shuning uchun ham ulug'larimiz o'z ta'limotlarini, ko'pincha, kitob bilan, kitobxonlik bilan bog'lashlari bejiz emas.

Ayniqsa, maroqli, o'qishli qilib yozilgan kitoblarga ishtiyoq zo'r. Bunday kitoblar mavzusi muhimligi, tilining jonli, ravon va ravshanligi bilan ajralib turadi. Shu bois tilga e'tiborni kitobxonga e'tibor belgisi deb to'g'ri baholaydilar. Ulug' ustozlarimizdan bo'lgan Abdulla Qahhor: „Shavq bilan o'qiladigan kitob go'zallikdir. Kitobning o'qishli bo'lishi muallifning kitobxonga aytadigan to'lamag'izli va juda zarur fikri bo'lganini ko'rsatadi“, deb haq gapni aytadi. Shunga yaqin so'zni mashhur

bolalar yozuvchisi Samuil Marshak ham aytgan: „Bola har bir kitobda butun olamni ko‘rishni istaydi. U ermakka o‘qimaydi, u o‘zi uchun dunyoni kashf etadi, nimanidir o‘rganadi...“

Bolalar saviyasining o‘sishida, shu jumladan, kitobxonlikka berilib ketishida, albatta, o‘qituvchilarning badiiy didi katta ahamiyatga ega. Shunday ustozlarni bilamizki, ular „Kitob foydali, kitobni ko‘proq o‘qinglar!“ deb ortiqcha nasihat qilib o‘tirishmaydi, buning o‘rniga dars soatlarida ham, darsdan tashqari vaqtlarida ham kitobni qo‘llaridan qo‘ymay mutolaa qilishadi. O‘qigan kitoblarining mazmun-ma’nosini maroqli qilib aytib berish orqali bolalarda havas uyg‘otishadi. O‘qilganlarni shunchaki yodlamasdan, uning mag‘zini chaqishga, mustaqil muhokama yurita olishga o‘rgatishadi.

Jahonda jamiyat qonuniyatları, tabiat sirlaridan hikoya qiluvchi asarlarni sevib, ularni maroq bilan o‘qib, bilimini oshirgan shaxslar ko‘p. Ayniqsa, hayotga endigina qadam qo‘yib kelayotgan yoshlar uchun quvnoq davrimizni, baxtiyor bolalikda o‘tadigan jozibali damlarni tasvirlovchi kitoblar nihoyatda zarur. Bunday asarlarni yoshlarning eng yaqin suhbатdosh do’stlari, maslahatgo‘ylari bo‘lgan yozuvchilar yaratayotganlari sir emas.

Adabiyotga, kitobga muhabbat qo‘yishning o‘zida hikmat bor. Avvalo, kitob hayotda odamga katta yo‘lni topib olishga ko‘maklashadi. Yaxshi bilan yomonni ajratish, milliy qadriyatlаримиз — ajdодларимиз qoldirgan boy meroslarga hurmat hissini uyg‘otib, yoshlarning ongini yuksaltirishga yo‘l ochadi.

Mana shunday buyuk maqsadni ado etadigan bolalar adabiyotimizning paydo bo‘lishida xalq og‘zaki ijodining ta’siri kuchli bo‘ldi. Shuningdek, bolalar adabiyoti taraqqiyoti jamiyatning umumiyo rivoji bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bu jihaddan Mahmud Koshg‘ariyning „Devoni lug‘otit turk“ asarini eslash o‘rinli. XI asrning buyuk tilshunos olimi o‘z kitobiga juda ko‘p ma’lumotlarni jamlagan. Kitobda XI asr adabiyoti bilan birga, avvalgi zamonlarda paydo bo‘lib, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga ko‘chib yurgan maqollar, rivoyatlar, qo‘shiq va lirik she’rlardan namunalar keltirilgan. Ayniqsa, mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum qo‘shiqlari haqida batafsил ma’lumotlar beriladi.

Shuningdek, Urxun-Enasoy obidalarida, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga olib boruvchi bilim“),

Ahmad Yugnakiyning „Hibat ul-haqoyiq“, („Haqiqatlar armug‘oni“) dostonlarida hamda Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniylarning asarlarida til, ilm, fan, axloq-odob masalalari keng qamrab olinadi. Haydar Xorazmiy, Qutb, Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Lutsiy singari shoirlarning xalq turmushini, orzu-armonlarini yorqin aks ettirgan asarları adabiyotimiz tarixida muhim ahamiyatga ega. Bu mumtoz shoirlar ijodi Alisher Navoiydek buyuk san’atkorning voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni tayyorladi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik, ilm-fan, san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi. Uadolatparvar, donishmand davlat arbobi, o‘zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘targan buyuk so‘z san’atkori bo‘lib, davrning madaniy hayotiga rahbarlik qildi, ilm-fan, san’at va adabiyot ahllariga homiylik ko‘rsatdi, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi.

XV—XVI asrlarda yashab ijod etgan Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida o‘scha davr hayotiga doir tarixiy voqealar bilan birga, ilm-fanga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan, turli xalqlarning urf-odatlari, tili, san’ati va adabiyoti yoritilgan.

XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan ikki buyuk shoir Muhammadniyoz Nishotiy va Muhammad Sharif Gulxaniylar ijodi mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida ajralib turadi. Nishotiyning xalq og‘zaki ijodi asosida yaratgan „Husni dil“ dostoni ishq-muhabbat, aql-farosat, odob-axloqqa bag‘ishlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, dostonda har biri mustaqil asar bo‘la oladigan „Shohboz va bulbul“, „Gul va Daf“, „Nay va Shamshod“, „Binafsha va Chang“ kabi masallar ham berilgan. Bu masallarning barchasi el-yurtga foyda keltirish, maqtanchoq bo‘lmaslik, ortiqcha kibr-havoning zarari kabi mavzularning yoritilishi jihatidan bolalar uchun ibratlidir.

Gulxaniy ham „Zarbulsasal“ asarida o‘zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga munosabatini hayotiy timsollar orqali ifodaladi.

Munis mehnatkash xalqning og‘ir ahvoliga qattiq achindi, ilm-fan va adabiyot ahlining xor-zorligidan qayg‘urdi. Shoир kishilarni bilim olishga, kitob o‘qishga, johil va yomonlardan

uzoq bo'lishga chaqirdi. Munis „Savodi ta'lim“ risolasi orqali bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari Ogahiy, Muqimiyy, Furqat, Komil, Zavqiy, Avaz O'tar kabi shoirlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Munavvarqorilar tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloqodobi haqida materiallar beriladi.

Abdulla Avloniy („Birinchi muallim“, „Ikkinchi muallim“, „Maktab gulistoni“, „Turkiy guliston yoxud axloq“), Hamza Hakimzoda Niyoziy („Yengil adabiyot“, „Axloq hikoyalari“, „Qiroat kitobi“) asarlarida yangi davr nafasi usura boshladи.

20-yillarda Fitrat, Cho'lpion, Elbek, Botu, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Oybek va boshqalar kichkintoylar uchun yozgan asarlarida bolalarni yaxshi o'qishga, ilm-fan nurlaridan bahramand bo'lib, davrning haqiqiy o'g'il-qizlari sifatida kamol topishga targ'ib etdilar.

Bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. 30-yillarga kelib she'riyat (Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy), nasr (Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova, Hakim Nazir), dramaturgiya (Zafar Diyor, Dorjiya Oppoqova) sohalarida bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar. Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Elbek, Shokir Sulaymon va G'ayratiyalar ham o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga munosib hissalarini qo'shdilar.

Bu davrda boshqa xalqlar adabiyotidan ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Natijada o'zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, „Yer yuzi“, „Bolalar yo'ldoshi“, „Bolalar dunyosi“, „Yosh kuch“ kabi jurnallar chiqishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ldi. Uning mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiatni, xalqlar do'stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o'rin oldi.

Xalqimiz boshiga ko'p musibatlar, jabr-u jafolar solgan ikkinchi jahon urushi yillarda urushni va yovuzlikni qoralovchi ko'plab otashin she'rlar, dostonlar yaratildi.

So'nggi davrda bolalar she'riyatida ona-Vatan, go'zal diyor, hur o'ljamiz to'g'risida yaratilgan asarlar diqqatga sazovordir („Yashna, Vatan“ (I. Muslim), „Obod o'ljam“, „

„Yurtimizning yuragi“ (P. Mo‘min), „Mening Vatanim“, „Baxtli bolalar“ (Q. Hikmat), „O‘lkamizning tongi otmoqda“ (A. Rahmat), „Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi“ (A. Oripov) va boshqalar).

Bu mavzuda yaratilgan asarlar ichida Abdulla Oripovning „Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi“ she’ri ajralib turadi. O‘zbekiston haqida ko‘plab asarlar bor. A. Oripov ularni takrorlamasdan o‘ziga xos yorqin asar yozgan. She’r qahramonlari o‘n ikki viloyatdan chiqqan a’lochi, jamoatchi o‘quvchilar. Ular o‘z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poyezdda o‘zlariga hamroh bo‘lgan boboning savollariga lo‘nda lo‘nda javob berishadi. O‘zbekistondagi har bir viloyatning o‘ziga xos boyligi, shaharlari, bag‘rikeng odamlari kitobxon ko‘z o‘ngida bir-bir gavdalanadi.

O‘zaro suhbat asosiga qurilgan bu she’rdagi boboning yakuniy so‘zi ham salmoqli. Unda tobora gullab-yashnab borayotgan, mustaqil, o‘z taqdirini yaratayotgan diyorimizning husn-jamoli, qudrati yaxlit ifoda etilgan:

Siz atagan har bir joy  
Bitta bo‘ston bo‘ladi  
Hammagini qo‘shsangiz,  
O‘zbekiston bo‘ladi.

O‘zbek xalqi azaldan mehnatkash xalq. Ishchanlik bizga otabobolarimizdan meros bo‘lib qolgan. Q. Muhammadiyning „Etik“, „Buvimning hikoyasi“, H. Yoqubovning „Sirdaryo oftobi“, Shukur Sa’dullaning „Hovlimizning bolalari“, „Dastyor qiz“, „Bog‘bon qiz“, Ilyos Muslimning „Oyxon va rayhon“, „Ishchan asalarilar“, „Sening sovg‘ang“, Po‘lat Mo‘minning „Dalalarga qarasam“, „Oftob chiqdi olamga“, Qudrat Hikmatning „Bobo va nabira“, „Jo‘jam, yurma laqil-lab“, Tolib Yo‘ldoshning „Vaqt qadri“, Yusuf Shomansurning „Baraka“, „Tikuvchi“, Tursunboy Adashboyevning „Shanbalik“, Rauf Tolibning „Bobo xursand, Nodira xafa“, Q. Otaning „Mehnatdan zavq olaman“ she’rlari bevosita mehnat mavzusiga bagishlangan.

Tinchlik va do‘slik. Bu ikki so‘z bir-biriga egizak. Bolalar adabiyotida tinchlik va do‘slik mavzusi muhim o‘rin tutadi. G‘afur G‘ulom („Kaptar uchar, g‘oz uchar“, „Tinchlik arafasi“), Q. Muhammadiy („Urushga yo‘l bermaymiz“), Sh. Sa’dulla („Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she’r“),

I. Muslim („Do'stlik“), Q. Hikmat („Tinchlik haqida qo'shiq“), Shuhrat („Tinchlik allasi“, „Do'stlik gul“), Mardonqul Muhammadqulov („Uch kaptarim, uch“), Yusuf Shomansur („Orzular bir“), Safar Barnoyev („Biz bolalar“), Tursunboy Adashboyev („Do'stlik“) kabi shoirlar kitobxonlarni tinchlik va do'stlik ruhida tarbiyalashga barakali hissa qo'shdilar.

Hozirgi zamon bolalar adabiyotida o'nlab balladalar, ertaklar, dostonlar maydonga keldi. Oybekning „Zafar va Zahro“, „Bobom“, Q. Muhammadiyning „Dunyoda eng kuchli nima?“, „Solijon“, Shukur Sa'dullaning „Laqma it“, „Ikki donishmand“, Po'lat Mo'minning „O'rinosarlar“, „Eh, rosa shirin ekan“, „Xolning jiyron velosipedi“, „Oltin nay“, „Jalil eshitgan ertak“, Qudrat Hikmatning „Toshbaqalar hujumi“, „Bobodehqon hangomasi“, „Chovkar“, „Chirchiq farzandi“, Ramz Bobojonning „Cho'pon o'g'li“, Safar Barnoyevning „Biz dehqon bolasimiz“, „Oltin shahar haqida afsona“, „Oltin oshiqlar“, Miraziz A'zamning „Aqli bolalar“, „Bedananing buvisi“, Tursunboy Adashboyevning „Dovonlar“, „Harflarning sarguzashti“, Toshpo'lat Hamidning „Asrorqulning qo'chqori“, Ergash Raimovning „Bir dona yaproq“, Rauf Tolibning „Sehrgar do'stim bor“, „Maqtanchoq“, Usmon Azimning „G'aroyib ajdarho“, Kavsar Turdiyevaning „Toshkesarlar mamlakatida“ kabi doston va ertak-dostonlari yaratildi.

Shoir Po'lat Mo'min „Ko'ngil istar yaxshilik“ asarida bolalar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, o'qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik masalalarini ilgari suradi. Bolalar hayotida sodir bo'ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo'yoqlarda, qiziqarli lavhalarda chizib beriladi. Bir so'z bilan aytganda, maktab o'quvchilarining jozibali hayoti zavq-shavq bilan tasvirlanadi.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar nasrida ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangidan-yangi avlodni kamol topdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to'la javob bera oladigan ko'plab hikoyalari yaratildi. Hakim Nazir, Yoqubjon Shukurov, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Turg'unboy G'oipov, Rahmat Azizzxo'jayev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Muradov, Ergash Raimov, Safar Barnoyev, Abdusaid Ko'chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan qissa va hikoyalari to'plamlari bosilib chiqdi.

Juda ko‘p hikoyalarda kichkintoylar hayotidagi turli sarguzashtlar va ziddiyatlar o‘z ifodasini topmoqda. Shodmonbek Otaboyevning „Itolg‘i“ hikoyasi qush, qurt-qumursqlarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg‘i chumchuq va chug‘ur-chuqlarni tutib olib yeydigan qush. Shukurali aka Itolg‘ini jiyani Shavkatga sovg‘a qiladi. Shavkat uzum qo‘riqlashda undan foydalanoqchi edi. Ammo qush ularnikida o‘zini erkin sezmaydi. Buning sababini surishtirganda Shavkatning otasi bu jonivor ozodlik va erkinlikni qo‘msayotganligini tushuntiradi. Shavkat qushlarni yaxshi ko‘radigan, rahmdil bola. U Itolg‘ini qafasda uch kun zo‘rg‘a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o‘zi o‘tirgandek bo‘ladi va Itolg‘ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga rahmat, degandek aylanib uchib ketadi.

Bolalar qissachiligidida Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi ulug‘ adiblarning hissasi katta. Shuningdek, Hakim Nazir, Shukur Sa’dulla, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Latif Mahmudov, Nosir Fozilov, Farhod Musajon, Hojiakbar Shayxov, Anvar Obidjon, Habib Po‘latov, Muqimjon Niyozov, Rustam Rahmonov, Shukur Xolmirzayev, Oqiljon Husanov, Mamatqul Hazratqulov kabi yozuvchilarining asarlari ham sevib o‘qiladi.

Bu davr bolalar qissachiligidida sarguzasht, ilmiy-fantastika janrlari ham rivoj topdi. Xudoyberdi To‘xtaboyev („Sariq devni minib“, „Qasoskorning oltin boshi“, „Shirin qovunlar mamlakatida“), Hojiakbar Shayxov („Samo mehvaridagi namoyish“, „Shom kamari“, „Ajododlar xotirasi“), Mahkam Mahmudov („Yevropaning o‘g‘irlanishi“), Anvar Obidjon („0099 nomerli yolg‘onchi“, „Dahshatli Meshpolvon“), Oqiljon Husanov („Tog‘da o‘sgan bola“), Olloyor („Fazogir chumoli“) va boshqalar bu janrda samarali ijod qilmoqdalar.

Bolalar tarbiyasida dramaturgiya janrida yaratilgan asarlar ham katta rol o‘ynaydi. Hakim Nazir, Adham Rahmat, Po‘lat Mo‘min, Mamarasul Boboyev, Turg‘unboy G‘oyibov, Narimon Orifjonov, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Ravshan Yoriyevlarning pyesalari kichkintoylar quvonchiga quvonch qo‘sib kelmoqda.

Shu zaylda hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyoti rivojlanishda, u yangi yozuvchilar, yangi asarlar bilan tobora boyib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bu adabiyot mustaqil O‘zbekistonimizning tobora gullab-yashnashi uchun xizmat qilmoqda.



## *Alisher Navoiy*

(1441–1501)



O'zbek xalqining ulug' ma'rifatparvari, mutafakkiri va buyuk shoiri Alisher Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan sahifalar nihoyatda ko'p. U bolalarni ilm-hunar egallashga, mehnatni sevishga undaydi, bu ilm va hunarni xalq, vatan manfaatlari yo'lida sarf qilish zarurligini alohida uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: „Yoshligingda yig' ilmnning mahzanin, qarigan chog'da sarf qilg'il ani“ — shoiring shiori ana shunday. U yoshligidan o'qishga beriladi. Bolaligidanoq ko'p she'rlarni yodlaydi. Jumladan, Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush nutqi“) asarini qayta-qayta o'qib, yod oladi. Alisher Navoiy davlatda yuqori marta-baga erishgach, maktab va maorif ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. U bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun mакtablar ochish va madrasalar qurishda g'amxo'rlik ko'rsatdi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida do'sti, podshoh Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qiladi. Shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining „Ixlosiya“ madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratadi. Buning uchun o'z hisobidan lozim bo'lgan mablag'ni ajratadi.

Navoiy o'qituvchini quyoshga o'xshatadi. Quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochganidek, mudarris „abjalxonalar“ni yoritadi, hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarni ilm nuridan bahramand etib, ma'rifat beradi, deydi.

Alisher Navoiy ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini badiiy asarlarida komil insonlar sisatida tasvirlangan ijobjiy obrazlari orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, ilm-fanning xislati, qudratiga juda katta baho beradi.

Buyuk shoir bolalar tarbiyasiga oid fikr-mulohazalarini „Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“ kabi dostonlarining ayrim boblarida keng bayon etadi. „Hayrat ul-abror“ („Yaxshi kishilarning hayratlanishi“) falsafiy-ta'li-miy dostondir.

Shoir dostonda saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmnинг foydasi va mashaqqat chekib bilim olgan kishi baxt-saodatga erishajagi haqidagi falsafiy qarashlarini keng bayon etadi.

„Farhod va Shirin“ dostonida shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarni tarannum etadi. Dostonning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag'ishlangan. Shoir Farhodning bolalik chog'laridanoq ilm-hunarga, mehnatga katta muhabbat bilan qaraganini zo'r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlaydi.

Farhod yoshlik chog'idanoq juda aqli, zehnli bola bo'lib o'sadi. U maktabda zo'r havas va qunt bilan o'qiydi. Tabiiyot, matematika, mantiq kabi fanlarni tez o'rganib oladi. Yosh Farhodning ilmga bo'lgan havas va muhabbatini sezgan ota-onasi uni har jihatdan rag'batlantiradilar. Juhonning mashhur olimlari Farhodga turli fanlardan saboq beradilar. Natijada eng murakkab va pinhoniy ilmlar unga o'z sir-asrorini namoyon etadi. U qunt va chidam bilan o'qib, bilimdon va zukko inson bo'lib yetishadi.

Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostonida ilgari surilgan yuksak insoniy xislatlar, insonparvarlik g'oyalari yosh kitobxonlar ma'naviyatiga ham chuqur ta'sir etadi, ularni xalq, vatan uchun munosib inson bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Buyuk shoir o'qish va tarbiyaga doir fikrlarini „Layli va Majnun“ dostonida ham ilgari surgan. Yangi maktablar bino qilish g'oyalarni targ'ib etgan Navoiy maktablarda o'g'il bolalar bilan bir qatorda qizlarning ham o'qishini orzu qiladi.

Alisher Navoiy Farhod, Qays, Iskandar va boshqa ijobiy obrazlar vositasida kamolotga yetish bosqichlarini tasvirlab, bolaning voyaga yetishida tarbiyaning katta kuch-qudratga ega ekanligini alohida uqtiradi.

Shoirning 1500-yilda yaratgan „Mahbub ul-qulub“ („Ko‘ngillarning sevgani“) asarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiyta’limiy qarashlari chuqur bayon etilgan. Navoiy insondagi ijobiy fazilatlarning namoyon bo‘lishida halollik va soddalik, samimiylilik kabi fazilatlar asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi. Bu xislatlar esa mehnatga muhabbatning natijasi sifatida talqin etiladi.

„Mahbub ul-qulub“ uch qismidan iborat. Birinchi qismi „Xaloyiq ahvoli va af’oli va atvorining kayfiyatida“, ya’ni kishilarning ahvoli, fe’l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida bo‘lib, bunda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san’at va adabiyotning ahamiyatini targ‘ib etadi, malakali, iqtidorli muallimlarni, olimlarni, shoirlarni, san’atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. O‘qish ham, o‘qitish ham og‘ir va mas’uliyatlari ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi, deb uqtiradi shoir. Bu o‘rinda murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta’kidlaydi.

Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Kitobning 2-qismi axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Unda, asosan, yaxshi fazilat va yomon illatlar tahlil qilinadi. To‘g‘rirog‘i, shoir komil insonga xos bo‘lgan odob-axloq haqida gap yuritadi. Masalan, qanoatni olaylik. Navoiy qanoatli odamlarni maqtaydi, ularga havasi keladi. Kimki qanoatli bo‘lsa, unday odamni el ardoqlashini, e’zozlashini ta’kidlaydi. Mutafakkir qanoatni bir buloqqa — chashmaga o‘xshatadi. Negaki, buloq suvini qancha olgan bilan u qurimaydi, u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug‘i izzat va shafqat hosilini beradi. U bir daraxtdirki, unda hurmat mevasi bordir. Bu bobda sabr, tavoze’ haqida ham ko‘p ibratli gaplar aytilgan.

Asarning „Turli foydali maslahatlar va maqollar“, deb nomlangan 3-qismida ko‘proq o‘qish, ilm olish, kasb-kor egasi bo‘lish singari masalalar o‘rtaga tashlanadi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o‘zi ham ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab hikmatlar yaratdi.

### „LISON UT-TAYR“DAN

*YANA BIR QUSHNING HUDHUDGA SAVOLI:*

Dedi bir soyilki: — Ey, farruh jamol,  
Ko‘ngluma behad muhabbat soldi mol.  
Ham visoli jonima solur nashot,  
Ham unidin ko‘nglum aylab inbisot.  
Bir nafas gar bo‘lmasa ilkimda siym,  
Hajridin jonimga bor o‘lmakka biym.

*JAVOB:*

Dedi Hudhud: — K-ey haqiqatdin yiroq,  
Joningga qo‘yg‘on diram dog‘i firoq.  
Hirs jomi aylagan ko‘nglungni mast,  
Sen bo‘lib ul mastlig‘din zeridast.  
Bu ne so‘z bo‘lg‘ayki, zikr etgay kishi,  
Kim emas bu odamiylarning ishi.

*HIKOYAT:*

— Basra shahrida laime bor edi,  
Bebasarlig‘ fanida dinor edi.  
Mayli jam’ aylarga dinor-u diram,  
Ul sifat g‘olibki, Hotamga karam.  
Ko‘p mashaqqatlar bila duni laim,  
Bir-bir uzra jam’ aylar erdi siym.  
Onchakim jam’ o‘ldi bir mahzan anga,  
Yer tubida ayladi malfan anga.  
Bovujudi muncha naql ul dunhisol,  
To‘nig‘a tik mish edi gardun misol.  
Beadad maxfiy diramlar hirsi shum,  
Kunduz andoqkim, falak ichra nujum.  
Kim bulardindur manga tan quvvati,  
O‘ylakim, tan quvvati — tan sihhati.  
Ittifoqo, bir kun o‘ldi manzile  
Mol savdosiga daryo sohili.

Suv qirog‘inda yer ul moli harom,  
Molning savdoda sudidin taom.  
Bo‘ldi daryoda ilikni yuvdi ham,  
Chun og‘irlik qildi bir sori diram.  
Tushdi daryoga laimi dunsirisht,  
Chekti qa‘riga oni ul fe‘li zisht.  
Tolpinib ko‘p zohir etti iztirob,  
Kim birov solgay oning sari tanob.  
Maxlasiga mayl ko‘rguzguncha xayl,  
Ko‘prak yetti bahrning qa‘riga mayl.  
Chun og‘ir erdi diramdin langari,  
Suv tubin tutti sadafdin gavhari.  
Siymdin yetti bu ofat joniga,  
Tushti yag‘mo mahzani pinhoniga.  
Siym yig‘moqqa natija bo‘ldi bu,  
Sen oning savdosidin ilkingni yuv.  
Mutlaq oning sari mayl etma yano  
Kim talotumda erur bahri fano.

### NASRIY BAYONI:

*YANA BIR QUSHNING HUDHUDGA SAVOLI:*

Savol beruvchi dedi:

— Ey qutlug‘ jamol egasi! Mol-u dunyo mening ko‘nglimga cheksiz muhabbat soldi. Unga erishmoq xayoli jonimga quvonch bag‘ishlaydi, uning jaranglagan tovushini eshitsam, ko‘nglim huzur topadi. Ko‘nglimda agar bir nafas oltin-kumush bo‘lmasa, meni o’sha zahotyoq o‘lgan deb hisoblayver.

*HUDHUDNING JAVOBI:*

Hudhud unga dedi:

— Ey haqiqatdan yiroq! Joningga pul firoq dog‘ini qo‘yibdi. Hirs jomi ko‘nglingni mast aylabdi. Sen bu mastlikdan yer bilan bitta bo‘lib, bu behuda xayolni boshingdan chiqarib tashla! Miyangni ezib yotgan bu qattiq toshdan qutqar! Haqiqiy yer bo‘lsang, asl maqsadni ko‘zlagil, nimaiki so‘zlasang, o‘shandan so‘zlagil. Bu nomunosib ish bilan shug‘ullanma, chunki undan senga zarar yetib, oxiri joningning uvoli bo‘ladi.

## HIKOYAT:

Basra shahrida bir xasis kishi bor edi. U nodonlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidan ketgan edi. Hotam Toy saxovat va karam ko'rsatishda qancha nom qozongan bo'lsa, u dinor va dirham yig'ishda undan mashhurroq edi. Ushbu xasis va pastkash kishi ko'p mashaqqat chekib, bitta-bittalab oltin yig'ar edi. U katta bir xazina to'plagach, ularni yer tagiga ko'mdi. Bu ochko'z yana shunga teng keladigan boylikni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi. Yashirgan behisob oltinlar o'sha shum hirsli kishining ko'ziga hatto kunduz kunlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko'rinar edi. U o'zicha, tanimga quvvat, tanimga quvvatgina emas, balki jonimga sihat ham mana shu oltinlar tufayli, deb o'yldi.

Ittifoqo, bir kuni u savdo-sodiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdo qilgan molidan tushgan harom pullarga taom olib yedi. Shundan so'ng qo'lini yuvmoqchi bo'lib daryo labiga engashdi. Ammo to'niga tikkak oltinlari og'irlik qilib, uni suv tortib ketdi. Xasis kishi ana shu yomon fe'li tufayli daryoga cho'ka boshladi. U suvdan chiqmoqchi bo'lib, iztirob bilan chunon talpinar, birov kelib qutqarar, degan umidda baqirib-chaqirar edi. Ammo odamlar yetib kelgunga qadar u daryo tubiga cho'kib bo'ldi. Chunki uning oltindan bo'lgan langari behad og'ir ediki, shu sababli u suv tubida sadaf ichidagi gavhardek mangu tik turib qoldi.

Uning joniga ofat yetkazgan narsa, albatta, o'zi yig'gan sim-u zar edi. Shuningdek, uning yashirib qo'ygan xazinasi ham talon-toroj bo'ldi. Oltin-kumush yig'ish oqibatida ana shunday mudhish voqeа ro'y berdi. Sen bunday jirkanch ishlardan qo'lingni tort! Ularga zinhor mayl ko'rsatma, chunki bu fano dengizi — dunyo doimo dahshatli to'lqin ichidadir.

*Nasriy bayon muallifi  
Sharafiddin Sharipov*





## *Muhammad Sharif Gulxaniy*



Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan mumtoz shoirlarimizdan biridir. Uning asl ism-sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy adabiy taxallusি. Taxminlarga ko'ra, u XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo'jand viloyatining Darvoza qishlog'ida tug'ilgan.

Bo'lajak shoирning bolaligi o'zi olamga kelgan tog' qishlog'ida o'tadi. Bu yerda o'qib, savod chiqaradi, adabiyotga havas qo'yadi. Ko'plab asarlar o'qiydi, xalq og'zaki ijodini berilib o'rganadi va asta-sekin she'riy mashqlar qila boshlaydi. U ilmini oshirish maqsadida avval Namangan, so'ngra Farg'onaga keladi, qiziqchiligi, hozirjavobligi va hajviy she'rlari bilan kishilar o'rtaida taniladi. Ayniqsa, g'ariblik turkumidagi ruboiy va to'rtliklari bilan el og'ziga tushadi. Shoир keyinchalik Qo'qonga keladi. U o'zbekcha she'rlariga Gulxaniy, fors-tojikcha she'rlariga Jur'at deb taxallus qo'yadi.

Gulxaniy bir necha yil Qo'qon xoni Olimxon saroyida navkarlik qilgan, janglarda qahramonlik ko'rsatgan bo'lsa-da, ammo ochlik, yupunlik, muhtojlik uning hamrohi bo'lib qolaveradi.

Gulxaniyning „Ber menga“ radifli she'ri ana shu davrda yozilgan.

Olimxonidan keyin Qo'qon taxtiga chiqqan Umarxon hukmronligi davrida ham Gulxaniy turmushida hech qanday o'zgarish bo'lmadi.

Gulxaniy XIX asrning bиринчи yarmida vafot etadi. Uning eng yirik asari „Zarbulmasal“dir. Bu o'tkir hajviy asarda Gulxaniy xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so'zlari

va iboralaridan mohirlik bilan foydalanadi. U feodal hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo‘li bilan hajv tig‘i ostiga oladi. Shoир mehnatkash xalqning og‘ir, mashaqqatli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar fuqaroni talash hisobiga bo‘lishini payqadi. Natijada unda saroy zodagonlariga nisbatan nafrat hissi tobora oshib bordi. Ammo shoир, sharoitga ko‘ra, hukmron doiralardan noroziligi va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun u majoziy shakldagi „Zarbulmasal“ asarini yozishga kirishdi. Asarda shoирning maqsadi, hayotga, uni o‘rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo‘lgan munosabati to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o‘xhash majoziy obrazlarning tasviri orqali beriladi. Shoир shu tarzda o‘zi yashagan zamonga, voqeа-hodisalarga munosabatini, qarashlarini dadil aks ettiradi.

Mualif o‘z masallaridagi majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.

Gulxaniy o‘z asarida majoziy yo‘sinda Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulankirsulton, Malik Shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ochadi.

Yapaloqqush va Boyo‘g‘lilar yuqori tabaqa vakillari. Ularning xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari, yurish-turishlari shumlik, yomonlikdan iborat. Adolatsiz urushlar orqali o‘nlab shahar va qishloqlarning vayron bo‘lishi ular uchun bayramdir.

Gulxaniy „Maymun bilan Najjor“ masalida hunarni va hunar ahlini ulug‘laydi, qo‘lidan kelmaydigan ishga urinib, kulgi bo‘ladigan ayrim noshud kimsalarni tanqid qiladi.

Mehnatkash xalqning og‘ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi „Tuya bilan bo‘taloq“ masalida ta’sirli vositalarda oshib beriladi.

Gulxaniyning tasvirlashicha, tuya hayotda ezilgan, tutqun, erk-ixtiyorsiz, og‘ir mehnatga mahkum etilgan mehnatkash-

larning majoziy obrazidir. Bo'taloq esa, og'ir, mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalang'ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkashlarning timsolidir.

Gulxaniyning „Toshbaqa bilan chayon“ masalida tasvirlangan Toshbaqa — aqlli, farosatli, sodiq va qadrdon do'st timsoli bo'lsa, Chayon butun umri bo'yi birov larga ziyonzahmat yetkazishni kasb qilib olgan, yaxshilikka yomonlik qaytaradigan, xiyonatkor toifalarning ramziy obrazidir.

### MAYMUN BILAN NAJJOR

Bor edi Kashmir novahida tog‘,  
Bog‘i Eram rashkidan ko‘ksida dog‘.  
Anda imoratg‘a yarog‘lig‘ yag‘och,  
Eni — quloch, bo‘yi — o‘n ikki quloch.  
Bor edi ko‘p ne’mati alvonlari,  
Xurram-u ma’mur edi hayvonlari.  
Zulf kabi sunbul xushbo‘ylari,  
Rohatijon edi oqar suvlar.  
Uydan ulug‘roq edi bir gulbune,  
Anda vatan tutmish edi maymune.  
Jon sotib o‘zni uyin etardi tan,  
O‘qur edi qissai „Hubbul vatan“.  
Yer edi ko‘ngli tilagan mevasin,  
Boshlar edi odamiylik shevasin.  
Bir kuni najjori xiradmandi fard,  
Ko‘ngli yog‘och yo‘qligidin qildi dard.  
Eliga nav kisalarin mistardi,  
Rasm edi najjor yag‘och istari.  
Bordi o’shal tog‘ga — mavquf edi,  
Ezgu yag‘ochlar anga ma’ruf edi.  
Shahrni zindonidin ozod o‘lub,  
Tog‘ni Shirinig‘a Farhod o‘lub.  
Sonur edi o‘zini tog‘ Xisravi,  
Tog‘ni o‘qub Dehlaviyi ma’naviy.  
Borib anga kesti yog‘och keshasin,  
Qo‘ydi o‘shal yerda unutub teshasin.  
O‘zga tog‘ga borib yana kesti yag‘och,  
Bolta birla bir uchini yordi ul,  
Pona qo‘yub tesha sori bordi ul.

Tushti banogoh anga maymun ko‘zi,  
Oqil-u dono sonub ul dam o‘zi  
Aydi: „Ulus ichra bu bir kasbdur,  
Kasbni boshini kessang nasbdur.  
Kisayi purzar emish elga hunar,  
Behunar elni dedilar: „Go‘shi xar“.  
Men dahi najjorlikni o‘rganay,  
Bolalorim barchasiga o‘rgatay“.  
Jahd qilib turdi ravon borg‘oli,  
Ya’ni yog‘och qolmishlarin yorg‘oli.  
Mindi yag‘och ustig‘a najjordek,  
Kosibi purgundan purkordek.  
Ketti hunar shavqi bila g‘ussasi,  
Tushti yag‘och ayrisig‘a dumchasi.  
Bil, keynidin bo‘ldi tutulmoqlig‘i,  
Mumkin emas o‘ldi qutulmoqlig‘i.  
Odamini jinsida yo‘q qissasi,  
Qoldi aning dumchasining hissasi.

### Nasriy bayoni:

Kashmir atrofida bir tog‘ bor edi. Uning go‘zalligiga Eram bog‘i rashk qilardi. U tog‘da bo‘yi o‘n ikki va eni bir qulochlik imoratbop yog‘ochlar va xilma-xil noz-ne’matlar bor edi. U yerning hayvonlari ham dorilamon yashardilar. U yerning xushbo‘y sunbullari go‘zallar zulfidek, oqar suvlar ham jonning rohati edi.

Tog‘da uydan kattaroq g‘ovlab ketgan bir gul tupi bo‘lib, u yerda bir maymun yashardi. Jon kuydirib, o‘z uy-joyi payidan bo‘lar va tinmay „Sevikli vatan“ qo‘shig‘ini aytardi. U ko‘ngli tilagan mevalarni yer va odamlar qiladigan ishlar payidan bo‘lardi.

Bir kuni fahm-farosatda yagona duradgor yog‘och yo‘qli-gidan ko‘ngli g‘ash tortib, qo‘liga naqsh chizadigan yangi chizg‘ichini oldi. Yog‘och izlab topish uning odati edi. Duradgor o‘ziga ilgaridan tanish bo‘lgan, ammo kesishi keyinroqqa mo‘ljallangan yaxshi daraxtlari bo‘lgan o‘sha tog‘ga bordi. U shahar zindonidan qutulib, tog‘ Shiriniga Farhod bo‘lib, o‘zini tog‘ shohi, tog‘ni esa ustoz Dehlaviy hisoblab

jo'nadi. Yetib borib, yog'och ildizini kesdi va o'sha yerda o'z teshasini unutib qoldirdi. Boshqa tog'ga borib yana yog'och kesdi va uni yorish gali kelganida, bolta bilan bir uchini yorib pona qo'ydi-da, teshani olib kelgani ketdi.

To'satdan bunga maymunning ko'zi tushib qoldi. U o'zini aqli va dono hisoblab: „Xalq orasida bu ham bir kasb. Kasbdan voz kechsang, haqorat eshitasan. Hunar — elning tilla to'la cho'ntagi emish. Hunarsiz kishilarni „Eshakning qulog'i“ deydilar. Men ham duradgorlikni o'rganay va barcha bolalarimga ham o'rgataman“, dedi.

U g'ayrat bilan o'rnidan turdi va yog'ochning qolganini yorish uchun yoriq yog'och boshiga yetdi. U duradgordek yog'ochning ustiga mindi. Uning vajohati ko'p ish ko'rgan ustaga o'xshardi. Hunar ishtiyoqi bilan ko'ngli yozilib, yog'och yorig'iga dumi tushib qolganini sezmadni. Ponani tortgani bilan, o'z quyrug'idan tutilgani uchun aslo qutila olmadi. Odamzod orasida bunaqa hodisa bo'limgan edi: maymunning bir parcha dumi yog'och ayrisida uzilib qoldi.



## ***Hamza Hakimzoda Niyoziy***

*(1889—1929)*



Butun hayoti va ijodiy faoliyatini muallimlikka, bolalar uchun darsliklar va badiiy asarlar yozishga bag'ishlagan Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889- yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida tavallud topdi.

Hamzaning muallimlik faoliyati 1911- yildan boshlangan. U dastlab Qo'qon shahrining Hojibek guzarida kambag'al va yetim-esir bolalar uchun maktab ochdi. Mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash, ularga moddiy jihatdan ko'maklashish maqsadida shu yillarda „Yordam“ jamiyatni ham tashkil qildi. Ana shu jamiyat orqali u bolalarni o'quv qurollari, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta'minlab turdi. Hamza o'zi tashkil qilgan maktabda kattalar uchun kechki kurs ochadi.

Bu davrda u birinchi sinf o'quvchilari uchun „Yengil adabiyot“, 2-sinf uchun „Axloq hikoyatlari“ o'qish kitoblarini tuzadi.

Hamza 1915- yili Marg'ilonga borib, kambag'al bolalar uchun bepul maktab ochadi. 1918- yilda esa Farg'onada o'qituvchilikni davom ettiradi va u yerdagi yosh san'at ixlosmlarini to'plab, „Sayyor dram truppa“ tashkil qiladi. 1919-yilning boshlarida Hamza Qo'qondagi 1-sonli boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o'zi o'qituvchilik qiladi. 1922—1924-yillarda shoir Qoraqalpog'istonning Xo'jayli tumani dagi 1-bolalar uyi mudiri va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1925-yilda esa u Farg'onaning Avval qishlog'idagi maktabga o'qituvchi qilib tayinlanadi va juda og'ir sharoitda ishlaydi. Ayni vaqtida, u xalqni yangi zamon qurishga chaqiruvchi asarlar yozib, badiiy ijodini davom ettiradi.

Shoir 1928—1929-yillarda Shohimardonda o‘qituvchilik qiladi. Uning tarbiyachilik faoliyatini badiiy asarlari yanada to‘ldiradi. Jumladan, tarbiyaviy mavzuda yaratgan „Ilm ista“, „Maktab“, „Kitob“, „O‘qi“, „Qalam“, „To‘g‘riso‘z bola“, „Hikoyat“, „Toshbaqa bilan Chayon“, „Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi“ kabi she’rlari ibratlidir. Bu asarlarning ko‘philigi 1914- yilgacha yozilgan.

Hamzaning ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari „Yengil adabiyot“ kitobida keng ifodalangan. Bu kitobdan o‘rin olgan „Maktab xususinda“ asari alohida ajralib turadi. She’rda maktab millatning quyoshiga, guli va bog‘iga o‘xshatiladi:

Maktab millat quyoshi,  
Balki ko‘z ila qoshi.  
Ko‘zsiz, qoshsiz kishining  
Qanday xunukdir boshi.

Maktab millat saroyi,  
Ilm-u adabning joyi.  
Dunyoda eng saodat  
Axtarganlarning joyi.

„Yengil adabiyot“ga jamlangan she’rlardagi bosh qahramonlarning asosiy xususiyatlaridan biri — to‘g‘riso‘zlilik. Shoir bolalarni rostgo‘y bo‘lishga, zararli va keraksiz narsa o‘rniga foydali ishlar bilan shug‘ullanishga, kishilarning yaxshi sifatlaridan ibrat olishga chaqiradi.

Bolalarni ilmli, odobli hamda hunarli qilishda kitobning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini Hamza „Kitob“ she’rida sodda, obrazli, mazmundor misralarda tasvirlab beradi. U kitobni bilim manbayi, „ko‘zning nuri, dil huzuri, dillarning darmoni!..“, „Har balodan asraguvchi eng muhim qimmat yarog“ sifatida ta’riflaydi. Har bir kishi ko‘nglidagi orzusiga yetishishi uchun „Ilm manbayi bo‘lgan kitob“ni sevishi, ardoqlashi lozimligini ta’kidlaydi.

Hamza „Ilm ista“ she’rida yoshlarga murojaat qilib, kishining ko‘zlagan murod-maqsadlariga erishishida ilm olishning ahamiyati katta ekanligini uqtiradi, yoshlarni bilim olishga, dunyo sirlarini o‘rganishga da’vat qiladi. U ilmli va ilmsiz kishini qiyoslab, ilmli kishini porloq ostobga, ilmsizni esa qorong‘i kechaga o‘xshatadi.

„Toshbaqa bilan Chayon“ masalining sujeti xalq og‘zaki ijodida juda mashhur. Gulxaniy bu masalni nasrda yozgan bo‘lsa, Hamza unga qayta sayqal berib, nazmda bayon etgan. Masalda do‘slik ulug‘lanadi, firibgarlik, tilyog‘lamalik qattiq qoralanadi. Toshbaqa orqali rahmdil, chin do‘sit obrazini

yaratadi. Chayon obrazida esa yaxshilikka yomonlik qaytaruvchi, munofiq, o‘z so‘zida turmaydigan kishilar fosh etiladi.

Shoir bolalarni do‘sit tanlashda adashmaslikka, yomon niyatli kishilar bilan hamroh bo‘lmaslikka chaqiradi, kimki yaxshilikka yomonlik qaytarsa, uning boshiga ham albatta kulfat tushishini uqtiradi.

Hamza 1925- yilda „Ikkinchisinf uchun qiroat kitobi“ darsligini yozdi. Bu kitob mavzusi jihatidan Alisher Navoiyning „Hayrat ul-abror“ asariga yaqin turadi. Kitob bolalar ruhiga moslab, nasriy yo‘l bilan yozilgan.

Shoir „Milliy ashulalar“, „Oq gul“, „Qizil gul“, „Yashil gul“ va boshqa to‘plamlaridagi qo‘shiqlari orqali xalq ommasini madaniyatli bo‘lishga, ijtimoiy faoliakka chaqiradi.

Ma’rifatparvar shoir, dramaturg va bastakor Hamza Hakimzoda Niyoziy mehnatkash xalqni, shuningdek, yosh avlodni o‘qitish, tarbiyalash, ma’naviyatini yuksaltirishdek ezgu ishga butun iqtidorini, umrini bag‘ishladi.

## O‘QI

Ko‘zimizga ko‘runub turgan hama asboblar,  
Hech biri bo‘lmas edi, gar bo‘lmasa, zinhor o‘quv.  
Yer ichida ko‘mulub yotgan hama oltin, kumush  
Yuzaga chiqdi bori, bois anga axbor<sup>1</sup>, o‘quv...  
Gar dilingda o‘ylagan orzuga yetmoq istasang,  
Qimmat umring qilmog‘il behudaga bekor, o‘qi!  
Qo‘y o‘yin, sayr-u tamoshoni, g‘animat yoshliging,  
Shum fe’llardan o‘zingni aylagil bezor, o‘qi!  
Ey o‘g‘il, dunyoda bo‘lmoq istasang olivjanob,  
O‘qig‘il muktab kelib, zinhor o‘qi, ming bor o‘qi!

## ILM ISTA

Kim bilurdi odam-u olam nadur, hayvon nechik?  
Bo‘lmasa erdi agar insonda bu osori ilm.  
Qaysi mavjud boqsang bilmoxqa kayfiyatini,  
Lozim o‘lgay topmoqqa avval o‘qib axbor ilm...  
Olamning xurshidi<sup>2</sup> kundir, odamning xurshidi ilm.  
Olamning zulmati tundir, odamning nodori ilm<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> **Axbor** — ma’lumot, bilim.

<sup>2</sup> **Xurshid** — ofstob.

<sup>3</sup> **Nodori ilm** — ilmsiz.

Har murod-u maqsadingga yetmoq istarsan murod,  
Ko'z ochib bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm!  
Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan, Nihon,  
Ilm ista, ilm ista, istag'il zinhor ilm!

## KITOB

Har ko'ngilning orzusi shul erur obi hayot,  
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob...  
Har murodning boshidur, har muddaoning gavhari,  
Har marazlarning shifosi, ya'ni luqmondir<sup>1</sup> kitob.  
Ko'zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidir,  
Har qorong'u dilga go'yo mohitobondir<sup>2</sup> kitob.  
Har balodan asrag'uvchi eng muhim qimmat yarog',  
Tiri vahshat<sup>3</sup> xanjari zillatga<sup>4</sup> qalqondir kitob.  
Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g'ayrat agar,  
Tez zamonda oshno bo'lmos'i osondir kitob.

## TO'G'RISO'Z BOLA

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,  
To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.  
Biri dedi: „Tanga berurman sanga  
So'zla bir og'izgina yolg'on manga“.  
Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:  
„So'zlang, ako, qomatingizga qarab.  
Bu so'zingiz aslida yolg'on erur.  
Tangaga yolg'ONNI kim olgan erur.  
Sizda ko'p erkan o'zi yolg'on, ako,  
Siz oni avval sotib aylang ado.  
Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,  
O'rtog'ingizda ko'p erur bizdanam“.  
Ofarin aytdilar oning so'ziga  
Tangani xolis berubon o'ziga.  
Hissa: kimi to'g'ri so'zli har qachon,  
Tekuzadur doimiy bo'yala hison<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> **Luqmon** — bemorni davolovchi.

<sup>2</sup> **Mohitobon** — yorqin oy.

<sup>3</sup> **Tiri vahshat** — vahshiylilik o'qi.

<sup>4</sup> **Zillat** — xo'rlik.

<sup>5</sup> **Hison** — ehson, foyda.

## HIKOYA

Bir kishining bor edi to'rt bolasi,  
Yotgan edi uyga kelib xolasi.

Tursa xola erta bilan o'rnidan,  
Bir so'mi yo'q bo'lmish uning qo'ynidan.

So'rdi, chaqirdi bolalardan ani  
„Ko'p xafa qilmang, beringiz, deb, meni“.

Har biri ham: „Olganimiz yo'q“ dedi,  
Ichdi qasam: „Ko'rganimiz yo'q“ dedi.

Bildi ota foydasizdir qiy namoq,  
Lozim ani olmoq uchun aldamoq.

Barchasini qo'ydi qamab bir uya,  
Oldiga har qaysini qozon kuya.

Dedi: „Kimi rost esa, gar so'zi,  
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi.

Kimning agar yolg'on erursa so'zi,  
Bor-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi“.

Kattasi olgan edi ul aqchani,  
Bilmadi ul o'zi uchun hiylani.

Dedi: „Qora bo'lsa o'zi o'ng yuzim,  
Qora qilay chap yuzimni o'z-o'zim“.

Qildi qora chap yuzini vahm etib,  
Ikki ko'zin turdi eshikka tikib,

Boshqalari olmagani to'g'ridin,  
Tek turishib kutdi ani o'tridin.

Chiqdi olib barchasini otasi,  
Boqdiki, chap yuz qoradir kattasi.

Ko'rdi u ham boshqalarning oq yuzi,  
Bo'ldi xijolat, chiqib egri so'zi.

Berdi ul dam xolasining so'mini,  
Tashladi so'ng shuyla fe'li shumini.

Hissa: kimi buyla xiyonat qilur,  
Bir kun o'zini shuyla xijolat qilur.



## *Abdulla Avloniy*

(1878—1934)



O‘zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, murabbiy, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878- yilda Toshkent shahrida to‘quvchi oilasida dunyoga keldi.

U boshlang‘ich diniy maktabda va madrasada o‘qidi, ilm-fanga ixlos qo‘ydi. O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o‘rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan she’rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning ilk she’rlari o‘sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o‘zining fuqarolik burchi deb biladi va 1904- yilda o‘z mahallasi Mirobodda maktab ochadi. Shoирning qo‘lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi. U yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o‘quv jihozlarini o‘zgartiradi. Bu yerda o‘qiydigan bolalarning ko‘philigini kambag‘al bolalar tashkil etganligi sababli u boy-badavlat do’stlarining ko‘magida „Jamiyati xayriya“ tashkil etadi. Bu jamiyat orqali bolalarni bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftар, qalam bilan ta’minlaydi.

Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o‘quv-chilarning soni ko‘paya boradi.

Adib o‘z maktabida bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalb etib, tezda ularning savodini chiqarishga va shundan so‘ng aniq fanlarni o‘qitishga harakat qildi. U bolalarga jug‘rosiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma’lumotlar beradi.

Muallimlik qilish bilan birga u jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi.

1907-yilda „Shuhrat“ gazetasini tashkil etadi. Uning sahifalarida mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishga doir

fikrlar keng yoritiladi. Jumladan, gazetaning birinchi sonida: „Matbuot har insonga o‘z holini ko‘rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong‘i kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ilm, ittifoq, hikmat g‘oyalarini yoyuvchidir“, deb yozgan edi.

Abdulla Avloniy „Adabiyot yoxud milliy she’rlar“ deb nomlangan to‘rt qismdan iborat darsligida bolalarni ma’rifatga, madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi.

O‘sma davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning „Birinchi muallim“ — „Alifbe“, „Ikkinchchi muallim“ — „O‘qish“ kitoblari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularda Avloniy mumtoz adabiyotimizdagи eng yaxshi an‘analarni davom ettirdi, ilm va ma’rifatning ahamiyatini yangicha talqin etdi. „Birinchi muallim“ — „Alifbe“, „Ikkinchchi muallim“ — „O‘qish“ kitobi rolini bajardi.

„Birinchi muallim“da Avloniy dastavval 32 harfning alohida yoziladigan shakllarini alisbo tartibida bergan. Shu sahifada alifning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida qanday yozilishini ko‘rsatgan, so‘ng alifni barcha „bosh harflar“ga qo‘sib, bo‘g‘inlar hosil qilgan.

„Ikkinchchi muallim“da axloq-odobga, halollik va poklikka oid turli she’r, hikoya, masal va ertaklarni jamlab, rang-barang majoziy obrazlardan ustalik bilan foydalangan.

Kitob „Maktab“ she’ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabda o‘qisa, savodxon bo‘lsa, juda ko‘p narsalarga erisha olishi chiroyli misralarda ifodalanadi:

Maktab dur-u gavhar sochar,  
Maktab sizga jannat ochar,  
Maktab jaholatdan qochar,  
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayo ehson qilur,  
Maktab g‘ami vayron qilur,  
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!..

Darslikda shunga o‘xshash ibratomuz she’r, hikoya va ertaklar ham bir talay.

Abdulla Avloniy 1904-yildan umrining oxirigacha muallilik qildi. Shuningdek, o‘nlab she’rlari, „Maktab guliston“i, „Turkiy guliston yoxud axloq“ kabi darsliklari bilan o‘zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo‘ydi. „Turkiy guliston“da

Abdulla Avloniy o‘zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini yoritadi. Asarning so‘zboshisida muallif bu haqda shunday yozadi: „Men bu asarimni maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari — axloq havaskorlarining e’tiborlariga taqdim qildim“.

Darslikdagi har bir bo‘lim ta’lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, takomillashtiradi. Har bir bo‘limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar berilib, asar oxirida she’riy parchalar yoki hikmatli so‘zlar orqali „qissadan hissa“ chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan.

Abdulla Avloniyning „Bahor keldi“, „Bulbul“, „Bola ila gul“, „Yolg‘onchi cho‘pon“, „Tulki ila qarg‘a“ kabi she’rlari kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan.

Abdulla Avloniy „Advokatlik osonmi?“, „Pinak“, „Biz va siz“ kabi pyesalari bilan drama janrini boyitdi.

### **YAMONOTLIQ JAZOSI**

Bir kishining Qosim ismli o‘g‘li bor edi. Ota va onasining so‘zig‘a kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushub, yaqolashub, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo‘ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: „Qosim, o‘g‘lim! Taomni sen yedingmu?“ desa, „Men yegonim yo‘q, mushuk yegondur“, der edi. Bora-bora otasining pulini ham o‘g‘urlab oladurg‘on bo‘ldi. Otasi bilib: „O‘g‘lim, pulni kim oldi?“ desa, „Onam olgandur“, deb onasini o‘g‘ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig‘a bir tanga pul qo‘yub, o‘zi uxlagan kishi bo‘lub yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og‘ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo‘lg‘onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko‘rdingizmi, yamonning yamonligi o‘z bo-shiga yetdi.

### **ILM**

Ilm deb o‘qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilar. Ilm dunyoning izzati... Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur.

Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... Ilmning foydasi shu qadar ko'pdirk, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yamon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur...

Ilm bir daryo, ichi to'lmush dur-u gavhar bilan,  
Qiymat-u qadrin qachon bilg'ay ani johil ilan.

## VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurg'on hissiyot, ya'ni sezuv tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytilar. Biz har vaqt af'ol va harakatimizning yaxshi va yomonlig'ini, foyda va zararlig'ini vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrining haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bilmak ila barobar, boshqalarning ham af'ol va harakatini sezur. Agar ishlag'on ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur...

Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yoshirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobiga giriftor bo'lurlar.

Alhosil, vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsata-durg'on musaffo bir oynadurki, bu ko'zgiga chin nazar qilg'on kishi o'z ayb-u kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini oxtarmoqg'a vaqt bo'lmas...

Arastu hakim: „Ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya“ deyur. Ya'ni hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettiruvchi bir robitayi elektriqiyasidur, demish.

Ibn Sino hakim: „Vijdon ruh va fikrimizning tuyg‘un qimakg‘a birinchi vositadur“, demish.

Sof vijdon kabi hech komila mezon o‘lmaz,  
Kishi o‘z aybini bilmak kabi urfon o‘lmaz.  
Shod-masrur o‘lur insof ila vijdonli kishi,  
Kimki vijdonsiz esa, to‘g‘ri, chin inson o‘lmaz.

## QANOAT

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o‘g‘li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kuni otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirib, „Mana, sizga olma beraman“, dedi. Vali tezlik birla kelub: „Otajon, menga hammasini berung“, dedi.

Ali sekingina kelub, menga birligiga olma bersangiz bo‘ladur, dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog‘iga olub, peshonasidan o‘pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo‘lma, deb adab berdi.

Qanoat birla qorin to‘ydirursiz,  
Qanoat bo‘lmasa, ko‘p och bo‘lursiz.  
Qanoatsiz kishi bag‘rini dog‘lar,  
Qanoatli kishi og‘zini yog‘lar.

## YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvgaga yiqilub ketdi. Qanolari ho‘l bo‘lub, ucharge kuchi yetmadi. O‘lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko‘rub, ariga rahmi kelub, darhol bir cho‘bni tishlab, suvgaga tashladi. Bechora ari bu cho‘bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko‘p vaqt o‘tmadi. Bir bola tuzoq qo‘yub, kabutarni tutmoqchi bo‘ldi. Ari buni ko‘rgan zamona kelub, bolaning qulog‘ini chaqdi. Bola og‘riqning alamidan tuzoqni tashlab, qulog‘ini ushladi. Kabutar vaqtini g‘animat bilub, uchub ketub o‘lumdan qutuldi.

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,  
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.  
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,  
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.

## TO‘G‘RILIK

Bir kampirning uyida bir tup balx tuti bor erdi. Nihoyatda to‘g‘ri o‘sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo‘q edi. Pishgan vaqtida qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun ovqatini tut sotub o‘tkarur edi. Bir kuni ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo‘lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to‘g‘ri keldi. Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kampir boy xotin bo‘lub qoldi. Bir kun tutni ko‘rgali bordi. Ko‘rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o‘rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

Ey, tutim, to‘g‘riliq‘ing qildi bizi davlatg‘a yor,  
Egri bo‘lsang, sen o‘tun bo‘lg‘ay eding, man xor-zor.  
To‘g‘rilar jannatning ayvonidadur,  
O‘g‘rilar ranj-u alam konidadur.

## ITTIFOQ

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidir. Lekin o‘zлari kichik bo‘lsalar ham nihoyatda g‘ayratli, ittifoq hayvonlardur. O‘zлaricha podshohlari, kattalari, askarlari bo‘ladur. Ulug‘lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g‘ayratlari soyasinda o‘zлaridan katta-katta dushmanlardan qo‘rmaslar. Agar ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hamma-hammalari birdan yopishub, biri qo‘lini, biri ayog‘ini, biri qanotini qattiq tishlab, o‘zлarindan necha barobar katta bo‘lsa ham tezgina qochururlar.

Ko‘rdingizmu, buning o‘zi xo‘b maydadur,  
Birlashub arqon bo‘lsa, fil boylanur.  
Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas,  
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.

## BOLARI VA PASHSHA

Bir pashsha qir tarafdan uchub kelmoqda o‘lan arini ko‘rub:

- Do‘stim, qaydan kelursan? — dedi. Ari:
- Qirdan kelurman. Biroz bol yig‘dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim, — dedi. Pashsha:

— Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan? Nima bo'lurki, san ham man kabi rohatda yashasang? Chunki mening yashamoqimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tarasindin hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichub umr o'tkarurman. Ba'zi vaqtlarda sani yasagan bolingdan ham to'yanimcha yerman. Mana! Yashamoq mana! Umr kechurmoq uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'lurmu? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor,— dedi. Ari bu so'zlarga javoban dediki:

— Oh, do'stim! Bu sani turmushing o'z boshingdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu? Insonlar sani sufradan quvarlar, urarlar, o'ldirurlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkarursan. Oxirda bir o'rgimchak luqmasi bo'limoq-dan boshqa bir narsaga yaramassan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarni yorutar. Bolim dunyoning hamma yerinda maqbuldir. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shu sababli insonlar o'zлari mani tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar. Qo'y, birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashib tururga vaqtim yo'q, — deb uchib ketdi.

**Hissa:** Mehnat oxiri rohat, yalqovlik oxiri xorlikduri.



## **G‘afur G‘ulom**

(1903 — 1966)



G‘afur G‘ulom o‘zbek bolalar adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo‘sghan adiblardan biridir.

1923- yildan adabiyot maydoniga qadam qo‘ygan G‘afur G‘ulom o‘z ijodini bolalar uchun she‘r yozishdan boshladi. U butun ijodi davomida yosh avlodni unutmadi va ularga munosib adabiy meros qoldirdi. Shoирning „Mukofot“ (1940), „She‘rlar“ (1946), „Tongotar qo‘shic‘i“ (1949), „Bari se-niki“ (1953), „Bir g‘uncha ochilguncha“ (1955), „Siz me-ning yoshligimsiz“ (1958) she‘riy to‘plamlari; o‘rtा va katta yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan „Shum bola“, „Tiril-gan murda“ (1934) kabi ajoyib asarlari bolalar adabiyotida munosib o‘rin tutadi.

G‘afur G‘ulom „Yasha, deyman, o‘g‘lim!“ she‘rida fan va texnikani egallahni orzu qilgan, qalbi qahramonlik ishq bilan to‘lib-toshgan, cheksiz osmonga uchib, yulduzdan yulduzga o‘tishni orzu qilgan yosh qahramon tuyg‘ularini samimiyl aks ettiradi. Shoир bolalardagi qahramonlikka bo‘igan zo‘r havasni sezgirlik bilan ilg‘ab olib, uni mohirlilik bilan tasvirlay olgan. Ota bilan bolaning suhbati shaklida yozilgan bu she‘rda o‘g‘ilning yuksak orzulari jonli tafsilotlar va obrazlar orqali ochiladi.

Shoir „Tursunali nega varrakdan voz kechdi?“ she‘rida texnikaning kuch-qudratini kichik yoshdagi bolalar saviyasiga mos bo‘yoqlarda varrak va aeroplan vositasida ko‘rsatadi.

Bola sog‘-tetik, o‘ktam, buning ustiga toza-pokiza bo‘lib o‘ssa — bu hammaning baxti. „Ahmad yomon bola emas-ku, ammo...“ she‘rida Ahmad obrazi orqali „Sog‘lom tanda — sog‘ aql“ maqoli mazmuni o‘ziga xos obrazli tarzda yoritiladi.

Shoirning mahorati shundaki, shartlilik asosida Ahmadning tana a'zolarini jlonlantiradi va o'z tozaligiga befarq qaraydigan bolaning a'zolari majlis qilib, har biri so'zga chiqadi va egasidan norozi ekanliklarini aytib, uni tanqid qilishadi. Ana shundan so'ng o'z xatolarini tushunib, doktorning foydali maslahatlariga amal qilgan Ahmadning keyinchalik ozoda, sog'lom va intizomligina bo'lib qolmay, a'lochi o'quvchiga aylanganligi asarda ishonarli tasvirlanadi.

Tish inson salomatligining mustahkam garovi hisoblanadi. Kimning tishi butun bo'lsa, sog'lig'i yaxshi, kayfiyati chog' bo'ladi. Ota-onalar o'z farzandlariga har doim tishlarini ehtiyoq qilishni, shirinliklarni ko'p iste'mol qilmaslikni, hamisha yuvinib-taranib yurishni uqtirib keladilar. Ba'zan bolalar ota-onalarining pand-nasihatlariga amal qilmay, shirinliklarni ko'p yeb, tishlarida danak, pista-bodom chaqadilar. Shoir „Nortojining kurak tishi“ she'ridagi Nortoji obrazi orqali bolalarni tozalikka rioya qilishga undaydi.

She'rda G'afur G'ulom Nortojining tabiatiga xos bo'lgan erinchoqlik va yalqovlikni, tozalikka rioya qilmaslikni o'ziga xos yo'sinda ko'rsatadi. Asarda bu illatning zararli oqibati bolalarga g'oyat hayotiy va yorqin misralarda yetkaziladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, G'afur G'ulom „Shum bola“, „Tirilgan murda“ asarlari bilan bolalar adabiyotida nasriy janrning yuksalishiga munosib ulush qo'shdi.

Ikkinci jahon urushi yillarida ham G'afur G'ulom bolalar uchun ajoyib asarlar yaratdi. Bu asarlarda vatanparvarlik va baynalmillallik, qahramonlik va jasurlik, g'alabaga ishonch g'oyalari ifodalanadi.

Shoirning bu davrda yozgan eng ta'sirchan asarlaridan biri „Sen yetim emassan“ she'ridir. Unda urush yillarida yetim qolgan bolalarga nisbatan insonparvarlik his-tuyg'ulari yuksak mahorat bilan tarannum etiladi:

Sen yetim emassan,	Mehnatkash mushfiq
Tinchlan jigarim,	Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Quyoshday mehribon,	Xalq bor — otang bor.
Vataning — onang,	Cho'chima, jigarim,
Zaminday vazmin-u,	O'z uyingdasan.

Shoir urushning dahshatli, fojiali voqealarini go'dak xayolida gavdalantirib, mana shu xo'rliklarning sababchisi bo'lgan Gitlerni la'natlaydi:

Sut ko'r qilgur, haromi  
Gitler oqpadar —  
Farzandning qadrini  
Qayerdan bilsin?

G'afur G'ulomning bu she'ri yoshlarda urushga nisbatan nafrat, tinchlikni qadrlash tuyg'ularini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lgan barkamol asardir.

Urushdan keyingi yillarda G'afur G'ulom bolalar uchun „She'rlar“ (1946), „Tongotar qo'shig'i“ (1949), „Bari seniki“ (1953), „Bir g'uncha ochilguncha“ (1955), „Siz mening yosligimsiz“ (1958) kabi she'riy to'plamlar va „Mening o'g'rigina bolam“ (1965) hikoyasini yaratdi.

Kichkintoylarning katta shoiri G'afur G'ulom bolalar va yoshlarni kattalarga, ayniqsa, ota-onaga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash mavzusida anchagina she'rlar yaratdi. Shulardan biri „Ona“ she'ridir. Shoир unda bag'ri usqlardan ham keng ona-ning lirik obrazini yaratadi.

Shoir she'rda onaga murojaat etib, uni qoya, yuksak tog', chaman bog' hamda quyoshga qiyoslaydi va onani ulardan yuqori qo'yadi. Darhaqiqat, dunyoda onadan ulug' zot yo'q!

Shoirning „Ola buzoq“, „Buni toping, qizlarim“, „O'ylashni o'rganamiz“, „Chitti gul“, „O'yinchi qiz“, „Mening kuylarim“ singari she'rlari kinchkintoylarning sevimli asarlari hisoblanadi.

### SHUM BOLA (Qissadan parcha)

... Shunday qilib, bu falokatli ishni Yo'Idosh boshladi. Mahallaning bir to'da o'spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasiga yig'ilib, oshiq o'ynamoqchi edik. Men bugun juda ko'p yutgan edim. Olacha yaktagimning cho'ntagi, yengim, lippam oshiqqa to'lib ketgan edi.

— Bolalar qanda, oshiqlar manda, — deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu payt oraga Yo'Idosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog'orlab ketgan surp yaktagining etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladi:

- Bolalar, xalfana qilamizmi?
- Bo'pti, qilamiz.

- Qayerda?
- Rizqi xalfaning ko'chib ketgan hovlisida.
- Bo'pti.

Xalfanaga palov qilmoqchi bo'ldik. Masavur otaliqning nabirasi Omonboyning o'g'li Husnibiy oshpaz bo'ladigan bo'ldi. Qozon, cho'mich, tuz, qalampir, suv — undan, qolgan masalliqlarni shu yo'sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi — Yo'ldoshdan, go'sht — Abdulla do'lvordan, yog' — mendan. Qolgan-qutgan narsalar — Po'latxo'ja mug'ambirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog' keltirgani uyg'a ketdim. Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa taraddudida edi. Bizning ro'zg'or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun hujrada bo'lar edi. Ayvonda o'rtancha singlim kichik ukamni ovutib o'tirgan ekan. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatish kerak edi.

- Shapag', — dedim unga, — katta to'ping qayerda?
- Qo'g'irchoqlarimning oldida, nima qildi?
- U yerda yo'q-ku!
- Ha... o'lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'yidda, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham „lip“ etib hujraga kirib, ho'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmug'lab<sup>1</sup>, lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim.

Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib qarasam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim. Tovuq qaqlab qochdi.

O'rtoqlarimga yaxshi ko'rinish uchun rasamadda ko'rsatilmagan bo'lsa ham, yog' yoniga tuxumni ham qo'shib olib borishni o'zimga ma'qul qilgan edim. Zing'illab ko'chaga chiqib keta boshladim. Oshxonamiz yo'l ustida bo'lganidan, onam ko'rib qoldi.

— Hoy, juvonmarg, zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni ko'r qilayozdi.

Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldimda, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina

---

<sup>1</sup> Turmug'lab — o'rab.

qulq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalashtirmoqqa boshladim.

Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdag'i yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

— Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang, bolang bo'ladi. Shu yerda, shunday Fotimai Zuhroning dastgohlari<sup>1</sup> bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda, qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi.

Oyim: „Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi?“ deb esi chiqib ketgan ekan. Men bo'sam, xalfana qilamiz deb o'margan o'g'rilingim ochilib qolganidan, bir chekkasi qo'rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib, ko'chaga qochgan edim. Yog' erib oqqan, tuxum singan bo'lganidan xalfanachi o'rtoqlarimning oldiga borishdan ma'no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?

O'ylab-o'ylab topdim. Sa'vonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman. O'zi befarzand. O'zi ham, eri ham meni juda yaxshi ko'rishadi, bularning uyida kishi zerikmaydi ham. Ammamning eri mo'ynadoz — kosib. Bola-chaqalari bo'limganidan, uylari biznikiga o'xshab bozor emas — yig'inchoq. Innaykeyin, bularning uyi saltam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchangal qushlardan — qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan — dakang xo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrashi uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi). Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar.

Bulardan tashqari, faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan ko'ppak, bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulra'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampir-gul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qash-qargul — ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi.

<sup>1</sup> **Fotimai Zuhroning dastgohlari** — o'choq o'zbeklar orasida qadimdan muqaddas joy hisoblangan.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Har holda menga o‘xshagan o‘yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman.

Ammam bilan pochcham meni erkalab qarshi oldilar:

— Kel-a, bo‘yingdan gирgitton bo‘lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog‘im uchib turgan edi, — dedi ammam.

— Ha, balli, azamat, necha kundan beri ko‘zim uchib, yo‘lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur, yaxshilikka ko‘rindi. Sen kelar ekansan, balli-ballı, — dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim.

Pochcham har kuni to‘qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko‘chaga shataloq otaman. Bu mahallada ham yangi og‘aynilar orttirganman. Kamalak otamiz, oshig‘ o‘ynaymiz, it urishtiramiz.

Bir kun pochchamning ko‘ppagini yashirib olib chiqib, urishtirdim. Oldingi bir oyog‘i sinib ketdi va bir umr cho‘loqlanib qoldi.

Yoz payti pochchamni o‘rtoqlari qovun sayliga chaqirgan. Bir tarasi hayitlashib ham kelaman-ku, degan niyat bilan yoniga tozisini ham qarchig‘ayini olib, matrab ko‘tarib, uch-to‘rt kunga dalaga chiqib ketdi, ketar oldida menga uchta buxor<sup>1</sup> tanga berib:

— Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin, — deb tayinladi. Men juda quvondim „Mana endi o‘sib ham qoldim, yoshim o‘n to‘rtga kirdi, odamlar menga ishonadigan bo‘lib qoldi, deb ich-ichimdan sevindim: kimsan miqqiy, kimsan qirg‘iy deganday sohibchangal qushlarning ixtiyori mening qo‘limda.

Qushxonaga kirdim, uyning bir burchagida miqqiy, bir burchagida qirg‘iy — boshlarini yerga tikib, qo‘ndoqda o‘tirar edilar.

Ov qushlarining tezagi oppoq bo‘lar ekan. „Qatiq icharmikan-a? Albatta, qatiq ichadi: bo‘lmasa tezagi oq bo‘lmasa kerak“, deb o‘yladim.

Ammamdan yashirib, oshxonaga kirdim-da, katta xurma-chani ko‘tarib bozorga ketdim. Bir tangani maydalab, bir

---

<sup>1</sup> Buxoro amirlari zamonasidagi tanga.

paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyga keldim. Ikki kosani qatiq bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim. Har ikki qush ham ovqatga qo'noqdan turib sipohgarchilik bilan bir ko'zlab qaradi-da, yuzini chirtta teskari o'girib oldi.

„Nima qilsa ham zotdor, tagi ko'rgan qushlar-da, kishi oldida och bo'lsa ham ovqatga qaramaydi. Tovuq bo'lganda edi, pastlik bilan uyalmasdan o'zini ovqatga urar edi“, deb o'yladim. Qushxonadan chiqib ketdim.

Oradan ikki-uch soat o'tkazib, yana qaytib qushxonaga kirdim. Sipoh qushlar hali ham o'tirgan qo'ndog'idan tushmay, ovqatga ters qarab o'tirar edi. Chumchuqday joni bilan bularga sipohgarchilikni kim qo'ygan ekan, izzat-obro' bo'lsa qildim, birov ovqat yeyayotganda qarab turish yaxshi emas, deb chiqib ham ketdim. Tag'in nimasi qoldi! Jahlim chiqdi. Qushxonaning qirma gilqozig'ida pochchamning qush qo'nadiradigan ov qo'lqopi ilig'liq turgan ekan. Qo'limga kiyib oldim-da, miqqiyini ko'tardim. Butimga qisib, og'zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdan to'ysi, boshqa qushlarni ham shunday qildim: „Ana endi to'ydilaring. Kishi bir yerga qadalib o'tira bersa ham charchaydi, qorni to'q bo'lgandan keyin tolmaydi. Mana endi o'tira beringlar, qornilaring to'q — qayg'ularing yo'q.

Shu xilda ikki-uch kun ammamdan yashirib, o'z bilgimcha qushlarni qatiq bilan siylab yurdim. Qushlarning ichida o'zim yaxshi ko'radigan bittasi bor edi, unga boshqalardan yashirib, qatiqning yuzini berar edim.

Uchinchi kunga borganda erta bilan qushxonaga kirib qarasam, hamma qushlar qo'ndoqdan pastda — hammasi hurpaygan, boshini ichiga olgan, ayniqsa, miqqiy qo'ndoq tagida bir qanotini ostiga solib, oyog'ini barala uzatib, yonboshlab yotgan edi.

— Ha, mana bu kiroyi ish bo'pti, — deb o'yladim. — Yarim qorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi. Shunaqa o'tirish-turishni ham qilib turgan yaxshi, yonbosh qil, yot, kerish.

Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, chunki bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.

Qushxonaga kirib, ne ko'z bilan ko'ray? Miqqiyning qu-log'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi. Qarchig'ay ham jon beray

deb turibdi. Masala menga ravshan bo‘la boshladi. Endi pochchamga nima deyman! Bu qushlarning har bittasini u ko‘zining qorachig‘iday ko‘rar edi-ku! Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko‘rinib ketdi. Pochcham qushlarga ovqat olish uchun bergen puldan ikki tanga-yu bir mirisi hali yonimda. Katta darvozaning ro‘parasidagi yo‘lakning tepasiga qafasda osib qo‘yilgan bir just qumrini juda ham yaxshi ko‘rar edim. Asta borib, qafasni ilgagidan chiqardim. Boshimga qo‘yib, katta safar uchun yo‘lga tushdim, ammam mushuklarga shovla pishirish bilan ovora bo‘lgani uchun mening chiqib ketganimni payqamay qoldi. Belimda pul, boshimda savag‘ichdan to‘qilgan katta qafasda kukulab turgan bir just qumri. Etakni turmaklab, sag‘rimga bir mushtlab, „Hayo, hu“ deb, shahardan tashqariga qarab, yo‘lga ravona bo‘ldim.

Men ketarman yo‘lda yig‘lab, sen qolursan zor-zor,  
Qumri qushning bolasidek ikkalamiz intizor.  
Intizorlik torta-torta tanda toqat qolmadi,  
Yo‘Ichivindek sarg‘ayib, yurarga holat qolmadi.  
Yo‘Ichivinning holini yo‘lda yo‘lovchidan so‘rang,  
Biz g‘aribning holini aqli rasolardan so‘rang.

Birtalay manzil-marohil yo‘l bosib, ko‘p yurib, ko‘p yursam ham mo‘l yurib, Achchabod degan „shahri azimga“ borganimda, bir to‘da katta-kichik qora-qura o‘sprinlar atrofimni o‘rab olishdi. Oralarda jussasi menga bir yarimta keladiganlari bo‘lgani kabi, to‘rttasini bir musht bilan qulatadiganlarim ham bor edi. Avvaliga yaxshilikcha qumrini sotishni so‘rashdi. Ko‘nmasam, zo‘rlik bilan olib qolishlari menga ma’lum bo‘lgan edi, chor-nochor sotishga ko‘ndim. Olg‘irlar qumrini molga almashtirishni zo‘rlab iltimos qildilar. Qumrini molga mavzo<sup>1</sup> qildim, molning turlari quyidagilardan iborat: uch dona g‘alvir, bitta yog‘och shaqildoq, ikki dona bolalar o‘ynaydigan yog‘och beshikecha, bitta terisi va gardishi qizilga bo‘yalgan chirmandacha, bitta tutash dastalik kurak, ikki chaynam saqich va boshqalar...

Mendan ketdimi, ulardan ketdimi — xudoga ayon. Tavakkal, yo ostidan, yo ustidan.

---

<sup>1</sup> **Mavoza** — almashish, ayriboshlash.

Bu yuklar qumriga qaraganda ikki baravar ko'proq og'ir edi. Hammasini yelkaga qo'yib, bu shahardan ham chiqib ketdim. Oldimda katta bir cho'li azim paydo bo'lgan edi. „Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan“ bu cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko'rina boshladi. Men unga, u menga qarab kelar edik. Nihoyat, to'qnashdik, bu to'qnashish mening behad va bepoyon xursandchilimga sabab bo'ldi. Chunki bu kishi o'z shahrimdan, bir mahallalik, mendan bir-ikki yosh kattaroq Omonboy — Tursun pichoqning o'g'li, o'z o'rtog'im edi. Yelkasida yetti yarim qadoqlik ketmon — mardikor ishlab yurgan ekan. U mening ustimidagi yuklarni ko'rib hayron qoldi. Aynilsa, gardishni ko'rib, meni chalma<sup>1</sup> quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti, deb o'ylagan ekan. Yo'lning chekkasiga chiqib, bu cho'l-biyobonda bo'lgan yakkagina jiydaning salqinida o'tirib hasratlasha ketdik.

Yakka jiydada meva ko'rinas edi. Men Omonga juda biladiganlarday ma'nodor qarab:

— Jiyyda solkash<sup>2</sup> ko'rinati, bu yil qilmapti, — dedim.

Omon menga qarab kuldi.

— Voy ahmoq! Hozir saraton. Saratonda jiyyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oydan keyin mevalar qaytib keladi, — dedi.

Men esimdan chiqargan ekanman.

Har ikkovimizning ham dunyo qidirib, baxt izlab yurgan o'spirinligimiz ma'lum bo'ldi. Mol-u jonni bir qilib, ahd-u paymon qilishdik-da, katta ulug' safarni mo'ljal oldik. U ham kelgan izi bilan orqaga qaytdi, birgalashib, „Cho'li malik“ bilan ketar edik. Kechga yaqin juda ham katta bir „shahar“ga kirib bordik. Bu shaharning oti Ko'kterak ekan. O'rtog'imning yonida mardikorlik bilan topgan puli — mirikam ikki tanga, menda bo'lsa qatiqdan qolgan ikki tanga, bir miri pul bor. Samovarga tushdik. Bozorni kutib ikki-uch kun shu pullar bilan samovarda tunadik. Juma kuni bozor edi. Erta bilan bozorga chiqdik.

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ketmoni bilan mening qumriga mavoza qilgan mollarimni bozorga soldik.

<sup>1</sup> **Chalma** — tezakdan tayyorlanadigan yoqilg'i.

<sup>2</sup> **Solkash** — yil oralab hosil beradigan meva daraxti.

Xaridor juda ko'p bo'ldi. Mollarimizning bozori chaqqon. Xaridorlardan ham ko'ra so'rab o'tuvchilar ko'p edi. Bu kishilar, ayniqsa, mening mollarimning bahosidan ko'ra, bu mollar turmushda nimaga kerak bo'lishini so'rар edilar.

Biror soat sanqiganimizdan keyin Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulgurdik. Shunda ham o'rta ga dallollar tushdi.

— Qani, ha uka, baraka de, — deb yarim soatcha qo'l siltab savdolashgandan keyin ketmonni yarim so'mga, kurakni bir yarim tangaga „bor baraka top“ qildik. Yoz bo'lgani uchun kurakning bozori kasod edi, attang, arzon ketdi.

Pulning hammasini Omon belbog'iga tugdi. Endi qolgan mollarni pul qilish kerak edi. Bola beshik bilan shaqildoqni Omonga berdim. Gardishlar bilan childirma menda edi. Men childirmani, Omon shaqildoqni bozorga sotib chala ketdik. Bu tekin sayyor konsertning nogahon ovozini eshitgan, tevarak-atrofda salanglab yurgan o'zimiz singari bir talay uvin-to'da bolalar<sup>1</sup> bizni qurshab olgan edilar. Ayniqsa, bir do'lvorgina bolaga shaqildoq yoqib qoldi. Dehqon bola ekan. Qo'yarda-qo'y may bir qovun, ikki tarvuzga alishib oldi. Men Omonga: „Qoyilman, qo'ling yengil ekan“, degandek ko'zimni qisib qo'ydim.

Childirmani naqd pulga, bittangayi ashrafga saman ot mingan xushmo'ylov yigitga pulladik. Tez orada gardishlar bilan bola beshikning ham „ko'r xaridori“ topildi. Bozorga tovuq, tuxum, so'k, qurut olib tushgan qozoq kampir:

— Voy-bo'y, qaraqlarim, o'si beshikti mag'an bera g'o'y. Boldarimg'a bozorliq olib borib quvontirayin, — dedi.

— Beshik gardishdan ajratib sotilmaydi, — dedi Omon Xo'tan savdogarlarga xos sipoyigarchilik bilan.

— Voy-bo'y, qarag'im, to'ri jo'q g'albiringni ne qilayin. Keytayin, olsam olayin. Boldar o'ynab jurar. Ne berayin, ne so'raysinlar?

Uzoq savdolashdik. Keyin yigirmata tuxum, bir do'ppi so'k, o'nta tuyu quiritiga biz ham rozi bo'ldik, kampir ham ko'ndi. Mollarni tamoman sotib, qushday yengil tortdik.

— Charchadik, ozgina ovqatlanaylik, — dedi Omon.

— Yur bo'lmasa, nima yeymiz?

---

<sup>1</sup> **Uvin-to'da bolalar** — eski-tuski kiygan bolalar.

— O'zi arzon-u, to'q tutadigan ovqat bo'lsin, — dedi Omon.

— Bo'lmasa tariq go'ja ichamiz.

— Bo'pti.

Bir paqirga ikkita qovoq solingan zog'orani olib, ovqat bozorga ketdik. Bu yerdagi ne'matlarni ko'ring. Hay, hay, hay! Biroz hidi bo'lmasa, jigarkabob deysizmi, kartoshka somsa, oqshoq bo'tqa, umoch<sup>1</sup> bug'doy go'ja deysizmi — hammasi ham chelak-chelak, xo'randa muntazir. Xo'randa sotuv-chining atrofini o'rab, yerga cho'qqayib o'tiribdilar. Oshpazlar cho'michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra oshdan bir nima chiqdi shekilli, xo'randa:

— Buning nimasi? Pashshami? — deb so'rab qolgan edi, oshpaz:

— Oshda pashsha nima qiladi! Piyozning kuygani, — deb kosaga qo'l tiqib „kuygan piyoz“ni og'izga solib yubordi.

Arzonginası, halolginası shu deb biz ham bir tovoqdan quydirdik. Bir tovog'i to'qqiz pul — uch tiyin ekan. Biz savdolashib, ikki tovog'ini bir miri — besh tiyinga ko'ndirdik. Bay-bay, maza bo'pti-da. Qirsillab turgan zog'ora bilan sal achinqiragan uvra osh og'zimizga qaymoqday tatib ketdi. Tovoqni boshiga ko'tarib, huzur qilib xo'rillatib ichayotgan Omon peshanasidagi marjon-marjon terlarini chap qo'lining barmog'i bilan dam-badam sidir edi.

Ovqatdan so'ng maza qilib kerishib oldik. Tuxum, so'k, qurutlarni mening belbog'imga tugib oldik. Omon:

— Oziqlik ot horimas, qolgan zog'orani ham ro'molga tugib qo'y, — dedi.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko'tarib oldi. „Semizlikni qo'y ko'tarar“ deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi. O'rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so'mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq — boyvachcha qiliq chiqara boshladı.

— Yur, — dedi u menga, — qo'y bozorga boramiz.

— Nima qilamiz?

— Men o'zimga tegishli aqchaga birorta to'qli olib shaharga haydab ketaman.

---

<sup>1</sup> Umoch — uvalangan xamir solinib pishirilgan suyuq osh.

— Nima-nima? — dedim men. — Darrov pul quturtirdimi? O'zing so'qqa boshingni boqolmaysan-u, to'qlini qanday qilib boqasan? Yoki dadang Tursunboy akaning to'qliga ko'zi uchib turibdimi?

Baribir gap kor qilmadi. Meni sudrab mol bozorga olib kirdi. Tugunni-ku, ishonmas edik. Bozor darvozasi oldida turgan pattachining oldiga qovun bilan tarvuzni omonat qo'yib ichkariga kirdik.

Mahshar<sup>1</sup> deganning xuddi o'zginasi shu yerda ekan. Bir tomonda bir arqonga bog'langan qo'shoq-qo'shoq qo'ylar, bir tomonda echki-yu uloqlar tinmay ma'rashib turibdi. Bir chekkada qoramol bozori: sigirlar, buzoqlar, g'unajinlar, buqlalar, ho'kizlar. Narigi tomonda ot bozori. Jalloblar qirchang'ilarni Zolariq suviga solib, qamchilab, arg'immoqday dingillatib xaridorlarga ko'z-ko'z qilib yubordi. Sotuvchi ko'p, undan oluvchi ko'p, hammasidan ham dallol ko'p.

Kun — tig'ida, jazirama, chang. Hamma yoqni tezak, ter, jun hidi bosib ketgan. Bir meshkob<sup>2</sup> orqasida bir mesh suv, qo'lida ikkita sopol tovoq.

— Obi xudoyi, obi xudoyi, — deb chanqaganlarga suv ulashib yuribdi.

Bergan biror chaqani sopol tovoqqa tashlaydi, bermagan bilan ishi yo'q.

Bir chekkada yalangoyoq ikkita bola „muzdek ayron“, deb qichqiradi. Chelakning ichida bir burda kir muz. Muzni qayerdan oldi ekan?

Bozorning bir chekkasida — beshyog'ochlik qo'ychi boylardan Soyibnazar qo'ychi bilan Ilyos bo'rdoqi. Kigiz chakmonli, namat qalpog'ini bostirib kiygan qozoq qo'ychilar qo'l siltashib savdolashyapti. Dallollar: „Oling, oling“, „Soting, soting, boy ota“, deb javrab turibdi. Bularning savdosi oz deganda yuzlab qo'yning tepasida.

Biz hali biror tuyanig tishini ko'rmasdan, biror otning yo'rig'ini bilmasdan, biror buqaga „bor, baraka top“ demasdan, qo'ybozorning kunchiqar tomonidan g'ala-g'ovur janjal ko'tarilib qoldi.

---

<sup>1</sup> **Mahshar** — diniy e'tiqodga ko'ra dunyo tamom bo'lgandan keyin barcha insonlar qayta so'roqqa to'planish kuni; qiyomat.

<sup>2</sup> **Meshkob** — suv sotuvchi.

- Ur, sheshangdi!..
- Kisabir, kisabir!
- Bozorga uri<sup>1</sup> aralabdi!

„Chur-chur“ hushtakbozlik. Bir qo‘li bilan qilichini ko‘tarib, ko‘k movut shimini eplay olmay, alpang-talpang bir qozoq va bir o‘zbek mirshabi o‘sha tomonga qarab yugurdidi. Hamma o‘sha yoqqa qarab chopdi. Biz ham ularning ketidan yugurdik.

Ne ko‘zim bilan ko‘ray, mana ishonmasangiz, Omon ham guvoh. O‘rdada bizga qo‘shni bo‘lgan Qo‘g‘urmoch mahallalik mashhur Sulton o‘g‘ri turar edi. Bu gal kisavur sifatida emas, balki pul o‘g‘irlatgan jabrdiyda bechora sifatida kosibsimon yuvoshgina bir yigitning yoqasidan ushlagan holda ko‘ziga yosh olib turar edi.

— Musulmonlar! — der edi u. — Pulimni oldirib qo‘ydim. Yonimda mana shu yigit ilashib yurgan edi, gumonim shundan.

Yigit bechoraning rangi quv o‘chib ketgan, lablari pir-pir uchadi.

— Ey xudo, quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo‘liqdim, o‘zing saqla! — deb javob berar edi u.

— Qancha aqchang bor edi? — deb so‘radi qozoq mirshab Sulton kisavurdan.

— Sakkiz so‘m-u mirikam to‘rt tanga. Ola tik hamyonda edi. Ichida „Yo Ali“ degan tamg‘alik kumush uzugim ham bor. O‘zim kambag‘al kosib odamman, birorta oriq-tiriq qo‘y olib kuzgacha semirtirib yuraman, deb kelgan edim.

Shu tobda Sultonning ko‘zi men bilan Omonga tushib goldi.

— Mana bu bolalar ham guvoh!

Hang-mang bo‘lib qolgan Omon: „Iye, iye!“ deganicha dadasiga to‘qli olib borishni ham esidan chiqarib orqasiga qarab qochdi. Men bezrayib turaverdim.

— Seni qancha aqchang bor edi? — deb so‘radi mirshab sho‘rlik yigitdan.

— Meniki ham olacha tik hamyon. Men ham qo‘y olgani kelgan edim. Pulim sakkiz so‘m-u miri kam ikki tanga (mirikam ikki tanga — o‘ttiz besh tiyin).

---

<sup>1</sup> Uri — o‘g‘ri.

— Guvoh-puvohning hojati yo‘q. Qani ikkoving oqsoqlining oldiga yur-chi, o‘sha yerda yechamiz. Olomon tarqalsin, — dedi o‘zbek mirshab.

Ikkisini yetaklab bir tomonga olib ketdilar. Biz orqalaridan bormadik.

Sulton o‘g‘ri guvohlikka tortgandan keyin qo‘rqib qochgan Omonni kechgacha qidirib, bozor tarqalganda tuya saroyidan topib oldim. Hali ham qo‘rqqanidan o‘ziga kelmagan edi.

— Oxiri nima bo‘ldi? — deb so‘radi Omon mendan.

— Kisavurga sen sherik ekansan, mirshablar qidirib yuribdi, — dedim men.

— Rostingmi? Endi nima qilamiz?

— Nima qilar edik. Seni jat<sup>1</sup>ingga qovun bilan tarvuz pattachining qo‘lida qolib ketdi.

— Endi qayerda yotamiz?

Bir-ikkita samovarga borib ko‘rdik. Hammasini savdogarlar, lattafurush chayqovchilar egallab olibdi, yotar joy yo‘q.

— Endi qayoqqa boramiz? — dedi Omon.

— Qo‘rqma, bultur tog‘am bilan shu yaqin orada bir bo‘zagir kampirning uyida yotib qolganmiz. Yaxshiqiz degan kampir meni taniydi. O‘slicing o‘tovida tunab qolamiz.

It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi. Tugunni ko‘tardim. Yaxshiqiz degan bo‘zagir kampirning o‘toviga qarab ketdik.

Kampirning o‘tovi Zolariqning chap qirg‘og‘ida edi. Atrofi ozodagina qilib supurilgan. Tuproqdan kattagina supaga ko‘tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo‘yilgan. O‘tovning yonboshida loy o‘choqqa o‘rtacha kattalikdagi bir qozon o‘rnatilgan. O‘choqdan nariqda ikkita ayriga ip arqon tortib, unga chambaraklarda uch-to‘rtta sopol tovoq osib qo‘yilgan. Sut-qaymoq bo‘lsa kerak. Ikkita qovoq idish osig‘liq turibdi. Ularda qatiq bo‘lsa kerak. Qozon tuvoqsiz, uning yonida bir o‘g‘ir, bitta kuv turibdi. Bitta yechiq buzoq shataloq otib o‘ynoqlab yuribdi. Chala qurigan bir tolga bog‘lab qo‘yilgan qari ola ko‘ppak juda hafsalasizlik bilan ko‘ksovlarning yo‘taliga o‘xshagan ovoz bilan xurib bizlarni kutib oldi. Itning ovoziga o‘tov ichidan kampir — Yaxshiqiz chiqib keldi. Oltmishtardan oshgan bir xotin, oq oralagan sochlari taralmagan

---

<sup>1</sup> Jat — kasr.

boshida dakana<sup>1</sup>, belida shol belbog<sup>2</sup>. Ayolning orqa sochiga besh-oltita bir so‘mlik, yarim so‘mlik so‘lkavoylardan saqina<sup>2</sup> osilgan.

— Salom, sheshe.

Kampir alik olishdan avval itga „shicht adrag‘ovur“ deganga o‘xshagan ovoz chiqardi. It xurishdan tindi.

— Kelinglar, jigitlar, o‘sí jerga o‘tirib turingdar, — supadan o‘rin ko‘rsatdi u.

Men imlab qo‘ydim. Omon qo‘lidagi tugunni kampirga tutqazdi.

— Ozg‘intoy bozorlik, — dedim men.

— Kerege jo‘qg‘o‘y. Ne qilib alek<sup>3</sup> bo‘lib juribsendar, — degan bo‘lsa ham, tugunni olib o‘tovga kirib ketdi.

— Qani, jigittar, bo‘za ichasindarmi? Et osaymi? — dedi.

— Jo‘q, sheshe, bo‘za ham ichmaymiz, et ham osmang, o‘ntacha tuxum pishirib bersangiz bo‘ladi. Joy bersangiz, tunab ketamiz.

— Jaqsi, — dedi kampir, — xudoyning osmoni ham, jeri ham keng. Joz kuni, qalag‘an<sup>4</sup> yerlaringda jota berasindir. Ikkoving bir tanga berasan.

— Jo‘q, sheshe, — dedim, — ikkovimiz yarim tanga bera-miz.

— Sartting bolasi quv bo‘ladi, jota qollaring. Bu kecha bozor kech, qo‘noqlar keledi, boyvashshalar keledi, angeme<sup>5</sup> zo‘r bo‘ladi.

Kampir bizga tuxum qovurib bergani qozonning tagiga o‘t qo‘yib, tappi tutata ketdi. Omon bilan ikkovimiz endigi safarimizning rejasini tuzib, maslahatlashib o‘tir-dik. Yarim soatlardan keyin bitta sopol laganda tuxum qovurdoq bilan qozonga yopgan ikkita chap-chap non kel-tirdi. Bir kosada sovuq suvni oldimizga qo‘ydi, mohazar<sup>6</sup>ni tushira ketdik.

---

<sup>1</sup> **Dakana** — o‘rta yashar va keksa ayollarning sallaga o‘xshatib o‘raydigan ro‘moli.

<sup>2</sup> **Saqina** — sochpopuk o‘rniga taqiladigan taqinchoq.

<sup>3</sup> **Alek** — *halak; qiynalib* ma’nosida.

<sup>4</sup> **Qalag‘an** — xohlagan.

<sup>5</sup> **Angeme** — hangoma.

<sup>6</sup> **Mohazar** — bu o‘rinda: *tayyor taom* ma’nosida.

Omon laganning tagini non surkab yalab turganda, ko'cha-ko'yni to'ldirib, ayqirib-chayqirib besh kishi kirib keldi. Novcha bir yigitning yelkasida bir nimta go'sht, qo'lda tugun, unda non, kartoshka, piyoz bo'lsa kerak. Yana bir yigit mullavachchalarga o'xhash qulf soqol qo'yan, boshida girdak<sup>1</sup> kir sallasi bor, xushtavoze. Ich yaktagining ustidan belbog' bog'lab, uning ustidan yana bitta yaktak kiyib olgan. Oldinda kimsan, Sulton kisavur. Shimining pochasi shi-marilgan, belbog'i burab-burab, argon qilib bog'langan. Egnida yoqasi ochiq tik yaktak, isqirt do'ppisining bir chekkasi qaytarilgan. Boshi sal orqaga moyil, basharasi behayo. Qo'lida to'rtta xirpa<sup>2</sup> oshig'ni o'ynab kelar edi. Qolgan ikki yigitni ham Sultonning nusxasi desa bo'ladi. Faqat bittasining bir ko'zida g'o'lakdek<sup>3</sup> oqi bor. Bittasining o'ng yelkasi chap yelkasidan baland. Shuning uchun ham chap qo'li o'ng qo'lidan uzun ko'rindi.

Bularni ko'rish bilanoq Omonning chaynagani og'zida, yutgani bo'g'zida qolib, menga baqrayib qaradi. Men unga „supani bo'shatamiz“ degandek imo qildim. O'mimizdan turdik. Zolariq yoqasida it bog'langan tolning tagidagi maysaga borib o'tirdik. Sulton kisavur:

— Sheshe, omonmisan? — dedi. — Bu kecha bizni qo'noq<sup>4</sup> qilasan. Yaxshi chiqqan bo'zalardan bormi?

Keyin bizga ko'zi tushib qolib:

— Hoy, sen haromilar, bu yerda nima qilib yuribsanlar? Qani, bu yoqqa kel! — dedi.

O'zi va ulfatlari supaga chiqib o'tirib, bizni ham yonlariga chaqirdilar. Noiloj kelib o'tirdik. Kampir kir dasturxonga bir dasta non o'rab olib kelib o'rta ga tashladi. Keyin katta quruq yog'och chora<sup>5</sup> ham olib chiqib o'rta ga qo'ydi. Sultonga qarab so'radi:

— Oqshoq bo'za ichasindermi, tari bo'za ichasindermi?

— Zo'r chiqqanidan olib kelaver, — dedi Sulton.

Kampir o'tovga kirib ketdi. Sulton bizlarga qarab:

<sup>1</sup> **Girdak** — yumaloq, chambar.

<sup>2</sup> **Xirpa** — toshga ishqab sillqlangan.

<sup>3</sup> **G'o'lak** — kichkina soqqa.

<sup>4</sup> **Qo'noq** — mehmon.

<sup>5</sup> **Chora** — tog'ora.

- Hali mol bozorida nima qilib yuruvdilaring? — dedi.
- O'ynab yuruvdik.
- Ha-ha. U yerda nima o'yin bor ekan? Yo o'zimga shogird qilib olaymi? — Omonni ko'rsatib: — Mana bundan tomteshar chiqadi. Kisavur bo'lolmaydi, qo'pol, — dedi.

Shu hazil-mazax paytdan foydalanib, undan so'radim:

- Sulton aka, haligi janjalning oxiri nima bo'ldi?

— Voqeа bunday bo'lган edi, uka, — deb Sulton kisavur gapirib ketdi. — Ko'kterakning samovarida bir necha kisavur o'zining epchilligi, qo'rqmasligi, ayyorligi bilan maqtanishar edik. Shunda men o'g'irlagan pulimni halol qilib, egasini rozi qilib olaman, deb yuborgan edim. Ulfatni bo'zaga to'ydirish-dan bahs boylashgan edik. Qo'y bozorga kirdim. Ko'zimga o'sha ko'rganing bayov yigit uchrab qoldi. „Shilt“ etib hamyonini oldim, pulni sanab ko'rsam, sakkiz so'm-u ikki tanga ekan. Yonimdan unga ikki tanga qo'shdim. Uzugimni ham hamyonga solib, hamyonni qaytadan yigitning cho'ntagiga joylab qo'ydim. Keyin o'sha ko'rganing maynabozlik, yolg'ondakam ayyuhannosni soldim. Mirshablar oqsoqolga olib borishdi. Oqsoqol mening da'voimni, uning raddini eshitib, pulni tekshirishga tushdi. Kosibning cho'ntagidan hamyonni olib, ichidagilarni xontaxta ustiga qo'ydi. Mening da'voim to'g'riliqi uchun yigit „kisavur“ bo'lib chiqdi. Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho'tal olib qoldilar. Shunday qilib, o'rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim.

— Iye, sho'rlik begunoh kosib yigit qulog'ini ushlab ketaveradimi? — dedim.

— Yo'q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so'm pora berib, yigitni qutqazib yubordim. „Da'vom yo'q“, dedim. Yigit bechora xursand bo'lganidan quchoqlab o'pib:

— Rahmat, aka, bu yaxshilgingizni o'lgunimcha unutmeyman, qiyomatli aka-uka tutindik, uyim To'qli jalob mahallasida, otim Abdurayim, — deb minnatdor bo'lib ketdi.

- Balli, yigitlik shunday bo'pti-da, aka! — dedim.

Sulton kisavur miyig'ida kulib, „shunday“ deganday qilib qo'ydi.

Hammamiz qah-qah urib kulishdik. Sulton kisavur yonboshlab, tirsagiga tayanib, novcha kishi supaning yonida

tikka turibdi. Mullanamo kishi tiz cho'kib, ikki qo'lini qovushtirib Sultonning gaplariga miyig'ida odob bilan tabassum qilib o'tirar edi. Qolgan ikki yigit bir-biriga ro'para chordona qurib, gugurt otishib, „ermak qimor“ o'ynab o'tirishgandi.

Kampir et osib yubordi. O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi.

Shom cho'kib, quyosh botib borar edi... O'choqda o't tutashib ketgandan keyin, kampir o'tovga kirib ikkita qovoq manak (bo'za quyiladigan idish)da bo'za keltirib qo'ydi. Bir necha zarang<sup>1</sup> kosa olib keldi. Novcha yigit darrov belbog'ini yechdi, uni qoqqan bo'lib, choraning ustiga tarang qilib yoydi, bo'zani suza boshladgi. (Bo'za odatda ilitib ichiladi. Kampir olib chiqqan bo'za kuni bo'yi ostobda turgani uchun ilitishga hojat yo'q edi.) Bo'za suzishning o'z qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki ro'molni sidirib suziladi.

Novcha yigit suzgan bo'zadan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoq<sup>2</sup>ni Sultonga uzatdi.

— Hammaga quy! — dedi Sulton.

Novcha yigit ikkinchi-uchinchi oyoqni haligi ikkita yigitga uzatib, so'raganday Sultonning o'ziga qaradi.

— Bolalarni qo'yatur, domлага uzat, — dedi Sulton.

— Yo'g'-e, yo'g'-e, o'zlaridan bo'laversin. Biz ichmaymiz. Ya'ni xudo kalomida aytganki...

— Kalom-palominingni yig'ishtirib qo'y, qachondan buyon ichmaydigan bo'lib qolding?! — deb o'shqirdi Sulton.

— Ya'ni, ya'ni... tavba qilganmiz.

— Kisavur bilan o'g'rining tavbasi tavba emas. Esingdami, kisavurlikni ham uddasidan chiqqan qiladi. Bultur kuzayda Salor bo'yidagi Qapponda oraga men tushmasam, olomon seni o'ldirib yuborar edi. „O'g'ri qarisa so'fi bo'ladi“, deb bekorga aytmagan-da. Tavba qildim, deydi-ya! Ha-ha: endi eshon bo'lib qishloqma-qishloq murid ovlab yuribsanmi? Ol, buni!

Domla juda qimitinib, o'ng'ayszlanib, zarang kosani qo'liga oldi.

Ortiqcha gap o'tmasligini sezgan domla ko'zini chirt yumib, bo'zani shimirib yubordi...

---

<sup>1</sup> **Zarang** — qattiq yog'och.

<sup>2</sup> **Oyoq** — idish.

O'tirish sekin-sekin be'mani tomonga qarab qizib borar edi. Sekin o'rnimdan turib, Omonni imladim. Yalinib-yolvorib Yaxshiqiz kampirdan bitta kichik sholcha bilan bitta xushvaqtan tikilgan kir lo'la bolish so'rab oldik. O'tovning orqasiga o'tib, joy qilib yotdik. Mastlar payqagani ham yo'q. Tun yarim kechadan oqqan bo'lishiga qaramasdan, mastbozlik, shovqinsuron, to'polon tobora avjiga chiqar edi. Yana kimlardir kelib qo'shildi, tanish bo'limgan ovoz ko'payib ketdi. Kimdir kular edi. Kimnidir tutib olib urdilar, shekilli, dodlab xudoni o'rta ga solib yig'lar edi.

— Azbaroyi xudo, borim shu, boshqa pulim yo'q.

— Lippasini axtar, dayusni!

Domlani tunamoqda edilar. Bunday to'polonlarni ko'raverib ko'nikib ketgan Yaxshiqiz kampir bemalol o'choq boshi bilan o'tov o'rtasida xizmat qilib yurar edi.

Keyin uxlab qolibmiz. Qancha uxlaganimizni bilmayman. G'ira-shirada kimdir biqinimga turtganidan uyg'onib ko'zimni ochdim. Tepamda kechagi domla turar edi. Boshida shoshib-pishib o'ralgan kir salsa, bir chakkasi ko'kargan, qovog'i shishgan, bir ko'zi qontalashgan.

— Tur, uka, turinglar, hammasi dang uchib yotibdi. Qochmasak bo'lmaydi. Mening bo'ladiganim bo'ldi, rasvo qilishdi. Non puli ham qolmay, bor-yo'g'imni shilib olishdi. Yana bir baloga yo'liqmaylik, boshim yorilguday charsillab turibdi.

Omonni uyg'otdim. Dik etib turib, Zolariqning muzdek suviga apir-shapir yuz-qo'limizni yuvgan bo'ldik. O'z etagimizga artindik.

— Xo'sh, qayoqqa qochamiz, taqsir?

— Xudo taoloning dargohi keng, to'rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing'iroqtepa tomonga qochamiz.

Uchovlon „shilt“ etib ketayotganimizda Yaxshiqiz kampir yo'limizni to'sdi:

— Qayoqqa qochayapsanlar, aqchamni berib ketlaring!

Omon cho'ntak kovlab o'n besh tiyinlik Buxor tanga berdi.

— Mana, sheshe, yarim tanga haqingizga, bir miri non bilan tuxum qovurgan yog'ning puli.

— Xo'sh, — dedi kampir, — kelib-kelib turinglar.

Shunday qilib, kallayi saharlab yo'lga ravona bo'ldik...



## Oybek

(1905 — 1968)



O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos mahorat maktabi yaratgan ustoz san’atkor Oybek ijodi ko‘p qirralidir. U qator romanlari, qissalari, doston va she’rlari bilan kattalar yozuvchisi sifatida shuhrat qozondi. Ammo san’atkorning bolalarga atab yozilgan badiiy asarlari ham oz emas. O‘zbek bolalar adabiyotining oltin fondiga qo‘shilgan „Shaharcha bolalari“ va „Shoirning bolaligi“, „Ko‘chadan ketarkan“, „Bolalikni eslab“, „Esimda qolganlaridan“, „Xotiradan izlar“, „Yoshlik xotiralaridan“ she’rlari, „Bobom“, „Zafar va Zahro“, „Haqgo‘ylar“ dostonlari, „Qonli barmoqlar“, „Miskin bolalar“ hikoyalari, „Bolalik“, „Alisherning bolaligi“ qissalari ayni paytda sevimli yozuvchimiz Oybek ijodining gultojlaridir.

„Shoirning bolaligi“ she’ri — tarjimayi holga oid asar. Unda Musavoyning o‘qish va yozishga bo‘lgan ishtiyoqi tasviriga e’tibor berilgan. O‘qishga, maktabga oshiqishi:

Yuragim sevinishi  
Toshardi har daqqa, —

kabi misralarda aks ettiriladi. „Shoirning bolaligi“ni o‘qigan bugungi kitobxon ona-diyorimizni yanada qattiqroq sevadi, unga mehr-muhabbati oshadi.

Shoirning ijodida bolalar tarbiyasi, axloq-odobi masalalariga bag‘ishlangan asarlar ham anchagina. Masalan, „Bolalikni eslab“ she’rida bir vaqtlar sho‘xlik qilgan, ota-onaning pand-nasihatlariga amal qilmagan, qushlarga ozor bergen bola obrazini yaratish orqali shoir bolalarni tartib-intizomga chaqiradi. Qushlarga ozor bermaslik, aksinchalik, ularning yashashlari uchun shart-sharoit yaratish, uyalar yasab berish suv bilan havodek zarur ekanligi uqtiriladi.

She’rda tasvirlanishicha, qushlarga nisbatan „zolim, qalbi tosh“ bolalar tarbiya natijasida o’sib-o’zgarib, qushlarga mehribon bo‘lib qoladilar.

Shoirning „Bobom“ dostoni bolalar uchun katta sovg‘a bo‘ldi. Bir yuz besh yoshli boboning o’tmishda kechirgan kunlari hamda bugungi hayot tasviri dostonga asos qilib olingan.

Bobo O‘zbekistonni samimi sevadi, ardoqlaydi. Shunday tinchlik, baxtli, to‘kin-sochin hayotda yana yuz yil yashashni orzu qiladi. U o‘z nevara-chevaralariga nasihat qilib, ularni yaxshi o‘qishga, ona-yurtimizni astoydil sevishga chaqiradi.

„Zafar va Zahro“ asari bilan Oybek 50-yillar o‘zbek bolalar dostonchiligi rivojiga munosib hissa qo‘shti. Doston shoirning Pokistonga qilgan sayohati taassurotlari asosida maydonga kelgan. Zafar ham, Zahro ham, ularning otanonlari ham och-yupun, bir parcha nonga muhtoj. Lekin bolalar har qancha qiynalib yashamasinlar, baribir tushkunlikka tushmaydilar, yaxshi hayot, to‘kin-sochin turmush to‘g‘risida xayol suradilar. Har ikkala qahramon ham mehnatkash, oqko‘ngil, odamlarga, bir-birlariga mehribon. Bundan tashqari, har ikkala qahramonning taqdiri ham bir-birlariga o‘xhash: ayanchli va musibatlari.

Orzu-umid va bunga erishish uchun kurashish — yaxshi narsa. Dostonda bu masala yaxshi yoritilgan. Masalan, Zahroning otasi kambag‘al-qashshoq, ammo u ilg‘or fikrli inson. Erk, ozodlik uchun intiluvchi va bu yo‘lda qattiq kurash olib borishga bel bog‘lagan odam.

Asarning sujet yo‘nalishida, kompozitsion qurilishida, badiiy-tasviriy vositalarning ishlatalishida shu holat yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Oybek buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning bolalik yillaridan hikoya qiluvchi „Alisherning bolaligi“ (1967) qissasida Hirotdagi tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o‘zaro taxt uchun kurashlari va Alisherning shu davrdagi bolalik yillari haqida hikoya qiladi. Qissa Alisher obrazining takomili o‘sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi.

Oybek Alisherning ilm va adabiyotga bo‘lgan muhabbatini, Qur‘onning mag‘zini chaqishga kirishgani, fors, arab tillarini o‘rganishi, turkiy (ona tili) baytlarni va g‘azallarni mahorat

bilan o‘qishi, yod bilgan g‘azallari kundan kun ko‘payib borishi, maqollar, masallar, ertaklarni sevib mutolaa qilishi voqealariga katta o‘rin beradi.

Alisherning haqiqiy inson bo‘lib ulg‘ayishida G‘iyosiddin Kichkina, Gulbadanbegim, xizmatkor bobo, tog‘asi Mirsaidning ma‘naviy ta’siri juda katta bo‘lgan. Oybek Alisherning Turkiston sahrolarini, buyuk tog‘larini, xalq urf-odatlari, an‘analarini, qo‘shiq va kuylarini, doston va ertaklarini, „go‘zal, shirin va rangli“ tillarini qattiq sevishi va ardoqlashini qissada ishonchli qilib tasvirlay olgan.

Badiiy tildagi va portret yaratishdagi adib mahorati qissa-ning xalqchilik ruhini, gumanistik pafosini ta’minlagan.

Yozuvchining „Bolalik“ qissasi tarjimayi holiga aloqa-dor bo‘lib, uning markazida Musavoyning sarguzashtlari yotadi. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo‘lgan davr-dagi xarakterining shakllanishi qiziqarli voqealar asosida yoritiladi.

Oybek Musavoyning o‘qish-izlanishlariga chuqur muhabbat bilan munosabatda bo‘ladi. Uning o‘qishda tirishqoqligini, zehnining o‘tkirligini, qunt bilan mutolaa qilishini, arabcha so‘z va iboralarni qoidasini keltirib, yoqimli ohangda talaffuz eta bilishini mahorat bilan chizadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik shoir Oybek o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga yuqorida-gi kabi asarlari bilan katta hissa qo‘shti.

## ALISHERNING BOLALIGI

(*Qissadan parcha*)

Alisher bu katta bog‘ hovlining har bir burchagini tomosha qilib uzoq yurdi. Daraxtlarning novdalariga osilgan rangdor qafaslardagi to‘ti, bulbul, maynalarni maroq ila tomosha qildi. Ularning qafas ichra tinimsiz sakrashlarini, sayrashlarini uzoq kuzatdi. Qushlarga qarab yuradigan maxsus xizmatkorga ergashib, unga bitmas-tuganmas savollar berdi.

Bir payt qarshisida yetti yoshdagagi shahzoda Husayn paydo bo‘ldi. Uning boshida kichkina ipak salsa, ustida yangi baxmal to‘n, oyoqlarida zarhal etik, kamariga oltin sopli kichik xanjar suqilgan. Husayn osmonga sapchishga tayyor, olovday shijoatli bola edi.

— Qullar, kanizlar oyog‘iga o‘ralib ne qilib yurursen? — deb so‘radi qah-qahlab Husayn.

— Qushlarni sayr eturmen, biri-biridan ko‘rkam... — deb javob berdi Alisher.

— Voh, qushlar toifasi behisobdur, lekin kabutarlardan o‘zgasi bilan ishim yo‘q, do‘stim. Yur ko‘chaga, zerikdim.

Shahzoda Husayn va Alisher ko‘chaga otildilar.

Katta maydonda yigitlar o‘q uzish mashqi ila mashg‘ul edilar. Beklar, mirshablar ko‘p edi.

Bolalar qiziqib tomosha qildilar. Bir tomonda ikki fil katta-katta xarilarni ko‘tarib lopillab, qayerdandir tashib kelardilar. Fillar ustida o‘ltirgan bo‘z yaxtakli ikki oriq chol o‘zaro tinmay gaplashib, ba’zan kulib qo‘yar edi.

Sovut kiygan, ot mingan yigitlar bir qo‘llarida yoy, bir qo‘llari bilan o‘q uzardilar. Ular bir marraga yetganda darhol qilich-qalqon tutib qilichbozlikka kirishar, shovqin-suron ko‘tarar, chuvvos-hayqiriq bilan maydon o‘rtasida yig‘ilib qolar edilar. Maydon chetida bir to‘da beklar „Yaxshi-yashshil“, „Balli!“, „Ofarin“ deb ularni rag‘batlantirib turardilar.

— Jasur yigitlar-a! — dedi Husayn kattalardek salmoqlanib. — Xudo xohlasa, men qilichboz bo‘lurmen, ko‘zimga ko‘ringan yovning kallasini sapchadek uchirurmen.

Alisher kului:

— Tushundim, qilichbozlikning sizga zaruriyati kattadur.

— Ha, do‘stim, — dedi Husayn mag‘urona, — aqling joyida!

Alisher indamadi, u maydonda chopib yurgan otlarning qaysi biri suluv, qaysi biri chopqirroq, degan xayol bilan band edi:

— Qara, kabutarlar raqsini ko‘r! — Alisherning yengini tortdi, osmonga qarab Husayn.

Osmonda raqs etib yurgan to‘da kabutarlarni bir nafas kuzatdilar.

— Kabutarlar farishtalarga o‘xshaydi-ya! — dedi o‘ylanib Alisher.

— Men xo‘b sevadurmen kabutarlarni, tomoshadan charchashni bilmaydurmen, ishqim baland...

Shu topda Husayn oldida beo‘xshov o‘ralgan katta sallali, ko‘zlar hiylakor, o‘ttizlardan oshgan bir yigit, qo‘llari ko‘ksida, ta’zim ila to‘xtadi:

- Shahzoda, kech bo'ldi, ruxsat bersalar ketaylik.
- Shahzoda, xayr, yaxshi borsinlar,— dedi Alisher ham hayajonda.

Uchi tutashib ketgan chinorlar xiyobonida ikki otliq ko'zdan g'oyib bo'lgach, Alisher asta yurib, ichkariga kirdi. Bazm avjida edi.

Mehmonlar oldiga yoyilgan dasturxonlarda qalashtirib tashlangan taomlar, mevalar rango-rang, qo'llarini ko'ksiga qo'yib uchib yurgan kanizaklar toboqlarda yangi-yangi taomlar tortib, guloblar tashirdilar.

Aisherning onasi shivirlab:

- O'tira qol, shovqin qilma,— deb o'g'lining oldiga ubu taomlardan surib qo'ydi.

Musiqa tinmasdi, bir to'da cholg'uchilar xonaning bir chetida o'tirib, tanbur, dutor, ruboblarni nihoyat mohirlik bilan chertar edilar...

Ko'ngli shirin mavjylarga to'lib, xayolchan o'lirgan Alisher onasining tizzasini sekin turtdi:

— Musiqa sehrli-ya, o'yinlarni qarang, menga yoqadur...

Gulbegim kulimsiragan holda mamnun shivirladi:

— Tingla!

Bazm oqshomga qadar davom etdi. Keyin malika boshliq mehmonlar hovliga chiqib, bazmni tag'in qizitdilar.

— Yur, o'g'lim, ketaylik,— dedi Gulbegim past tovush bilan va Aisherning qo'lidan ushladi.

Ular qasrdan chiqqanda G'iyosiddin Kichkina bog'da bir bek bilan oyoq ustida turib suhbat qurar edi. Alisher sevinib, otasi oldiga yugurdi.

— Bor, chirog'im, uyga boringlar, qorong'u tushdi. Ko'chada sizlarni boboy kutib turibdi,— dedi Aisherning yelkasini quchib G'iyosiddin Kichkina.

Alisher cho'zilib otasining bo'ynidan quchib o'pdi-da, chetda turgan onasi oldiga yugurdi, birga ko'chaga chiqib ketdilar.

— O'g'il chakki emas, tiyrak, begona ko'zdan asrasin! — dedi zimdan bolani ta'qib qilib turgan bek.

G'iyosiddin Kichkina kamtarona ohangda:

— Illohim, mulla bo'lsin, zehni yaxshi,— dedi. So'ng o'zi ham ichida: „Ha, tangrim yomon ko'zdan asrasin!“ deb qo'ydi.

Alisher o‘z tengi ikki qo‘shti bola bilan hovlida soqqa o‘ynardi. Bolalarning ustida malla yoqa bo‘z ko‘ylak, boshlarida kir oq taqya<sup>1</sup>, oyoqlari yalang. Alisher ham hiyla uringan, eskigan etiklarini yechib, devor tagiga tashlagan edi. Soqqalarni uzoqqa uloqtirib, keyin halloslab yugurdilar. Alisher harakat-chan, yugurik, soqqa ortidan chopganida o‘rtoqlaridan qolish-maydi.

O‘yindan zerikkach, soqqalarni yig‘ishtirib, devor soyasida bir lahza cho‘qqayib o‘tirdilar. Shu topda daraxtlar orasidan otilib chiqqan kiyik Alisherni hidladi, erkalanib surkaldi. Alisher kiyikning bo‘ynidan quchib, boshini silab ulgurmagan ediki, jonivor bir zumda yo‘q bo‘ldi.

— Seni tanir ekan, qurmagur, xo‘b o‘rgatibsan o‘zingga,  
— dedi bolalardan biri.

— Rost, qoyilman! — deya ma‘qulladi zavq bilan ikkinchi bola. — Hozir oldingda turgan kiyik otilgan o‘qdek uchdi-ketdi, zap ziyrak, chopqir bo‘ladi-da.

Alisher kulimsirab, kiyikning xulqi, qiliqlari haqida jiddiy so‘zlay boshladi:

— Tog‘am, ermak bo‘lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. U kishi usta menganlar. Hayvonlarning, ayniqlsa, kiyiklarning xulq-atvori, qiliqlari haqida maroq bilan hikoya boshlasalar, kulli jahon<sup>2</sup>ni unutib yuboray deyman.

To‘satdan yana paydo bo‘lgan kiyik halloslagancha Alisher-ning pinjiga bosh suqdi. Sevinib ketgan Alisher:

— Mu-mu, birpasgina jim tur, — dedi kiyikni erkabal.

Nariroqdagi oppoq tovuqlarga ko‘zi tushgan kiyik: „Bular kim bo‘ldi?“ degandek, qop-qora ko‘zlarini yanada kattaroq ochdi, bir zum taajjubda tikilib boqdi-da, keyin bir sakrab hovlining qaysi tomonigadir g‘oyib bo‘ldi.

— Pok, ozoda, ajoyib suluv jonivor, — dedi zavq bilan tomosha qilgan bola.

— Katta bo‘lganimda ovchi bo‘lg‘umdir, tog‘larda menganlik qilishning kayfi zo‘r, — dedi kiyik ketgan tomonga tikilganicha ikkinchi bola.

— Bizning Vatanimiz Hirot o‘lkasi jannatmakon desak lof bo‘lmas, do‘stlarim, — dedi Alisher cho‘p bilan yerga nelardir

<sup>1</sup> Taqya — do‘ppi.

<sup>2</sup> Kulli jahon — butun jahon.

chizgan holda, boshini ko'tarmasdan. — Meningcha, bo'ri, yo'lbars yanglig' vahshiy hayvonlarni ov qilmoq ma'qul. Kiyikday beozor maxluq, fahmimcha, dunyoda kamdur deyman.

— Qiyofasining suluvligini qaranglar! Go'shti ham lazzatlidir-a? — dedi qoracha bola, soqqalarini sanay turib.

Shirin xayollar zanjirini uzgisi kelmagandek, sukutda o'ltirgan Alisher o'rtoq'ining aytganini eshitmadni shekilli:

— Ov qilmoq, merganlik — ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat mакtabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi.

Suhbatning bunday keskin o'zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog'i:

— Kim o'rgatdi senga bu gaplarni? — deb so'radi Alisherga tik qarab.

— Bilaman-da, otam hamisha „Olim odam xor bo'lmaydi“, deydilar. Otamning oldiga olim odamlar ko'p keladi, turli gap-so'z, ajoyib g'azallarni bir chetda o'ltirib tinglaymen, o'zim ham xiylagina g'azallarni yod bilurmen.

Novcha bola achinib gapirdi:

— Dadam faqir bir bo'zchi, „Maktabga elting meni“ desam, „Maktab senga chikora?“ deb yubordi. O'ylab qarasam, dadamning aytganida ma'no ko'p. Uyimizda sichqonlarning ham ini qup-quruq, bizdaqalarga maktab chikora?

— Mening otam hammol, — deya so'zga aralashdi ikkinchi bola, — sahordan to oqshomgacha bozorda „haq“ deb ish poyleydi. Qop-qanorda bug'doymi, arpami, balomi orqalab olib, bir chaqanining dardida dunyoning u chetidan bu chetiga necha daf'a qatnaydi. Maktab so'zini og'zimga olgudek bo'lsam, otamning joni halqumiga keladi. — Bir nafas sukutdan so'ng u xomush davom etdi. — „O'g'lim, haddingdan oshma, qashshoqlarning eng kattasi o'zimmen, arpa nonga zormiz-ku. Maktab to'qlarning ishi, bizning tole o'lqur chapdan kelgan, ha, hayot shunday tuzilgan. Maktab xazina ekanligi haqiqat, ammo uning eshigini to'qlar ocha biladi. Ko'rpangga qarab oyoq uzat!“ deydi otam.

Alisher yaqinda maktabga borajagini, otasi ko'pdan va'da qilib yurganini aytmoqchi bo'lgan edi, lekin aytmadni, yer chizganicha jim o'tirardi.

## **Mirkarim Osim**

(1907 – 1984)



„Alisher cho'kkalab olib xontaxta ustidagi kattakon bir kitobni varaqlab, surat ko'rib o'tirar edi. Ov va jang manzaralari uni shu qadar qiziqtirgan, xayolini shu qadar o'g'irlagan ediki, otasi kelib eshik oldida kavush yechayotganini ham payqamadi. Kichkina Bahodir deb nom chiqargan G'iyosiddin endi to'rt yoshga kirgan o'g'li Alisherga kulimsirab qarab turdi. „Shul yoshdan kitobga muhabbat qo'ysa, ulg'aygach, albatta, kitobni ilkidan ayirmay, o'zi bila asrab yurgay“, deb o'yładi ota shiringina, do'mboq o'g'lidan ko'ngli to'lib“.

Bu parcha atoqli adib Mirkarim Osimning kelajakda buyuk mutafakkir, g'azal mulkining sultoni sifatida el-yurtga taniladigan, nomi asrlar osha yashaydigan Alisher Navoiy haqida yaratgan „Zulmat ichra nur“ asaridandir.

Mirkarim Osim ona-yurtimizning jamoli va kamolini, otabobolarimizning uzoq o'tmishini, ularning azaliy orzummonlarini, fikr-tuyg'ularini, erk va baxt-saodat yo'lida olib borgan kurashlarini qissa va hikoyalarida madh etgan zabardast adiblardan biridir.

Ma'lumki, tarixiy mavzuda asar yaratish ijodkordan chuqur bilim, mushohada, katta mahorat talab qiladi. Mirkarim Osim badiiy ijodning ana shunday mashaqqatli va mas'uliyatl yo'liga qadam qo'ygunga qadar ajdodlarimiz tarixini har tomonlama chuqur o'rgandi. Dengizdan gavhar izlovchi g'ovvoslardek, o'tmish ummoniga sho'ng'ib, so'z durlarini terdi. Shu tariqa yozuvchining „To'maris“, „Shiroq“, „Kitobga ixlos“, „Temur Malik“, „Zulmat ichra nur“ kabi asarlari dunyoga keldi.

Qadimda O'rta Osiyoda yashagan aholi ko'plab qahramonlik eposlari yaratgan. Bu eposlar O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi zaminida tug'ildi

va ajdodlarimizning chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashlarining ifodasi sifatida og'zaki adabiyotning nodir yodgorligi bo'lib qoldi. Mirkarim Osim xalq og'zaki ijodidan o'rgangan holda ajdodlarimiz o'tmishini yozma adabiyotga olib kirdi. Adibning „Shiroq“ hikoyasini olib ko'raylik. Eron shohi Doro I O'rta Osiyo xalqlarining boshiga og'ir kulfatlar soladi. Sak qabilasi Doroga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Ana shu mavzu hikoyaga asos qilib olingan. O'z qabilasi boshiga og'ir musibat tushgan bir paytda Shiroq jonidan kechib, qabiladoshlarini halokatdan asrab qoladi. U qulqoq-burnini kesib, Doro yoniga boradi, o'zini qabiladoshlaridan qattiq sitam ko'rgan kishi qilib ko'rsatadi va dushman qo'shinini aldab, qaqroq cho'l-biyobon ichkarisiga olib ketadi. Aldanganliklarini sezgan dushmanlar uni o'rta ga olishadi. Shunda Shiroq:

— Men yengdim, Doro qo'shinini bir o'zim yengdim! — deydi mag'rur turib.

Hikoyada Shiroqning ruhiy dunyosi juda mohirlik bilan aks ettirilgan. Noiloj qolgan sarkarda Ronosbat uni aldamoqchi bo'iganda bu holat, ayniqa, yaqqol ko'rindi.

— Agar sen sahro quduqlari yo chashmalarini bizga ko'rsatsang, gunohingdan kechib, Sug'diyada istagan qishloqlardan o'ntasini senga in'om qilardik, — deydi u.

— O'z elimning dushmanlariga yordam berishni istamayman, — deydi Shiroq gapni qisqa qilib. Halokat jari yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay fidokor cho'ponni qiyma-qiyima qilib tashlaydilar.

Yoki „To'maris“ asarini olib ko'radigan bo'lsak, Midiya Persiya (Eron) podshohi Kir (miloddan avvalgi 550—530- yillar) Osiyoni zabit etib (o'sha davr tushunchasi bo'yicha hozirgi Eron atrofidagi mamlakatlar), nihoyat yaqin qo'shnisi Skifiya ustiga hujum boshlaydi. Skiflar podshohi malika To'maris chegara hisoblangan Oks daryosida dushmanni sol-ko'prik yasab, kechib o'tishigacha atayin qarshilik ko'rsatmaydi. Uch kunlik masofaga chekinadi. Maqsad dushmanning qaytish yo'lini kesish edi. Lekin Kir makr ishlatadi: daryodan o'tib ichkari tomon biroz yurgach, O'rdugoh qurib to'xtaydi. Ertasiga to'satdan o'sha joyni ozgina qo'riqchi bilan shoshilinch tark etadi. Aysh-ishrat dasturxonasi, musallaslar to'la meshlar ochiqligicha qolib ketdi.

Voqeadan xabardor bo‘lgan To‘maris shahzoda o‘g‘lini bir to‘da askari bilan dushmanni quvishga yuboradi. Hali tajribasiz shahzoda O‘rdugohda g‘aflat tuzog‘iga ilinadi: tunda yashirinchay qaytib kelgan fors askarlari mast-alast, uyqudagiligi dushmanni qirib tashlaydi. Qo‘Iga tushgan shahzoda fojiaga chiday olmay o‘zini qurban etadi. Dahshatli qirg‘indan xabardor bo‘lgan malika To‘maris dushmanidan ayovsiz o‘ch olishga qasamyod qiladi. Bu haqda bosqinchi Kirga xabar qilib, yaxshisi o‘z yurtiga qaytib ketishga buyuradi. Lekin oson g‘alabadan g‘ururlangan Kir tog‘lar darasi tomon yurishda davom etadi. Malika To‘maris o‘z dushmani makriga makr bilan javob tayyorlaydi: tog‘ dasasida pistirmalar qoldirib, 250 ming dushman askarini qopqonga tushirgandek qamal qilib qirib tashlaydi.

Donolik, sinchkovlik va harorat Mirkarim Osimning „Elchilar“, „Sehrli so‘z“, „Tilsiz guvoh“, „Jayxun ustida bulutlar“ va boshqa kitoblariga ham xos fazilatlardir. Bu asarlarda ham voqealar tabiiy rivojlanadi, manzaralar haqqoniy gavdalanadi.

Mirkarim Osim faqat yozuvchi emas, balki mohir pedagog va noshir hamdir. U bir necha yil o‘qituvchilik qildi, Samarqanddagi o‘qituvchilar tayyorlash kursida dars berdi. O‘zbek pedagogika institutida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida uzoq yillar muharrir bo‘lib xizmat qildi.

Mirkarim Osimning tarjimonlik sohasidagi ishlari juda salmoqlidir. U Mixail Sholoxovning „Tinch don“ epopeyasini (A. Sharopov bilan hamkorlikda), Sergey Borodinning „Samarqand osmonida yulduzlar“ kitobini (M. Rahmonov bilan hamkorlikda) va boshqa ko‘pgina yozuvchilarning asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

## KITOBGA IXLOS

(*Parcha*)

Yarim kecha, osmonda charaqlagan yulduzlar mast uyquda yotgan yerga nazar tashlab, bir-birlariga ko‘z qisib qo‘yishadi. Kunduzi bozorchilarning g‘ala-g‘ovuridan charchagan Buxoro sukunat qo‘ynida orom olmoqda. Ahyon-ahyonda uzoqlardan dovud tovushi eshitiladi: tun posponlari uyqudagiligi shaharni qo‘riqlab yuradilar.

Shimol tomonga qaratib solingen baland bir ayvonning o'rtasida, xontaxta ustida miltillab yongan shamning sarg'ish nuri ostida o'n yetti-o'n sakkiz yoshdag'i bir yigitcha mutolaa qilib o'tiradi. Uning qotmadan kelgan tiniq yuzida, katta-katta ko'zlarida zakovat nuri porlaydi. Nazari satrlar oralab yo'rg'a-larkan, yer ostidan xazina topgan kishidek qo'llari asta titraydi, yuziga g'alati tabassum yuguradi, keng va yorqin peshanasida marjondek ter paydo bo'ladi. U butun koinotni unutgan, butun fikri satrlar orasiga yashiringan sirlarni topish tashvishida.

Ayvonning chekkasida yotgan Sitorabonu bir uyquni olib, o'mnidan turib o'tirdi, o'g'lining haligacha yotmaganini ko'rib:

— Hoy o'g'lim, shu mahalgacha o'tiribsangmu? Yosh joningga muncha javr qilmasang? Yot hozir, — dedi.

— Onajon, yana biroz o'tirishga ijozat bering. Juda ajoyib kitob ekan.

Qirqlarga borib qolgan bo'lsa ham, tarovatini yo'qotmagan, qomati kelishgan qora qosh ayol o'g'lining yuzidagi jiddiy ifodani ko'rib, ko'ngli yumshadi.

— Kecha bir tangaga sotib olgan kitobingmi?

— Ha, o'shal kitob. Buni qarangki, shu mahalgacha bo-shimni qotirib yurgan muammolarni osonlikcha yechib berib-dur-a!

Sitorabonu o'g'lining gapiga yaxshi tushunmagan bo'lsa ham, riyozat chekib ilm o'rganayotgan o'g'lining yuksak martabaga yaqinlashib qolganini ichki his bilan angladi va mayin jilmayib, boshini yostiqqa qo'ydi.

Keyinchalik Abu Ali ibn Sino nomi bilan mashhur bo'lgan yosh Husayn har kuni yarim kechagacha o'tirib, yunon va arab hukamolarining tib va falsafaga doir kitoblarini o'qir edi. Uyqusi kelib, ko'ziga qum tiqilganda allaqanday bir o'tni qaynatib tayyorlangan doridan bir xo'plam ichar, ko'zi yana ochilib, zehni ravshanlashardi. Bugun esa onasining so'zini yerda qoldirmay, o'sha dorisidan ichmadi. Kelgan joyiga xatcho'p solib, kitobni tokchaga olib qo'ydi-da, o'mniga kirib yotdi.

Husayn shu bugun ertalab sahof bozorni<sup>1</sup> aylanib yurganda paranji ichidan qo'lini chiqarib, kitob ushlab turgan bir kampirga ko'zi tushib qolgan edi.

---

<sup>1</sup> **Sahof bozor** — kitob bozori.

- Onajon, kitobingizni sotasizmi?
- Ha, soturman, juda yaxshi kitob.

Yigitcha uning qo'lidan kitobni olib, varaqlay boshladи. Bu — Forobiyning „Fasusi al-hikam“ degan kitobi bo'lib, Arastuning „Moba'dat tabiat“ degan kitobiga yozgan sharhi edi. Husayn shu mahalgacha „Moba'dat tabiat“ni bir necha marotaba o'qigan bo'lsa ham, sira tushummagan edi. Mana endi uning kalitini topdi. Forobiy ulug' yunon hakimining juda chigal falsafiy mulohazalari mag'zini chaqib bergen edi.

\* \* \*

Somoniylar shajarasining so'nggi butog'i bo'lgan podsho Nuh binni Mansur kasalmand odam edi. Buxoroning mashhur tabiblari uni davolash bilan ovora edilar. Biroq hech birining bergen dori-darmoni tojdar bemorga kor qilmas, dardini yengillatmas edi.

Podsho devon ma'muri bo'lgan marhum Abdulloning o'g'li Husayn tabibi hoziq bo'libdi, degan xabarni eshitib, uni darhol huzuriga chorlatdi.

Saroy o'lik chiqqan uyg'a o'xshaydi. A'yonlar, saroy amaldorlari, soqchilar oyoq uchida yurardilar, bir-birlari bilan shivirlashib gaplashardilar.

Saroy vaziri Husaynni qo'lidan ushlab, qilichlarini yalang'ochlab yelkalariga qo'yib turgan soqchilar orasidan olib o'tdi va eng ichkaridagi bir xona oldiga olib borib to'xtatdi. Eshikning ikki tomonida chiroyli ikki turkman yigit soqchilik qilib turardi. Vazir barmog'i bilan shu yerda turishni buyurib, o'zi xona ichiga kirib ketdi. Oradan besh-o'n daqiqa o'tgach, eshik ochilib, yosh hakimni ichkariga taklif etdilar. Ibn Sino uzun, rang-barang oynali darchadan xira nur tushib turgan, shiftlari muzayyan, devorlari o'yma-kor xonaga kirib, to'rdagi ipak to'shak ustida yostiqqa suyanib o'tirgan rangpar kishiga ta'zim qildi. So'ngra uning ishorasi bilan to'shak yoniga borib, cho'kka tushdi. Yosh hakimning xipchagina gavdasini tik tutishi, dadil boqishidan, tip-tiniq nurli yuzidan, katta-katta ko'zlaridan kamtarligi va shu bilan birga o'ziga ishonganligi bilinib turardi.

Nuh binni Mansur savqi tabiiy bilan o'z huzurida ulug' iste'dod egasi bo'lgan bir hakim o'tirganini payqadi va uning sha'niga munosib muomala qilib, hol-ahvol so'radi. Ibn Sino

o‘zini yaxshi tutib, uning savollariga shoshmay javob berdi. U podshoning kasali nima ekanligini tabiblardan eshitgan bo‘lsa-da, o‘z hamkasblarining odatiga muvosiq, keskin harakat bilan tojdor bemorning tomirini ushlab ko‘rdi. U o‘z oldida Movarounnahrning podshosi emas, balki oddiy kasal kishi yotgandek, uning sarg‘aygan yuziga tikilar, tilini ko‘rsatishini so‘rar, podshoning sha’niga nomunosibdek savollar berardi. (Bir necha xil kasali bo‘lgan binni Mansur bavosil kasaliga ham mubtalo edi.) Saroy vaziri podsho huzurida o‘zini shu qadar sokin va betakalluf tutgan hakimni birinchi marotaba ko‘rishi edi.

Ibn Sino podshoning javobini tinglab, peshanasini ushlanganicha o‘ylab qoldi. Keyin achchiq ovqat, ichkilik ichmaslikni, ko‘proq shirguruch yeb, ho‘l meva iste’mol qilishni tayinlab o‘rnidan turdi:

— Zoti oliylari, bandalariga ijozat bersinlar, kechqurun dori tayyorlab yuborgayman. Ko‘proq tar meva iste’mol qilsinlar, ammo Buxoro mevasi janoblariga zararlidir. Mevani Samarqanddin keltirib yesinlar. — Ziyarak tabib o‘zining xulqatvori saroy vazirida noshiyista ta’sir qoldirganini payqagan edi. — Agar hurmat shartlarini joyiga keltirolmagan bo‘lsam, afv etgaylor.

Binni Mansur bilinar-bilinmas jilmayish bilan undan xafa bo‘Imaganini bildirgandek bo‘ldi. Yosh hakim ta’zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Bir haftadan keyin saroyga kelgan Ibn Sino dordarmonlari bemorga yaxshi ta’sir qilganini ko‘rdi. Rangi tozargan binni Mansur uni ochiq chehra bilan qarshi oldi va yosh tabibdan behad minnatdor bo‘lib, nima tilasa berishga tayyor ekanini aytdi. Yosh tabib uning oldida tiz cho‘kib, imkon xorijida bo‘lgan bir narsani so‘ragandek qo‘rqib, past tovush bilan:

— Menga saroy kitobxonasida mutolaa qilmoqqa ijozat bersalar bas, — dedi. — Menga pul kerak emas.

— Barakalla! Umrinda puldan ilm-urfonni yuqori qo‘yaturgan odamni birinchi ko‘rishim. — Podsho iljayib uning iltimosini bajon-u dil qabul qilganini izhor etdi. So‘ngra saroy vaziriga qarab dedi: — Kitobdorga aytib qo‘ying, Ibn Sinoga har kun kitobxonada mashg‘ulot o‘tkazmoqqa ijozat berdim.

Vazir indamay bosh egib qo‘ydi.

\* \* \*

X asrda butun O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda tengi bo'lmagan Buxoro kutubxonasida qadimgi Yunoniston, Hindiston hukamolarining arab tiliga tarjima qilingan asarlari saqlanardi.

Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan kitobdor Ibn Sinoni mammunlik bilan qarshi olib, o'z qo'l ostidagi boyliklar bilan uni tanishtirib chiqdi. Har bir hujrada bir fanga doir kitoblar saqlanar, qator-qator sandiqlar kitob bilan liq to'la edi. Kitobdor har bir hujraning qulfini ochib, bunda qanday kitoblar borligini aytar edi, u sandiq ochib nodir qo'lyozma asarlarni ko'rsatar ekan, Ibn Sinoning ko'zlari yaltirardi.

— Qadrdon ota, men endi sizga har kun mehmon bo'lg'aymen, — dedi u hayajonlanib.

— Mammuniyat bilan sizga kitobxonaning to'ridan joy bergaymen. Sizga hech bir buxorolikning qo'li tegmagan kitoblarni topib bergaymen.

Jome peshtoqi ostidagi marmar supa ustida ikki kishi gaplashib o'tirardi. Ularning biri mosh-guruch soqolli, boshiga olista qilib misqoli salsa o'ragan o'rta yoshli kishi. Ikkinchisi esa, oppoq soqoli ko'kragiga tushgan, quyuq qoshlari qordek oqargan chol. Uning qoshlari chimirilgan, ko'zlari o'qrayib qaraydi.

— Taqsir, qarigan chog'ingizda dunyoning g'amini yeb na qilursiz? — dedi o'rta yoshli kishi. — Hamma ishni bizga qo'yavering, o'z joningizning rohatidan bo'lak narsani o'ylamang.

— Xo'p gapirasiz-da, mulla Sadriddin, dunyoning buzulib ketayotganini ko'rganidan keyin ko'ngil qanday tinch bo'l-sin. Axir ko'rib turibsiz, yoshlar qariyalarni hurmat qilmay qo'ydi, o'rtadan sharm-hayo ko'tarildi. — Har bir davrning miyasi aynib qolgan chollariga xos shikoyatdan so'ng Mag'oqiattonon machitining imomi chuqur xo'rsinib qo'ydi.

— Madrasalarda ilmi hol<sup>1</sup> o'gay o'g'il holatiga tushib qoldi. Yoshlar masoili diniya emas, hikmat, mantiq, ilmi riyoziy va hokazolarga qiziqadurlar. Lavhlari ustida Qur'on emas, mashoyixlarning kitoblari emas, balki majusiy olimlarning kitoblarini ko'radurman. Afsuski, saroy ahlida ham dingarag'bat qolmadi. Saroy kitobxonasi yoshlarning miyasini

---

<sup>1</sup> **Ilmi hol** — diniy ilmlar.

zaharlayturgan makonga aylandi. Koshki edi unga o't tushib, kuli ko'kka sovurilsa...

— Sabr qilsinlar, taqsirim, hammasi siz aytgandek bo'lg'usidir. Sharqdan kelmoqda bo'lgan to'fon Nuhning taxtsaltanatini olib ketajakdur. Qorabug'roxon boshliq ko'chmanchilar o'rdusi hozir Samarqand bo'sag'asida turur. Qoraxoniylar yaqindagina dini islomni qabul qilganliklari uchun dinga qattiq berilganlar, somoniylarning esa e'tiqodi susaygan. Ko'chmanchilar garchi o'z jinsimizdan bo'lmasalar ham, e'tiqod jihatidan bizga yaqindurlar.

— Ilohi, ularning qo'li baland bo'lsin.

Shu paytda kitobxonadan xushnud bo'lib qaytayotgan Ibn Sino bu ikki mutaassib din peshvosiga duch kelib qolib qo'ng'iroqday tovush bilan:

— Marhabo, to'tiy mullo! — deb salom berdi.

— Marhabo! — deb javob qaytardi mulla Sadriddin, — ha, mulla, yo'l bo'lsin?

— Uyga.

— Eshitdik, sizga kitobxona eshigi ochilibdur.

— Ha, toliblar uchun ilm eshigi doim ochiq.

— Kitobxona siz uchun ibodatxona-yu, majusiy olimlari siz uchun rahnamo bo'lib qoldi, shekilli.

— Ilmni Chin-mochinga borib o'rgansang ham joizdur, deganlar rasuli xudo. Kitobxona men uchun muqaddas joydur. Kitob haqiqatni o'rganmoq va tabiat sirlarini anglamoqqa yordam beradur.

— Menimcha, majusiy olimlarining yozgan kitoblari kishi ko'nglida shubha imonini uyg'otib, e'tiqodini susaytirsa kerak...

— Men uchun shubhadek mustahkam qo'rg'on yo'q, to'tiy mullo, chunki u johilligi tusayli o'zini dono hisoblagan shaxslar hujumidan odamni saqlaydур, — dedi yosh olim mullaning so'zini bo'lib.

Mulla Sadriddin uning gapiga yaxshi tushunolmay, labini burishtirib qo'ydi.

— Eng oldin ilmi holni o'rganib, e'tiqodingizni mustahkamlab oling, ilmi qolni<sup>1</sup> keyin o'rgansangiz ham bo'ladur, aks holda, kofir bo'lib ketmoq hech gap emas.

— Ba'zi nodonlar dono kishilarni kofir deb hisoblaydurlar.

---

<sup>1</sup> **Ilmi qol** — dunyoviy ilmlar.

— Tavba, bu mahmadonaning gapini qarang. Besh-o'n kitobni o'qib, o'zini dono hisoblaydur. Iloyo, kitobxonaga o't tushib, sen juvonmarg bo'l! — dedi Mag'oqiattoron domla-imomi.

— Men besh-o'n kitob emas, yuzlab kitobni o'qib, mazmunini miyamga joylab oldim, — dedi Ibn Sino boshini g'oz ko'tarib. — Mabodo kitobxonaga o't tushib ketgudek bo'lsa, undagi kitoblarni qaytadan yozib, sandiqlarni yana to'ldirmoqqa qodirdurmen.

Ibn Sino bosh egib, mullalar bilan xayrslashdi-da, yana yo'lga tushdi. Nariroq borgandan keyin jahl ustida aytgan gaplariga pushaymon bo'ldi: „Yoshlik g'ururi hali boshimdan ketmaganga o'xshaydi, — deb g'ijindi u. — Menga maqtanishni kim qo'yibdi! Yuzta kitob o'qigan bilan olim bo'lib qoladimi kishi? Tavba, minba'd bunday qiziqqon bo'imaslik kerak. Ammo shunisi borki, sallali eshaklarni ko'rsam, qonim qaynab ketib, tilimni tiya olmayman. Hozirgi zamonda tiling qanchalik o'tkir bo'lsa, shunchalik o'tkir qilich bilan kesiladi!“

Mulla Sadriddin yosh hakimning orqasidan qarab sukutga ketdi. Keyin boshini ko'tarib, domla-imomdan:

— Shumtakaning: „Mabodo kitobxonaga o't tushib ketsa...“ deganini eshitdingiz-a? — deb so'radi.

— Ha, bir emas, ikki qulog'im bilan eshitdim.

— Agar o'shal majusiylar kitoblari yig'ilgan makonga o't tushib ketsa-yu, sizni guvohlikka chaqirtirsalar, eshitganingizni tasdiqlashdan bosh tortmaysizmi?

— Albatta, yo'q.

— Bo'ldi, qolgan ishni menga qo'yib bering!

Oradan ko'p o'tmay, somoniylar tarixida ketma-ket ikki fojiali voqeа ro'y berdi. Qorabug'roxon boshchiligidida sharqdan bosib kelayotgan ko'chmanchilar Samarqand yaqinida Hojib Ayach boshchiligidagi qo'shinni tor-mor keltirib, o'zini asir qilib oldilar va Samarqandni ishg'ol etib, yurishni davom ettirdilar. Nuh binni Mansur tomonidan yuborilgan sipohsolar<sup>1</sup> Fosiq xiyonat qilib, dushman tomoniga o'tdi. Shahar xalqi Buxoro devorlari ostiga kelib qolgan istilochilar bilan jang boshladi.

---

<sup>1</sup> **Sipohsolor** — askarboshi, general.

Ibn Sino o‘qishini yig‘ishtirib qo‘yib, boshqa jarrohlar<sup>1</sup> qatorida qilich zarbidan, o‘q zaxmidan azob tortayotgan jangchilarga yordam berishga kirishdi. Arkning ro‘parasidagi ko‘hna saroy yaradorlarga to‘lib ketgandi. Yosh hakim kechgacha qilich yarasiga qov qo‘yib, malham surtish, badanga sanchilgan o‘qni olib, bog‘lab qo‘yish bilan ovora bo‘ldi. U horib-charchab, endi dam olish uchun o‘tirmoqchi bo‘lganda, soniga o‘q sanchilib qolgan bir kosib yigitni olib keldilar. Ibn Sino yechib tashlagan qonli yaktagini yana kiyib, qo‘lida nashtar bilan yaradorning tepasiga keldi. O‘qning uchi chiqib qolganda, uning pat yopishtirilgan uchini qirqib tashlab, sug‘urib olish qiyin emasdi, ammo uchi chiqmay qolgan o‘qni olish amri mahol.

Ibn Sino o‘ylanqirab turib dedi:

— Behush dori berib, yorib olishga to‘g‘ri keladur.

— Yo‘q, — dedi rangi sarg‘ayib ketgan bo‘lsa-da, o‘zini bardam tutishga uringan yarador. — Qirqqa chidagan qirq biriga ham chidaydi. Shuncha uqubatdan keyin...

— Barakalla, azamat yigit ekansiz. Sizga azob bermay, chiqarib olg‘aymen. Meni tanirsiz-a?

— Ha, siz amirni davolagan atoqli hakimsiz. Sizga inona-durmen.

— Juda soz, — dedi Ibn Sino uning qanshariga qattiq tikilib turib. — O‘qni xuddi xamirdan qil sug‘urgandek sug‘urib olg‘ayman, sezmay ham qolursiz.

Shuni deb yosh hakim uning son go‘shtirini ikki pallaga ajratib o‘qni oldi, so‘ngra malham qo‘yib, yopishtirdi-da, tikib, bog‘lab qo‘ydi. Tashbih vaqtida tishini tishiga bosib yotgan yigitdan sado chiqmadi.

— Barakalla, azamat ekansiz, koshki edi hamma sizdek mard bo‘lsa!

Shuni deb yosh hakim yigitga kulib boqdi-da, qo‘lining qonini yuvib, dam olgani ketdi...

---

<sup>1</sup> **Jarroh** — xirurg.

## ***Hamid Olimjon***

*(1909 – 1944)*



Hamid Olimjon 1909- yil 12- dekabrda Jizzaxda tug'ilgan. U Narimonov nomli maktabda, Samarqand bilim yurtida, so'ngra O'zbekiston davlat pedagogika akademiyasida ta'lif oladi. Nashriyot va tahririylarda mas'ul vazifalarda xizmat qiladi.

H. Olimjon 20 yillik ijodiy faoliyati mobaynida „Ko'klam“, „Olov sochlar“, „O'lim yovga“, „Daryo kechasi“, „O'lka“, „Baxt“, „Qo'lingga qurol oll“, „Ishonch“ kabi talay she'riy to'plamlar, „Zaynab va Omon“ singari ajoyib doston, „Muqanna“ kabi dramalar yaratdi.

Shoirning „Oygul va Baxtiyor“, „Semurg“ yoki Parizod va Bunyod“ she'riy ertaklari bolalar adabiyotiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lib, darsliklardan doimiy o'rinciga olib olgan.

Hamid Olimjonning kitoblari rus va qardosh xalqlar tillariga ham tarjima qilinib, sevib o'qilmoqda.

Shoirning „Lola“, „Vatan“, „Samolyot“, „Hulkarning she'ri“ va „Bolalik“ she'rlari bir necha avlod farzandlari tillarida jaranglab kelmoqda. Uning bolalarga bag'ishlab yaratgan barcha she'rlarida bolaga qaynoq muhabbati aks etgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan „Lola“ she'ridagi Lola minglab lolalarning biri. Lola har bir kunini gul-lolalarga burkanib, quvnab-quvnab o'tkazadi:

Lola bog'chaga chiqib,  
Kechga qadar gul terdi.  
Etak-etak to'pladi,  
Har kungidan mo'l terdi.  
Sochiga gul bog'ladi,  
Chekkasiga taqdi gul.  
Yelkalaridan tashlab,

Gulga ko'mildi butkul,  
So'ngra uyg'a keldi-yu,  
Birpas yotib dam oldi.  
Kiprigi yumildi-da,  
Gul kabi uxlab qoldi.

Hamid Olimjon Vatan mavzusida qalam tebratar ekan, uning ko'z oldiga qalbi quvonchga to'lgan yosh bo'g'inlar keladi. U Vatanimizni kichkintoylarsiz tasavvur qilolmaydi. „Vatan“ nomli she'rida bolaning o'z Vataniga bo'lgan cheksiz mehr-u muhabbatি o'z aksini topgan:

Shodligim ko'kka sig'mas  
Bitmas baxtim bor manim.  
Meni baxtiyor qilgan  
Shu yengimas Vatanim.

Hamid Olimjon xalq og'zaki ijodi asarlari ta'sirida „Oygul bilan Baxtiyor“ (1937), „Semurg“ yoki Parizod va Bunyod“ (1939) kabi ajoyib dostonlarini yaratdi.

Bolalar qalbini rom etadigan, ularni Oygul kabi mard va jasur kishilar bo'lib kamol topishga undaydigan „Oygul bilan Baxtiyor“ni shoir xalq og'zaki ijodi asosida yaratdi. Uzoq yillar xon xizmatini ado etgan qullar haqsizlik,adolatsizlikka qarshi bosh ko'taradilar. Ko'p qon to'kiladi. Bu adolatli jangda qo'zg'olon ko'targan qullar mag'lubiyatga uchraydilar. Ammo xalqning bu ko'tarilishi hech qachon so'nmaydi.

Jambil xoni qo'zg'olonchilar boshlig'i Darxonni o'ldirtiradi, shu onda uning ko'zi Darxonning sohibjamol qizi Oygulga tushadi va unga uylanmoqchi bo'ladi. Oygul hech ikkilanmay xonga rad javobini beradi. Dostonda qizning xonga bergen javobi barcha isyonchilarning qalb sadosi sifatida yangraydi:

Taqdirim yor bo'lsa-yu,  
Fursat qulay kelsa-yu,  
Seni agar o'ldirsam,  
Tanangga xanjar ursam,  
Dunyoda eng baxtiyor  
Odam bo'lardim nomdor...

Oygul yosh kitobxon ko'z o'ngida xalq himoyachisi, xaloskori va qahramoni sifatida gavdalanadi. Yana Oygulning

noyob xislati — insonparvarlikdir. U inson qadrini ulug‘laydi, insonning tahqirlanishiga, toptalishiga qarshi bosh ko‘taradi. Undagi o‘zligini anglash va milliy uyg‘onishni Hamid Olimjon muhit va sharoitdan keltirib chiqaradi.

Oygul aql-zakovat bilan ish ko‘rib, Susambildek bir yurtni obod o‘lkaga aylantiradi. Oygul xarakteri ziddiyatlar, kurashlar jarayonida o‘sib ulg‘ayadi. Uning qalbini chulg‘ab olgan cho‘g‘ tinchlik bermaydi. Susambildek go‘zal yurtni barpo qilgan bahodir qiz endilikda xon ustiga yurish qiladi. Otasi, besabab qirilgan qullar qasdini oladi. Taxtga mehnatkash, vatanparvar Tarlonni o‘tqazadi.

Shoir ijobiliy qahramon Oygul xarakterini yuksak mahorat bilan chizadi. U bizning ko‘z o‘ngimizda oddiy, kamtarin, jafokash qizdan voqealar jarayonida afsonaviy qahramon darajasiga ko‘tarila boradi. Masalan, biz uning Jambil o‘lkasiga qilgan yurishini kuzatib ko‘raylik:

Yashnab misoli bir gul,  
Yer-ko‘kni ovozasi  
Tutib ketgandi Oygul,  
Jambilning darvozasi  
Ochilmadi. Shunda ul  
Darg‘azab qilich soldi,  
Darhol qaytarib oldi:  
Qulflar sharaq-sharaq  
O‘ynab ochilib ketdi,

Darvozalar bo‘ldi kul,  
Har to‘p qo‘ygan chog‘ida  
Saroylar qulab butkul,  
Zo‘r qo‘sishin kirib bordi,  
Savalab urib bordi.  
Jambilning xon, beklari  
Quyon bo‘lib qochdilar.  
Chuqurlar, g‘orlar sari  
Quchog‘ini ochdilar.

Bu kuchli, yuksak mahorat namunasidagi tasvir Oygulning shashti, g‘ayrati bilan mos tushadi. Natijada orzu-umidi, kurashining timsoli, el panohi bir butunligicha kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalananadi.

Oygulni el sevadi, ardoqlaydi. Vatan va xalq oldidagi xizmatlari uning ko‘ksimi tog‘ qiladi. Bolalar Oygul obrazi mujassamlangan bu dostonni qayta-qayta o‘qiydilar. Zotan, Hamid Olimjon va uning ijodiy cho‘qqisi bo‘lgan „Oygul bilan Baxtiyor“ning umrboqiyligi ham ana shundadir.

Shoirning „Semurg“ dostoni ham ilhom bilan yozilgan asarlaridan biri hisoblanadi. Dostonda tasvirlanishicha, xonning qizi turmushga chiqish uchun shart qo‘yadi, uning shartini oddiy cho‘pon Bunyod bajaradi. Lekin qiz yigitning oddiy kishilardan ekanligini bilgach, unga turmushga chiqishni o‘ziga

munosib ko'rmaydi. Bunyodni yo'qotish niyatida bahodir yigitni inson dushmani bo'l mish yovuz dev bilan olishishga yuboradi. Devni yengib qaytsa, to'yga rozi ekanligini aytib, ayyorlik qiladi.

Afsonaviy qahramon Bunyod yaxshilikning ashaddiy dushmani, dahshatli devni yo'qotishga otlanar ekan, bu mushkul ishni muvaffaqiyatladi etish, zafar bilan qaytish nihoyatda xavfli ekanligini juda yaxshi his etadi. Lekin uning ruhida elga baxt bermoq hissi hukmron:

Odamlarga baxt bermoq,  
Baxtlilarga gul termoq  
Eldan shiorim bo'ldi,  
Nomus va orim bo'ldi.

Bunyod ana shu yuksak ideali uchun ham kuchli va yengilmasdir. Mana shu oliyhimmat, shu yuksak insonparvarlik unga kuch-qudrat, yengilmaslik, qahramonlik, jasorat, zafar bag'ishlaydi. Bunyod el-yurt uchun qo'liga qilich olgan, mardlik, jasorat kamarini beliga bog'lagan.

Bunyodning dahshatli dev bilan mardonavor olishishi haqqoni,adolat kuchlari hamisha qabohat va zulmat kuchlari ustidan muqarrar g'alaba qozonajagi avj pardalarda kuylanadi. El-yurtni yovuz dushman bosib olganda yigitlar kurashga qanday matonat bilan otlansalar, Bunyod ham dev bilan ana shunday jasorat bilan jang qiladi. Chunki dev qonxo'r. U insonlarga mudhish ofatlar keltiradi: „Uni ko'rgan har chaman, tez bo'lar ekan xazon“.

Dostonda ijobiq qahramon Bunyodni dimog'dor, o'ziga ortiqcha oro bergen, mol-mulkka mukkasidan ketgan Parizod aldashi, riyokorlik ko'rsatishi haqqoni tasvirlangan. Xalqda „Teng — tengi bilan“ degan gap bor. Bu gapni shoir Parizod tilidan juda o'rini va ishonarli qilib bergen. Shoirning ta'rifiga hech qanday izohning hojati yo'q:

Cho'ponni sevolmadim,  
Hech ko'ngil qo'yolmadim.  
G'urbatga qorganimning,  
Devga yuborganimning  
Sababi shunda edi.

Ko'nglim tugunda edi...  
Qancha botir bo'lsang ham,  
Zo'r bahodir bo'lsang ham,  
To'shaging xas deb bildim,  
Aslingni past deb bildim.

## BUNYODNING JANGI

( „Semurg“ dostonidan parcha)

.....  
„Kunbotarda bir yovuz  
Dev bor emish yalmog‘iz.  
Odamga dushman emish,  
Qon emish unga yemish.  
Har musibat, har ofat,  
Har bir mudhish kasofat,  
Barcha jabr-u jafolar,  
Hamma dard-u balolar  
O’shandan kelar emish.  
Odamlarni yemirish  
Bilan bo‘lar emish shod,  
Ko‘ngli g‘amlardan ozod.  
O‘zi balo tog‘ining  
Va ofat bulog‘ining  
Boshida o‘ltirarmish,  
Kun-u tun-u yoz ham qish.  
Uni ko‘rgan har chaman,  
Qo‘yarkan tuproqqa tan,  
U tikilgan har bir gul  
To‘kilar ekan butkul.  
Uni ko‘rgan har bir jon,  
Tez bo‘lar ekan xazon.  
Daryolar qurir ekan,  
Baliqlar chirir ekan.  
Undan har kun tabiat  
Olar ekan qora xat.  
Ikki oy-u ikki yil,  
Yursang mahkam bog‘lab bel,  
Makoniga borarsan,  
Andomiga qararsan.  
O‘rtangizda jang bo‘lur,  
Ikki olam teng bo‘lur.  
Shuni jangda o‘ldirsang,  
Hayotini so‘ldirsang.  
Qo‘ling bilan odamzod  
Balodan bo‘lsa ozod.  
Devni o‘ldirib agar,

Qaytib kelsang bezarar,  
Shu kuni to'y boshlarmiz,  
G'am-g'ussani tashlarmiz".

Bunyod uzoqqa boqdi,  
Charvog'ga, tog'ga boqdi.  
Nazari cho'lga tushdi,  
Huv, deya yo'lga tushdi.  
Ko'zdan yo'qoldi shu on,  
Tarqaldi hamma hayron.  
Baland tog'lardan oshdi,  
Daralarda adashdi.  
Vodiylarga ko'z yoshi  
To'kib aylandi boshi.  
Daryolardan o'tdi ul,  
Yana uzoq ketdi ul.  
Yurti qoldi uzoqda,  
Tushunchasi tuzoqda.  
Zo'r bir ishga qo'shib bosh,  
O'ziga-o'zi yo'ldosh,  
Uzoq cho'llarga yetdi,  
Qaynoq ko'llarga yetdi.  
Poyoni yo'q keng sahro  
O't purkab soldi sado.  
Oyog'i ostida qum  
Yotadi uyum-uyum.  
Biror ko'kat ko'rimmas,  
Biror jonvor urinmas.  
Yoniga tushib quyosh,  
Kuyar edi ich-u tosh.  
Boshdan ter quyar edi,  
Oyog'i kuyar edi.  
Halqumlar bo'lib qoq,  
Toqatlari bo'lib toq,  
Qimirlar edi sekin,  
Zo'rg'a olar edi tin.  
Bir yildan so'ng banogoh  
Bir sirdan bo'ldi ogoh:  
Poyoni yo'q keng cho'lda,  
Qaynagan qumli ko'lda  
Bir zo'r daraxt ko'rindi,

O'shangā ko'zi tindi.  
Ko'p toliqqan bu odam  
Shu tomon qo'ydi qadam.  
Daraxt qurigan edi,  
Qurib chirigan edi,  
Edi minglar yoshida,  
Uning baland boshida  
Qush uyasi bor edi.  
Ham zo'r hamda tor edi.  
Daraxtga bir zo'r ilon,  
Chirmashib, u oshyon  
Sari zahar sochardi,  
Ham og'zini ochardi.  
Chaqalar chirqirashib,  
Faryod qilib tutashib  
Onani kutar edi,  
Qon, zardob yutar edi.  
Bag'ini o'rtab bu dod  
Yaqinroq bordi Bunyod.  
Yordamga fahmi keldi,  
Qushlarga rahmi keldi.  
Qilichini chiqarib,  
Daraxt yoniga borib  
O'sha yovuz ilonni,  
Xunuk va mudhish jonne  
To'g'rab tashladi shu on,  
Qumlar bo'ldi qizil qon.  
Chaqalar omon qoldi,  
Ancha omon jon qoldi,  
Chaqalarni qutqarib,  
Ilonni qonga qorib,  
Daraxtning soyasida,  
Uya himoyasida  
Uzoq uyquga ketdi,  
Joniga orom yetdi.  
Kun choshgohdan oqqanda,  
Quyosh tikka boqqanda,  
Qo'zg'algan kabi bo'ron,  
Guvillab qoldi osmon;  
Yashin uchganday bo'ldi,  
Poda ko'chganday bo'ldi.

Ko'kni tutib qanoti,  
Butun olamning oti —  
Semurg' qush kelib qoldi,  
Bunyodni bilib qoldi,  
Changalida zo'r arslon,  
Tumshug'ida botmon don,  
Ko'zi ichidagi o't  
Olamni qilib nobud.  
Uyasiga qo'nmasdan,  
Biroz bo'lsin tinmasdan  
Bunyodning boshi uzra  
Chiza berdi, o'kirdi.  
Qah-qah urib bo'kirdi.  
Yemak uchun odamni,  
Torta berdi u damni.  
Chaqlari chirqirab,  
Ko'z yoshlari tirqirab,  
Yalindilar, qizg'an deb,  
U bir gunohsiz jon deb:  
„Qizg'an ona, o'ksizni,  
O'sha qutqazdi bizni.  
Bo'lmasa o'lar edik,  
Ochilmay so'lar edik,  
Bizni yer edi ilon,  
Ayrilarding, onajon“.  
Semurg' o'ylanib qoldi,  
Qalbini shafqat oldi.  
Qumning bag'riga botgan,  
Quyoshda kuyib yotgan,  
Bunyodga soya soldi,  
Qanot ostiga oldi.  
Qush nomli bu buyuk zot,  
Undagi kumush qanot  
Butun borliqni tutdi,  
Bor osmonni berkitdi.  
Bunyod salqin soyada  
Bunday zo'r himoyada,  
Yetti tunni uxladi,  
Yetti kunni uxladi.  
Uyg'ona bermagach u,  
Bosib tobora uyqu,

Semurg‘ daryoga ketdi,  
Xayal o‘tmasdan yetdi.  
Suvni simirdi cho‘llab.  
Qanotlarini ho‘llab,  
Shu zamon uchib keldi,  
Jaladay ko‘chib keldi.  
To‘xtab Bunyod qoshida,  
Bir silkindi boshida.  
Bunyod uyg‘ondi darhol,  
Uni lol etdi bu hol.  
Birdan turib seskandi,  
Qushni ko‘rib seskandi.  
Odamlarga o‘xshabroq,  
Semurg‘ boshladi so‘roq:  
„Ikki ming yildan beri,  
Shu keng sahroning yeri  
Bo‘lmishdir menga makon.  
Mendan boshqa biror jon  
Kelolmadi bunga hech.  
Qumlar ko‘chib erta-kech,  
Vatanidan ajraldi,  
Sahro giyohsiz qoldi.  
Qurtlar sarson bo‘ldilar,  
Uchgan qushlar o‘ldilar.  
Bunda faqat topdi jon,  
Sen halok qilgan ilon.  
Hech yog‘madi yomg‘ir ham,  
Yer ko‘rmadi zarra nam,  
Qadam bosmadi inson,  
Dorimadi hech hayvon.  
Shuncha yil yolg‘iz turdim,  
Yer va osmonni ko‘rdim.  
So‘yla menga, ey odam,  
Boshingga tushdi ne g‘am?  
Zo‘r bir mardlik qilibsan,  
Lekin bekor kelibsan.  
Tilagingni ayt menga,  
Ne ko‘mak beray senga?“  
.....  
Dunyoni g‘amga ko‘mgan,  
Jafo — alamga ko‘mgan  
Devni bir ko‘rmoqchiman,

Ko'rib o'ldirmoqchiman.  
Odamlarga baxt bermoq,  
Baxtlilarga gul termoq  
Eldan shiorim bo'ldi,  
Nomus va orim bo'ldi.

.....

Qushda mehr uyg'ondi,  
Qizg'anish bilan yondi,  
„Kel, esa ustimga chiq,  
Mening qanotimga chiq.  
Bir nafas o'ltirgin jim,  
Bir nafas ko'zingni yum.  
Men kuningga yarayin,  
Seni olib borayin.  
Dengizlardan o'tganda,  
Dunyoni suv tutganda  
Ko'zlarling ochilmasin,  
Xayoling sochilmasin;  
O'zingni yo'qotmagil,  
Yana suvga otmagil.  
Seni olib borarman,  
Kurashingga qararman.  
O'lsang gunoh o'zingda,  
Qo'rquv bilmas so'zingda.  
Agar devni o'ldirsang,  
Yerni nurga to'ldirsang,  
Yana olib qaytarman,  
Ofarinlar aytarman“.  
Qanotga chiqdi Bunyod.  
Ko'zini chirt yumdi bot.  
Va Semurg' qildi parvoz  
Dunyoni tutdi ovoz,  
Kun botar tomon ketdi,  
Tun yotar tomon ketdi.

.....

Ucha-ucha oxiri  
O'rmonlikka yetishdi,  
Shovillab pastga tushdi.  
Semurg' dedi: „Ey botir,  
Kel endi o'rningdan tur!  
Borib dushmaningni top,

Qilich sol, bo'ynidan chop.  
Jo'na, baxting bor bo'lsin,  
O'tkir qilich yor bo'lsin.  
Seni shunda kutarman,  
Kelmasang qon yutarman", —  
Deya ko'zdan yo'qoldi.  
Bir kesak bo'lib qoldi.  
Bunyod o'rmonga kirdi,  
Suv kechib qonga kirdi.  
O'tkir qilich qo'lida,  
Borar ekan yo'lida  
Daraxtlar qular edi,  
Yirtqichlar o'lar edi.  
O'rmonda harnaki bor,  
Qurt-u qush-u jonivor,  
Qarshi olar edilar,  
Nazar solar edilar.  
Bu ham bo'lar deb qurbon  
Edilar ko'p pushaymon.  
Chumchuqlar chirqirardi,  
Bulbul yig'lab turardi.  
Bunyod esa mardona,  
Mard-u bahodirona,  
O'rmonda borar edi,  
Devni axtarar edi.  
Oshiqardi ko'ray deb,  
Qarshisida turay deb,  
Qilar edi ko'p armon,  
Topay deb dardga darmon.  
.....

Bunyod yetti kun kezdi,  
Yetti qora tun kezdi.  
Eng oxiri tun chog'i,  
Bir hid sezdi dimog'i,  
Tani jimirlab ketdi,  
Qalbi qimirlab ketdi.  
Bora berdi u hamon,  
Guvillab qoldi har yon.  
O'rmon shatirlab qoldi,  
Barglar patirlab qoldi.  
U yana yurdi biroz,

Oxir dev chiqdi peshvoz.  
Sekin-sekin yurardi,  
Qah-qah urib turardi.  
Dumidan boshigacha,  
Boshdan oyog‘igacha  
Xursandlik olgan edi,  
Shodlikda qolgan edi.  
Zahar tomar tishidan,  
O‘lim yog‘ar ishidan.  
Shoxi osmonda edi,  
Tirnog‘i qonda edi.  
Bunyodga kulib boqib,  
Nafsiga yigit yoqib:  
„Salom, o‘g‘lim, kel, — dedi.  
Dushman emas, el, — dedi, —  
Tilagingni ayt menga,  
Ne murod kerak senga?“  
Yigit so‘zga boshladi,  
Gapni tizib tashladi:  
„Bunyod senga el emas,  
El bo‘lganni dev yemas.  
Sen bir ofat emishsan,  
Zo‘r qabohat emishsan.  
Odamzodning yovi,  
O‘g‘lonlarning go‘rkovi,  
O‘zing emishsan yolg‘iz.  
Boshingga yetajakman,  
O‘ldirib ketajakman“.  
Bunyod qilich chiqardi,  
O‘rmon yaltirab qoldi.  
Bunyodning qahri keldi,  
Ko‘zlaridan o‘t sochdi,  
O‘rmonlikdan tun qochdi.  
U har og‘iz ochganda,  
U har bir o‘t sochganda,  
Zo‘r bir yong‘in ketardi,  
Qancha o‘rmon bitardi,  
Nafasidan zo‘r bo‘ron  
Qo‘zg‘alar edi har yon:  
Tomirlar ko‘char edi,  
Daraxtlar uchar edi.

Osmanni qushlar tutib,  
Hammasi ham qon yutib,  
Chirqirashib turardi,  
Zo'r kurashni ko'rardi.  
To'kilar edi qonlar...  
Barcha yirtqich hayvonlar  
Kezardi besaranjom  
Saqlab qolmoq uchun jon.  
Bunyodni yutmoq uchun,  
Bo'g'zidan tutmoq uchun  
Dev hamla qilar edi,  
Ba'zida kular edi.  
Otashda edi ichi,  
Bahodirning qilichi  
Yaltirardi boshida,  
Kular edi qoshida.  
Bunyod qilich solganda,  
Har bir sirmab olganda  
Devni uzib o'tardi,  
Uzib, buzib o'tardi.  
To'xtamadi qonli jang,  
Bo'ldi devning holi tang.  
Ikki kun-u ikki tun  
Solishar ular butun.  
Tinimni bilmadilar.  
Yarashga kelmadilar.  
Bunyod qilichi bilan,  
Zaharli uchi bilan  
Devni burdalay berdi,  
Qilich qon yalay berdi.  
Dev makon qurgan o'rmon  
Boshdan oyoq bo'ldi qon.  
Qilichni har solganda,  
Har bir sirmab olganda  
Bir joyni olib o'tdi,  
Bir raxna solib o'tdi.  
Oxiri jon qolmadi,  
Jon-u darmon qolmadi.  
Qilich bo'g'zida tutgach,  
Tog' kabi yorib o'tgach,  
Dev harsillab quladi,

Bir qarsillab quladi.  
Dev qulab yiqilganda,  
Birdan yakson bo'lganda  
Yerlar qimirlab ketdi,  
Zilzila gurlab ketdi.  
Cho'zila tushgan chog'i,  
Devning bosh-u oyog'i  
O'rmonni tutib ketdi,  
Sig'may chetga ham o'tdi.  
U tipirlab berdi jon  
Va jimjit qoldi o'rmon.  
Shundan so'ng botir Bunyod  
Bo'lib o'zida yo'q shod,  
Qilichini yuvib oldi,  
Bir o'pib, qinga soldi.  
Parrandalar barchasi,  
Go'zali, oy parchasi  
Botirni uzatdilar,  
Olqishlab kuzatdilar.  
Yigit Bunyod mardona,  
Mard-u bahodirona,  
Yurib o'rmondan chiqdi,  
G'avg'o va qondan chiqdi.  
Botir g'oyat beqaror,  
Semurg'iga intizor  
Turar edi ko'z tutib,  
Har ko'zini yuz tutib,  
Kesak bo'lib yotgan qush,  
Go'yo ko'rgan kabi tush  
Qonlar to'kilganini,  
Bunyodning yengganini;  
Botirning g'ussadan pok  
Dev bo'lganini halok  
Bilar edi hammasin.  
Kesak bo'lib ko'lkasin  
Yerga solib yotardi,  
Orom olib yotardi.  
Bunyod kelgan zamon ul,  
Shodlikka to'ldi butkul,  
Bir aylanib qush bo'ldi,  
Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.

Botir izidan o‘pdi,  
Ikki ko‘zidan o‘pdi.  
Dedi: „Kel, ustimga chiq,  
Mening qanotimga chiq!  
Endi ortga qaytaylik,  
Elga doston aytaylik.  
Botir yigit ketdik, bo‘l!  
Kelgan joyga yetdik bo‘l!“  
Botir qanotga chiqdi,  
Zo‘r „duldul otga“ chiqdi.  
Ko‘zini yumgan zamon,  
Xayolga cho‘mgan zamon  
Semurg‘ ko‘kka yo‘l oldi.  
O‘rmonlar ortda qoldi.  
Bir yurt ko‘chib borganday  
Shovqin-suron zo‘r edi.  
Va beimkon zo‘r edi.  
„Ey, Bunyod, ko‘zingni och,  
Jahonni ko‘r, nazar soch!  
Endi yo‘lni toparsan,  
Kerak bo‘lsa choparsan.  
Bor, yaxshilar yor bo‘lsin.  
Botir, baxting bor bo‘lsin“.  
Qaytadan qo‘l ushlashib,  
Semurg‘ bilan xo‘shlashib,  
Bir-birini quchoqlab,  
Mehr-u muhabbat bog‘lab  
Ajraldilar ikkovlon,  
Bunyod jahonni javlon  
Urib yana yo‘l ketdi.  
Sahro bilan cho‘l ketdi.

.....

Tog‘lar oshdi, qir oshdi,  
Oylar bo‘yi adashdi.  
So‘nggi qirdan o‘tganda,  
O‘z yurtiga yetganda,  
Kunlarini sanadi.  
Tunlarini sanadi,  
Angladi, rosa uch yil,  
Kezganini muttasil...



## **Zafar Diyor**

(1912 – 1946)



O'zbek bolalar adabiyotining atoqli vakillaridan biri Zafar Diyor o'zining butun ijodiy faoliyatini yosh avlodni insoniylik ruhida tarbiyalash ishiga bag'ishlab, xilma-xil asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotini boyitdi.

Zafar Diyor 1912- yilda Namangan viloyatining Samsoq-tepa qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi.

Zafarlar oilasi 1916- yilda Toshkentga ko'chib keldi. Bo'lajak shoir 1923- yilda eski usuldag'i maktabga o'qishga kiradi va 1925- yildan boshlab 7- bolalar uyida tarbiyalanadi.

Zafar Diyor 1927- yilda Narimonov nomidagi pedagogika texnikumiga kirib, unda qunt bilan o'qyidi. Texnikumda chiqariladigan devoriy gazetaga o'zining xabar, she'r va chizgan rasmlari bilan faol qatnasha boshlaydi. Keyinroq texnikum Samarqandga ko'chiriladi. U yerda Zafar Diyorning ilk she'ri yosh shoirlarning „Qurilish kuylari“ degan to'plamida nashr etiladi.

Shoirning birinchi to'plami 1933- yilda „Qo'shiqlar“ nomi bilan bosilib chiqadi. Uning bu to'plamga kiritilgan aksariyat she'rlarida Vatan, baxtli bolalik kuylanadi. Ilm-ma'rifatni targ'ib qilish ham kitobning asosiy g'oyalaridan birini tashkil etadi.

Zafar Diyor 1933- yilda texnikumni bitirib, o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Ayni vaqtida badiiy ijod bilan shug'ullanib, qator asarlar yaratadi. Uning she'rlari, hikoya va ocherklari gazeta va jurnallarda bosilib turadi.

1934- yilda Zafar Diyor Samarqanddan Toshkentga kelib, hozirgi „Sharq tongi“ gazetasining adabiyot va maktab bo'limida adabiy xodim, keyinroq „Sharq tongi“ gazetasining mas'ul kotibi bo'lib ishlaydi.

U 1941—46- yillarda hozirgi „O‘zbekiston ovozi“ gazeta-sida mehnat qildi. Toshkent davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga kirib o‘qishni davom ettirdi, o‘z bilimini oshirish ustida qunt bilan ishladi, xalq og‘zaki ijodini, o‘zbek va sharq klassiklarining asarlarini sevib o‘rgandi.

Shoir iste’dodining kamolga yetishuvidagi yana bir muhim hayotiy asos o‘sha davrdagi adabiy muhit bilan bog‘liqligidir. G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G‘ayratiy, Sobir Abdulla, Yashin, Uyg‘un kabi zabardast san’atkorlar ana shu muhitning ajoyib vakillaridan edilar. Zafar Diyor o‘z ijodida hamkasblaridan ibrat olmasligi va shundan kelib chiqib ijodga katta mas’uliyat bilan yondashmasligi mumkin emas edi.

Zafar Diyoring asarlari yosh kitobxonlarni uzoq vaqtдан beri o‘ziga rom etib, avloddan avlodga o‘tib, yoshlar tarbiyasida muhim vositaga aylandi. Shoirni yosh kitobxonga aziz va yaqin qilgan narsalardan biri shuki, u butun aqli, qobiliyati, qalam kuchini yosh avlodga qaratgan, bolalarning shodlik va tashvishlari, orzu-intilishlarini sezgirlik bilan anglab ko‘ngilga joylagan, dilini dillarga payvand etgandi. Bolalar yozuvchisi uchun lozim bo‘lgan hamma xususiyat — nozik ta’b va o‘tkir didlik, haqiqiy pedagogcha donolik va soddadillik, g‘amxo‘rlik, murabbiycha hushyorlik va bag‘rikenglik jamul jam bo‘lgan bu inson haqiqatan ham tug‘ma bolalar shoiri edi. Uni bolalarga yaqinlashtirgan yana bir xususiyat — asarlari behuda kuchaniq va qochiriqdan xoli, ko‘ngilga yaxshi o‘tirishadigan samimiyy va tabiiy bo‘lganligidadir.

„Men Zafarni o‘ylasam, — deb yozadi Hakim Nazir, — uni nuqul shod-xurram bolalar qurshovida, quvnoq chehra-sidan nur taralib, sertabassum lablaridan she‘r durdonalari yog‘ilayotganday ko‘raman. Chindanam u bolalarga juda yaqin edi. Maktablar va bolalar uylarida, kutubxona va bog‘chalarda bot-bot bo‘lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she‘rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovozi bilan o‘qib berar, ayrim she‘rlarini yoddan juda o‘xshatib deklamatsiya qilar, bolalardan ham she‘r o‘qitib eshitardi. Shunda u o‘zining qaysi she‘rlari bilan bolalar ko‘rigidan yaxshi o‘tganini, qaysi she‘rni ko‘proq sevib qolganlarini ko‘rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she‘rlar yozish lozimligini fahmlab olardi. „Biz bolalarga nuqul o‘rgatibgina qolmay, ulardan o‘rganib ham turishimiz kerak“, derdi.

Ha, bolalardan o'rganib, ularga o'rgatib ijod qilgan shoir ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning serzavq kuychisi sifatida ular qalbida abadiy muhrlanib qoldi. Uning „Qo'shiqlar“ (1933), „Mashinist“ (1936), „Tantana“ (1938), „She'rilar“ (1939), „Muborak“ (1940), „Bizning qurolimiz“ (1941), „Bizning oila“ (1942), „Sovg'a“ (1944), „Chaman“ (1948), „Asarlar“ (1954), „Suv bilan suhbat“ (1976) kabi kitoblari bolalarga katta tortiq bo'ldi.

Zafar Diyorda, ayniqsa, ona yurt, serquyosh o'lka tushunchasi zo'r. Shoir el-yurtimizni, Vatanimizni qattiq sevadi. Ijodkor qalbidagi buyuk muhabbat juda chiroli bo'lib she'rilariga ko'chadi. „G'unchalar“, „Yashna, Vatan“, „Serquyosh o'lka“ singari asarlarining sarlavhasiyoq bolalar kayfiyatini chog' qiladi. Bolalarda ona-Vatanga bo'lgan mehrmuhabbatni o'n chandon oshirib yuboradi. „G'unchalar“da shoir bolalarni erkabalab:

Vatan agar bo'lsa bir chaman,  
Siz qo'ynida xandon g'unchalar.  
Ay, siz mening kichik do'stlarim,  
Vataningiz sevar shunchalar, —

deydi. Ammo shu g'unchalar ona-Vatanimiz asosi ekanligi, bular oldida turgan buyuk ishlar shoir e'tiboridan chetda qolmaydi. She'rni o'qigan har bir bolada tezroq o'sib-ulg'ayish, Vatan xizmatini qilish hissi jo'sh urmay iloji yo'q.

Zafar Diyor she'rlerida, ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ruhiyatini yaxshi bilishi sezilib turadi. Masalan, shoirning „Bog'chamiz“, „To'p“, „Archa“, „Archa qo'shig'i“, „Toy“, „Kichkina chavandoz“, „Kapalak“ she'rлarini olib ko'raylik. Bu asarlar, asosan, besh, olti bo'g'inli, ixcham, tushunilishi oson, so'z va misralar nihoyatda o'ynoqi va bolalarning gapidan tashkil topgan. Muallif olti-yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning qiziquvchanligini, samimiyligini, odamlarga, qushlarga, jonivorlarga, umuman, hamma narsaga g'amxo'r, mehribonligini va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan. Shunga ko'ra she'rler tabiiy, jozibador va samimiyligi chiqqan. „Kapalak“ she'rida bolaning naqadar beg'uborligi, ona tabiatga, uni sevishga, asrab-avaylashga bo'lgan munosabati chiroli tasvirga ega:

Hoy kapalak, kapalak,  
Qanotlaring ipakdek.  
Muncha shoshib uchasan,  
To'xta, so'zlayin andek...  
Mendan aslo qochmagan,  
Do'st bilaman o'zimga.  
Pildir-pildir uchishing,  
Oh, yoqadi ko'zimga.

„Suv bilan suhbat“da ham ajoyib voqeа qalamga olingan. Asar qahramonining suvning bunchalik ariqda to'lib-toshib va juda shoshib oqishi qiziqtiradi. Suv va bola o'rtasida jonli suhbat bo'ladi. Suvning so'zlaridan bola juda ko'p narsalarni o'rganib oladi. Suv hayot ibtidosi ekanligini, suv — butun borliqqa umr, shodlik baxshida etishini tushunadi. Natijada bolada suvga, uni in'om etgan ona tabiatga, hayotga qiziqishi, muhabbati oshadi.

30- yillarda yaratgan asarlari orasida „Kichkina bog'bon haqida doston“ va „Kel, uchaylik shimolga!“, „Yuksak tog“, keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa“ she'rlari alohida ajralib turadi. Bu asarlar ham bog'cha bolalari hayotini ochib berishga xizmat qiladi. Ularda bog' ko'paytirish, parvarish qilish („Kichkina bog'bon haqida doston“); davr bilan hamnafas bo'lish, texnikaga qiziqish („Kel, uchaylik shimolga“); tabiatga mehr qo'yish, cho'l-biyobonlarni o'zlashtirish („Yuksak tog“, keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa“) kabi masalalar yoritiladi.

Zafar Diyor o'zbek bolalar adabiyotida doston janrini boshlab bergen shoirlardan biri hisoblanadi. U „Mashinist“, „Kazbek“, „Madriddan kelgan mehmon“, „Qotil“, „Qo'riqchilikda“ kabi dostonlar; „Burgut“, „Yangi ertak“, „Nega xo'roz qichqiradi tonggacha?“ singari ertak-dostonlar yozdi.

Zafar Diyor ikkinchi jahon urushi davrida unumliroq ijod qiladi. U o'z asarlarida yosh avlodni vatanni sevishga, ardoqlashga, zarur paytda, qo'liga qurol olib, himoya qilmoqqa chaqiradi. Uning „Kichkina jangchi“ she'ri ana shunday asarlardan biridir. She'rda otalari va akalarini frontga — Vatan himoyasiga jo'natgan va ularning kundalik yumushlarini o'z zimmalariga olgan yosh avlodning front orqasidagi mehnat jasoratlari kuylanadi.

Shoir she’rda kichkintoylarning o‘y-xayollarini, orzu-umidlarini mohirlik bilan badiiy umumlashtiradi va hayotiy xulosa chiqaradi.

Asar qahramoni — bog‘cha yoshidagi jajji bir bola. U askar bo‘lishni, dushmanga qarshi kurashishni orzu qiladi.

Shoirning „Mergan“ she’ridagi qahramon ham orzular qanotida yashaydigan bola. Uning akasi qahramon jangchi, nemis bosqinchilariga qarshi kurash olib borayotgan dovyurak yigit. Lirik qahramon harbiy ishni, mashqni jondilidan yaxshi ko‘radi, qiziqadi. Mashq qilaverib miltiq ishlatishni, to‘g‘ri mo‘ljalga olishni o‘rgangan. Bolaning ezgu niyati bitta: tezroq ulg‘ayish, ona-Vatanni akasi kabi himoya qilish:

Do‘srlar, o‘sib-ulg‘aysam,  
Askarlikka boraman.  
Unda mohir kurashchi  
Akam o‘rnin olaman.

Bulardan tashqari, shoirning „Qurol bering menga ham“, „Qahramon“, „Qo‘riqchilikda“, „Oltin yulduz“, „Biz yasha-moq istaymiz“, „Tankist“, „Ona qo‘srig‘i“, „Maktab — sening fronting“, „Temirchilar minbari“, „Yosh vatan-parvar“, „Poyezd ketar frontga“, „Otam kelar yaqinda“, „Qahramonning kelishi“ kabi she’rlari ham urush davri o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.

Zafar Diyorning adabiy merosi nihoyatda boy va rang-barangdir. Uning bolalar hayotidan olib yozgan „Baxtli yoshlilik“, „Uch og‘ayni“, „Yosh vatanparvarlar“, „Oq oltin“, „Omonat“ kabi pyesalari, „Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa“, „Yangi ertak“, „Burgut“ ertaklari, „Sharaf egasi“, „Tank g‘ildiraklari ostida“, „Nojo‘yaliklar“ kabi hikoya va ocherklari bolalar adabiyoti xazinasiga salmoqlı hissa bo‘lib qo‘sildi.

## GUNAFSHA

Gunafshaxon, gunafsha,  
Kulishlaring chiroyli;  
Bog‘imizda ochilib  
Turishlaring chiroyli.

Hamma chiqar dalaga  
Gunafshalar tergali;  
Men ham yig'dim bir dasta  
Opamizga bergali.

— Mana, opa, gunafsha,  
Qarang, qanday chiroylı.  
— Yuring, — dedi, — opamiz, —  
Gunafshalar teraylik.

Gunafshalar ochildi,  
Chakkangga taq, chakkangga,  
Atir hidi sochildi,  
Chakkangga taq, chakkangga,

Lazzat olib hididan  
Bolarilar uchadi,  
Ipak qanot kapalak  
Barglarini quchadi.

Seni maqtab kuylaydi  
Bog' aylanib qushchalar:  
Darak berib bahordan  
Quvontirding shunchalar.

Gunafshaxon, gunafsha,  
Kulishlaring chiroylı;  
Ko'ksimizda hid sochib  
Turishlaring chiroylı!

### KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,  
Qanotlaring ipakdek.  
Muncha shoshib uchasan,  
To'xta so'zlayin andak,

Uchrataman har kuni  
Seni go'zal bog'chamda.  
So'rib gullar sharbatin  
O'ltirasan olchamda.

Borib ushlay deganda,  
Shoshib darhol uchasan.  
Sira tutqich bermasdan,  
Guldan gulga ko'chasan.

Mendan aslo qochmagan,  
Do'st bilaman o'zimga.  
Pildir-pildir uchishing  
Oh, yoqadi ko'zimga.

Uch, uchaber, uchaber,  
Go'zal bog'cham — gulshanda.  
Sira ozor bermayman,  
Sevgim, fikrim ham senda.

Kapalakjon, kapalak,  
Qanolaring ipakdek.  
Do'st bo'laylik ikkimiz,  
To'xta, so'zlayin andak!

## TO'P

To'pim, to'p-to'p etasan,  
Ursam uchib ketasan,  
Havolanib, nariga —  
Do'stlarimga yetasan.

Senga sira to'yayman,  
Bo'sh ekanman qo'yayman,  
Ovunchog'im, — deb seni  
Do'starim-la o'ynayman.

O'ynatasan ko'zimni,  
Hovliqtirib o'zimni,  
Biroz ko'proq o'ynasam,  
Terlatasan yuzimni.

To'pim, to'p-to'p etasan,  
Ursam uchib ketasan.  
Handalakdek yumalab  
Bizni xursand etasan.

## *Quddus Muhammadiy*

(1907 – 1997)



O'zbek bolalar she'riyatining taniqli siymolaridan biri Quddus Muhammadiy 1907- yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Bo'lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov savodli kishi edi. U dastlabki ma'lumotni o'z otasidan oladi.

1925- yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy avval amakisi xonardonida, so'ngra esa maktab-internatda tarbiyalanadi. Quddus Muhammadiyning „Chuvalachi“ nomli birinchi she'ri internatda chiqadigan „Quyosh“ nomli devoriy gazetada bosilib chiqadi. To'g'ri, „Chuvalachi“ni chinakam she'riyat namunasi deb bo'lmaydi. Chunki unda badiiylik yetishmas edi. Lekin Q. Muhammadiyda zamonni tushunish, davrni she'rغا sola bilish qobiliyati paydo bo'layotganligidan dalolat berar edi.

U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo'jalik bilim yurtiga o'qishga kiradi. Shu davrdan boshlab u bolalar uchun she'rlar yoza boshlaydi. Uning „Tong o'yini“ she'ri „Turkiston“, „Paranji“ she'ri „Sharq haqiqati“ „Ahmad va asalari“ she'ri „Madaniy inqilob“ gazetalarida, „Seleksiya stansiyasi“ nomli she'ri esa „Yer yuzi“ jurnalida bosilib chiqadi.

1931- yildan Q. Muhammadiy mактабда botanika o'qituvchisi bo'lib ishlaydi, shu bilan birga O'rta Osiyo davlat universitetining biologiya fakultetida sirtdan o'qishni davom ettiradi.

Bolalar uyi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g'amxo'rliklari Q. Muhammadiy qalbida bir umr o'chmas iz qoldirdi. Bu yerdagi o'zaro do'stlik bo'lajak shoir qalbini tog'dek ko'tarib yuborgan edi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H. Olimjon, G'. G'ulom-larni o'ziga ustoz deb bilgan, ulardan o'rgangan, doimo ijodiy muloqotda bo'lgan ijodkordir. Ilk she'rларидан бирি „Тонг о'йини“ орталан улкан адаб Оybек билан танишади. Oybек бу иштедодли болалар шоирини hamisha qo'llab-quvvatlab, ijodiga g'amxo'rlik qilib turgan.

Bir kuni yozuvchilar uyushmasida mushoira bo'ladi. Mu-shoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon she'r o'qish navbatini Q. Muhammadiya beradi. Q. Muhammadiy zavq bilan „Sa'va sayrarkan“ she'rini o'qiydi. Uning ijodiy qobiliyatini payqagan H. Olimjon she'r tugashi bilan uni yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri she'r yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, she'ri ma'qul tushganini aytadi. So'ng bolalar uchun she'rлarning kamligi haqida to'xtalib, mana shunday ajoyib she'rлarni ko'proq yozishni ta'kidlaydi.

Quddus Muhammadiy ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoир asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a'lo o'qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo'lish, fan va texnikani o'rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi. Quddus Muhammadiy bir necha yil Islom Shoirda adabiy kotiblik qiladi. U Islom Shoirdan ko'p narsalarni o'rganadi, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi.

Shoирning birinchi she'rлар to'plами 1946-yilda „O'quvchiga esdalik“ nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nomdag'i kitoblari chop etiladi.

Quddus Muhammadiy har bir she'rni bolalarning kundalik hayotidan olib yozadi. Uning she'rлари kichkintoylarni o'qishga, hunar o'rganishga, odobli bo'lishga, mehnatga chaqiradi, qiziqtiradi, yordam beradi. U o'quvchi bolalar hayotining eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan masalalarini qalamga oladi va ularni badiiy jihatdan yorqin va ifodali qilib tasvirlashga harakat qiladi.

Quddus Muhammadiy sofdir, a'lochi o'quvchilarни samimiy sevadi, o'z she'rларida bunday bolalarni maqtaydi. „A'lochi Sodiq“, „Sinov“, „Mening orzuyim“, „Bizning uyda“, „Yasha, Omon!“, „Besh“, „Solijonning darsxonasi“ va boshqa she'rлари a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. A'lo o'qish, mehnatsevarlik va tirishqoqlik bilangina ilm-fanni egallash mumkin ekanligini shoир бу she'rлари orqali bolalar ongiga singdiradi.

Quddus Muhammadiy ijodining yana bir muhim qirrasi hajv va yengil kulgi bilan bog'liq. „Nomsiz erkatoylar haqida“, „Dum“, „Ahmadjonga uyat“, „Lapashang“, „Ravshanjonning qo'li tilga kirdi“ kabi ko'plab she'rilarida bolalar fe'lidagi yomon odatlar ayovsiz tanqid qilinadi. Ayniqsa, shoirning „Dum“ she'ri ibratlidir. Ulgurmovchi, uyga berilgan vazifani tay-yorlamay „dum“ bilan yuruvchi o'quvchilar haqida yozilgan ko'pgina asarlarni bilamiz. Ammo Quddus Muhammadiy „dum“chilar ustidan kulish uchun mutlaqo yangi vosita va obrazlar topgan.

She'r quvnoq misralardan tashkil topgan bo'lib, bolalarning ruhiy xususiyatiga mos tushadi. Shoир quvnoq kulgi orqali ikkichi, qoloq o'quvchilarni qattiq tanqid qiladi.

Shoir ijodida mehnatga muhabbat mavzusi alohida o'ren tutadi. „Bobomning mehnati“, „GES qurilishi“, „Mirob“, „Bu binoni kim qurgan?“, „Etik“, „Madraim payvandchi“, „Majon shofyor“ va boshqa she'rilarida mehnat shukuhi jaranglab turadi. Bu yerda yana shuni ham aytib o'tish zarurki, mehnat ahlini sevish, ularning bunyodkorlik faoliyatlarini qadrlash alohida ta'kidlanadi.

Shoirning „Dunyoda eng kuchli nima?“ she'rida filni „tog'ni ortsang ko'taradi“, sherni „filni ham tikka yeydigan“, suvni „daryo, soy, irmoqlari, buloqlari ko'p“, sovuqni „dar-yolarni tosh qotirgan“, issiqni „qish sovuqni qochirgan“, tog'larni „tog'-u toshni qulatar“, quyoshni „qarimaydi, uch-maydi“ deb ta'riflab, har xil mavjudot va hodisalarga xos xarakterli xususiyatlarni bolalarning suhbati orqali g'oyat jonli, qiziqarli gavdalantiradi. She'rni o'qigan bola bu hodisalarning sabablarini, ularning insonlarga ta'sirini tushunib oladi.

Maktab o'quvchilari har yili necha ming tonnalab temirtersaklar yig'ib topshiradilar. Bu hol an'anaga aylanib ketgan. O'quvchilar bu ishga astoydil kirishib, musobaqa o'ynaydilar. Shoир o'quvchilarning ana shu jarayondagi qizg'in mehnatini, shuningdek, bu temir-tersaklardan nimalar tayyorlanishini „Temirlar o'yini“ she'rida sodda uslubda ifodalaydi.

„Temirlar o'yini“da „siniq pero“, „buzuq ruchka“, „eski chelak“, „cho'loq ketmon“, „zang bosgan mix“, „keraksiz kalit“, „uzuq zanjir“larning o'z holiga achinishi, bolalar

mehnati, tashabbusi tufayli ular ham xalq xo'jaligini rivojlantirishda yaroqli bo'lishidan xushnudligi aniq, jonli va lo'nda ifodalanadi: endi ular keraksiz bo'lib har yerda sochilib yotmaydi. Zavodlarda eritilib, qayta quyilgandan so'ng mehnat qurollariga aylanib, yana o'z o'rnini topadi:

Qurilishga boramiz,  
O'z o'rnimiz olamiz.

Shoir she'rning ikkinchi qismida maktab bolalari temirtersaklarni zavodga topshirgach, ulardan nimalar tayyorlanishini tushuntirishga o'tadi:

... Elektr salqi simlar,  
Trolleybus, dizellar,  
Poyezd, vagon, po'lat iz,  
Daryoni shart to'sgan GES...  
Hattoki qisqich, chelak,  
Tegirmonda sim, elak,  
Palovimiz kapgiri,  
Chovli, kastrul — bari.

Xalq xo'jaligi va mehnatkashlar ehtiyojini ta'minlashda shunday katta ahamiyatli narsalar tayyorlanganligidan temirtersaklar baxtiyor.

Ularni jonlantirish orqali shoir she'rغا quvnoq ruh bag'ishlaydi va bolalarning mehnatga bo'lgan munosabatlarini yanada ruhlantiradi.

Tabiat go'zalliklariga ulkan muhabbat shoirga hamisha hamrohdir. U mактабда muallimlik qilib yurgan paytida „Bargjon“, „Momaqaymoq“, „Qoqi o't“, „Bog'imizda bir nok bor“, „Tut“, „Tolim gulladi-yu nega meva tugmadi?“, „Tok daraxti bir xil-u, uzumi nega har xil?“, „Shaftoli doktor“, „Asalari va Ahmadjon“ kabi she'rлarini yozdi.

Shu jihatdan shoirning „Tabiat alisbosi“ turkumiga kirgan beshta to'plami juda ahamiyatlidir. Shoир ularga kirgan she'rлarida tabiat hodisalari, narsa va buyumlar, koinot mo'jizalari haqida shoirona xulosalar chiqaradi. Bu xulosalar g'oyat bolalarbopdir. Chunonchi, zilzilani yer gimnastikasi deb ta'riflasa, chuvalchangni „yer traktori“ deb ataydi, gilosning qizilligini mevasi kichkinaligidan uyalish, deb ta'riflaydi.

Xullas, tabiat mavzusidagi har bir she'rida shu tariqa bolalar fe'l-atvori va tushunchasiga mos fikrlar ifoda etiladi.

Quddus Muhammadiy yosh kitobxonlar qalbida tabiat va inson kuychisi sifatida barhayot yashaydi.

## HASHAR

Keling, bolalar,	Qir, tog'ga,
Yeling, bolalar,	Sahro yoqqa
Aka-opalar,	Ekamiz ko'chat,
Hamma bolalar.	O'tmasin fursat.
Kim bo'lsa bo'lsin,	Ekamiz, qaraymiz,
Safimiz to'lsin.	Shoxlarin taraymiz.
Ekamiz ko'chat,	Qotsa, tagini
O'tmasin fursat.	Yumshatib mayin
Mayli mevali,	Suvlab kun sayin,
Mayli uzum bog',	Kutamiz, tayin.
Yong'oq — mag'iz yog'.	Ko'chat bebahoh,
Tol va terak,	O'ssin bexato.
Binoga kerak.	Ko'karsin tekis,
Qayrag'och, sada,	Gullasin egiz.
Soyasi mazza.	Yaproq shildirab,
Olcha, ipak tut,	Havoni elab,
To'ysin ipak qurt.	Osmonni quchsin,
Ko'chalar yoqasiga,	G'uborni yutsin.
Anhorlar chekkasiga,	Yashil sof havo,
Ariqlarning bo'yiga,	Jonlarga davo.
Maktabimiz qo'yniga,	Ekkanga rahmat,
Har bog'ga,	Hammaga rahmat.

## DUM

Bir maktabda gap mish-mish,  
Turg'unning dumi bormish.  
Xo'sh, bu ajab, qanday dum,  
Hech kimda yo'q bu udum?

Bilsam voqeа o'zga,  
Ilinmas qo'lga, ko'zga.  
„Ikki“ degan oti bor,  
Na o'zi, na zoti bor.

Turg‘unning bilim qarzi,  
Sudralishi dum tarzi.  
Ro‘dapo achchiq ichak,  
Ong uyida o‘rgimchak.

Dum deya ko‘rmang zinhor.  
Dum sha’niga nomus-or,  
Hayvon, qushlar sezmasin,  
Turg‘unjondan bezmasin.

Ular dumi foydali,  
Ish berar qoidali.  
Har qaysi o‘ziga xos,  
Qaddiga kelishgan mos.

Qushga uchmoq-qo‘nmoqqa,  
Molga chivin qo‘rmoqqa.  
Hasharotga tig‘-yarog‘,  
Yilqiga cho‘tka-taroq.

Dum borki qaysi jonda,  
Ishi bor har maqomda.  
Ammo Turg‘un dumi-chi,  
Na boshi bor, na uchi.

Ey, Turg‘unjon, ko‘zing och,  
Dum — „ikki“ngga qil iloj.

## BULBULJONIM KUYLASIN

Bulbuljonim kuylasin  
Yoqar kuyi jonimga.  
Tinglagim kelaverar  
Sayrasa gul bog‘imda.

Kuyi ajib yoqimli  
Ko‘nglimga zavq bag‘ishlar.  
Vatanim chamanzorin  
Bulbuljonim olqishlar.

Tinglayman-u, qonmayman,  
Qo‘srig‘ida ne sir bor.

Jon quloqlab anglayman,  
Mag'zin chaqdim har bahor.

Mag'zin chaqdim har nahor:  
Bulbuljonim to'tidek  
Bir gapni qaytalamas,  
Tobora avjga chiqar  
Qaynaydi-yu, aynamas.

Hamma qushning saylagan  
Shoir qushi, dilbari.  
Uning kuya solmagan  
Dunyoda kuy yo'q bori.

Olam kuyin jamuljam  
Sadosi avji-savti,  
Barchaga teng baravar,  
Jahon kuyin qomati.

Bulbuljonim kuylasin,  
Kuyi maqbul olamga.  
Shu bois bulbuljonim  
Yoqar hamma odamga,  
Yoqar hamma olamga.





## ***Ilyos Muslim***

(1909 – 1993)



Bolalar uchun asarlar yaratishdek sermashaqqat va qutlug‘ ishga umrini bag‘ishlagan Ilyos Muslim 1909-yilning 2-avgustida Qirg‘izistonning Bishkek shahrida cho‘yan quyuchi — hunarmand oilasida dunyoga keladi. U 1924- yilda 1-boshlang‘ich o‘zbek maktabiga kiradi. Maktabda o‘zbekcha, qirg‘izcha va ruscha kitoblarni sevib o‘qiydi, atrofda bo‘layotgan o‘zgarishlarga sinchkovlik bilan qaraydi. Dastlabki maqola va she’rlari maktab devoriy hamda respublika gazetalarida bosilib turadi.

1927- yilning kuzida Ilyos Muslim Toshkentga kelib, o‘zbek erlar bilim yurtiga o‘qishga kiradi, 1930- yilda u bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagach, Qashqadaryoga yo‘llanma oladi. Yakkabog‘ tumanidagi Shaman-Qirg‘iz va Sherdzi qishloqlarida o‘qituvchilik qilib, yoshlarga bilim beradi.

1931—1942- yillarda Ilyos Muslim O‘zbekiston davlat nashriyotida, badiiy adabiyot, yoshlar va bolalar adabiyoti nashriyotlarida muharrir, bosh muharrir, direktor o‘rinbosari vazifalarida ishlaydi. Shoирning dastlabki she’rlari „Yer yuzi“, „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“, „Yosh kuch“ kabi bir qator jurnallarda bosilib chiqadi. Shoирning birinchi she’rlar to‘plami 1932-yilda „O‘suv“ nomi bilan kitobxonlar hukmiga havola etiladi. Shu yili „Zaharkandalar“ degan ikkinchi to‘plami, 1934- yilda „Miqti keldi“ dostoni bosilib chiqadi. 1938- yilda esa „She’rlar“ to‘plami chop etiladi.

Shoирning „Miqti keldi“ dostoni 30-yillar o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Dostonda erkin, tinch va osuda hayotni bunyod etish uchun kurash Miqti va boshqa obrazlar misolida yoritiladi.

1947- yilda harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, Ilyos Muslim nashriyotga qaytib, ijodiy ishga beriladi. Uning „Turnalar“, „Bizning maktab“, „Sening sovg'ang“, „Tillaqo'ng'iz“, „Ishchan asalarilar“, „Oylar aytishuvi“, „Oyxon va rayhon“, „Ko'rik“, „Birinchi sovg'a“ kabi kitoblari o'zbek bolalar adabiyotining rivojiga barakali hissa bo'lib qo'shildi. Bu to'plamlar yosh kitobxonlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasida yetakchi rol o'ynab kelayotir.

Ilyos Muslimning qaysi asariga nazar tashlamang, unda kichkintoylar hayotiga doir muhim muammolar tasvirlanganini ko'rish mumkin. Masalan, „Maktabim“ asarida maktabdan aziz va mo'tabar joy yo'qligi, u „ona kabi mehribon“ bir makon ekanligi ulug'lanadi.

Ilyos Muslim o'z she'rlarida vatanimizning go'zalligi, bolalarning tinch va osuda hayotini kuylar ekan, ularning porloq kelajagiga nazar tashlaydi. Shu jihatdan „Do'stlik“ she'ri diqqatga sazovordir.

Ilyos Muslim „Sening sovg'ang“ nomli she'rida o'z hunari bilan onasini xursand qilgan chevar qizning lirk obrazini yaratdi. Chevar qizdag'i eng yaxshi fazilatlardan biri uning mehnatga mehr bilan, chin dildan berilishida ko'rindi.

O'zbek bolalar adabiyotining atoqli vakili Ilyos Muslimning jozibali she'rlari juda ko'p. Uning fazogirlarga bag'ishlab yaratgan „Raketamiz uchdi oya“, „To'rt botir“, „Haykal“ va boshqa she'rlarida dovyurak fazogirlar, fazo kemalarini bunyod etayotgan kishilar, fazoga parvoz ishtyoqidagi bolalar qalamga olinadi.

Shoirning „Eshmatvoyning qilig'i“, „Yomon odat“, „Befahm Eson“, „Xolcha bilan olcha“, „Mashmasha“, „Grippdan kim qochadi?“ singari yumoristik asarlarida ishyoqmas, dangasa, lapashang bolalarning kamchiliklari, nuqsonlari ochib tashlanadi.

## ODOBLI QIZCHA

Ra'no kichkina hali,  
Ishiga hamma hayron.  
Qo'lda jajji supurgi,  
Chinnidek hovli, ayvon.

Plastilinni olib,  
Yasar ba'zan uychalar.  
Uni tabriklaganday  
Radio sho'x kuy chalar.

Buvisi va onasi  
Ketishsa-chi to‘ylarga,  
Uyni poylab o‘tirar  
Chiqmay ko‘cha-ko‘ylarga.

Uyni tartibli tatar,  
Chang qo‘nmas divanga hech.  
Buni ko‘rib qo‘shnilar  
Maqtashadi erta-kech.

### SENING SOVG‘ANG

Chaqnab turgan quvnoq ko‘zingni  
Qo‘lingdagi ishdan olmaysan,  
Dildan toshib chiqqan so‘zingni  
Aytish uchun gap topolmaysan.

Jajjigina barmoqchalaring  
Harakatdan to‘xtamas bir zum.  
Sen chizgan gul, bayroqchalaring  
Bayram uchun sovg‘adir, qizim!

Ishni har kun olib yoningga,  
Zehn qo‘yib kashta tikasan.  
Endi bilsam, onajoningga  
Bayram kuni sovg‘a etasan.

Onang shunda ochar keng quchoq,  
Go‘yo ko‘kka yetgandek boshi.  
Sensan unga doim ovunchoq,  
Sen onangning kichik yo‘ldoshi!

### OYXON VA RAYHON

Har xil ko‘chatni Oyxon  
Jo‘yakka ekib qo‘ydi.  
Jambil, sada, oshrayhon  
Barg yozsin, deb suv quydi.

Yashnab tez kun ichida  
Novdalari yozdi qad.  
Oyxon o‘z gulzorini  
Parvarish etdi har vaqt.

Yangi, po‘lat ketmoncha  
Tushmadi hech qo‘lidan.  
Ko‘chat taglarin ancha  
Yumshatdi o‘ng-so‘lidan.

Oyxonning sochi kabi  
Quyuq o‘sdi rayhonlar.  
Qulf urgan ariq kabi,  
Ko‘rkam supa, ayvonlar.

Tushlik qildik biz rosa,  
Keltirildi moshxo'rda.  
Oyxon ichsa bir kosa,  
Ta'mi juda xushxo'r-da!

Shunda bizning Oyxonning  
Quvonchdan kului yuzi.  
Chunki xushbo'y rayhonni  
Ekkan edi-da o'zi!

Bobolar nasihatin  
Eslab sevinchga botdi.  
Halol mehnat rohatin  
Oyxon ham shu kun totdi.

### MUSICHALAR KELISHDI

Dam olishib qaytishdi  
Xolmat akalar uyga.  
Lekin uyda bir narsa  
Yo'qdek ko'rini unga...

Xuddi shu payt bu „sir“ni  
O'g'li fosh etib qo'ydi:  
— Dadajon, musichamiz  
Ketib qopti! — deb qo'ydi.

— O'g'lim, sira achinma,  
Kelishar musichalar,  
Tongda ayvonga qo'nib,  
„Ku-ku“lashib, kuy chalar.

Axir ular ham yozda  
Bizlardek terlab-pishgan.  
Salqin o'rmon, bog'larga  
Dam olgani ketishgan.

Bir-ikki kun sabr qil,  
Kelib qolar qushlaring.  
Maydonchaga tush, o'yna,  
Kutishar teng-tushlaring!

Chindan ham bir kun tongda  
O'chdi Xolmat uyqusi.  
Ayvonidan yangradi  
Musichalar „ku-ku“si.

Sevinib ko'zlarini  
Katta ochdi Xolmatjon.  
Qadrdon qushlarini  
Ayvonda ko'rdi shu on.

Musichalar cho'chishmay,  
Sevinib „ku-ku“lashdi.  
Xolmat quvonchga to'lib,  
Non-uvoqlar ulashdi.

### TILLAQO'NG'IZ

Bahor kelgan chog'larda,  
Ochiladi gul-lola.  
Mol o'tlab o'tloqlarda,  
Ko'k kimxob kiyar dala.

Tom boshida qizg'aldoq,  
Yig'amiz dasta-dasta.

U qip-qizil, ichi dog‘,  
Tikilamiz havasda.

Lolalarning ustida  
Yaltirar tillaqo‘ng‘iz...  
Chiroylidir u juda,  
Tutib olay, deyman tez.

Olaman darrov ushlab,  
Qo‘ldan chiqmoqchi bo‘lar.  
U ko‘nmay tipirchilar.  
Uchmoq istab vizillar.

Qarab qoldim uchirib,  
G‘ing‘illab ketdi qo‘ng‘iz.  
Orqasidan yugurib,  
Chapak chaldik quvnab biz.



## *Shukur Sa'dulla*

(1912 — 1972)



Shukur Sa'dulla kichkintoylarga zavq-shavq bag'ishlaydigan she'rlari, yosh kitobxonni ezgulikka chorlovchi ertak-dostonlari, hikoyalari, bolalar hayotidan olib yozgan pyesalari, yosh qalblarni larzaga soluvchi qissalari bilan hamma yoshdagi bolalarning qadrdon va suyukli yozuvchisi bo'lib qolgan.

Shukur Sa'dulla 1912- yilning yanvarida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi, boshlang'ich ma'lumotni ona shahridagi Narimonov nomli maktabda oldi. 1924- yilda Samarqand pedagogika bilim yurtida tahsil ko'rdi, so'ngra Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universitetida o'qidi. 1931—1964- yillarda Sh. Sa'dulla nashriyotlarda muharrir, bo'lim boshlig'i, bosh muharrir o'rribbosari, bosh muharrir, direktor vazifalarida mehnat qilib, bolalar uchun adabiy-badiiy kitoblar nashr etishga barakali hissa qo'shdi.

Shukur Sa'dullaning birinchi she'rlar to'plami 1932- yilda „Hayqiriq“ nomi bilan bosilib chiqdi. Adabiy jamoatchilikning bu kitob haqidagi fikr va mulohazalari shoirni yanada chidam, qunt bilan ijod qilishga, o'z ustida ko'proq izlanishga, eng muhimi, hayotni o'rganishga va shu asosda ijod etishga chorladи. Sh. Sa'dulla butun umri davomida bunga amal qildi. Qirq yildan ortiqroq hayotini badiiy ijodga bag'ishlagan san'atkorning „Uch ayiq“, „Ayyor chumchuq“ (1935—1936), „Yoriltosh“ (1939), „Ikki sandiq“ (1942), „Sen nima qilding?“, (1942), „Shohista“ (1944), „Shirin kun“ (1946), „She'rlar“ (1955), „She'r va ertaklar“, (1957), „Pyesalar“ (1959), „Dastyor qiz“ (1960), „Sening alboming“ (1962), „Ozoda“ (1969), „Komandirning boshidan kechirganlari“ (1962), „Kachalpolvon“ (1963), „Ism qo'yilmagan xat“, „Sening bayraming“, „Mening aziz bolalarim“ va boshqa kitoblari bosilib chiqdi.

Dramaturg Shukur Sa'dullaning „Yoriltosh“, „Gulxan“, „Bizning bog'chamiz“, „Dalada bayram“, „Vatan ishqisi“ (dramaturg X. Fatxullin bilan hamkorlikda yozilgan), „Ikki bilaguzuk“, „Zubayda“, „Afsona yaratgan qiz“ pyesalarini tomoshabinlar yaxshi bilishadi.

Quvnoq va jo'shqin asarlar kuychisi bo'lган Shukur Sa'dulla o'zining juda ko'p she'r, qo'shiq, ertak, ertak-doston, pyesalarini kichik mакtab yoshidagi bolalarga bag'ishlagan.

Shukur Sa'dulla tabiat kuychisi sifatida e'zozlanadi. Shoир so'lim bahorni ko'pgina she'rlarida qalamga olar ekan, kichik yoshdagi bolalarda olamni tushunish qobiliyatini shakl-lantirishga katta e'tibor beradi.

Odatda, boychechak juda erta ochiladi. U qor erib-erimas-danoq ko'zga tashlanadi:

Ochildimi boychechak,  
Endi har yon gul demak,  
Chunki bahor elchisi —  
Shu mitti gul — boychechak.

Bahor boshlangach, tez-tez yomg'ir yog'adi. Yomg'ir tabiat husniga husn qo'shami, odamlar ruhini yengillatadi. Shukur Sa'dulla „Yomg'ir yog'aloq“ she'rida yomg'ir ona tabiatni gulga burkashi bilan birga, ekin-tekinlar uchun ham koni foyda ekanligini yosh kitobxon qalbiga yetib boradigan darajada quvnoq va sho'x misralarda ifodalaydi:

Yomg'ir yog'aloq,	Chiqar kamalak.
Yam-yashil o'tloq,	Yomg'irdan foyda
Endi ekinlar	Maysaga, donga.
Chiqrar qulqoq...	Yurt serob bo'lar
Yomg'ir tinganda,	Oq bug'doy, nonga.

Shukur Sa'dulla „To'rt fasl“ she'rida yil fasllarining o'ziga xos xususiyatlarini shoirona timsollar yordamida yoritadi. Ularning jozibasi, tabiatga alohida ko'rk bag'ishlashi, insonlar qalbiga ta'siri xususida bolalarbop xulosalar chiqaradi.

She'rdi bahor fasli shunday tasvirlanadi:

Milt etib chiqdi quyosh,  
Dedi: — Do'stlar, qish odosh.  
Ko'rsak, yo'l qora bulut,  
Yer yuzi ko'k gilam — o't.

Shoir Vatanimizning boyligiga boylik qo'shayotgan dasturxonimizni bezovchi noz-ne'matlarni yetishtirayotgan kishilarni zo'r muhabbat bilan ajoyib misralarda ulug'-laydi:

Ekin o'sdi yerlarda,  
Bug'doy pishdi qirlarda...  
Poliz to'la bodring,  
Bog'bon, tez uzib bering!  
— Sabr qiling siz andak,  
So'yib beray handalak.

Shukur Sa'dulla yoz faslini ulug'lash bilan birga, kuzning ham o'ziga xos fazilatlarga to'laligini, tabiatning oltin davri ekanligini obrazli tasvirlaydi:

Quyosh tushar taftidan,  
Qo'rqib qishning aftidan.  
Sarg'ayadi ko'katlar,  
Barg to'kadi daraxtlar.  
Hosil yig'ib olinar,  
Qishga zamin solinar.

Shoir qishning ham o'ziga xos gashti borligini, kishilarda zavq-shavq uyg'otishini lirik bo'yoqlarda ko'rsatadi:

Dala-dashtda tindi ish,	Xuddi yozday, bahorday —
Keldi mehmon bo'lib qish.	Iliq kuzgi nahorday —
Qish emas, u — qorbobo,	Qor yog'ar kecha-kunduz,
Sovg'alari bor bobo...	Suv sovqotib kiygan muz.

Shukur Sa'dulla „Egizaklar“, „Sen menga do'st, men senga do'st“, „Hovlimizning bolalari“ kabi qator she'rlarida do'stlik g'oyalarni ilgari suradi.

Shoirning asarlarini bolalar hozir ham darsliklarida sevib o'qiydilar. „O'yin“, „Lola va mushuk“, „Bahor keldi“, „Vatanim“, „Dastyor qiz“, „Ozod diyor“, „To'rt fasl“, „Qush tili“ kabilar shular jumlasidandir.

Shukur Sa'dullaning „Komandirning boshidan kechir-ganlari“, „Kachalpolvon“, „Aziz qishlog'im“, „Ism qo'yilmagan xat“ qissalari o'zbek bolalar nasrining yaxshi namunalardan hisoblanadi.

## **CHOL BILAN BO‘RI**

Ishtirok etuvchilar:

**Chol, Tulki, Bo‘ri, Mergan.**

Sahna: *chakalakzor. Qopqonda yotgan tulkining ovozi eshitiladi.*

### **Tulki:**

Voy-dod. Yordam... Dod yordam!  
Bormi rahmdil odam...

(*Jim bo ‘ladi*)

*Qo ‘lida qop va arqon bilan chol kirib keladi.*

### **Chol:**

Cholman, ketdi madorim,  
Hech qolmadi darmonim.  
Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yuraman,  
G‘ira-shira ko‘raman.  
Qani... biroz dam olay.

(*To ‘nka ustiga o ‘tiradi. Tulkining ovozi eshitiladi*)

### **Tulki:**

Voy-dod, yordam, onajon,  
Qayda qolding, otajon?!  
Qutqaringlar, o‘laman,  
Ochilmayin so‘laman.

(*Jim bo ‘ladi*)

### **Chol:**

Voy, nima bu?... Allakim —  
Dodladi-yu, bo‘ldi jim...  
Qaray-chi, kim bo‘ldi?

(*Axtaradi*)

### **Tulki:**

Men — Tulki,  
Yordam bering, bobojon,  
Oyog‘imda bor qopqon.

**Chol:**

Qo‘limdan kelsa yordam,  
Ayamayman men hech ham.

(Axtarib topolmaydi)

Tulki, qaysi go‘rdasan?  
Yoki o‘lik murdasan?  
Tezroq bo‘l, ovoz chiqar.

**Tulki:**

Chuqurdaman, tez qutqar.

(Yig‘laydi)

**Chol:**

Qutqaraman, yig‘lama,  
Yurak-bag‘ring tig‘lama.

(Chol arqon tashlab Tulkini chuqurdan tortib, qopqondan qutqaradi)

**Tulki:**

Rahmat sizga, chol bobo.  
Qutqardingiz o‘limdan.

**Chol:**

Yordam qildim, ey „bola“  
Nima kelsa qo‘limdan.

**Tulki:**

Men ozodman, quvnoqman,  
Boyagiday o‘ynoqman.

(O‘ynab qo‘sish aytadi)

Jon bobojon, bobojon,  
Sizga ko‘pdan-ko‘p rahmat.  
Bering menga bir arqon,  
Tortmang siz aslo zahmat.

(Arqonni olib chiqib ketadi)

### **Chol:**

(*Orqadan qarab*)

Balli, otangga rahmat,  
Umring ziyoda bo'lsin.  
Menga qilding zo'r madad,  
Yegan tuzing haq bo'lsin.

(*Birdan: „Ushla, qo'yma!“ degan shovqin eshitiladi*)

Bu qanday shovqin-suron,  
„Ushla! Qo'yma!“ — To'polon?  
O'rmonga o't ketdimi  
Yoki ajal yetdimi?

To 'x tam. Chol hayron. Chopganicha halloslab Bo'ri kiradi.

### **Bo'ri:**

Voy bobojon, bobojon,  
Yordam bering tez menga.

### **Chol:**

Nima bo'ldi Bo'rijon?  
Ozor berdi, kim senga?

### **Bo'ri:**

Qochdim o'rmonma-o'rmon,  
Qolmadi menda darmon.  
Quvladilar bermay kun,  
Kunduz bo'ldi menga tun.  
Yashiring — kelmoqda yov,  
Unda yo'q shafqat, ayov.  
Rahmingiz kelsin menga.

(*Yig'laydi*)

### **Chol:**

Sho'rlik,  
Bo'ri, tortibsan xo'rlik.  
Kel, qopga kir va jim yot,  
Kulcha bo'lib, toshday qot.  
Ko'rganlar desin: o'tin  
Faqat jim yot, jim yotgin.

**Bo‘ri:**

Xo‘p, yashiring tez,  
 Vaqt oz.  
*(Qopga kiradi)*

**Chol:**

Jim yot, jim bo‘l,  
*(Bo‘ri jim bo‘ladi)*  
 Juda soz.  
*(Mergan kiradi)*

**Mergan:**

Hoy, o‘tinchi bobojon,  
 Hormang!

**Chol:**

Bor bo‘ling, o‘g‘lon!

**Mergan:**

Qochirdim bir bo‘rini,  
 Ko‘kish, aytsam turqini.  
 So‘rayman sizdan shuni,  
 Ko‘rmadingizmi uni?  
 O‘zi juda bahaybat,  
 Turgan-bitgani g‘iybat.  
 Shum, hiylagar va ayyor,  
 Ovqat bor joyda tayyor,  
 Qo‘zi-ko‘ylarga ofat.

**Chol:**

Yomon ekan kasofat...

**Mergan:**

Qopqon qo‘ysam ilinmas,  
 Terisi ham shilinmas...  
 Xayr, qolmayin yo‘limdan  
 U qutulmas qo‘limdan.

**Chol:**

Niyatingga yet, bolam.

## **Mergan:**

Xayr, ota!

## **Chol:**

Xayr, bolam!

(*O'zicha*)

Yolg'onladim, oqibat —

Yomon bo'lmasin faqat.

(*Bo'rige*)

Bo'ri, qopdan chiq tezroq,

Mergan uzoq ketdi, boq.

(*Bo'ri qopdan chiqadi*)

## **Bo'ri:**

(*Kulib*)

Omon qoldim o'limdan,

Ha-ha-ha-ha-ha,

Ha-ha-ha-ha-ha.

Endi mening qo'limdan —

Qutulmas hech qanday ov,

Odam zoti menga yov!

(*Kuladi*)

## **Chol:**

(*Talvasaga tushib*)

Yaxshilik qildim senga!

## **Bo'ri:**

Yomonlik odat menga!

(*Uliydi*)

Men bo'riman, bo'riman,

Odamlarning sho'riman.

## **Chol:**

(*Yalinadi*)

Rahming kelsin, shafqat qil,

O'lirma, marhamat qil.

### **Bo‘ri:**

Dushmanga bo‘lmas ayov,  
 Odamzodmi, menga yov.  
 Qornim ochdi,  
 Nachora.

(*Cholga*)

Seni yezman, bechora.  
 Arzing bo‘lsa, aytib qol!  
 Ochligimdan men behol.

### **Chol:**

Xo‘p, gapimga qulog sol,  
 Men rahmdil qari chol,  
 Dushmanni do‘st bilibman,  
 Ko‘ngil bo‘shlik qilibman.

(*Nochor*)

Shuning uchun haqqing bor,  
 Yeya qol, men gunohkor.  
 Lekin gunohni har gal  
 O‘zga birov qilur hal,  
 O‘rmonning qonuni shu.

### **Bo‘ri:**

Uncha qiyin emas bu...  
 Ammo bu yer daraxtzor,  
 Na odam bor, na jonvor.

### **Chol:**

So‘nggi iltimos shuki...

(*Ko ‘rib*)

Ana kelmoqda...

(*Ikkov*)

(*Tulki kirib keladi*)

### **Tulki:**

(*Sezib*)

Omonmisan, jon bo‘ri,  
 Daraxtzorga xon bo‘ri,

Na mushkul ish boshingda,  
O'ttiz yashar yoshingda?

**Bo'ri:**

Chol mergandan qutqazdi,  
Lekin jonin yutqazdi.  
Qopga kirib qutuldim.

**Chol:**

Men bechora tutildim,  
Bo'ri meni yeymish.  
Qorni to'yib ketarmish.

**Tulki:**

(*Bo 'riga*)  
Qopga sig'dim deysanmi?  
Cholni endi yeysanmi?

**Bo'ri:**

Ha, sig'dim, cholni yeymen!

**Tulki:**

Gaping yolg'ondir deyman!

**Bo'ri:**

Rost.

**Tulki:**

Rost bo'lsa, hoziroq,  
Qani, qopga kirib boq!  
Ko'ray, ishonay.  
Keyin —  
Mayli, cholni sen yegin!

**Bo'ri:**

Chol, qopni och, kirayin!

**Tulki:**

Sig'ganini ko'rayin!  
(*Bo 'ri qopga kiradi*)

**Tulki:**

Bobo, qop og'zin bog'lang,  
Bo'rining bag'rin dog'lang.

(*Chol qopning og'zini bog'lay boshlaydi*)

**Bo'ri:**

Voy-dod! Bobo, rahm aylang!

**Tulki:**

Qop og'zini mahkam bog'lang!

**Chol:**

(*Bo'riga*)

Dushmanga bo'lmas ayov.  
Doim firib berar yov.

(*Chol bo'rini, Tulki o'tinni orqalaydi*)

**Tulki va Chol:**

(*Quvnashib ashula aytadilar*)

Biz dushmandan oldik o'ch,  
Endi, Bo'ri, bo'lma o'ch!  
Biz ikkovmiz, bizda kuch,  
Do'stmiz qadrdon.

**Chol:**

Tulkibek, rahmat senga,  
Yov xavf sololmas bizga.

**Tulki:**

Bobojon, rahmat sizga.

**Birga:**

Yasha, qadrdon!

(*Chiqib ketadilar*)

P a r d a



## ***Hakim Nazir***

(1915–2008)



Hakim Nazir o'zbek bolalar narsining otaxon ijodkorlaridan biri, kichkintoylarning sevimli adibidir. U bolalar uchun o'ndan ziyod qissa, roman, pyesa va qator hikoyalari yaratdi. „So'nmas chaqmoqlar“, „Yonar daryo“, „Kenjatoy“ qissalari, „Lochin qanotlari“ romani va o'nlab hikoyalari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda ham o'z o'quvchisini topdi.

Zahmatkash adib 1915-yilda Toshkent shahrida maxsido'z-kosib oilasida dunyoga keldi. Onasi Malika otin qo'lida boshlang'ich ma'lumotni olgandan keyin poyabzal fabrikasiga ishga kirib, kasb egallash bilan birga, kechki ishchilar dorilfununi (industrial texnikum)da o'qishni davom ettirdi.

Hakim Nazir bolaligidan kitobga mehr qo'yib, gazeta va jurnallarda bosilgan materiallarni chanqoqlik bilan o'qib chiqardi. Bu qiziqish uni sobiq „Lenin uchquni“ („Tong yulduzi“) gazetasi tahririyatiga boshlab keldi. 1934—1935-yillarda havaskor adibning dastlabki hikoya, ocherklari gazetada, „Yosh kuch“ jurnalida bosilib chiqdi. U jiddiyroq asar yozish uchun hayot taassurotlaridan tashqari, chuqur nazariy ma'lumot ham zarur ekanligini anglatdi. Kunduzi tahririylarda ishlab turib, Toshkent Davlat pedagogika institutining til-adabiyot fakultetini muvaffaqiyatli bitirib chiqdi. Biroz vaqt o'qituvchilik ham qildi. Ammo adabiy ishga astoydil berilgan yozuvchi 1942-yildan boshlab, o'n bir yil davomida O'zbekiston radiosida bo'lim boshlig'i, bosh muharrir bo'lib ishladi. So'ng badiiy adabiyot nashriyotida bosh muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotib, adabiy maslahatchi vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. Mazkur vazifalarni yozuvchi ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi.

Qunt, chidam bilan o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940-yilda „Kenja“ (yangi nomi „Quyosh qachon tutiladi?“), 1946-yilda „Salim ota“ nomli hikoyalari respublika tanlovlarda sovrindor bo'ldi. 1951- yilda esa Moskvada rus tilida chiqqan „Мальчики из кишлака“ hikoyalari to'plami sobiq Ittifoq tanlovida mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning dastlabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlangan. Uning „Qishloqdagi jiyanlarim“ nomli birinchi kitobi ham hikoyalardan jamlangan. Hikoya janri yozuvchi bilan yosh kitobxonlar olamini bog'lashda muhim vosita bo'ldi. Shu vosita orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go'zal, quvnoq, ajoyibotlarga to'la dunyosiga kirib bordi. Buning natijasi o'laroq, bir-biridan o'qimishli, bolalarcha quvnoq hikoyalari dunyo yuzini ko'rди. Bularda kichkintoylarning quvonchga to'la his-tuyg'ulari, o'qishi, xulq-odobi, kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, milliy qadriyatlar o'z badiiy ifodasini topdi. Yozuvchining kichkintoylar yoshi, saviyasi, ruhiyatini ko'rsatishga alohida e'tibori diqqatga sazovordir. „Qishloqdagi jiyanlarim“ (1948), „Besh baho“ (1955), „Cho'l havosi“ (1958), „Yaxshi ism“ (1962), „Meni taniysizmi?“ (1963), „Bolajonlarim“ (1964) nomli hikoyalari to'plamlari birin-ketin nashr etilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning bir qator hikoyalari bog'cha yoshidagi yoki endigina maktabga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Buni adibning „Bir og'iz so'z“, „Rasmlı kitobcha“, „Davronning qushchasi“, „Qaysargina ukam“, „Yaxshi ism“, „Ikki o'rtoq“, „Bulbul“, „Qanddon“, „Ignə“, „Bir tup g'o'za“ kabi hikoyalari misolida ko'rish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zar do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, orzu-umidlar qanotida yashash yetakchi g'oyalar hisoblanadi.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. „Yaxshi ism“ nomli hikoyasida adib xuddi shu haqda so'z yuritadi. Shoira endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab qonun-qoidalarini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun o'qituvchisi Zuhra yulduziga raketa

uchirilganligi to‘g‘risidagi axborotni gazetadan o‘qib bergenida qizcha:

— Topdim! Topdim! Topdim!!! — deya ovozining boricha baqirib yuboradi.

Ayon bo‘lishicha, kuni kecha Shoira singilchalik bo‘lib, chaqaloqqa nima deb ism qo‘yish muammo bo‘lib turgan ekan. Shoirada orzu-havas, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singilchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug‘iladi va bu haqda u butun sinfga so‘zlab beradi.

Bolalarga har tomonlama to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish, tushuntirish, o‘rgatish, ularda turli ko‘nikmalar hosil qilish ko‘p jihatdan kattalarga bog‘liq. Kichkintoylarning otaxon adibi „Bulbul“ hikoyasida bu masalaga katta e’tibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyasi bu asarning asosini tashkil etadi.

Adibning mакtab yoshidagi bolalarga bag‘ishlab yozgan juda ko‘p hikoyalari kitobxонни ota-onani e’zozlashga, ona yurtni sevishga, mehnatkash bo‘lishga, ma’лum bir kasb-hunar egasi bo‘lishga chorlaydi.

„Bir tup g‘o‘za“ nomli hikoyasida yosh qahramonlarning xalq boyligiga bo‘lgan munosabatlari g‘oyat hayotiy detallar, jonli, qiziqarli voqealar asosida ifoda etiladi. Bolalarning o‘yinqaroqligi tufayli Karimning sigiri bo‘shalib, bir tup g‘o‘zani payhon qilishi hammani tashvishga soladi. Yozuvchi shu voqeа vositasida yoshlarning xalq mulkiga bo‘lgan munosabatlarini tasvirlaydi.

Hakim Nazirning umuminsoniy va milliy qadriyatlariga bag‘ishlangan 50 dan ortiq asarlarini aytish mumkin. Shulardan 7 tasi bolalar va o‘sмirlar uchun yozilgan qissalar bo‘lib, muallifning bиринчи qissasi „Kо‘korol chiroqlari“ (1954) qishloq hayotida yuz bergen qiyinchiliklarni yengishda ota-onalarga ko‘mak ko‘rsatgan bolalar haqida. Asarda ularning mehnatda pishib-chiniqishlari, oralaridagi do‘stlikning toblanishi aks ettiriladi. Bu qissani muallif kitobxonlar talabi asosida qayta ishlab, 1957-yilda „So‘nmas chaqmoqlar“ nomi bilan nashr ettirdi.

Hakim Nazirning „Yonar daryo“ (1966) qissasi o‘zbek bolalar adabiyotining o‘sha yillardagi katta yutug‘idir. Gazchilar hayoti manzaralarini yorqin bo‘yoqlarda gavdalantirgan bu

asarda Qizilqum sahrosida mehnat qilgan kishilarning jasorati, romantik hayoti, qahramonligi hamda bir-biriga mehribonligi badiiy ifodasini topgan. Asarda voqeа o'n ikki yoshli o'quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi. Oilada bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan roli ko'rsatiladi.

Yozuvchining „Kenjatoy“ (1976) qissasida hunar maktabi o'quvchilari hayotining qiziqarli va jozibador aks ettirilishi o'smirlarda ishchi kasbidan faxlanish tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qiladi.

„Tohir-Zuhra“ (1985) qissasidagi bosh g'oya hayotga endigina qadam qo'yayotgan balog'at yoshidagi o'spirin bilan qizaloqning yosh qalblarida tug'il mish ilk sevgi kechinmalariga qaratilgan, ularning yoniq iztirobleri tasviriga keng o'rinn berilgan.

„Dadamni topib beringlar“ (1991) qissasida esa bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik fojiasi kichkintoy nazari orqali tasvirlanib, ularning ongi va ruhiyatiga yetkazilgan salbiy ta'sir badiiy tahlil etilganini ko'ramiz va yosh qahramonlar bilan birga iztirobga tushamiz.

Hakim Nazirning „Oq fotiha“ xotira-qissasi esa bolalik sarguzashtlariga bag'ishlangan. Muallif ushbu kitobda bezovtalik, g'ulg'ula, hayajonlarga to'la bolalik chog'larida ko'rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi, kichikligida otonasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun ularga minnatdorchilik izhor etadi.

Yozuvchining dramatik asarlaridan „Chiranma g'oz — hunaring oz“ nomli pyesasi uzoq yillar yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo'yilib, bolalar ko'nglini xushnud etdi.

## YONAR DARYO

(*Qissadan parcha*)

### „Kengashli to'y tarqamas“

Nonushtaga hamma o'tirdi-yu, oyim o'tirmadi. Har kungidek uzoq soch tarash, ko'ylak dazmollash bugun esiga ham kelmadи. Bir piyola choy ham ichmasdan ishga jo'nadi. Nega undoq qildi, a? Shoshganidanmi yo bir narsaga zarda qilganidanmi?

Buvim uning ketidan:

— Hoy, bolam, och-nahor qayoqqa ketyapsan? — deganicha achinib qoldi.

Kuniga biz bilan chaqchaqlashib choy ichadigan Sulton amaki bo'lsa indamay o'tiribdi. Chakkasi tirishib, ko'zi qizarib ketibdi. Nima bo'ldi? Bosh og'rig'i tutib, uxlamay chiqidimikan? So'ray desam, tilim bormadi. Negadir birdan ishtaham bo'g'ildi. Buvim pishirib kelgan quymoqning yarim likopchasini zo'rg'a yedim-da, turib ketdim.

Sulton amaki soatiga qaradi.

— Yur, Popuk, vaqting bo'lib qolibdi, — deb, singlimni bog'chasiga yetaklab ketdi.

Boshqa kunlari Popukni bog'chasiga qo'yganidan so'ng to'g'ri uya qaytardi. Bugun shu ketgancha allaqayoqlarda yurib, kechqurun Popukni ko'tarib kirib keldi.

Men mактабдан allaqachon kelib, nima qilishimni bilmay o'tiruvdim. Sulton amaki kelsa, bir tennis o'ynaylik degan edim. U charchab kelgan ekanmi, to'g'ri mening karavotimga borib cho'zildi. Men hech narsa deyolmadim. Keyin fotoaparatimni olib, ko'chaga chiqib ketdim.

Bugun uyimizda suv quyganday jim-jitlik bo'ldi. Ertasiga oyim bilan Sulton amaki o'rtasida tag'in „g'idi-bidi“ qo'zg'aldi. Bu gal oyim buvimni bahona qildi.

— Oyimlarga gapingizni aytgan edim, dillari og'ridi: „Sultonboydan umidim shumidi? O'g'lim o'mnida o'g'lim degandim! Nahotki, yuzimga oyoq qo'yib ketsa!“ dedilar...

Sulton amakining dami ichiga tushdi. U indamay allaqayoqqa chiqib ketganda, oyim meni oldiga chaqirib:

— O'tir, maslahat bor, — dedi.

Qo'rqa-pisa o'tirdim, yuziga baqraydim: oyim hech qachon men bilan hech narsani maslahat qilmasdi-ku? Qaytaga hamma narsani mendan berkitardi, biron ishi bo'lsa, o'zi o'ylab olgandan keyingina menga aytardi, to'g'risi, faqat buyurardi. Hozir menda birdan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ldi. Tomog'im qichimasa ham qirib qo'ydim. Zo'rakilik bilan astimni jiddiy tutishga tirishdim. Oyim menga e'tibor qilmadi va ovozi qaltirab ketdi:

— Bizni tashlab ketmoqchi, adang...

Xuddi elektr toki urganday, miyamda bir nima shang'illab ketdi. „Adang!“ Tug'ilganimdan boshlab qulog'imga o'rnashgan so'z. Bu so'zni o'zim ham, oyim ham ishlatmay qo'yganimizga ikki yilcha bo'lgan edi. Hozir qulog'imga g'alati kirdi. „Tashlab ketmoqchi!“ Bunisi yana g'alatiroq. Tunov kuni o'z qulog'im

bilan eshitib olgan gaplar orasida bunaqasi yo‘q edi, shekilli. Ana, bordi-yu, shundoq degan bo‘lsin. Unda nima bo‘pti? Oyimning o‘zi o‘sha kuni „Bilganingizni qiling“, demaganmidi? Nega bugun vahima qilyapti? Bundan chiqdi, Sulton amakining butunlay ketib qolishiga oyim rozimas, ha, ro-zimas!

Men tavakkal qilib aytib yubordim:

- Cho‘lga olib ketaman, desalar, o‘zingiz ko‘nmadingiz-ku?
- Ha, mug‘ambir! — dedi oyim barmog‘ini o‘qtalib, — buni ham eshitib oluvdingmi? Kattalarning gapiga qulq sol-magin, deb aytmabmidim?

Balogha qoldim. Sekin qo‘zg‘almoqchi bo‘lgan edim, oyim:

— O‘tir, hali maslahat bitgani yo‘ql! — deb qo‘limdan tortdi. Endi yarasi bitib kelayotgan qo‘lim sanchib ketdi. Aftimni burishtirib oluvdim, oyim achchig‘idan tushdi, — Aqlingni yig‘, o‘g‘lim. Gapimga diqqat bilan qulq sol. Agar bordi-yu, adang cho‘ldan gap ochib, „Hammangni olib ketaman“ desa, sen nima deysan?

Nima deyman-a?! „Yo‘q, bormaymiz!“ desam, u xafa bo‘ladi. Albatta, xafa bo‘ladi. Aslida-ku, o‘sha yoqqa ko‘nglim chopib turibdi-ya. O‘sha Sulton amakilar ishlaydigan sahroni, Sulton amaki bajaradigan hunarni bir ko‘rib qo‘ysam yomon bo‘lmasdi-ya. Lekin „Mayli, boramiz“, deyishga oyimdan hayiqaman-da. Aqlim ishlamay qoldi. Yelkamni qisib, baqrayib turaverganimdan so‘ng oyimning o‘zi o‘rgatdi:

— Bo‘lmasa u qulog‘ing-u bu qulog‘ing bilan eshitib ol: „Cho‘lingizga bormaymiz“, deb turib olasan. „O‘zingizni ham yubormaymiz“ deb etagiga yopishasan. Popukka ham shundoq deb o‘rgatasan. Ikkoving oyoq tirab turib olsanglar, shaxtidan qaytar. Tushundingmi, o‘g‘lim?

Tushunganim bilan bu oson ishmi? Men artistmanmiki, birov o‘rgatganni xuddi o‘shandoq qilib bajarsam? Oyimga miq etmay, qarab turibman. Javob kutyapti-ku. To „xo‘p“, demagunimcha qutulmaydiganga o‘xshayman. Qulog‘imni cho‘zib bo‘lsa ham „xo‘p“ dediradi. Bu tashvishdan qulqoni cho‘zdirmay qutula qolay dedim-da, „xo‘p“ devordim. Oyim azbaroyi xursand bo‘lganidan:

— Barakalla, o‘g‘lim! — deb yelkamga qoqib qo‘ydi.

Necha kungacha oyimning o‘rgatganlarini ichimda takrorlab yurdim. „Cho‘lingizga bormayman!“ O‘zi ikki og‘iz so‘z-u, uni

ovoz chiqarib aytmoqchi bo'lsam, hech tilim aylanmaydi. Sulton amakining o'zi ham bu to'g'rida menga gap ochmasdi. Balki u ketish fikridan qaytgandir? Doktorlar: „Senga cho'l havosi to'g'ri kelmaydi“, deb qoldirganmikan? Doktorlarga maslahat solib o'tirarmidi u? Aytganidan qaytmaydigan kishiga o'xshaydi.

O'ylaganimcha bo'ldi. Bugun u juda erta turdi. Har kuni kiyadigan oppoq kiyimlarini qalinqroq odmi kiyimlarga almashtirdi. Uydan brezent jildlik chamadonini olib chiqdi. Oyim bilan ozgina, buvim bilan uzoqroq gaplashdi. Popukni osmonga ko'tarib, peshanasidan ikki marta, menikidan bir marta o'pdi. Keyin xayrplashdi. Popuk:

— Menam boyaman, menam, — deb ergashgan edi, Sulton amaki:

— Borasan, borasan. Keyin olib ketaman, — dedi.  
— Mayajniy-chi, mayajniy obeyasizmi?  
— Morojniy ham oberaman, — deb kuldi-da, qo'l silkit-ganicha chiqib ketdi...

... Bir hafta deganda xat keldi. Sulton amaki cho'lga esonomon borib, ishga tushganini yozibdi. Lekin qayerda, qanaqa ishligini aniq ko'rsatmabdi. Qisqa qilib, „Yonar daryo quryapmiz“, debdi-qo'yibdi. „Yonar daryo“si nima ekan, deb biz hayron bo'lamiz. Muncha qisqa yozmasa-ya! Vaqtি bo'Imagandir-da. Yanagi xatida aniqroq yozar, deb kutgan edim, yozmadi. Ancha kun o'tdi. U ketgan vaqtida ertapishar o'rigimiz dovuchchasi qindan chiqqan edi. Hozir danak qotirdi. Tokimiz kurtak yozayotgan edi, bugun tok oshi yedik. Buvim osh yeb turib, esladi:

„Esizgina, Sultonboy o'g'lim palovxonto'rani yaxshi ko'-rardi. Bo'Iganda, tok oshini maqtab-maqtab yerdi-da“. Kuniga ovqat mahalida shunaqa eslaydi: „Tirikchiligi qanday ke-chayotgan ekan-a, bolamning. Qarovsiz qiynalib qolayotgandir“. Buvim uh tortadi-da, oyimdan so'raydi:

— Hoy, Anorxon, xat keldimi? Nega uzoqlab ketdi-ya? O'zing javob yozdingmi?.. Hali ham-a? Hafsalangga balli-ye. Naq sho'rlikning ko'zi to'rt bo'lib javobingni kutayotgandir!

Shundan so'ng tushunaman: Sulton amaki o'sha xatida, „uy ichi, bolalar to'g'risida xat kutaman“, degan edi. Oyim javob yozmabdi. Shuni kutib Sulton amaki boshqa yozolma-gandir. Yo ishi ko'payib, qo'li tegmay qoldimikan? To'rt og'iz

xat yozishga ham qo'li tegmas ekanmi? Yo bizni eslamay qo'ydimikan, a? Yo'g'-e. Nimalar degandi xayrashayotganida? „Borasizlar, keyin olib ketaman“, demaganmidi?

Shu va'da esimga tushib turadi. Har esimga tushganda, yuragim orqamga tortib ketadi. Ochig'i, ko'rgim keladi. Uning qiziq-qiziq o'yinlari ko'z oldimdan ketmaydi. Men-ku sog'in-ganimni hech kimga bildirmayman-a, ammo Popukning xarxashasi o'tib tushadi. Ertalab o'rnidan tura solib:

— Adamga qachon boyamiz? — deb g'ingshiydi.

Unga sari buvim uh tortadi:

— Shunaqa qilib kecha-yu kunduz tashvishda yashagandan ko'ra, bora qolsang bo'lmasmikan-a, qizim? Xohla bolalarni olib ket, xohla menga qoldir, — deydi oyimga.

— Bo'lmaydi-da, — deb oyim, nima uchun bo'lmasligini ochiq aytdi. — Bolalarni tashlab ketsam, sizga javr bo'ladi. Olib ketsam, enka-tinkamni quritadi.

Ana, kelib-kelib ayb yana bizga tushyapti. Nima qilish kerak? Oyimning borgisi kelayotgan bo'lsa-yu, biz uning yo'lini to'samizmi? O'zimning hozir borishga ko'zim yetmasa ham:

— Oyijon, bizdan xavfsiramay qo'ya qoling, — dedim. — Aytganingizni qilamiz, sizni qiynamaymiz.

Oyim ko'nmadi. Mening aytganimga ko'nib bo'pti! Shundan keyin buvim gap boshladi:

— Bolalarni menga ishonib ketaver bo'lmasa, qizim. Binoyiday olib o'tiraman. Vaqtida xat-xabar yuborib tursang bo'ldi. Yoz chiqsa, bir gap bo'lar. Sultonni yolg'iz qo'yma, jonginam. Xo'p, de so'zimga. Kengashli to'y tarqamas, dey-dilar.

Menga bu maslahat yoqdi. Oyim boraversin. Biz hozir emas, yozda borsak, o'ynab kelamiz. Xursand bo'lganidan Popukka:

— Rosa aqli-da akangning buvisi, a? — deb yuboribman. Koshki Popuk tushunsa bu gaplarga. O'z o'yini bilan ovora u: Laykaga bo'yinbog'imni „jilov“ solibdi-da, chuv-chuv deb minib yuribdi.

— Tentak-ey, Sulton amakining „ot-otakam“ o'yini xumor qilibdi-da.

Darrov Laykani sirtmoqdan ozod qildim. Sal bo'lmasa Popuk u bechoraning bel-melini sindirib qo'yardi-ya!

Buvim hali ham oyimdan javob kutardi. Oyim o‘ylab-o‘ylab olgandan so‘ng, menga eshittirib gapirdi:

— Damiringiz beshinchini eson-omon bitirib olsin-chi, keyin ko‘ramiz...

Buni eshitdim-u birov tarsaki urganday, cho‘chib tushdim:

— Ha, oyijon, beshinchini bitirmaydi, deb qo‘rqtyapsizmi hali?

— Qo‘rqayotganim yo‘q, o‘g‘lim. Lekin bitirishniyam bitirishi bor-da.

Ha, tuzuk bitirib olishimga ko‘zi yetmayapti. Sulton amakingning oldiga ketolmayotganiga sababning bir chekkasi shumikin? Hamma gap menga, mening o‘qishimga bog‘liqmikin? Nahotki, Sulton amaki bilan oyimning xafalashib qolishlariga men sabab bo‘lsam?.. Yo‘q, yo‘q, bunday bo‘lishi mumkinmas, hech mumkinmas!

### **Tashvish ustiga tashvish**

Har nima bo‘lsayam harakatingni qilaver, Damirjon. Beshinchini bitirgandayam „a‘lo“ bilan bitirishga intil!

To‘g‘risi, bu aytishga oson. Axir, beshinchida qanaqa darslar bor o‘zi? E-he, bitta arifmetikani oling. Qancha masala, qancha qoida. Qo‘sish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirishlarni-ku bilib oldim. Agar mendan: „Bugun necha qadam yo‘l bosding?“ deb so‘rasangiz, o‘ylamasdanoq aytib berolaman: mактабга tor ko‘chamizning o‘ng tarafidan chiqib bordim — masofa 350 qadam (bir marta sanab ko‘rganman). Qaytishda bo‘lsa o‘rtoqlarim bilan chillak o‘ynagancha, guzardan morojniy olib, chap tarafdan keldim. Bu yog‘i o‘ng tarafdagи masofaga ikki baravar keladi. Hammasi bo‘lib bugun necha qadam bosganimni bilish uchun 350 ni ikkiga ko‘paytirish, chiqqan songa 350 ni qo‘sish kerak, xolos. Ha, aytmoqchi, nechta morojniy olding-u, necha pul to‘lading, deb ham so‘rarsiz. 30 tiyin to‘lab, ikkita morojniy oldim. 30 tiyinni ikkiga bo‘lsak 15 tiyin. Endi bu pulni qayerdan olding, desangiz, bu yog‘ini ham ayta qolay. Kuniga sut-qatiqmi, mevami olib kelish uchun buvim meni bozorga chiqaradi. Uyimizdan bozorgacha borish uchun avtobusda ikkibekat yuriladi. Xarajat puliga oyim o‘n tiyin qo‘sib beradi. Piyoda borib kelaman-da, bu pulni yig‘aman. Uch kunda

qarabsizki, o'ttiz tiyin — o'zim bilan Popukka morojniy tayyor. Ana, pul hisobi-yu, yo'l hisobi desangiz, hammasini bilib oldim, bo'ldi-da. Yo'q, bo'lmas emish. Yana erinmaganlar „kasr“ degan narsani o'ylab topishibdi. Butun sonlarning bo'laklari yoki ulushlari emish bu: yarim, uchdan bir, chorak, beshdan bir, o'ndan bir... Kunim shularga qoldimi? Nima qilaman-a bunaqa mayda-chuyda hisoblarni: mактабимизда doim ko'zoynak taqib, cho't solib o'tiradigan kishiga o'xshab buxgalter bo'larmidim.

Ishqilib, xohlasang-xohlamasang, bir-biridan battar qiyin topshiriqlarni yuklayverishadi.

Bu chalkash masalalarni qanaqa odam o'ylab chiqargan ekan, miyasi aynib qolmaganiga hayronman. Birov o'ylab chiqaradigan, sen bosh qotiradigan. Bosh qotira-qotira „4“ baho olsang, tag'in bu kammish. Keyingi vaqtida kuniga ikki mahal dars tayyorlash ham ozlik qilib, kechalariyam o'tiradigan bo'ldim. Ko'chaga chiqib futbol o'ynash-u o'rtog'ing bilan tennisda musobaqalashish, suratchilik qilishga vaqt qani. Buning ustiga masalani yecholmay qolganingda yo'l ko'rsatib yuboradigan odam yo'q. Sulton amaki esimga tushib ketadi. Uning jilmayib qarashlari, „Ahvol qalay, o'rtoq o'quvchi?“ deb darslarimni surishtirishi, bo'sh vaqtida bolallarday qiziqib, tennisda men bilan olishishlar... Ha, „Jo'jalar“, deb hazillashishlari-chi? Oldiniga bu hazili menga uncha yoqmaganidi, bora-bora Popuk qatori menga ham o'rganish bo'lib ketgandi. Hammadan ham, bir kuni men hovuzcha bo'yidagi karavotda o'zimni uyquga solib yotganimda, oyoq uchida oldimga kelib o'tirgani, pashsha talamasin deb ustimga sekingina oq choyshabni yopib qo'ygani-chi! Shularni eslasam, Sulton amakini hoziroq ko'rgim kelib ketadi. Juda qadri o'tayapti. Bir kelib keta qolsa bo'lmasmidi, deyman. Mening darsimga yordam bermasa ham, Popukni o'ynatmasa ham, o'zi bir ko'rinish ketsa bo'lgani edi. Bordi-yu hozir kelib-ketishi qiyin bo'lsa, qisqagina xat yozib buvim bilan oyimni tinchitib tursa bo'lgani edi. Esidan chiqardimi, bizdan yo kechib yubordimi-a? O'z xayolimdan cho'chib tushaman. Xuddi yaqindagina topib olgan qimmatli narsamni yana yo'qotib qo'yganday bo'laman. Xat kelib qolar deb, o'zimni tinchitaman. Buvim bo'lsa, uzzukun xat kutadi-da, kechga borib uh tortib qoladi:

— U yozmaganga yarasha senlar yozsang-chi, bolajon-larim! — deb zorlanadi.

Oyim churq etmaydi. Aftidan yozmaydiganga o'xshaydi. O'zim yozsam-chi? O'ng qo'lim ishning beliga tepib turibdi-da. To'g'ri, endi uni oz-oz ishlatyapman-u, ammo tuzukroq xat yozishga yaramaydi. Chap qo'l undan battar. Shuncha ishlatib ko'rganim bilan o'rganmadi, hafsalam pir bo'ldi. Bir amallab xat yozishga-ku yarar. Egri-bugri, chatoq chiqsa, Sulton amaki sababini tushunadi. Lekin yon-veridagi biror odam: „Qani, o'g'lingiz qanaqa xat yozibdi“, deb ko'z tashlab qolsa-chi. „Iya, o'g'lim a'luchi derdingiz, xati shumi hali!“ deb uyaltirib qo'yasmikin?..

Ertasidan xat ham, boshqa narsa ham esga kelmay qo'ydi. Chunki buvim kasal bo'lib qoldi. (Uh tortaverganidan xavotirim bor edi.) Hadeb chap biqinini ushlaydi. Oyim borida uncha bildirmaydi-yu, oyim ishga ketganda divanga yon-boshlaydi.

— Nima qildi, buvi? — deb so'rasam, u:

— Hech narsa, bolam. Sal charchabman, — deb qo'yadi.

Bir vaqt kelib qarasam, buvim divanda cho'zilib yotibdi. Rangi ketgan, peshanasi terlab, qo'llari qaltiraydi. Og'ir-og'ir nafas oladi. Qulog'iga sekin:

— Nima qildi, buvi? — deyman.

Gapirishga holi kelmay, boshini sarak-sarak qiladi. „Hech narsa“, deb meni tinchitmoqchi bo'ladi. Men qattiq qo'rqib, nima qilishimni bilmay qolaman... Esimga doktor qo'shnimiz tushadi. Uni chaqirib chiqdim. U darrov ukol qildi-da:

— Endi urinmasdan tinch yoting. Sizga parvarish kerak, — deb tayinlab qo'ydi.

Oyim kelishi bilan buvim tag'in turib ketdi. Kasalidan hech gapirmadi. „Gapisam, qizim tashvish tortadi, qiynaladi“, deb o'ylasa kerak. Odati qiziq-a, buvimning: o'zi qiyalsayam, birov qiyalmasa bo'lgani. Shu yotgan joyida ham Sulton amakining g'amini yeysi:

— Kasal qursin. Ishqilib, u yoqda Sultonboy sog' yurgan bo'lsin. Bugun ham xat kelmadi-ya, Damirjon?

Endi o'zim xat yozishim kerakka o'xshaydi. Buvimning kasalini bildiray. Shundan so'ng zora javob yozsa, yo bir kelib ketsa. Qoyil fikr!

Buni o‘ylashga o‘yladim-u, ammo yozishga qo‘lim tegavermedi. Avvallari ishim ko‘p deb yurgan ekanman. Mana endi ko‘ring: o‘qishga borish, dars tayyorlash. Popukni o‘ynatish, uy ishi... Ha, buvimga qarashmasam bo‘lmay qoldi. Uning yotganini ko‘rib rahmim keldi-da.

— Buvi, choy quyib beraymi? Yo qatiq ichgingiz kel-yaptimi? — deb so‘rayman.

— Yo‘q, qo‘zim. Baraka top. Darsingga qaray qol, — deb qo‘yadi buvim.

Buvimning inqillab-sinqillab kartoshka archayotganini ko‘r-sam, chapaqaylab bo‘lsa ham archishib yuboraman. Lekin yomon ko‘rgan narsam — yig‘lash.

Shunaqa qilib, vaqt degan narsa yetishmay qoldi. Maktabga yugurib boraman-u, yugurib kelaman. O‘yinlar, to‘garaklarga hafsalam ham qolmadi. Bu ishim Solihga yoqmadidi.

— Xo‘sish, sen nima uchun bizdan chetlashib yuribsani? — deb so‘raydi.

— Uyda ishim ko‘payib ketdi, — desam, u ishonqiramay:

— Qanaqa ishlar ekan, ochig‘ini ayt-chi? — deydi.

— Buvim kasal.

— Buvining kasalini sen boqarmidin? Boshqa sir bordir-a, ayt ochig‘ini!

Men buni eng yaqin kishimiz — uyga kelib turadigan sinf rahbari Halima opamga ham aytolmayman. Necha marta Halima opam: „Damirjon, ahvollar qalay?“ deb so‘raganda ham, „Ahvol yaxshi“, deb qo‘ya qolardim. Hozir esa Solih, „Ochig‘ini aytasan“, deb tiqilinch qilib turib olgan edi.

— Bor, bor, men bilan ishing bo‘lmasin, — deb jerkib tashladim.

— Nima deding? To‘xtab tur hali, — deb engagini qismlab qo‘yadi.

Ertasi sinfda menga topshiriq beradigan bo‘lishdi. Nima emish, bir bolaning „ikki“sini „uch“ga chiqarishga yordam berarmishman. „Vaqtim yo‘q“, degandim, yig‘ilish chaqirib, meni rosa gap bilan do‘pposlashdi. Faqat o‘zimni o‘ylab, ko‘pchilikni mensimay qo‘yanmishman, a’lochiman deb gerdaiyib ketganmishman. Voy, nodonlar-ey, nimaga gerdgayaman? To‘g‘ri, qishki ta’tilga chiqqanimda, hamma baholarim „besh“ edi. Hozir-chi, hammasimas. O‘zim hammasini „besh“ qilaman deb tirishib yotibman-ku. Innaykeyin, gerdayish nimaligini bola bo‘lib bilgan emasman. Surishtirmay-netmay ayblayverar

ekan-da. Jahlim qistab, tishlarim g'ijirlab ketdi. Ammo indolmadim. Solihga bir o'qraydim-u, shartta sifsdan chiqib jo'nadim. Solih ketimdan yugurib, yo'limni to'sdi.

— Nimaga beruxsat jo'nayapsan? Nima uchun menga o'qrayasan? Ayt ochig'ini!

Qarasam, xuddi mushtlashadiganday ko'kragini kerib, qaddini gijing qilib turibdi. Uning odati shunaqa — bokschiman deb chirnishni yaxshi ko'radi. Xuddi boks tushadiganday mushtini tugib, tirsagini chiqarib, semiz gavdasini polvonlarcha lapanglatib yuradi. Gerdagan, deb uni aysa bo'ladi. Hozir bo'sh kelsam, meni ko'kragi bilan itarib yuboradigan. Agar tegsa men ham tushiraman deb lunjini ko'zlab turibman. O'zidan-o'zi chap qo'lim musht bo'lib ketdi.

Solih buni ko'rdi-yu:

— Iya, hali shu mitti gavdangga men bilan mushtlash-moqchimisan! — deb yelkamga turtdi. Men ham turtdim. Birdan boksga olib, ikkala mushtini ishga soldi. Men ham mushtlarimni ishga solmoqchi bo'ldim. Yo'q, o'ng qo'lim yaramadi. Oyog'idan chalishga harakat qildim. U g'irromlik qildi, meni oldinroq yumalatib qo'ydi. Maktabdan chiqqan bolalar tepamga kelib:

— Ob-bo mitti-ye! Ob-bo mittivoy-ey? Yuragingni qara! Shu ayiqpolvon bilan olishib o'tiribsan-a! Beshinchisinfda dong'i chiqqan champion bilan-a! — deb xaxolashdi.

Qo'lim, yelkalarim og'rigani mayli-ya, bolalarining „mitti-mitti!“ deb kalaka qilishgani alam qilib ketdi. Doim yugurishda keyin qolsam, sim dorga osilolmasam ham shunaqa deyishadi. Qo'lim bilan oyog'im kaltaroq bo'lsa, nima qilay!

Shu-shu Solih bilan yurmaydigan bo'ldim. Ilgari u biznikiga kirib turardi. Men unga tennis o'rgatmoqchi bo'lib yurgandim. Endi u uyimizga kirmay qo'ydi. Mening har xil yumushlarga o'ralashib zerikayotganimni ko'rgan buvum:

— Bolam, o'rtog'ingni chaqirib o'ynay qolgin, — dedi. — Anavi do'mboq o'rtog'ing bor-ku, nega kirmaydi?

Solihni aytmoqchi. Do'mboq bo'lmay qursin.

— Solih bilan pom chiqdik, buvi. Yaramas, g'irrom...

— A? Nega? Ul-bul talashdilaringmi? — dedi buvum xavotir olib. — Qo'y, bolam, o'rtog'ingni yomonlashga o'rganma. Yaxshimas, birovni kamsitish. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil, deganlar.

Tushunolmadim. Nima, Solihni sher demoqchimi? Solihni ko'rgim yo'q. Uyimga kirmay qo'ya qolsin. Boshqa o'rtoqlarim yetarli. Lekin ular ham kam kirishyapti. Nega unaqa? Ular mendan xafa emas-ku. Ha, ularning ham ishi ko'payib ketganmikin menga o'xshab? Uyimizga kam kirishgani maylikuya, bir xil o'yinlarga meni chaqirmay qo'yishgani chatoq bo'ldi. Dam olish kuni bolalar tog'ga sayohat qilmoqchi, deb eshitdim. Solih ro'yxat qilibdi-yu, meni qo'shmabdi. Qo'shganda ham, baribir, uydan chiqolarmidim? Shundoq bo'lsa ham Solihdan so'ragim keldi:

- Nima uchun meni yozmading?
- Biz kuchli bolalarni yozamiz. Sen tog'ga chiqolmay-san, — dedi u.

Havasim kelganini, alam qilganini bildirmasdan:

— Shu tog' ham gap bo'ptimi! — dedim. Tog' mакtabimiz maydonidagi daraxtlar orasidan oftobda simobday yaltirab ko'rinadi. — O'shami? Mashinaga tushsang, birpasda yetasan. Qarab turinglar, men shundoq joylarga borayki, hech qaysi-laring tushlaringda ham ko'rmagansizlar.

— Qayerga ekan, aytaver ochig'ini, — dedi Solih mensi-maganday bo'lib. Bilib turibmanki, qiziqyapti.

— Ayтиб bo'pman!

— Ha, bo'ldi, aytmasang ham bilaman. Mirzacho'lga bormoqchisan, xolam bor degan eding. U yer nima bo'pti, qip-qizil cho'l.

— Qip-qizil cho'l mish. Ko'rmaganmisan, gapirma.

— Ko'rgan bo'lsang, gapir-chi!

Bultur Mirzacho'lda ko'rganim obod qishloqlar, mevazor-lar esimga tushib tilim qichidi-yu, yana aytgim kelmadи.

— Ana, bilmaysan, chunki ko'rmagansan. Biz bo'lsak, tog' ostida qurilayotgan dengizni, daryoning tog' teпасидаги boshlanish joylarini tomosha qilamiz. Ko'rmagan armonda qoladi.

— Men undan ham antiqa joylarni ko'rib kelayki, og'izla-ring ochilib qolsin.

— Ko'ramiz!

U bilan adi-badi ayтиб o'tirishga vaqtim yo'q edi. Buvim esimga tushib, uuga chopdim. Kelsam, buvim inqillab-sinqillab hovli supuryapti. Qo'rqib ketdim. Tag'in kasali tutib qolmasin dedim-da:

— Men supura qolay. Siz yoting, — deb supurgiga qo'l uzatdim.

Buvim biqinini ushlab, menga jilmaydi.

— Baraka top, qo'zim. Bugun, shukr, xiyla tuzukman. Hovli supurish o'g'il bolaga yarashmaydi. Undan ko'ra o'tirib adangga xat bitgin. Ha, shundoq. „Juda sog'inib ketdik, adajon. Nima bo'ldi sizga? Omon-eson yuribsizmi? Xatingizga intizormiz, adajon“, deb bitgin.

O'zim ham shu bugun ahd qilib qo'yuvdim. Stulga o'tirib, xat yoza boshladim. Chiroli chiqsin deb urinaman: goh chap qo'lim bilan yozaman, goh o'ng qo'lim bilan. Buvim aytgan so'zlarni yozib bo'ldim-da, o'ylanib qoldim. Tag'in nimalar desam ekan? Ha, „Buvim kasal bo'lib qoldilar, sizni ko'p o'ylab, tashvish qilyaptilar!“ deyman. Buni ham yozdim. Endichi? Ha, „Ona tilidan bahoyimni „besh“ga chiqaryapman. Yozuvim tuzalyapti, mana ko'ring“, deyman. Xursand bo'ladi. Yozdim. Hammasi bo'lib yarim betcha bo'ldi. U yog'ini nima bilan to'ldiraman? Varaq-varaq xat yozganlar gapni qayoqdan toparkin-a?

Yonimga buvim keldi. Xat yozganimni bilib, sevindi.

— Qani, o'qi-chi, chirog'im. Nima deb boshlading? „Adajon“ deb boshladingmi?

— Ha, ha, siz aytgancha, — dedim. Haqiqatda esa, „Amaki“ deb boshlagan edim. Hammasini o'qib berganimdan keyin, buvim:

— Yo'q, yo'q, — dedi. — Meni kasal degan joyingni o'chir. Uzoqdagi odamni tashvishga solish yaxshimas. O'chir hozir.

O'chirishga majbur bo'ldim. Endi xatni boshqatdan, toza, chiroli qilib ko'chirish kerak. Shunday qilayotgan edim, oyim ishdan qaytdi. Oldimga keldi-da, xatni olib o'qidi. O'qiyotib negadir afti tirishib ketdi.

— Dars tayyorlayapsan desam, vaqtingni shunga sarf qilib o'tiribsanmi! — deb menga qattiq o'qraydi-da, xatni yirtib tashladi. Buvim bilan men ag'raygancha qoldik. Esizgina, qancha urinib, birov ko'rsa kulmaydigan qilib yozuvdim-a!

— Nega undoq qilding-a, qizginam? — dedi buvim.

Oyim dimog'ida bir nimalar dedi. Qulog'imga „Unutgan odamga ham xatmi?“ deganday bo'lib kirdi. „Nega undoq deysiz, oyijon?“ deb so'ramoqchi bo'ldim-ku, avzoyi buzuq bo'lganidan yuragim betlamadi... Sal turib qarasam, oyim o'zi qilgan ishiga pushaymon bo'ldimi, piq-piq yig'layapti...

## *Po'lat Mo'min*

(1922 – 2004)



Taniqli bolalar shoiri Po'lat Mo'min yoshligidanoq adabiyotga havas qo'ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan vaqtidayoq adabiyot to'garagining faol ishtirokchisi bo'ldi. Adabiyotni qunt bilan o'qidi, o'rgandi. O'rta ma'lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. Uni muvaffaqiyatli tamomlab, aspiranturada o'qidi, maktablarda o'qituvchilik qildi. So'ngra O'zbekiston davlat nashriyotida muharrir bo'lib ishladi. P. Mo'min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga mehr-muhabbat bilan qaradi. Tinmay mutolaa qildi, o'rgandi. Shu davrda kichik-kichik she'rlar yoza boshladи. 1944-yilda shoirning „Bahorga sayohat“ nomli birinchi she'ri bosilib chiqdi. Ilk she'rlar to'plami esa 1949-yilda „Sayrang, qushlar!“ nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan „Darslar majlisi“, „Yashna, ulug' o'lkamiz“, „O'qituvchim“, „Haykal“, „Alla va Jalla“ (ertak) singari asarlar mazmundorligi, qiziqlarliligi bilan kitobxonlar e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Bolalar uchun ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun qobiliyat va istakning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun „bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak“. Bolalar yozuvchisi bola qalbi, nozik ta'b egasi, go'dak tabiatи va o'y-ko'nikmalarining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimi hamda dono bo'lishi lozim. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday oliyanob fazilatlar mujassamligini his etamiz. Shoир butun umrini bolalar orasida va bolalarga asarlar yozish bilan o'tkazdi. Unga bolalar va maktab hayoti, ularning ajoyib, jo'shqin va keng dunyosi juda tanish va

qadrlidir. Yosh kitobxonlarning o'y-fikrlari, orzu-umidlari, his-hayajonlari shoir asarlarida badiiy ifodasini topdi.

Shoirning „Hunardan unar“, „To'g'ri o'sgan gul bo'lar“, „Aql qayerda bo'lar“, „O'rribosarlar“, „Oltin nay“, „Bir yarim Karim“ va boshqa o'nlab she'riy to'plamlari, „Chanoqvoy bilan Qovoqvoy“, „Bahodirning botirligi“, „Oq fil yo'qoldi“, „Suqatoy-Konfetvoy“, „Ona bolam deydi, bola onam deydi“ kabi ertaklari, pyesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqlari, doston va ertaklari o'zbek bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi.

Shoirning „Tuganmas kon“, „O'qituvchim baho qo'yganda“, „Ko'chalarni to'ldirib“, „Sizga nima bo'ldi, o'g'il bolalar?“, „Yuqumli „2“lar“, „Bilsa bo'lar ekan-ku!“, „Sentabrdan kim sevinar?“ kabi she'rlari a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun intilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to'g'risida yozilgan yaxshi asarlar sirasiga kiradi.

Ba'zan bolalar orasida mug'ambir, pismiq, ishyoqmaslar ham topilib qoladi. Shoirning „Qo'l ko'tarib qo'lga tushdi“ asari ana shunday bolalarga bag'ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o'quvchi. U buni o'qituvchisiga sezdirmaslik uchun har kuni dars paytida „Men aytaman deb ko'taradi qo'l“. O'qituvchi esa bolaning bunday mug'ambirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o'zlashtiribdi, deb undan so'ramaydi. Oxiri bir kuni „Mayli, aya qol“, deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o'qituvchi va o'quvchi do'stlari oldida izza bo'ladi:

Darvozasiga  
Urilganday gol,  
Qo'lga tushgandi  
U ko'tarib qo'l.

Shoirning „Oftob chiqli olamga“, „Yer chopildi — javob topildi“ she'rlarida kichkintoylarning mehnatsevarligi ham yaxshi ochib beriladi. Bu asarda shoir bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko'maklashishini nihoyatda ta'sirli va shirali ifodalashda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalangan.

Po'lat Mo'min haqiqatan ham oftob — bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi

ekanligini ta'kidlar ekan, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta'sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,  
Chopib bordim dadamga.  
Dadam ko'chat ekardi,  
Salom berdim dadamga.

Shoirning „Yer chopildi — javob topildi“ asarida mehnatdan zavqlanish tuyg'usi yorqin ifodalangan. O'qishni jismoni yish bilan qo'shib olib borish yaxshi natija berishi asarning asosiy g'oyasi hisoblanadi. She'r qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq-misollarni yecha olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi — yer chopadi, terlab-pishib ishlaydi. Natijada ko'ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham yumshatadi.

Po'lat Mo'minning „5“ baho qo'shig'i“, „Xursandmisiz? Xursandmiz“, „Sentabrim“, „Uch baho — puch baho“ singari qo'shiqlari bilimga muhabbat mavzusiga bag'ishlangan. O'z ustida ko'p ishlash, kitob o'qish, dars qoldirmaslik „a'lo“ o'qishning mustahkam garovi ekanligini shoir „Uch baho — puch baho“ qo'shig'ida ta'kidlab o'tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e'zozlash („Achrom-achrom buvijon“, „Mehribonim, oyijon!“), o'zaro hurmat, do'stlikni qadrlash („Bir jahon bolalarmiz“), hunar egallash, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish („Ko'ylagim“) mavzulariga bag'ishlab shoir o'nlab qo'shiqlar yaratganki, bunday qo'shiqlar bog'cha yoshidagi bolalarning jon-dili hisoblanadi.

Shoir Po'lat Mo'min o'zining bir qator asarlari bilan axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu g'oya ko'proq „Birovlar“, „Bir odamning afsusi“, „So'zi shunaqa — o'zi shunaqa“, „Behzodni bilasizmi?“, „Ulg'aydimi aqlingiz?“, „Qo'ling oltin — yo'ling oltin“, „Birinchi bo'l, birinchi“ kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi.

Po'lat Mo'minning „Alla bilan Jalla“, „Ziyrak fil va ziqla boqqol“, „Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga“, „Unutgan o'g'il“, „Oltin nay“, „Dono bola“, „Bilganni qari — bilmaydi pari“ singari ertak-dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko'rinish turadi.

Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning „Oltin nokli bog“, „Ko'cha — ko'pchilik uchun“,

„Eh, rosa shirin ekan“, „Xolning jiyyron velosipedi“, „Ko‘ngil istar yaxshilik“ nomli dostonlari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostonlarida bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘qituvchi va jonajon mакtabga muhabbat, birlik, hamjihatlik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo‘ladigan yutuq va kamchiliklar, mакtab o‘quvchilarining jozibali hayoti badiiy bo‘yoqlarda, qiziqarli lavhalarda zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Taniqli adib Po‘lat Mo‘min o‘zining ertak-pyesalari bilan ham yosh kitobxonlar o‘rtasida shuhrat qozondi. Uning „Qovoqvoy bilan Chanoqvoy“, „Suqatoy — Konfetvoy“, „Ona bolam deydi, bola onam deydi“ nomli fantastik ertak-pyesalari teatr sahnasidan tushmay, bolalarning quvonchiga quvonch qo‘shib kelayotir.

### OFTOB HAM YAXSHI, ODOB HAM YAXSHI

Oftob yaxshimi,	Odob ko‘rinar
Odob yaxshimi?	Salom-alikda.
Oftob berar nur,	Odob har kimning
Odob-chi — huzur.	Yaxshi so‘zida,
Lolalar uchun	Odob har kimning
Oftob yaxshidir,	Yuzi-ko‘zida.
Bolalar uchun	Olamning yuzi
Odob yaxshidir.	Oftobdan isir,
Oftob bo‘lmasa,	Odamning yuzi
Qorong‘u tushar,	Odobdan isir.
Odob bo‘lmasa,	Olamning doim
G‘am-qayg‘u tushar.	Oftobi bo‘lsin,
Oftob ko‘rinar	Odamning doim
Tog‘-tepalikda,	Odobi bo‘lsin.

### SALIMJON — NIMJON

(*Hazil qo‘shiq*)

Salim, Salim, Salimjon,  
Buncha bo‘lding sen nimjon?  
Koptok misol semirding,  
Go‘yo taning xamirjon,  
Salimjon — nimjon.

Hech bir chiqmay oftobga,  
Ranging o‘xshar betobga.  
Uyqu bosib ko‘zingni,  
Qarolmaysan kitobga,  
Salimjon — nimjon.

Ayta bersak bir chetdan:  
Doim qochding mehnatdan.  
Shug‘ullanmaysan sira,  
Aslo bormi g‘ayratdan,  
Salimjon — nimjon.

Bizlar kabi kuch yig‘gin,  
Tur, o‘rtoqjon, tez chiqqin.  
Ishlab maktab bog‘ida,  
Terlab-terlab chiniqqin,  
Bo‘larsan polvon.

### SALIMJON ENDI POLVON

(2- *qo ‘shiq*)

Salim, Salim, Salimjon,  
Oldin edi sal nimjon.  
Agar uni ko‘rsangiz,  
Salimjon endi polvon,  
Salimjon — polvon.

Do‘stlarimi tanigan,  
G‘ubor ketgan tanidan.  
Bizning o‘sha Salimjon  
Taqnidlarni tan olgan.  
Salimjon — o‘g‘lon,  
Salimjon — polvon.

Koptok bo‘lib shishganmas,  
Labi-lunji tushganmas.  
Chehrasi ham ochilgan,  
O‘qimaydi „besh“dan past.  
Salimjon — shodon,

Salimjon — polvon,  
Kirgan rosa g‘ayratga,  
Bel bog‘lagan do‘stlarday  
Doim o‘qish, mehnatga  
Salimjon — chaqqon.  
Salimjon — polvon.

### YER NIMA DER?

Bilasizmi ona Yer  
Hammamizga nima der?  
Eng biringhi bizga u  
Deydi: — Menga ko‘ngil ber.  
U bizlarga uqtirar:  
— Mehnat qilgan halol yer,  
— Hosil beray, — deb aytar, —  
Peshonadan to‘ksang ter.  
Bizga yana so‘zlaydi:  
— Yaxshilarga gullar ter.  
Eng oxirgi so‘zi soz:  
— Bor ekanman — yashayver.

### EH, ROSA SHIRIN EKAN!

Tongda dadam uyg‘otib,  
Dedi: — Uxlama qotib,  
Qovun sotib olgani  
Bormoqchiyidik yur, qani.  
Sevinch chaqnab ko‘zimda,  
Tayyor bo‘ldim bir zumda.  
Atrofimizda shu dam  
Aylanib qoldi ukam.  
Ergashdi boraman deb,  
Borishni ko‘rmasdim ep.  
U yalindi o‘tinib,  
So‘ng yig‘ladi o‘tirib.  
Ayyor-da, ukam qurg‘ur,  
Dadam dedi: — Mayli yur.  
Jo‘nadik uchalamiz,  
Yo‘lda g‘iz-g‘iz uchamiz.  
Dadam haydashga usta,

Mashinamiz ko‘k tusda.  
Yetib keldik bozorga,  
Go‘yoki qovunzorga.  
Olaylik deb saralab,  
Yurdik bozor oralab.  
Bosvoldi taram-taram,  
Kiyganday to‘n — beqasam.  
Quyosh nusxali cho‘tir,  
Asal solganday og‘ir,  
Qovun-u tarvuzlar tog‘,  
Ko‘rib ko‘ngling bo‘lar chog‘.  
„Diding bo‘lsa meni ol,  
Ichim to‘la liq-liq bol.  
Mayli. Meni so‘yib ye,  
Dehqonimga rahmat de“ —  
Deganday ko‘k ananas,  
Qo‘zg‘ar ishtaha-havas.  
Chekkaroqda bir dehqon  
Qovunni maqtar chunon:  
— Kelib qol, ey, xaridor,  
Vaqting o‘tmasin bekor!  
Bu Mirzacho‘l qovuni,  
Kimki olmasa buni,  
Tushib qoladi puli.  
Eh, yeganlar darmonda,  
Yemaganlar armonda.  
Olib qol, shinavanda,  
Qoq ertalab shudringda  
Uzganman suv quymasdan.  
Olmasangiz ham, inim,  
Yeb ko‘ring-a bir tilim,  
Misoli qo‘y so‘yasiz,  
Tilimiga to‘yasiz.  
Tatib ko‘rdilar dadam:  
— Shirin ekan juda ham,  
Mehnat qilibsiz rosa,  
Qani torting bo‘lmasa, —  
Dedilar dadam asta,  
Biz qarardik havasda.  
Mayda-mayda to‘ni bor,

Bir metrcha bo‘yi bor.  
O‘zi kattakon xarsang,  
Dilimdan bo‘ldim xursand.  
Tortuvdi bir qovunni  
O‘n besh kilodan oshdi.  
Ko‘tarolmayin uni  
Angrayib aqlim shoshdi.  
Dadam dedilar: — Bay-bay,  
Shunga kuching yetmasa,  
Bu yog‘i bo‘ldi qanday?  
Zaryadkaga dangasa —  
Bo‘lishlik oqibati.  
Shu holga tushib birdan  
Ko‘zni olmasdan yerdan.  
Dehqon-chi, shu zahoti  
O‘z o‘g‘liga: — Alisher,  
O‘rtog‘ingga yordam ber, —  
Deya qildi havola.  
Qovunlar yonida jim  
O‘tirardi bir bola.  
Men unga qarab turdim,  
U bola kela solib,  
Qovunni yerdan olib,  
Meni qilganday izza,  
Ko‘tarib ketdi g‘izza,  
Mashina sari tezda.  
U — mendan xipcha, kichik.  
Hayronman, nega kuchlik?  
Maqtanib qoldi dehqon:  
— Bizning o‘g‘ilcha polvon,  
Ota o‘g‘li chinakam,  
Doim beradi yordam.  
Mehnat bilan pishigan,  
Barcha xursand ishidan.  
Jo‘nadik hovli tomon  
G‘ash edi ko‘nglim hamon.  
Mashina ichida ham  
O‘tirardim indamay.  
Meni mazax qilganday

Qarab qo'yardi ukam.  
U hali ketarmi jim?  
Ko'ziga ko'rinsa kim  
Rosa chalsa-ya karnay?  
Gapga qolaman talay.  
Keldik-da hovlimizga,  
Barcha qovunni atay  
Tashlab qo'ydik hovuzga,  
Bo'lsin dedik-da, muzday.  
Qovunlar hovuz bo'ylab  
Suzishar qalqib, o'ynab.  
Buvim, oyim va dadam  
Supada bo'ldik-da jam,  
Kechga yaqin shu kuni  
Buvim katta qovunni  
So'yib berdilar asta,  
Qildilar tilim, kosa,  
Buvim so'yishga usta,  
Eh, shirin ekan rosa!  
Gap ochib qoldi ukam:  
— Ey, buvijon, buvijon,  
Bu qovunni-chi, akam —  
Ko'tarolmadi.  
— Qachon?  
Barcha gap-so'zni shu dam  
Aytib berdilar dadam.  
Dedilar: — Bundan buyon  
Zaryadka qilgin har tong.  
Har kimning ham og'zida  
Qoldi uning mazasi.  
Ammo ba'zi-ba'zida  
Bu qovun voqeasi —  
(Mirzacho'l qovunini  
Yerdan uzolmaganim)  
Tushib qolsa yodimga,  
G'alati bo'lib tanim,  
Qarar edim yonimga.



## *Qudrat Hikmat*

(1925 — 1968)



Iste'dodli bolalar shoiri Qudrat Hikmat qisqa va samarali ijodini kichkintoylarni ilmga ishtyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag'ishladi.

Qudrat Hikmat 1925-yilda Toshkent shahrida dehqon oilasida tug'ildi. Bo'lajak shoir Quddus Muhammadiy rahbarlik qilgan adabiyot to'garagida faol ishtirot etdi. Bu to'garak uning she'riyat sirlarini egallashida katta rol o'yndaydi.

Q. Hikmatning ijodiy o'sishida Oybek, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Mirtemir, Quddus Muhammadiylarning murabbiylik roli katta bo'ldi.

Qudrat Hikmat bolalar uchun 1945-yildan boshlab she'r-lar yoza boshlaydi. Uning dastlabki she'rlari bolalar va yoshlar gazetalarida hamda jurnallarida bosila boshladi.

Qudrat hikmat bir qancha vaqt Chirchiq shahar gazetasida ishladi. Shu bilan birga, mehnatdan ajralmagan holda Toshkent davlat pedagogika institutida o'qidi. 1957—60- yillarda O'zbekiston badiiy adabiyot nashriyotida muharrirlik qildi. 60-yildan to' umrining oxirigacha „Yosh gvardiya“ nashriyotida bo'lim boshlig'i sifatida yosh avlodga kitoblar chop etishda fidoyilik qildi.

Qudrat Hikmatning „Mening Vatanim“ (1950), „Baxtli bolalar“ (1951—1952), „Obodlik“ (1953), „Do'stlik“ (1954), „Родной Узбекистан“ (1955) kabi qator to'plamlari nashr etildi. Keyinchalik „Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak“ (1963), „Soatjonning soati“ (1964), „Toshbaqalar hujumi“ (1965), „Daydi bola“, „O'g'lim bilan suhbat“ (1970) singari kitoblari bilan u o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi.

Shoir asarlarining mavzu doirasi keng va rang-barang. Turli yoshdagagi kitobxonlar Qudrat Hikmat asarlarini sevib o'qiydilar, ulardan estetik zavq oladilar. Shoir o'z asarlarida bolalarni qiziqtirgan, ularning bilgisi, eshitgisi kelgan narsa va voqealarini ixcham, o'ynoqi, vazn va qofsiyalarda ishlaydi.

Qudrat Hikmat ijodining yana bir muhim tomoni shundaki, u bolalar tilini yaxshi o'zlashtirgan, o'rgangan. Shuning uchun ham uning she'rlari go'zal va yoqimli, sodda va ravon.

Qudrat Hikmat o'zining ilk she'rlaridan biri „Mening Vatanim“da mehribon ona-Vatanning ulug'vorligini ko'tarinki ruh bilan kuylasa, „Bog'cha“ she'rida bolalarni shu ulkan Vatanning quchog'iga yetaklab kiradi. Vatan degan aziz so'zni, uning tom ma'nosini bolalarning soya-salqin, ozoda, orombaxsh bog'chasiga ko'chiradi. Shu yer, kichkintoylarning yurgan-turgan joyi ulug' Vatan ekanini uqtiradi:

O'rtoqjon Turg'un,	Kemamiz suzar
Men bilan yurgin.	Dengizchamizda.
Bizning bog'chani	Miltig'imizning
Bir borib ko'rgin.	O'qlari olmos.
Turli o'yinchoq,	Chegaramizga
Arg'imchoq bizda.	Dushman yo'lolmas.

Qudrat Hikmat halol mehnatni go'zal hayot manbayi, u bilan kishi hurmat, e'tibor orttiradi deb ifodalaydi. Shuning uchun u o'zining kichik kitobxonlarida yoshligidanoq mehnat ko'nikmalarini tarbiyalashni asosiy vazifa deb biladi. „Buvimning deganlari“ she'rida o'z mehnati samarasidan xursand bo'lgan kichkintoylar obrazini yaratadi. Buni shoir Sanobar obrazida gavdalantiradi. Sanobar buvisi bilan pilla qurti tutadi va bu ishidan benihoya xursand bo'ladi. Buning uchun uning sevinchi, buvisiga bo'lgan muhabbat cheksizdir.

Shoir bu she'rida bolalarni mehnatsevarlikka, Vatan va xalq oldidagi burchni muqaddas deb bilishga undaydi.

Qudrat Hikmat ijodida bolalarning ona-Vatanga bo'lgan muhabbatlari „Mening Vatanim“, „Men tug'ilgan kun“ kabi she'rlarida yaqqol ifodasini topgan. Jumladan, „Mening Vatanim“ she'rida jonajon O'zbekistonimizning go'zalligi, yurtimizdagi barcha xalq aka-ukaday do'st bo'lib, ittifoq bo'lib hayot kechirayotganligi o'ynoqi misralarda aks ettirilgan:

Ko'kday bepoyon,  
Boyliklarga kon,  
Keng paxta maydon  
Mening Vatanim.

Tinchlik uchun kurashga bag'ishlab shoir „Bor bo'lsin tinchlik“, „Yo'qolsin urush“, „Tinchlik — obodlik“, „Tinchlik haqida qo'shiq“ asarlarini yaratgan. Shoir „Tinchlik haqida qo'shiq“ she'rida:

Tinchlik juda soz,  
To'kin-sochin yoz.  
O'q tovushi chiqmas,  
Yangrar qo'shiq, soz, —

kabi misralar orqali bolalarning tinchlik haqidagi tasavvurini hayotiy detallar asosida kengaytiradi. Muallif tinchlikning hayotiy zarurat ekanligini yanada chuqurroq ochish uchun urush oqibatlarini kontrast tasvirlash yo'lidan boradi va shu orqali urushga munosabat bildiradi:

Bo'lsa-chi urush  
O't tushar har yon.  
Tinch, shirin turmush,  
Bo'ladi vayron...

Bu sira bo'lmas,  
Xalqlar yo'l qo'ymas.  
Tinchlik — obodlik,  
Hech qachon so'nmas.

Qudrat Hikmatning „Chovkar“, „Toshbaqalar hujumi“, „Qum ostida qovunlar“, „Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak“, „Ko'milgan oltin, vaysaqi xotin va tadbirdor ovchi qissasi“, „Chirchiq farzandi“ kabi doston va ertak-dostonlarini bolalar huzur qilib o'qiydilar va katta estetik zavq oladilar.

Qudrat Hikmatning „Bobodehqon hangomasi“, „Qum ostida qovunlar“, „Toshbaqalar hujumi“ dostonlarida bolalarning kattalar mehnatiga qiziqishlari, ulardan o'rnak olishga intilishlari yoritiladi.

Oz va mazmunli umr ko'rgan Qudrat Hikmat bolalarga bag'ishlab yigirmadan ziyod kitob yozdi. U tamomila yosh

kitobxon ishonchini oqlab, kishilar hurmatini qozondi.  
Buning evaziga u munosib taqdirlanib, el nazariga tushdi.

### ALISHER VA KITOB

Kitobga o‘ch o‘g‘ilcham  
Oltin topgan singari,  
Chiqsa yangi bir asar  
O‘qir mendan ilgari.  
Mayli, bo‘lsin hikoya  
Yoki to‘rt yo‘l quvnoq she‘r.  
Ayvonchada muk tushib,  
Sharillatar Alisher.  
Qosh qorayib ketguncha  
Qo‘ldan tushmas kitobi.  
Unga yoqqan she‘rlarning  
Hozircha yo‘q hisobi.  
Olimdek serharakat,  
Ishga puxta berilib,  
Uncha-muncha yoshlardek  
Oshib ketmas kerilib.  
Turna qator savolga  
Askar kabi doim shay.  
Hozirjavob bo‘lmasdi,  
Shuncha kitob o‘qimay.

### MEN VA ALI

Men va Ali	Anhorgacha
Dam olgali	Tushar shov-shuv.
Qo‘shni bog‘ga —	Mitti bulbul,
Chiqdik hali.	Sayrar nuqul.
Bog‘ ichida:	Istagancha
Olma, jiyda,	O‘yna va kul.
Nashvatilar	O‘lkamiz soz,
Pishgan juda.	To‘kindir yoz,
Ariqda — suv	Uni qancha
Xuddi ko‘zgu,	Sevsak ham oz!

## TOYCHOQ

Bor bir toychoq,	Yo‘rtib yurar,
Do‘stim har choq.	Kishnab turar.
Peshonasi	Goh gijinglab,
Qordek oppoq.	Bo‘ynin burar.
Kun oralab,	Birgalikda
Yuvib-tarab,	O‘sar hamdam,
Qashlayman shod	„Chuh“ desam gar,
Qoqib qarab.	Misoli par,
Toycham bardam,	Tog‘-u toshdan,
Menga hamdam.	Uchib o‘tar.

## KEKSA KULOL VA SHOGIRD

(*Afsona*)

Yoshi oltmishlardan oshgan bir mo‘ysafid kulolning uyiga o‘g‘lini boshlab kelib:

— Taqsir, peshanamda shu bitta-yu bitta o‘g‘ilcham bor. Ko‘zim tirikligida biror hunarning boshini tutsin deb, sizni qora tortib keldim, — debdi.

Kulol sopol tovoqlarning chetlarini o‘sma rangiga bo‘yab turib:

— Mayli, eski oshnamiz iltimos qiladilar-u biz yo‘q deymizmi, — deb iltifot ko‘rsatibdi.

Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o‘choqqa o‘t qalabdi, xullas, ustozning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga kundan kunga manzur bo‘lib, tez sotila boshlabdi.

Oradan bir necha qish-u yoz o‘tgandan keyin shogird „Kulolchilikning miridan sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo‘lib yuramanmi“, deb o‘ylabdi-da, ustozidan javob so‘rabdi.

Kulol bo‘lsa:

— O‘g‘lim, hunar injiq narsa, sabr-toqat qilib, yana biror yil qarashib-netib turganing ma’qul edi, — debdi.

Shogirdning ichi pishib ketib, qo‘yarda-qo‘ymay fotihasini olibdi. Katta bozorga do‘kon ochgan kunlari xaridorlar uning

piyola, choynak, ko'zachalarini talashib olib ketishibdi. Ustozi bo'lsa:

— Mayli, oxiri xayrli bo'lsin! — deb o'z yumushini davom ettiraveribdi. Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini birov xarid qilmay qo'yibdi. Chunki u yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ustiga-ustak ko'chib ketayotgan emish.

Ustozning bozori avvalgisidan ham qizib, tushlik qilishga ham qo'li tegmay qolibdi. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko'p aziyatlar chekibdi. Nihoyat kulolnikiga ming pushaymon bilan qaytib kelibdi.

— Aytmovdimmi, shoshmagin, deb!

Kulol uning joniga tag'in oro kiribdi.

Oydan oy, kundan kun o'tibdi. Sadoqatli shogirdiga kulol:

— Bolam, alahsimay, razm solib tur! — debdi-da qurigan idishlarini bir-bir „puf“lab so'ngra sir beribdi. Shunda lagan-u tovoqlarning chiroyi juda ham ochilib, yarqirab ketibdi.

Shogird endi uning hunarini batatsil egallab olishga astoydil bel bog'labdi.





## **Nosir Fozilov**

(1929- yilda tug'ilgan)



Yozuvchi Nosir Fozilov adabiyotimizning qutlug‘ dargohiga 50- yillarning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo‘lib, hozirgacha jami yetmishdan ortiq kitob chop ettirdi.

U 1929- yili Qozog‘istonning Chimkent viloyati Turkiston tumanining Koriz qishlog‘ida tavallud topdi. Uning ota va onalari dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsalar ham buvasi Tursunmuhammad A‘lam G‘urbatiy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Kamiy, Xislat, Sidqiy Xondayliqiy bilan hamnafas, hamfikr bo‘lib, Toshkentda uning uchta she’riy kitobi chop etilgan.

N. Fozilovning bolaligi urush davriga to‘g‘ri kelganligi tufayli ham o‘qib, ham mehnat qilgan. Shu sababli u o‘z tengdoshlaridan ancha kech, ya’ni 1949-yilda o‘rta mакtabni tugatadi. So‘ng Toshkentga kelib, Universitetga o‘qishga kiradi va uni 1954-yilda tugatadi. Shundan keyin „Gulxan“, „Sharq yulduzi“ kabi jurnallarda va „Yosh gvardiya“, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotlarida turli lavozimlarda ishlaydi.

Adibning birinchi hikoyasi „Lenin uchquni“ gazetasida 1953-yilda bосilgan bo‘lsa, uning birinchi kitobi 1959-yilda „Irmoq“ nomi bilan chop qilinadi. So‘ngra „Oqim“ (1962), „Robinzonlar“ (1964), „Qush qanoti bilan“ (1965), „Qorxat“ (1968), „Ko‘klam qiyoslari“ (1970), „Diydor“ (1979), „Tanlangan asarlar“ 2 jildlik (1983—84), „Bolaligim — poshsholigim“ (1989), „Bir otar to‘pponcha“ (1995) kabi o‘nlab kitoblari nashrdan chiqadi.

Nosir Fozilov tarjimon sifatida ham samarali ijod qilmoqda. U Abay, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, G‘abit Musrepov, G‘abiden Mustafin, Abdulla Tojiboyev, Abdijalil

Nurpeisov kabi ko'plab qozoq adiblari asarlarini o'zbekchaga tarjima qilib, nashr ettirdi. Shuningdek, qirg'iz, qoraqalpoq va o'zga tillardan ham ko'plab sara asarlarni o'zbekchalaشتirdи. Uning ana shu ijod sohasidagi samarali mehnati zoye ketmadi. 1985-yilda unga „Shum bolaning nabiralari“ kitobi uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G‘. G‘ulom nomidagi, 1986-yilda esa qozoq adabiyotidan qilgan tarjimalari uchun Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasining Boyimbet Maylin nomidagi, „Ustozlar davrasida“ asari uchun esa Hamza nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1990-yilda u „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi“ unvoniga sazovor bo'ldi.

N. Fozilovning ko'plab asarlari o'zga tillarga ham tarjima qilinib, nashr etilmoqda. U 1994- yili o'zbek va qozoq adabiy aloqalari borasidagi katta xizmatlari uchun Qozog‘iston Prezidenti ta'sis etgan „Tinchlik va ma'naviy hamjihatlik uchun“ Xalqaro mukofotiga sazovor bo'ldi.

### TUG‘ILGAN KUNIM

(*Hikoya*)

Bugun uydan ko'zyoshi qilib chiqdim. Hamma ko'ngil xiralik choy ustida bo'ldi: ertalab turib, yuvinib, kiyindimda, hamma choyga o'tirganida men qovog'imni solib, papkamni yig'ishtira boshladim. Oyim:

— Mansurjon, o'g'lim, avval choyingni ichib ol, papkang qochmas, — dedilar.

Indamadim. Dadam o'tirayotib, oyimga imo qilib asta so'radilar:

- O'g'lingizga nima bo'lgan bugun, onasi?
- Bugun shanba, dadasi, — deb kuldilar oyim.
- E-ha, esim qursin, bugun Mansurvoy o'n ikkiga to'ldiya! — Dadam o'rinalidan turib kelib meni quchoqlab o'pdilar. — Tabriklayman, o'g'lim. Qani, bundoq o'tir-chi, o'zi nima gap?

Men hamon indamasdim. Gapga tag'in oyim aralashdilar.

— O'g'lingizning esi-dardi velosiped. Tunov kuni bir g'ing'illaganda tug'ilgan kuningda sovg'a qilaman, demabmidingiz?

— Bor-yo'g'i shumi, o'g'lim? Uncha qiyin gap emas ekan-ku. Shu bugunoq bajo qilamiz-da, — dedilar dadam.

Keyin oyimga qarab so‘zlarida davom etdilar. — Sharofat, ishdan so‘ng magazinga kirib o‘ting. Bugun qisqa kun-ku. Mening boshqa yerda ozroq ishim bor edi.

- Mayli, — dedilar oyim.
- Jon-ponim chiqib ketdi. Indamay turolmadim.
- Voy-bo‘, ishdan keyin?!
- Ha, nima bo‘pti? — dedilar dadam.
- Ishdan keyingacha magazinda velosiped turarmidi? — dedim yig‘lamsirab.
- Turmay, g‘ildirab chiqib ketarmidi magazindan?
- Ko‘rib turibman, dadamning sal jahllari chiqdi. Shunday bo‘lsa ham to‘ng‘illadim:
- Opketib qolishadi.
- Ha, opketsa bittasini opketar, ikkitasini opketar. Nima, hammasini opketarmidi! Juda betoqat bo‘pqopsan-da, o‘g‘lim. Odam degan unday bo‘lmaydi. Ich choyingni!...
- O‘zi, kecha ikkitagina qoluvdi.— Ko‘zlarimdan yosh chiqib ketdi. Choy icholmadim. Hali maktabga ertaroq bo‘lsa ham papkamni olib, zarda bilan uydan chiqib ketdim.

Katta ko‘chaga chiqib olgunimcha dastro‘molim bilan ko‘zlarimni artdim. Ko‘cha anchasov uq bo‘lgani bilan havo ko‘ngil ochadigan darajada tiniq edi. Quyosh endi chiga boshlagan, ba’zi kech qolgan yalqov xo‘rozlar erinibgina qichqirardi. Qishloq allaqachon uyg‘ongan: ko‘chada odamlar o‘rmalab qolibdi. Kolxoz idorasi oldidagina simyog‘ochga o‘rnatilgan radiokarnayning tovushi aniq eshitilib turibdi.

Men maktabga har kuni mana shu katta yo‘l bilan boraman: hu yo‘lning chetida bir oyoq so‘qmoq bor, ana, ko‘rinib turibdi. O‘ng tomonidan bo‘lsa katta kanal oqadi, kanalning ikki tomonida qator mirzateraklar. Yozda bu kanal bizlardan bo‘shamaydi: cho‘milganimiz-cho‘milgan. Yo‘lning o‘ng tomonidagi ilon iziga o‘xshab chizilib yotgan so‘qmoqdan necha marta „kim o‘zishga“ o‘ynab chopishganmiz. Moy tuproqni bosganining sayin bilq-bilq etib, oyoqlarim rohat qiladi. O, ayniqsa, velosipedda uchsang bu so‘qmoqdan! Shunday chirolyi izlar tushiradiki!.. Asti qo‘yaverasiz. Endi men ham velosipedli bo‘laman. Mana shunday qilib uchadi akang qarag‘ay: po‘sht-po‘sht, yo‘g‘-e, jiring-jiring!.. Qochinglar-qochinglar!..

Shunda Olim kelib menga yalinadi:

— Mansur, bir uchay, berib tur?

Men o'tgan yozda eski velosipedini bermaganini yuziga solaman. U yana yalina boshlaydi:

— Jon Mansur, hech bo'limasa oldingga o'tqaz?

— Qoch nari, urib ketaman! — deyman men unga, — jiring-jiring.

Men xayolan qo'llarimni rul ushlagandek qilib, velosipedda uchib ketar ekanman, to'satdan bir odamga kelib urilib ketdim.

— Avariya, — dedim men ko'zlarimni chirt yumib. — Sindi velosiped!

— Nima deyapti bu tentak? — deganday bo'ldi birov. — Qanaqa avariya, qani velosiped?

Ko'zlarimni ochib yuborsam, oldimda mo'ylovlarini silab Ahmad pochta turibdi. Qishlog'imizda hamma uni Ahmad pochta, deb ataydi.

— Assalomu alaykum! — dedim uyalganimdan.

— Mana bu boshqa gap. Va alaykum assalom, — dedi u. — Qo'rqitib yubording-ku, tentak. To'xta, dadangga bir telegramma bor, chopib oborib ber. Hali maktabingga erta-ku. Men boshqa yoqqa borishim kerak. Juda ishlarim ko'p. Mana, — u orqasiga osib olgan pochta sumkasidan qidirib telegrammani olib berdi.

— Xo'p, — dedim. Telegrammani olib orqamga qarab g'izillab ketdim. Uyga kelsam, dadam bilan oyim endi choylarini ichib bo'lishib, ishlariga jo'nashmoqchi bo'lib turishgan ekan. Telegrammani baland ko'tarib kirib bordim.

— Telegramma!

— Kimdan ekan? — dedilar dadam paltolarini kiyayotib. Yo'lda ochib o'qimabman ham. Oyim kelib, telegrammani shoshilinch ochib o'qiy boshladilar. Ko'rib turibman, oyim xursand bo'lib ketdilar.

— Akmaljondan! — dedilar oyim.

— Kimdan dedingiz? — so'radilar dadam oyimga yaqinlashib.

— Akmaljondan. Kelyaptimish, — dedilar oyim. Dadamning yuzlariga ham tabassum yugurdi.

— Shu bugun kelayotgani juda yaxshi bo'ldi-da, — dedilar dadam. — Sharofat, Mansurjonning yig'ilishiga jiddiyroq tayyorlanishga to'g'ri keladi endi. Axir Akmaljon kelyapti-ya!

— Dada, u kim?

— U amaking bo‘ladi, yaxshi amaking, — dedilar dadam. Keyin soatlariga qarab, meni qistab qoldilar, — O‘h-ho‘, bor, chop, o’n besh daqiqa qolibdi maktab mahalingga!

Men eshikdan chiga chopdim, to maktabga yetib borganimcha bir marta ham to‘xtamadim. Jiqqa terga tushib ketdim. Menden boshqa hamma bolalar shu yerda ekan. Qulochchinimni olib eshikdan endi kirgan edimki, sinfkomimiz Qo‘chqor xuddi uradigan odamday oldimdan chiqib:

— To‘xta! — desa bo‘ladimi!

— Nima deysan, qo‘yvor-e! — dedim harsillab. U meni o‘qituvchimiz o‘tiradigan joyga olib keldi-da:

— Shu yerda tur! — dedi. Bolalar miq etmay joy-joylarda o‘tirishar edi. Bir mahal orqada o‘tirgan Olim yonidagi bolaga nimalarnidir shivirlab, piq etib kulib yubordi. Bolalar unga o‘girilishib, shunday o‘qrayib qarashdiki, Olim yerga qaraganicha jim bo‘lib qoldi. „Bir gap bor, shekilli. Nima gap o‘zi? Tezroq aytisha qolmaydimi, e!...“ deb turibman ichimda.

Bir mahal Qo‘chqor xuddi konsertlarda chiqadigan dirijorlardek, bolalarga qarab ikki qo‘lini baland ko‘targan edi, butun sinf gur etib oyoqqa turdi. Qo‘chqor yana qo‘li bilan ishora qildi. Bolalar baland ovoz bilan xor bo‘lib:

— Man-sur do‘s-ti-miz-ni tu-g‘il-gan ku-ni bi-lan tabrik-lay-miz, — desa bo‘ladimi! Nima qilarimni bilmay qoldim. Sevinganimdan ko‘zlarimdan yosh chiqib ketay dedi.

Keyin Qo‘chqor menga, „Hammamizning nomimizdan“, deb bir dasta sovg‘a berdi: albom, turli bo‘yoq qalamlar, qo‘l sonari, naq yalt-yalt qiladi. Men shoshib qolib, bir tuzukroq gap ham aytolmadim.

— Rahmat, — dedim Qo‘chqorga.

— Rahmat, — dedim sinfdosh do‘stlarimga.

Bolalar sinfni boshlariga ko‘targudek chapak chalishib, „ura“ deb qichqirishdi. Men chapaklarga ko‘milguday bo‘lib, asta joyimga borib o‘tirdim. O‘tirdim-u, darsga qo‘ng‘iroq ham chalindi.

Darsning qanday qilib tez o‘tganini bilmay qolibman. Naqadar xursandchilik bilan o‘tdi bu besh soat. Hamma senga do‘st, sen hammaga do‘st! Shunday xushchaqchaq, mehribon do‘stlarining orasida xafa bo‘lishga o‘rin bormi? Yo‘q, albatta!

Uyga kelsam, oyim ham ishdan endigina kelib turgan ekanlar, meni ishga chaqirdilar:

— Mana bu stolni kengaytirib o'rtaga qo'yamiz. Kech bo'lib qoldi. Halizamon mehmonlar kelib qolishadi. Kel, ko'tarishvor. Bo'l-bo'l, magazinga kechikib qolamiz.

„Magazinga kechikib qolamiz“, degan so'zini eshitib, menga jon kirdi. Tez papkamni stolga qo'yib yechindim-da, oyimga qarasha boshladim: stolni kengaytirib o'rtaga qo'ydik. Oyim stolga hali tutilmagan yangi ko'k gulli dasturxon yozdilar, keyin bufetdag'i vazalarda turgan konfet, shokolad, pecheniy, pirojniylarni stol ustiga terib qo'ya boshladilar. Yo'ldan tort ham olakelgan ekanlar oyim sho'rlik, sumkalardan ehtiyyot qilib olib, stolning o'rtasiga qo'ydilar-da, qalay, deganday menga qaradilar. Men tortga qarab tirjaydim, og'zimdan so'lakaylarim oqib ketdi. Tort shirin-u, biroq hozir men uchun velosiped shirinroq-da!

— Bo'ldi endi, yuring oyi! — dedim oyimni shoshirib.

— Hozir, o'g'lim, hozir! — Nazarimda oyim stolda yana nimalar yetishmaydi, yana nimalar qo'ysa stol usti ochiladi — shularni o'layotgan bo'lsalar kerak. Qo'llarining orqasi bilan stolning bo'sh qolgan joylarini urib, aylanib yurib, qandaydir bir ashulani xirgoyi qilardilar.

— Bo'ldi, o'g'lim, — dedilar oyim bir mahal, — sen ana u sumkani ko'tarib ol. Yo'lda men g'iz etib oziq-ovqat magaziniga kirib chiqaman. Ozroq ichimlik olmasam bo'lmaydi. Ungacha sen magazinga borib, velosipedning eng yaxshisini tanlab turasan. Xo'pmi?

— Xo'p!...

Nihoyat yo'lga tushdik. Ko'chaning boshiga borganda oyim sumkalarini olib oziq-ovqat magaziniga burildilar-u, men velosipedi bor magazinga qarab chopdim. Shunday borib magazinga kirsam, ko'z oldimda yarqillab bitta velosiped turibdi. Kecha ko'rganimda ikkita edi. Bugun bitta! Yarq-yarq qiladi: g'ildiraklari, spitsalari, ruli nikellangan. O'zi och ko'k rangda, ana, nasosi. Nippelining qopqog'iga taqilgan zanjiri anavi sotuvchi kishining cho'ntagida osilib turgan zanjirday yar-qiraydi: sap-sariq.

Magazinda ikkita sotuvchi yuribdi: biri yoshgina ayol, ikkinchisi qirqlarga borib qolgan mo'ylovli, yo'g'onidan kelgan odam. U bilan gaplashishga qo'rqadi kishi. Shunday bo'lsa ham jur'at qilib so'radim:

— Amaki, velosipeddan tag‘in bormi?

— Bori shu! — dedi do‘rillab sotuvchi.

Muncha qo‘pol. Men yana og‘zimni ochgunimcha boshqa xaridorlar bilan ovora bo‘lib ketdi. Bitta qopti! Yuraklarim dukillab ura boshladи. Qani endi oyim kelsalar-chi? Kutib turibman, kutib turibman, oyimdan dom-darak yo‘q. Him, yaxshisini tanlab tur, emish, o‘zi bitta qopti-ku!

Men kelgandan beri magazinga nechta odam kirib, nechta odam chiqib ketdi. Oyim hali yo‘q. Bir mahal magazinga shlapa kiyib olgan, qoramitir paltoli, o‘rta bo‘yli bir kishi kirdi. U birpas magazinni tomosha qilgan bo‘ldi-da:

— Kechirasiz, aka, bolalarbop nimangiz bor? — deb so‘radi sotuvchidan.

— Nima kerak edi sizga? — dedi mo‘ylovli sotuvchi niyatda muloyimlik bilan iljayib. Og‘zida ikkita tilla tishi bor ekan, iljayganda ko‘rinib ketdi.

— Nima bo‘lsa ham olib borganda xursand bo‘ladigan bo‘lsin, — dedi haligi shlapali kishi.

— Ha, o‘g‘lingiz necha yoshda?

— O‘n ikkida.

— Unday bo‘lsa, mana, palto bor, drapdan. Yaxshi kastumimiz bor, bolgarlarniki. Tikilishi yaxshi, ammo fasoni ham chakki emas. Xo‘s, velosiped bor. Menimcha, hozirgi bolalar kiyimdan ham ko‘ra velosipedni yoqtirishadi, — deb kuldi sotuvchi.

— Shunday deng, — deb shlapali kishi o‘ylanib qoldi. Yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Tashqariga qarab otildim. Oyim ko‘rinmaydilar. Yana qaytib kirdim magazinga. Kirsam, haligi shlapali kishi sotuvchiga pul sanab berayotgan ekan. Nima bo‘lganini bilmayman: magazin rastasiga iyagimni tiraganimcha qoldim. Ko‘zlarimdan ikki tomchi yosh ham oqdi.

Bir mahal kimdir orqamdan kelib yelkamga qo‘lini qo‘ydi. Bundoq qarasam, oyim. Ko‘z yoshlarimga qarab darrov sez-dilar shekilli:

— Tamom bo‘ptimi? — dedilar tashvishlanib. Menden javob ololmagach, sotuvchiga murojaat qildilar: — Assalomu alaykum.

— Kelsinlar, kelsinlar, xo‘s xizmat?

— Bolalar velosipedi bormi?

— Oxirgisini hozir olib ketdi-ya! Iye, bu yigitcha sizning o'g'lingiz bo'larmidi? — dedi sotuvchi parvona bo'lib. — Shu gaping bor ekan, boyta qolmaysanmi, jiyan. E, attang, sen ilgari keluvding-a? Mayli, hechqisi yo'q, xafa bo'lma, jiyan. Erta-indin shaharga tushib yana olib chiqamiz. Shunda senga eng zo'ridan beraman o'zim, jiyan.

— Shu bugun kerak edi-da, — dedi oyim, — Ha, mayli, rahmat sizga. Yur, o'g'lim.

Sotuvchi go'yo bir narsa berib qoyil qilib qo'yganday.

— Arzimaydi, kelib tursinlar, — deb qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Biram jahlim chiqdiki!

Uyga qaytdik. Oyimning qo'lida sumka. Undan uch-to'rtta ichimlikning bo'yni chiqib turibdi. Shularni deb kechikib keldilar. Shular deb men velosipedsiz qoldim. Bo'yni uzilsin bu ichimliklarning!

Uyga kelguncha yo'l-yo'lakay men ham indamadim, oyim ham bir nima demadilar. Shu ko'yi hovliga kirib keldik. Kelsak, dadam ham ishdan qaytib uyda yurgan ekanlar. Bizlarning avzoyimizni darrov payqadilar, shekilli, tashvishlanib oyimdan so'radilar:

— Nima bo'ldi? Tugabdimi?

— Bitta qolgan ekan, mana bu ordona qolgurni deb yetolmay qoldim, — deb qo'llaridagi sumkani ko'rsatdilar-da, uyga kirib ketdilar oyim. Biz ham oyimning orqalaridan uyga kirdik.

— Bundoq tushuntirib aytsangiz-chi, axir, qanday qilib? — dedilar dadam.

— Men oziq-ovqat magaziniga burilib, Mansurjoni yuborgan edim. Bu borganda bitta bor ekan. Men borgunimcha ilib ketishibdi.

Dadam diqqatlari oshganidan uyda u yoqdan bu yoqqa yurib, papiros cheka boshladilar. Bir mahal yozuv stoli ustida turgan kuldonga papirosning qoldig'ini tashladilar-da, jahl bilan ezdilar, so'ng o'girilib mendan so'radilar:

— Qanaqa odam oldi, taniysanmi?

— Taniyman, shlapali, katta kishi, — dedim to'ng'illab.

— Qani, yur bo'lmasa, — deb dadam meni qo'limdan yetakladilar.

— Ha, qayoqqa? — stol ustiga haligi olib kelgan ichimliklarni qo'yar ekanlar, hayron bo'lib so'radilar oyim.

— Magazinga! Haligi odamni topib iltimos qilib ko‘ramiz. Balki berar.

Dadam meni yetaklab hovliga chiqqanda ko‘cha eshikdan yiqla-surila qo‘snnimizning o‘g‘li Olim kirib keldi:

— Mansur, Mansur! Velosiped, — hovliqqanidan tili gapga zo‘rg‘a aylanar edi. Qanaqa velosiped, deb so‘rab ulgurmasimizdan, eshikdan velosiped ko‘targan kishi kirib keldi. Darrov tanidim: boyaga magazinda ko‘rgan kishim! Qoramtil palto, shlapa, o‘rta bo‘yli. Xuddi o‘zi!..

— Akmal!.. — dedilar dadam quchoq ochib. — Do‘stim!

— Sharif! — dedi haligi kishi ham quchog‘ini ochib. Birpasda dadam bilan apoq-chopoq bo‘lib quchoqlasha ketdi. Men hayron bo‘lib qoldim. Goh ularga, goh ayvonning chetiga suyab qo‘ylgan velosipedga qarayman. Qulog‘imga ularning gapi kirmaydi. Ana, Olim velosipedning oldiga borib qoldi, ana, qo‘llari bilan ushlab ko‘ra boshladi. Qo‘y deyishimni ham, demasligimni ham bilmayman. To‘g‘ri-da, velosiped birovnik!

— Mansur, bu yoqqa kel. Akmal amaking bilan ko‘rish-maysanmi, — dedilar dadam. Men:

— Assalomu alaykum, — deb asta qo‘limni cho‘zdim. U meni bag‘riga bosdi:

— Va alaykum assalom. Ob-bo, Mansurov-ey, azamat yigit bo‘pqopsan-ku, a? Qara-ya, do‘stim, hash-pash deguncha sakkiz yil ham o‘tib ketibdi-ya.

— Bu amaking bilan oying, hammamiz universitetda birga o‘qiganmiz, o‘g‘lim. Sen to‘rt yoshga to‘lganda Xorazmga ishga ketgan edi, — deb kuldilar dadam. U ham kului. Keyin dadam oyimni chaqirdilar:

— Sharofat, hoy Sharofat, bu yoqqa bir qarang, kim keldi!

Oyim ham uydan chiqib apoq-chapoq qilib ketdilar. Birga o‘qishgan ekan, axir. Keyin Akmaljon amakim meni yetaklab velosipedning oldiga olib bordilar.

— Mana, Mansurjon, senga sovg‘a. O‘n ikki yoshing qutlug‘ bo‘lsin!

— Mansurning tug‘ilgan kunini qayoqdan bilasan? — dedilar dadam kulib.

— Esingdan chiqibdi-da, a? To‘rt yoshga to‘lgan kunini yotoqda nishonlamabmidik? O‘shanda yon daftaramga yozib qo‘yan edim. Kuni kechagiday esimda.

— Obbo sen-ey, qani, do'stim, ichkariga marhamat. O'sha davrlarni eslab bir chaqchaqlashaylik, — dedilar dadam Akmal amakimlarning yelkalariga qo'llarini tashlab. Men dadamni sekin chetga imlab chaqirib so'radim:

— Azonda kelgan telegramma shu Akmal amakimdanmidi?

Dadam bosh silkib tasdiqladilar. Men yana shivirladim:

— Boya magazindan velosipedni sotib olgan odam — shu Akmal amakim edi.

Dadam ko'rsatkich barmoqlarini og'izlariga olib borib, „jim“ dedilar. Oyim ham buni fahmladilar, shekilli, dadam bilan ko'z urishtirib, sal bo'lmasa kulib yuborayozdilar.

Ular ichkariga kirib ketishdi. Endi velosiped meniki. Men quvonchimni ichimga sig'dirolmay tirjayaman. Olim bo'lsa hasaddan tirjayadi.

Yo'q, do'stim, men qizg'anchiq emasman. Qarab tur, yoz chiqib, kunlar isisin, birgalashib uchishamiz. Hali katta yo'l chekkasidagi egri-bugri, moy tuproqli so'qmoqqa talay-talay izlar tushiramiz. Ha, ishonaver!..

Shunday qilib, ko'zyoshi bilan boshlangan mening bugungi kunim xursandchilik bilan tugadi.





## *Xudoyberdi To'xtaboyev*

(1932- yilda tug'ilgan)



Hozirgi zamон o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan adiblardan biri Xudoyberdi To'xtaboyevdir.

Adib 1932-yilning 17-dekabrida Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumaniga qarashli Katta Tagob qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham hamqishloq bolalarga qo'shilib poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo'ladiqan hamma mehnatlarda baravar ishtirok etdi, hayotning turli so'qmoqlardan iborat ekanligini yoshligidanoq anglab yetdi.

Qo'qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan X. To'xtaboyev ona qishlog'ida muallimlik qildi. So'ng bilimini oshirish uchun Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, A. Qahhor asarlarini sevib o'qidi, o'rgandi.

Universitetni tugatib, Bag'dod tumanidagi maktablardan birida dastlab oddiy o'qituvchi, keyinchalik ilmiy bo'lim mudiri, direktor lavozimlarida ishladi. Ana shu yillarda uning dastlabki mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshladi. Ilk muvaffaqiyatdan ilhomlangan bo'lajak adib markazga — Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug'ullanish uchun yo'l oldi. Natijada u 1958-yili Toshkentga ko'chib keldi. „Toshkent haqiqati“ gazetasi tahririyatiga ishga kirdi. Adib uzoq yillar feletonchi sifatida kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rganadi. Davrdan orqada qolgan, turli illatlar botqog'iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo'ygan shaxslar haqida talay feletonlar yozadi. „Sariq devni minib“, „Sariq devning o'limi“ nomli asarları ana shu hayotiy tajribalarni umum-lashtirish asosida yuzaga keldi.

Ma'lumki, o'zbek hajviy qissalari barmoq bilan sanarli edi. „Kalvak maxsum“, „Toshpo'lat tajang“, „Tirilgan murda“, „Shum bola“dan keyin bu janrda yangi asarlar deyarli yaratilmadi. Keyingi yillarda Abdulla Qodiriy va G'afur G'ulom an'analarini davom ettirgan Xudoyberdi To'xtaboyev bu „bo'shliq“ni to'ldirishga harakat qildi.

Har qanday adib bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta, o'z o'quvchisini ko'z oldida aniq tasavvur qiladi. „Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingiz o'n to'rt yoshli o'smirga aytildigan gapdan, albatta, farq qilishi kerak“, deb ta'kidlaydi X. To'xtaboyev. Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlari qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo'lishi sabablaridan bira ham shu. Katta hayotiy tajriba va uzoq izlanish mevasi bo'lgani tufayli Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar hayotidan olingan birinchi humoristik sarguzasht qissasi „Sehrli qalpoqcha“ni kitobxonlar yaxshi kutib oldilar.

Yozuvchining yumorga moyilligi, komik iste'dodi bu asarida yana ham chuqurroq seziladi. Qissa qiziqarli sujet asosiga qurilgan. Asardagi barcha voqealar Hoshimjon tilidan hikoya qilinadi.

Adibning „Sariq devning o'limi“ sarguzasht romani uch qismidan („O'rtoq polkovnik“, „Sariq devni quvib“, „Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani“) iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjonning sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib, uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o'g'ri, muttaham, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda asar qahramoni avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki maktabni bitirib, ulg'ayib, oq-qoranini tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lish haqida o'ylaydi, biror kasb egallashni xohlaydi. Boshda sartarosh bo'ladi. „Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiy nab bo'lsa ham maqsadimga erishaman“, deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin miliitsiya maktabida o'qib, miliitionerlikka o'tadi. Kitobdag'i barcha voqealar, sarguzashtlar ana shu nuqtadan boshlanadi, hamma gap-so'zlar shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Yozuvchining „Qasoskorning oltin boshi“ romani markazida tarixiy shaxs, xalq qasoskor Namoz taqdiri yotadi. Aslida muallif Namozning hayotini batassil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin adib o‘rni-o‘rni bilan uning hayotiga doir ma‘lumotlarni berib boradi. Ular Namozning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.

Namoz har jihatdan yetuk shaxs. U haqiqat uchun kurashchi, qasoskor, qo‘rqmas, tadbirkor, ochiqko‘ngil qahramon. Atrofiga o‘zi kabi dovyurak yigitlarni to‘plab zulmga qarshi kurash olib boradi.

Halolligi, mardligi, adolatparvarligi uchun xalq Namozni yaxshi ko‘radi va Go‘ro‘g‘liga qiyos qiladi: „Go‘ro‘g‘libek Namozboy qiyofasida paydo bo‘lgan emish. Afsun o‘qisa, ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qolarmish. Undan o‘q o‘tmas emish, qilich chopmas emish...“

Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi „Qasoskorning oltin boshi“ asarida o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev qalamiga mansub „Sir ochildi“, „Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jazzi qissa“, „Besh bolali yigitcha“, „Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi“, „Mungli ko‘zlar“, „Jannati odamlar“ kabi yirik asarlar o‘zbek bolalar adabiyotining katta yutug‘i hisoblanadi.

## SARIQ DEVNING O‘LIMI

(*Romandan parcha*)

... Bir jihatdan olib qaraganda, oyim uyga kiritmay to‘g‘ri ish qilgan ekan. Nega desangiz, o‘sha paytlarda men sehrli qalpoq axtarib egasi ko‘chib ketgan hovlilarni, go‘ngtepalarini, eskituski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-burchaklarni tintuv qilib yurgan edim. Bir oy avval Qashqar qishlog‘ida turadigan buvim biznikiga mehmonga kelib, sehrli qalpoq haqida ertak aytib beruvdi. Qalpoqni kiyib olgan azamat yigit biram ishlar qiladiki, biram qahramonliklar ko‘rsatadiki, agar eshitsangiz og‘zingiz ochilib qoladi. U hammani ko‘rib turadi. Uni esa hech kim, eng ko‘zi o‘tkir odamlar ham ko‘rolmaydi.

— Buvi, buvijon, o‘sha qalpoqning rangi qanaqa? — deb so‘radim hovliqib.

- Oq jundan to‘qilgan.
- Uni qayerdan topsa bo‘larkin?
- O‘sha qahramon qarib-chirib o‘layotganda qalpoqni shu atrofdagi hovlilardan biriga yashirib ketgan, bolam.

— Topsa bo‘larmikan?

— Nega bo‘lmas ekan. Izlasang, albatta, topasan, o‘g‘lim.

Xullas, o‘sha kechadan buyon oromimni yo‘qotganman. Kechasi-yu kunduz tinim bilmay sehrli qalpoq axtaraman. Ishonsangiz, izlamagan joyim qolmadi. Faqat eski qishloqning chekkasidagi tashlandiq bir uy qolgan, xolos. Bu hovli kimniki ekanligini hech kim bilmaydi. Hatto oyim ham aniq bir narsa aya olmadи.

Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo‘lgach, oyim aytyapti, deb qo‘shnimizdan ikkita nonni qarzga oldim-da, qorong‘i tushishi bilan o‘sha hovli tomon yo‘l oldim. Tashlandiq uydan xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi burchakka qaramang, ajinami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib menga baqrayib turganga o‘xshaydi. Hatto nazarimda ikki marta bo‘ri ham ko‘ringandek bo‘ldi. Keyin bundoq sinchiklab qarasam, ikkovi ham mushuk ekan. Men titkilamagan burchak-teshikki bor, hammasiga qo‘l suqib ko‘rdim...

Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. Mudray boshladim. Yo‘q, men uxlamasligim kerak, dedim o‘zimga o‘zim. Keyin shartta o‘rnimdan turib sal ichkariroq kirdim. Molxona bo‘lsa kerak, oxurda bir to‘p latta yotibdi. Orasini titkilagan edim... topdim, ishonasizmi, topdim, xuddi o‘shaning o‘zi! Oq mayin jundan, chekkasi ipakdan chiroyli tikilgan!

- Salom, qalpoqcham! — qichqirib yubordim.
- Salom, Hoshimjon! — degan ovoz eshitildi.
- Men seni axtarib yuruvdim.
- Men seni kutib yotuvdim...

Boshimga ildim-u, uy tomon qush bo‘lib uchdim. Axir men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab ko‘rishim kerak edi-da... Sinab ko‘rdim ham. Ko‘cha eshikning ustidan oshib to‘ppa-to‘g‘ri uyga kirib bordim. Oyim tepki mashinada Donoga ko‘ylak tikib o‘tirgan ekan. Yonginasiga borib:

— Oyi, — dedim ingichka ovozda. Oyim boshini ko‘tarib, u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, „tavba“ deb ko‘kragiga tuflab qo‘ydi. Sekin borib lagandagi sovuq oshni yeya boshladim.

— Oisha, akangdan darak bo‘lmadi-ku! — deb so‘radi oyim.

— Bilmasam, — deb qo‘ydi bir chekkada dars tayyorlab o‘tirgan singlim.

— Bechora qayerlarda qolib ketdi ekan?

— O‘zingiz-da, bo‘lar-bo‘lmasga urishaverasiz.

Shu payt sovuq osh tomog‘imga tiqilib hiqichoq tutib qolsa bo‘ladimi, bunaqasiga ilgari hech qachon uchramagan edim. O‘ziyam naq o‘n besh daqqa nag‘ma qildim-da.

— Tavba! — deydi oyim u yoq-bu yoqqa qarab.

— Tavba! — deydi singlim ham yoqasini ushlab.

Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan, deb o‘yladim-da, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi. O‘shangacha ham hech birlari meni ko‘rismadi. Sekin muzlatgichning yoniga bordim-u, eshigini ochib boshimdan qalpoqchani oldim. Oyim bilan singlim baravariga o‘rnilaridan turib ketishdi.

— Qayoqdan paydo bo‘lib qolding? — ikkovlarining ham savoli shu bo‘ldi.

— Muzlatgichning ichida yotuvdim, — deb yuboribman bilmasdan. Oyim bechora qo‘rqanidan andak bo‘lmasa yig‘lab yuborayozdi. Darrov meni issiq bag‘riga olib yuz-u ko‘zlarimdan o‘pa ketdi.

— Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! — derdi u tinmay. Issiq ko‘rpaga o‘rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho‘plaganimda jo‘rttaga bir inqillab qo‘yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman.

Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog‘imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko‘rish bo‘ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo‘q-ku, lekin shunchaki o‘zim qiziqib qoldim-da. O‘qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg‘on, deydi. Yolg‘on bo‘lsa nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so‘rash uchun odam shunaqangi ko‘p keladiki, shunaqangi ko‘p keladiki, qishlog‘imizdag‘i medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo‘y, birovi sariq echki, birovi qog‘ozga o‘ralgan pul, bir xillari katta tog‘orada to‘rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o‘qiydigan o‘g‘li Mirobid-dinxo‘janing kerilganini aytmaysizmi, bir o‘zining ikkita

velosipedi bor. Tunov kun bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo'ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

— Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi! — deyishadi. Mirobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

— Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! — deydi.

Ishqilib ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi ostob urgan xomakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uysa o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltilqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

— O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, — dedi folbin xolam.

Shu payt uyning pollari ostidanmi, qalin devorlari orasidanmi, shipidanmi — qayoqdanligini aniq anglay olmadim-ku, lekin sariq jinlarning jarang-jurung o'yinga tushayotgani, childirma chalayotgani eshitildi, qo'rqqanimdan dodlab yuborayozdim. Xayriyatki, oldimda folbin xolam, bolali ayol o'tirishibdi. Bo'lmasa kim biladi nimalar qilib qo'ygan bo'lardim. Vahimali ovozlar tinishi bilan g'oyibdan:

— O-m-i-i-in! — degan surnaynikiga o'xshash ingichka ovoz eshitildi.

Folbin xolam davom etdilar:

— Sariq echki so'yib, terisiga bolangni o'raysan.

— O-m-i-i-in! — degan ovoz eshitildi yana g'oyibdan.

Ketidan haligi vahimali jarang-jurunglar jo'r bo'ldi. Folbin xolam bolali ayolning qo'rqqanidan o'ynab turgan qo'llariga tikilib:

— Xudo o'zi shifo beradi, ana, arshi-a'lordan uning tabarruk ovozi eshitilyapti, eshit! — deb qo'ydi.

Bu gal jarang-jurung eshitilmadi-yu, lekin qisqa-qisqa qilib aytilgan „omin“ eshitildi. Boshimda qalpoqcham bor. Jinlar baribir meni ko'rolmaydi, deb o'zimga o'zim dalda berdimda, ular bilan uchrashish niyatida ovoz qaysi tomonidan kelayotganligini aniqlash uchun shoshilib tomga chiqdim. Qalin devor orasiga narvon tushirilgan ekan. Sekin pastga tushdim. Uyning osti omborxona, o'rtada so'ppayib bir xum turibdi.

Shu choq folbin xolamning uyiga yana bir kishi kirgandek bo'ldi. Uning „Oh otiginam, otiginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf“, degani eshitildi. Bu ovoz tinib ulgurmasdan xumning ichidan jarang-jurung bilan childirma sadolari yangradi, ketidan „omin“ ham eshitilib qoldi. Avvaliga qo'rqqanimdan bezgak tutgandek dag'-dag' qaltiradim. Keyin o'zimni bosib, sekin borib mo'ralasam, xumning ichida o'zimizning Mirobiddinxo'ja o'tiribdi. Bilaklariga har xil shiqildoqlar taqib olgan, qo'lida do'ppidan sal kattaroq o'yinchoq childirma! „Iye, ha, xudoy taoloning o'zлari shu yerda ekanlar-da, yashavorsinlar-e! — dedim kulgim qistab, — sariq jin ham o'zлari bo'lsalar kerak?“ Shu paytda shunaqangi achchig'im chiqdiki, shunaqangi achchig'im chiqdiki, cho'ntagimdan to'g'nagichni olib bor bo'yicha „xudoysi taolo“ning yelkasiga sanchib yuborganimni o'zim ham sezmay qolibman.

— Voy-dod! — deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja. Folbin xolam „Otaginam, kasalingiz g'oyat og'ir, ana, qulq soling, parilarim faryod chekyapti“, deb javray boshladidi. Kap-katta xotinning yolg'on so'zlaganini ko'rib, yana jahlim chiqib ketdi. Ko'zimga Mirobiddinxo'ja alvastidan ham xunuk ko'rini ketdi nazarimda. To'g'nag'ichni yana sanchib yuboribman.

- Oyijon! — deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja.
- Ovozingni o'chir! — boshidan xumning ichiga bosdim.
- A! — Mirobiddinxo'janing ko'zi xuddi jon berayotgandek ola-kula bo'lib ketdi. — Sen kimsan o'zi, ayt, kimsan?
- Men Azroilman.
- Azroil?
- Ha, Azroilman, joningni olgani keldim.
- Oyijon, men o'lyapman...
- Dodlama, — deb boshiga bir shapaloq urdim, — menga qara, Hoshim degan bolani taniysanmi?
- Taniyman. Azroilbobo, taniyman.
- Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?
- Berdim-ku?
- Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?
- Tavba qildim, endi urmaymiz.
- Baribir, hozir joningni olaman, — shunday deb jo'rttaga ikki qo'limni bo'g'moqchi bo'lgandek tomog'iga olib bordim.

- Jon Azroilbobo, bu gal jonomni olmang, kechiring.
- Nega odamlarni aldaysan?
- Oyim aytdilar-da...
- Oying nima dedi?
- Omin deysan, dedi. Undan keyin mana bu shiqildoqlarni chalib, chidirmani do‘pillatasan, dedi.
- Yolg‘on. O‘zing ham mакtabga borib uyimizdan xudonning ovozi eshitiladi, degansan.
- Aytdim-ku, oyim o‘rgatdi deb.
- Oying nima deb o‘rgatdi?
- Ko‘cha-ko‘yda yurganingda, mакtabga borganingda shunday deb aytasan, dedi.
- Demak, hammasi yolg‘onmi?
- Yolg‘on, Azroilbobo, yolg‘on.
- Yolg‘onligini mакtabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo‘ya qolaymi?
- Aytaman, bugunoq aytaman.
- Bo‘lmasa seni sinab ko‘raman. Hozircha joning o‘zingda tursin. Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin, Hoshim degan bola so‘rasa yo‘q demagin...

Tashqariga chiqib, endi nima qiliq ko‘rsatsam ekan, deb o‘ylanib qoldim. Hali folbin xolam bolali ayolga dori berayotganida xaltasiga ko‘zim tushib qoluvdi. Ana o‘sha xaltachalarni ham bir tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Har xil chitdan tikilgan katta-kichik beshta xaltacha bor, hammasida ham o‘zimizning dorixonalarda sotiladigan oddiy dorilar: birida penitsillin, birida biomitsin, boshqasida yurak o‘ynoqi bosadigan poroshok. Xudoyi taolo ato qilgan noyob dorilar deb xolajonim ana shularni pullayotgan ekan. Yashavorsinlar-e, dedim o‘zimga-o‘zim, hali shoshmay tursinlar, o‘zlarini ham bir uyaltirib qo‘ymasammi...

Folbin xolamning cho‘ntagiga qo‘l solib besh-o‘n so‘m oldim-da, darhol tug‘ruqxona oldidagi dorixonaga yugurdim. O‘sha yerdan ichni suradigan har xil dorilar olib keldim. Xaltachalardagi dorilarni olib, o‘rniga o‘shalarni ehtiyyotlik bilan joylab qo‘ydim. Oradan o‘n-o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas xolamning obro‘lari ham bir pul bo‘ldi. Sen hali bizni ataylabdan zaharlamoqchi bo‘ldingmi, deb ichi surib darmondan ketgan bemorlar xolamni tutib olib rosa do‘p-poslashdi...

Ishlarim yurishganidan yurishib ketdi. O'zim xursand, kaysim chog', ashula aytganim-aytgan. Baholarim ham joyida — nuql besh! Ilgarigidek uy vazifangni bajargan bo'lsang menga berib tur, deb birovlargal yolvorib ham o'tirmayman. O'qituvchilarimizning uyiga shartta kiraman-da, konspekt daftarini olib o'sha yerdan ko'chiraman-qo'yaman. Obro'yim ham shunaqangi oshib ketdiki, o'qituvchilar menga kulib boqadigan bo'lib qolishdi. Faqat og'zaki so'raladigan fanlardan hamon mazam yo'g'roq. Lekin unga ham bir vaj topib qo'yanman.

— Mening og'zaki nutqim rivojlanmagan, yozma ravishda talab qilaveringlar, — deyman-da, o'qituvchilarimizning o'zlaridan ko'chirib olgan konspektlarni sal boshqacharoq qilib o'qib beraveraman.

Xullas, ishlarim har jihatdan yurishib ketgan edi. Sinf-komimizni amaldan tushirib o'rniga meni saylamoqchi bo'lib turishgan edi-yu, bir xatoga yo'l qo'yib, butun maktabda sharmanda-yu sharmisor bo'ldim, rostini aystsam, bir pulcha obro'yim qolmadi.

Darsdan ketayotganda hech kim sezmasa kerak deb o'zimga va eng yaqin do'stim bo'lmish Qosimjonga yettila fandan a'lo baholar qo'yib, chorak tugamagan bo'lsa ham, cho'zib o'tiramanmi, deb chorak baholarini ham chiqarib qo'ya qolgan edim. Bu ishni avval ona tili o'qituvchimiz, so'ngra fizika o'qituvchimiz payqab qolibdi. O'sha soat-dayoq hammaga oshkor bo'libdi. Ertasiga maktabga borishim bilan direktoring xonasiga chaqirishdi. Kirsam, yettila o'qituvchi qator o'tiribdi. Qosimni ham chaqirtirib kelishdi.

— Hoshim, beriroq kel-chi, — dedi Otajon Azizovich barmog'i bilan jurnaldag'i bahoni ko'rsatib, — bu baholarni kim qo'ydi?

- Bilmasam... — dedim yelkamni qisib.
- Sen qo'ydingmi? — so'radi Qosimdan direktor.
- Nimani? — mendan battarroq hayron bo'lib dedi Qosim.
- Ikkoving maslahatlashib qilgansan bu ishni. Ochiq-chasiga iqror bo'linglar, — dedi o'qituvchilardan biri.
- Yo'q, bu ish Qosimdan chiqqan, — dedi boshqasi, —

nega desanglar, Hoshim so'nggi paytlarda ancha tuzalib qoldi. Baholari ham nuqul besh...

O'tirganlarning hammasiga bu fikr ma'qul tushdi shekilli, har tomonidan bechora Qosimga savol yog'dira boshlashdi. Qarasam, do'stimning ahvoli chatoq — ko'zidan miltillab yosh tomchilari ko'rinyapti. Yo'q, qilg'ilikni men qilib, jabrini birov tortmasligi kerak! Shartta o'rtaga chiqdim:

— Kechirasizlar, bu ishni men qilganman.

— Nimaga? — sakkiz kishi birdaniga shu savolni berdi.

— Ha, men qilganman. Qosimning bu ishdan mutlaqo xabari yo'q. Undan keyin, xullas, bu ishni men qilganman...

Tamom, hali aytganimdek, obro' ikki pul bo'ldi. Aytilmagan gap-u, qilinmagan nasihat qolmadidi. Menden shu ketishda ketaversam tuzukroq odam chiqmas emish, agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo'la olmas emishman.

— Yo'q, — dedim qaysarligim tutib, — mendan agronom chiqadi, albatta.

— Chiqmaydl! — sakkizovlari bir ovozdan takrorlashdi.

— Bo'lmasa zootexnik bo'laman.

— Ilmsiz bo'lsang, zootexnik tugul molboqar ham bo'lomaysan.

— Bo'la olaman.

— Gapni ko'paytirma, bo'lomaysan! — achchig'i chiqib dedi direktor.

— Bo'laman, bo'laman, bo'laman! — dedim-da, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdim. Men o'qimay turib ham, boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, shoir-u artist ham bo'la olaman deb qattiq ishonar edim. „Ha, albatta, bo'laman, — deb takrorlardim o'zimga o'zim, — bularga, menga ishonchszilik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o'qituvchilarimga o'zimning kimligimni ko'rsatib qo'yaman...“

O'sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko'rsatib, shon-u shuhrat taratib, o'qituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayrada qoldirish niyatida safarga otlandim.

Xayr, jonajon qishlog'im, hayqirib toshdan toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bog'lar, hammangizga xayr. Yo'l yoqasidagi azim yong'oqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi sizlarga hech kim tosh otib

shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib ozor bermaydi!

Mehribon oyijonim, sho'xliklar qilib ko'nglingizni og'ritgan bo'lsam, qaysarligim tufayli o'ksitgan bo'lsam, kechiring meni! Qo'ng'ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling. Har xil qiziqchiliklar qilib sizlarni qiqirlatib kuldiradigan, maktabdan qaytayotganingizda sho'x bolalar urganda tarafingizni oladigan akangiz yoningizda yo'q endi. Sog'inganda, ko'nglingiz o'ksiganda rasmiga boqing. Lekin yig'lamang. U, albatta, keladi, qahramonliklar ko'rsatib qaytadi. O'z o'qituvchilariga o'qimasdan turib ham agronom bo'la olish mumkinligini, artist bo'lib hammani o'ziga mahliyo qila olishi mumkinligini ko'rsatib qo'yadi. Ha, albatta, ko'rsatadi. Ko'ksi to'la orden bilan qaytadi.

Xayr!

Ey, chala qolgan uy vazifalari, sizlarga ham xayr!

Yarim tunda qishloqdan chiqib borar ekanman, ko'zim jiqla yosh, ammo qalbim shodliklarga to'la edi.



## ***Farhod Musajon***

*(1933- yilda tug'ilgan)*



O'zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari, kichkintoylarni to'lqinlantiradigan pyesalari bilan bolalarning quvonchlariga quvonch ulashib kelayotgan qalam-kashlardan biri Farhod Musajon 1933-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. 1956-yilda ToshDU ning sharq fakultetini tamomladi. Bir necha yil O'zbekiston radiosida, „O'zbekiston madaniyati“ gazetasida, „G'uncha“ jurnalida mehnat qiladi. 1966-yildan esa „O'zbekfilm“da muharrir, bosh muharrir vazifalarida ishlab kelmoqda.

Farhod Musajonning ilk asarlari 1955-yilda e'lon qilingan. Shundan so'ng „Случай в горном кишлаке“ (1958), „Daradagi qishloqda“ (1960), „Oftobni quvlab“ (1970), „Chin do'stlik“ (1976), „Chevar qiz“ (1982), „Buloq suvi“ (1982), „Turdi, velosiped va men“ (1983), „Глоток родниковой воды“, „Tekin tomosha“ (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo'ldi.

Farhod Musajon barcha yoshdagi bolalar uchun yozadi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi kichik hamda o'rta va katta yoshdagi bolalarga bag'ishlangan asarlarni ham uchratish mumkin. Adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlab yozgan jajji hikoyalari bog'chalar dasturidan o'ziga xos o'rinn olgan.

Ma'lumki, bu davr bolalar kitobxonligi ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zлari tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Onayurtga, tabiatga muhabbat xislatlari, mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan tarkib topa boshlaydi. Turmushda qizg'anchiq bo'lmaslik, kasb-hunar egasi bo'lishga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi.

Bu davr bolalarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi o'rgangan Farhod Musajon ularga bag'ishlab „Eng yaxshi bobo“, „Shodiyona kun“, „Shiqildoq“, „Pahlavon va nimjon“, „Sovg'a“, „Ajoyib buzoqcha“, „Yaxshilik“, „To'lab ber“, „Varrak“, „Dog“ kabi o'nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning „Varrak“ asari mazmuni oddiyigina varrak yasash voqeasi asosiga qurilgan. Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana shunday jozibali asarlaridan yana biri „Eng yaxshi chana“dir. Bu hikoyada qo'li ochiq, bag'ri butun bo'lishlik, qizg'anчиq bo'lmaslik kabi xislatlar kichkintoylar ongiga yetkaziladi.

Latifjonga dadasi chana olib kelib beradi. Quvonchdan bolaning boshi ko'kka yetay deydi. Latifjon boshda ancha qizg'anчиq bo'ladi. Shuning uchun chanada bitta o'zi uchadi. Boshqalarni chanaga yaqin keltirmaydi, unga birovning qo'li tegib ketsa, chanani ko'tarib uyiga chopadi.

Latifjonning dadasi o'g'lidiagi bunday qizg'anчиqlikni payqaydi, lekin unga pand-nasihat qilib o'tirmaydi. Aksincha, quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi:

— Bilasanmi, — dedi dadasi o'g'liga, — men bu ajoyib chanani qayerdan oldim? Bunaqasi magazinda sotilmaydi, bu buyurtma bilan qo'lda yasalgan chana. Yoshi oltmishda. Ha, oltmish yil burun bitta og'aynimning adasi olib bergen ekan. Og'aynim o'sha paytda sendek ekan. Chananing chiroylilagini ko'rib uchishga uning ham ko'zi qiymabdi. Kattaroq bo'lqanimda ucharman, hozir bolalar tortib olib eskitib qo'yishadi, deb asrab yuraveribdi. Oradan yillar o'tibdi, bir kun qarasa bolaligi tugab chol bo'lib qolibdi. Endi unga chana kerak emas edi, chunki chol odam uyalmasdan chana uchadimi?! Og'aynim chanani menga sovg'a qilar ekan, beg'ubor bolalik chog'imda maza qilib ucholmadim, ishqilib sening o'g'lingga yaxshi xizmat qilsin, dedi. Shunaqa o'g'lim, qizg'anчиq odam zavqdan mahrum bo'ladi!

Latifjon boshda dadasining bu gaplariga tushuna qolmaydi. Yuragining allaqayeri jiz etgandek bo'ladi. Nihoyat u dadasiga yuzlanib:

— Ertadan boshlab ayamasdan uchaman, — dedi.

Adibning „Sovg'a“ hikoyasi ham muktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. Asarda bolalar mehnatkash

bo'lishga da'vat etiladi. Oqiljonning gul ekishi, uni mehr bilan parvarish qilishi kichik kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

Xullas, Farhod Musajon o'zining mактабгача va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag'ishlab yozgan hikoyalarida salmoqdur fikrlarni sodda, bolalarbop shaklda aytadi. Adib nasihat qilish yo'lidan bormaydi, aksincha, bolalar hayotida ko'p uchrab turadigan oddiy voqealarni tasvirlaydi va aytmoqchi bo'lgan muhim gaplarini ana shu voqealar mag'ziga singdirib yuboradi.

Farhod Musajonning „Orzuga ayb yo'q“, „Bo'sh kelma, Aliqulov“, „Buloq suvi“ va boshqa qissalari o'zbek bolalar adabiyotida muhim o'rinda turadi.

Farhod Musajon dramaturg sifatida ham yoshlarning mehriни qozongan. „Xayolparastlar“, „Oq kabutarlar“, „Sabil qoldi“, „O'g'limni qaytarib bering“ pyesalari shular jumlasidandir.

Bular orasida, ayniqsa, „O'g'limni qaytarib bering“ asari mashhur bo'lib, dramaturg uning nomini o'zgartirib, „Najot istab“ deb qaytadan ishladi. U O'zbek milliy akademik drama teatrinda muvaffaqiyat bilan qo'yildi. Dushanbe, Olmaota shaharlarida, Tataristonda sahna yuzini ko'rdi.

Pyesada, asosan, bola tarbiyasida ota-onaning beqiyos katta roli haqida gap boradi.

Farhod Musajon kattalarga bag'ishlab „Bahor nafasi“, „Bu ko'zlarga ishonsa bo'ladi“, „Xotin kishining ra'yи“, „Ko'r shofyor“, „Zo'raki kashanda“, „Nozik masala“, „Kalla-pocha“, „Himmat“, „Bog' ko'cha“ kabi kitoblar yozgan.

## SOVG'A

(*Hikoya*)

Bir kuni Oqiljonning dadasi uch-to'rt tup atirgul ko'chati ko'tarib keldi.

- Qani, o'g'lim, qarashib yuboring, gul ekamiz, — dedi.
- Xo'п bo'ladi, — suyunib ketdi Oqiljon.

Dadasi chuqurcha qazidi. Oqiljon suv quyib turdi, har bir chuqurchaga gul ko'chati o'tqazib, ustidan tuproq tortishdi.

Yaqinda Oqiljon hovlida o'ynab yurib gul ko'chatlari barg ochganini, bittasi hatto kichkinagina g'uncha tukkanini ko'rib qoldi. Quvonib ketdi. Shundan keyin har kuni ertalib o'rnidan

turdi deguncha yugurib gulning oldiga boradi, g'uncha katta bo'lmayaptimi, yo'qmi deb qaraydi. Lekin g'uncha sira ochilmas, qanday bo'lsa shundayligicha o'zgarmay turardi. Oqiljon dadasidan so'radi:

— Dada, g'uncha nega katta bo'lmayapti, qachon gul ochadi?

— Parvarishga bog'liq, o'g'lim, — olma pish, og'zimga tush deb o'tirsang o'tiraverasan, — dedi Oqiljonning dadasi, — tagini tez-tez yumshatib, suv quyib tursang, ana o'shanda ochiladi.

— Bo'pti, parvarish qilaman, — dedi Oqiljon.

U so'zining ustidan chiqdi, tesha bilan gul ko'chatining tagini yumshatib, kunora suv quyib turdi. Ko'p o'tmay g'unchaning uchi yorilib qip-qizil gul ko'rinib qoldi. Oldiniga kichkina edi, bir haftadan keyin esa piyoladek keladigan qip-qizil atirgulga aylandi. Atirgul shunday chiroyli ediki, Oqiljon qarab to'ymasdi.

Yakshanba kuni devor-darmiyon qo'shnilar Shohistaning tug'ilgan kuni edi, chiqib Oqiljonnini mehmonga taklif qildi.

Oila a'zolari o'tirib Oqiljonning Shohistaga qanday sovg'a olib chiqishini maslahatlashdilar. Oqiljonning buvisi, oyisi, katta akasi har xil narsalarni aytishdi, lekin biror qarorga kelisholmadi.

Atirgulingni olib chiqqa qol, — dedi dadasi.

— Ho... — dedi Oqiljon, hali men Shohista uchun shuncha ovora bo'lib gulni ochiltirgan ekanman-da. Kerak emas!

Hamma birdan jim bo'lib qoldi.

— Men yolg'iz o'zing uchun gul o'stirganingni bilmagan ekanman, — dedi xomush ovozda dadasi, — uzmasang baribir uch-to'rt kundan keyin so'lib, barglari to'kilib ketadi.

Oqiljon anchaga ikkilanib o'tirdi, oxiri gulni shartta qaychida qirqdi-da, qo'shnisinikiga yo'l oldi. Shohista gulni ko'rib quvonib ketdi, idishga solib stolning o'rtasiga qo'ydi. Bir uy bola mehmon bo'lib o'tirgan ekan, hammaning gulga havasi keldi. Ayniqsa, Nodira bilan Nigora „Chiroyli gul ekan“, deb rosa bijirlashdi.

Shu payt uyg'a Shohistaning buvasi kirib keldi.

— Bay-bay-bay, bunday ajoyib gulni kim parvarishlab o'stirdi-yu, kim sovg'a qildi senga? — deb so'radi nabirasidan.

— Gulni men o'stirdim, — bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini Oqiljon sezmay qoldi. — Hali g'unchasi ko'p,

mana ko'rasizlar, ochilganda Nodiraga ham, Nigoraga ham beraman!

Bobo iljayib uning yelkasiga qoqdi.

— Barakalla, bo'talog'im. Niyatingki birovlarining ko'nglini olish ekan, demak, sendan haqiqiy bog'bon chiqadi!

## YAXSHILIK

Fazliddin o'rtog'i Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilar Normamat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib o'rtog'iga kerildi.

— Hozir-chi, men borib, Normamat bobomlarga yordam beraman. Qo'llaridagi tugunchani ko'tarishib yuboraman. Bilasanmi... men qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radir, doim odobli bola ekansan, deb maqtaydilar. Ishonmasang men bilan birga yurgin, o'zing ko'rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Normamat bobo Fazliddinning so'zlarini eshitdi chog'i, miyig'ida jilmayib qo'ydi. Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan tugunchani oldi.

— Bobo, keling yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? — so'radi Fazliddin, Nabi eshitsin uchun jo'rttaga baqirib.

— Ha, har doim yordam berasan, — boshini likillatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yo'lga tushdilar.

Uyiga yetgandan keyin Normamat bobo Fazliddinning qo'lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek „Barakalla, bo'talog'im, odobli bola ekansan“, deb maqtamadi, faqat quruqqina qilib „Rahmat“ dedi va engashib Fazliddinning qulog'iga allanarsalar deb pichirladi. Keyin kulimsiraganicha uyiga kirib ketdi.

Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab chap oyog'i bilan yer chizdi. Uning yoniga yugurib o'rtog'i keldi.

— Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? — so'radi Nabi. — Normamat bobo nima dedilar?

Fazliddin boshini ko'tarolmasdi.

— Nega indamaysan?

— Yaxshilik qil, lekin maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Normamat bobo, — zo'rg'a javob berdi Fazliddin.



## ***Latif Mahmudov***

*(1935-yilda tug‘ilgan)*



Latif Mahmudov 1935-yilda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Toshkent davlat universitetini tamomlagach, 20 yilga yaqin vaqt mobaynida O‘zbekiston radiosida mehnat qildi. Ayni kunlarda „Kamalak“ nashriyotida bo‘lim mudiri bo‘lib ishlayotgan Latif Mahmudov 1961-yilda o‘zining ilk kitobi — „Chinor“ hikoyalar to‘plami bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan edi. Ana o‘sandan beri u ham nasr, ham dramaturgiya sahifasida bolalar qalbiga quvonch bag‘ishlab kelmoqda.

Latif Mahmudov asarlarining qahramonlari o‘qishda, jismoniy mehnatda, ahillikda, oqko‘ngillikda, bir-birlariga g‘amxo‘rlik va mehribonlikda barchaga namuna bo‘la oladigan bolalardir.

„Chinor“ hikoyasining qahramonlariga Salim boboning har kuni ertalabdan kechgacha chinorning tagida o‘tirishi boshqacha tuyuladi. Ular chinor ostida bir yashirin sir bor deb o‘ylaydilar.

Ma’lumki, bolalar har bir narsaga qiziquvchan bo‘ladilar. Ular o‘zлari uchun noma’lum bo‘lgan olamning sir-asrorlarini tezroq bilib olishga, uning poyoniga yetishga intiladilar. Shokir ham, Vali ham ana shunday bolalar toifasidan. Shuning uchun ular chinor va uning ostidagi supaga juda qiziqb qoladilar. Salim otaning kecha-yu kunduz supada o‘tirishi ularni hayratga soladi.

Aslida chinorda ham, supada ham hech qanday sir yo‘q edi. Boboning yakka-yu yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, u shoirtabiat yigit bo‘lgan. Bir vaqtlar bu chinor oldida bir ayol anhorga tushib ketadi. Uni Salim otaning o‘g‘li anhordan olib chiqadi. Ammo o‘zi anhordan chiqolmay, suvgaga cho‘kib halok bo‘ladi. Shu sababli chol chinor ostida, supa ustida uzoq o‘tirib, o‘g‘lidan qolgan yodgorlik — kitobini qayta-qayta o‘qiydi.

Bundan bexabar bo‘lgan bolalar g‘or qazib, bu yerdagi sirni bilib olmoqchi bo‘ladilar. Kutilmaganda bolalarning g‘ori o‘pirilib, supa qulab tushadi. Bu yerda hech qanday sir ham, tarix ham yo‘q ekanligini bilgan bolalar, ayniqsa, boboning supa o‘pirilib tushgandan keyingi holatini ko‘rib, o‘zlarini o‘zlar kechira olmaydilar.

„Chinor“ hamon sevib o‘qiladi, bolalarmi yaxshilikka, keksalarga ko‘mak berishga, ajoyib inson bo‘lib kamol topishga da‘vat etib kelmoqda.

Kimki jismoniy mehnatga berilsa, badantarbiya hamda sport bilan oshno bo‘lsa, u hayotda sog‘lom va tetik bo‘ladi, oldiga qo‘ygan niyat-maqsadiga erishadi, tengqurlari o‘rtasida obro‘-e‘tibor qozonadi. Aksincha bo‘lsa, unday bolalar hech narsaning uddasidan chiqa olmaydigan, o‘qishda ham, sportda ham, hayotda ham boshqa bolalardan ortda qolib ketishga o‘zlar sababchi bo‘ladilar.

Latif Mahmudovning „Darvozabon“ hikoyasining qahramoni Orif yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, ikkinchi toifadagi bolalar sirasiga kiradi.

Boshqa bolalar turli oromgohlarda, dam olish maskanlarida yozgi ta‘tilni ko‘ngildagidek o‘tkazib, sport bilan shug‘ullanib, yangi kuch-quvvat to‘playdilar, har tomonlama chiniqadilar.

Orif-chi? U na jismoniy mehnat qiladi, na sport bilan shug‘ullanadi, na badiiy kitob o‘qiydi. Kecha-yu kunduzi ovqat yeb, xomsemiz bo‘lib qolganligini Latif Mahmudov bolalarga ta‘sir qiladigan darajada chizib beradi.

Latif Mahmudov hikoyalari mavzusi jihatdan rang-barang. Ularning hammasida bolalarning qaynoq hayoti ufurib turadi.

Latif Mahmudov o‘zbek bolalar adabiyotida qissa janrini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shib kelayotgan iste‘dodli adiblardan biri hisoblanadi. Uning „Eski dutorning sirlari“, „Tog‘dagi lolalar“, „Tog‘da otilgan o‘q“, „Ikki dangasaning sarguzashtlari“ kabi qissalarini o‘qimagan yosh kitobxon topilmasa kerak.

Adib o‘z qissalarida bolalarning ezgu-niyat, orzu va intilishlarini topib yozadi. Qissalarda a‘lo va yaxshi o‘qishga intilish, kattalarni hurmat qilish va kichkintoylarga yordam qo‘lini cho‘zish, jonajon o‘lkaga fidokor kishilar bo‘lib kamol topish kabi masalalar yotadi.

„Ikki dangasaning sarguzashtlari“ qissasining qahramonlari — Mirvali, Botirlar oddiy, boshqalardan farq qilmaydigan

bolalar, ammo xatti-harakatlari, intilishlari bir jahon. Ikkalasi ham yomon o'quvchilardan emas. Xulq-odoblari ham boshqalarga manzur bo'ladigan bolalardan.

Hamma gap o'quvchilarni o'z farzandidek yaxshi ko'radi-gan, ularning ko'ziga hatto cho'p tushishini ham istamaydigan adabiyot muallimi Alijon Valiyevichning Botirning dadasiga maktub yozib berishidan boshlanadi.

Alijon Valiyevichning bolalar ma'qul ko'rmaydigan bir odatini yozuvchi ta'sirchan qilib ishlaydi. Buning Mirvali tilidan berilishi yanada ishonchli chiqqan: „Siz Alijon Valiyevich juda badjahl odam ekan, deb o'ylamang. Alijon Valiyevich birovga qattiq gapirmaydi, urishmaydi, qovog'ini ham solmaydi. Hatto aybingizni ham aytmaydi. Gunohingiz og'ir bo'lsa, ikki ellik xat yozib konvertga soladi, yaxshilab yelimlaydi, sizning oppoq oqarib ketayotganiningizdan zavqlanib, beparvolik bilan qo'lingizga tutadi...“

— „Shuni dadangizga berib qo'ying“.

Botir o'qituvchining qo'lidan maktubni olar ekan, dah-shatga tushadi, nima gunoh qilib qo'yganini bilmay o'y-xayolga botadi.

Hamfikr, do'st, sirdosh, yursa-tursa birga bo'ladigan Mirvali bilan o'qishda, yurish-turishda yo'l qo'ygan xatolarini xo'p o'ylashadi. Ma'lum bo'lishicha, ular kunlardan bir kun chollarga salom bermay o'tishgan, qachonlardir tanaffusda bir marta o'qituvchilardan yashirinib papiros chekishgan, dars tayyorlamay kelishganda sinfdoshlaridan uyg'a berilgan vazifani ko'chirishgan. Ammo bular xatga asosiy sabab bo'lmasisligi mumkin deb o'ylashadi.

O'qituvchining maktubini olgan bolalar o'z ayblarini o'zlaridan qidirishlari va gunohlarini yuvish maqsadida o'tkin-chi bir cholning qopini ko'tarib uning uyiga olib borib berishlari yosh kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

Keyinchalik maktubdag'i: „Zavodingizga ekskursiya uyush-tirmoqchimiz, paxta terish mashinasi haqida gapirib bersangiz, qachon borsak bo'ladi?“ deb so'ralsan xat mazmunidan xabardor bo'lgan ikki do'st terilariga sig'may quvonishadi hamda o'z xato va kamchiliklarini tuzatib olganliklaridan behad shod bo'lishadi.

Latif Mahmudovning „Cho'qqidagi lolalar“ qissasida ham g'aroyib, favqulodda va g'oyatda qiziqarli voqeа hikoya qilinadi.

Qissada sirli yo'lovchilar ham, shahar hovlilaridan birida sodir bo'lgan g'alati voqeа ham, dom-daraksiz g'oyib bo'lishlar ham, antiqa izlanishlar ham bor. Qissaga Qizbuloq haqidagi afsona chuqur singdirib yuborilgan. Shu boisdan ham qissa qiziqib o'qiladi.

Latif Mahmudov o'zbek bolalar adabiyotida drama janrini rivojlantirishda katta rol o'ynab kelayotgan san'atkor sifatida ham e'zozlanadi.

Dramaturgning „E, attang“, „Muhim topshiriq“, „Danganing sarguzashti“, „Haqiqiy o'g'il bola“, „Ali bilan Vali“, „Burgut olib qochgan bola“ asarlari uzoq yillardan beri yosh tomoshabinlar qalbiga quvонch bag'ishlab kelmoqda.

Latif Mahmudov dramalarida qahramonlar, ko'pincha, o'zlarining a'lo xulq, odoblari, mehnatsevarliklari, o'qish va mакtabni sevishlari bilan ajralib turadilar. Ba'zi hollarda esa ishyoqmaslik, dangasaliklari tufayli o'z tengqurlari davrasida qizarib qoladilar.

## NOK

Bu yerga kelganimizga uch-to'rt oy bo'ldi. Men ham, oyim bilan dadam ham yangi uyga, qo'ni-qo'shnilarga allaqachon o'rGANIB ketdik. Biroq buvim esa, xuddi biron narsani yo'qtib qo'ygan odamdek, turib-turib eski hovlini qo'msab qoladiyu o'zini qo'ygani joy topolmay:

— Hoy, bolam, — deydi yalinib, — eski mahallaga bir borib kelsakchi-a?

Bu gap menga yoqmaydi.

— Qiziqsiz-a, buvi, — deyman, — eski mahalla qoldimi?

Shunda buvim birdan bo'shashib:

— Eshikning oldidagi nok turganmikin, a? — deydi va nima deb javob berishimni oldindan bilgani uchun gapimni ham eshitmay, uygа xomush kirib ketadi. Buvimga hayronman. Ko'chayotganimizda boshqa narsalar qolib nokka achingan. Men-ku, nokni eslasam yuragim g'ash bo'ladi. Kesilib ketsin deb yuraman. Biroq kesilganmi, yo'qmi, ko'zim bilan ko'ray desam, eski mahallaga hech yo'lim tushmaydi. Buvimning xomushligi bahona bo'ldi-yu kiyindim, buvimning oldiga kirib:

— Qani, yuring, — dedim.

Shu topda bechora buvimning yosh boladek quvonib ketganini bir ko'rsangiz edi.

Mana, ikkalamiz avtobusda eski mahallaga ketyapmiz. Buvim o‘z-o‘zidan jilmayadi, oynadan bosh chiqaradi, ilhaq bo‘lib nimanidir qidiradi. Men esa qani endi, nok kesilib to‘nka-po‘nkasini ham buldozer qo‘porib tashlagan bo‘lsa, deb boryapman. Men sizga aytsam, bunday deyishimning sababi bor.

Eshigimiz oldida bir tup nok bor edi. Shoxlari devor osha hovlimizning yarmini egallab, quyuq soya tashlab turardi. Dadam chilangularlikdan ataylab temirdan so‘ri yasatib, ostiga qo‘yib bergen edi. Doim o‘sha yerda ovqatlanardik. Men bo‘lsam butun yoz maza qilib nokning tagida yotardim. Ayni nok pishig‘i edi. Maktabimizda yozuvchi Hakim Nazirning „Chiranma g‘oz...“ pyesasini sahnalashtirmoqchi edik. Murod rolini men o‘ynaydigan bo‘ldim. O‘n besh kun deganda pyesani tayyorladik. Maktabimizga ota-onalarini, yozuvchini ham taklif qildik. Ertaga tomosha degan kuni allavaqtgacha uxlayolmay yulduzlarga qarab yotdim. Tongga yaqin ko‘zim ilingan ekan, peshanamga tushgan allaqanday mushtdan dodlab o‘rnimdan turib ketdim. Qarasam, yostig‘imning ustida bir dona nok dumalab yotibdi.

Eng yomoni shu bo‘ldiki, hash-pash deguncha chap ko‘zim ko‘karib, qovoqlarim shishib chiqdi. Bunaqa bashara bilan sahnaga emas, ko‘chaga ham chiqib bo‘lmas edi. O‘sha kuni hech qayoqqa bormay, alamimdan dumalab yotdim. Viqor bilan ko‘kka bo‘y cho‘zgan nokning „bopladiimmi“ degandek shivillashiga chidayolmay, devorga chiqdim-u kattakon bir shoxini arralab tashladim. Shox kesilib qarsillab yerga tushganda, uydan buvim yugurib chiqdi.

— Nima qilding, bolam, — dedi titrab-qaqshab va sekin ostonaga o‘tirdi.

...O‘sha kuni dadamning koyiganini hisobga olmaganda butunlay alamimdan chiqqan edim-u, mana, hozir juda olisda chayqalib turgan nokni ko‘rib, ko‘zimga og‘riq kirganday bo‘ldi, buvim esa qadrdon hamrohini qayta topganday:

— Qara, bolam, — dedi mamnun iljayib, — turibdi-ya, turibdi.

Avtobusdan tushdik.

Jin ko‘chalardan, paxsa devorlardan nom-nishon qolmagan. Qator-qator yangi uylar, ba’zilari bitgan, ba’zilari ikkinchi-uchinchini qavatgacha ko‘tarilgan. Tumshug‘i havoga sanchilgan

ko'tarma kranlar taqa-taq to'xtagan, hamma ovqatdan so'ng nokning quyuq soyasida hordiq chiqarar edi.

Biz ham buvim bilan bir chekkada o'tirib dam oldik.

Ishchilardan biri botinkasini yechib, shimini tizzagacha qayirdi. Shipillab nokning ustiga chiqib silkitgan edi, nok duv etib to'kildi. Qiy-chuv, kulgi bilan qizlar nokni terib o'rtaga qo'yishdi. Men ham oldimga tushganlarini cho'ntakka urdim. Nok qoqqan kishi pastga qarab:

— Bo'ldimi, — dedi.

— Ha, — chuvirlashishdi qizlar. — Ertaga ham qolsin.

U ohista tusha boshladi va xuddi men kesib tashlagan joyga kelganda nazarimda beixtiyor to'xtagandek bo'ldi. Men o'zimni allanechuk sezdim. U esa, daraxtning kesilgan yeriga qarab, peshanasini tirishtirdi, nimadir deb boshini chayqadi, g'ala-g'ovurdan eshitolmadim, so'ng sirg'alib pastga tushdi. Buvimga bildirmay sekin nokka qaradim. O'zim ham eng chiroyli shoxini olib tashlagan ekanman, shu topda nok bir qanoti singan burgutni eslatardi! O'sha voqea buvimning esiga tushib qolishidan cho'chib:

— Buvi, — dedim nok chaynab, — nega shu nokni yaxshi ko'rasiz-a?


Buvim esa hadeganda javob bermadi. Ko'zлari yarim yumuq, allanarsalarni eslab iljayadi, o'z-o'zidan lablari pichirlaydi.

— Buni, — dedi nihoyat xayol bilan, — buni... rahmatli buvang ekkan. Odamlarga ekkan. Ana shu tagida o'tirgan odamlarga ekkan, bolam.

Men nima deyishimni, nima qilishimni va qayerga gochishimni bilmay qoldim!

Azim tup nok esa jaziramadan odamlarni bag'riga chorlab, go'yo buvimning gaplarini tasdiqlagandek, tepamizda sirli shovullar edi!





## **Miraziz A'zam**

(1936- yilda tug'ilgan)



Miraziz A'zam 1936-yil 29-martda Toshkentda ziyoli oilada tug'ilgan. Otasi tarix o'qituvchisi, o'rta mакtab direktori, onasi bog'cha murabbiysi edi. Miraziz besh yasharligida otasi urushda halok bo'ldi va onasi qo'lida tarbiyalandi. Onasi Xatira Muhammadkarim qizi ko'plab ertak, qo'shiq va dostonlarni yod bilar, o'zi ham qo'shiq va allalar to'qib tashlardi. Shuningdek, u o'g'lining tarbiyasini mustahkamlash uchun o'sha urush davrining og'ir yillarda badiiy kitob o'qishga, kino va teatrlarga borishiga imkon yaratardi.

Yosh Miraziz o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagach, oliy tahsilni Toshkent davlat universitetida oldi. Keyin yangi ochilgan telestudiya muharrirlik qildi. Bir necha yil „G'uncha“ jurnalida adabiy xodim bo'lib ishladi. Shundan so'ng yoshlari nashriyotida, Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir bo'ldi.

1987—1992-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mas'ul kotib bo'lib xizmat qildi. Bundan keyingi yillarda gazetada, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiy targ'ibot markazida ishladi.

Miraziz A'zam hozir shoir, nosir, tarjimon, dramaturg va maqolanavis sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Miraziz A'zam talabalik yillaridan beri she'r yozadi. Birinchi she'ri 1960-yilda „G'uncha“ jurnalida bosilib chiqqan edi. Birinchi to'plami 1964- yilda nashr etildi. Shundan keyin uning bolalar uchun „Aqli bolalar“ (1969), „Senga nima

---

Mazkur bob shoir Tursunboy Adashboev bilan hamkorlikda yozilgan.

bo‘ldi?“ (1970), „G‘alati tush“ (1972), „Yer aylanadi“ (1973), „Yerga dovruq solamiz“ (1976), „Bir cho‘ntak yong‘oq“ (1990), „Qirq bolaga qirq savol“ (2000) kabi qator she’riy to‘plamlari bosilib chiqdi. Shoир ularda bolalarning qalbi va tuyg‘ulari orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug‘lashga katta ahamiyat beradi; turli imo-ishoralar bilan, kosa tagida nimkosa tarzida sho‘ro imperiyasiga qaram buyuk xalqning og‘ir hayotini tasvirlaydi, goh samimiylumor bilan, goh og‘riqli ichki izhorlar bilan timsollar yaratadi. U she’riyatning muhim unsurlarini hech nazardan qochirmagan holda, o‘zining har bir she’ri uchun o‘zgacha vazn, ichki ohang topadi va she’rining o‘qimishli bo‘lishiga erishadi.

Miraziz A’zam bu to‘plamlari orqali o‘zbek bolalarining sevimli shoirlaridan biriga aylandi. Shuningdek, boshqa xalqlarning ham e’tiborini tortdi. Uning she’riy to‘plamlari rus tilida uch marta nashr etildi, ukrain, turkman, mo‘g‘ul tillarida chop qilindi. She’riy turkumlari belorus, moldavan, qirg‘iz, ozarbayjon, latish tillarida ham bosilib chiqgan.

1970—1980-yillarda Miraziz A’zamning kattalar uchun „Sevaman“, „Tuyg‘ular“, „Sabot“, „Haqiqatning ko‘zlar“ nomli she’riy kitoblari nashr etildi. Inson hurnligi uchun, haqiqat uchun, erk va mustaqillik uchun kurash bu kitoblarning asosiy g‘oyalaridir. Ulardagi she’rlar o‘zining hayotiyligi va jozibaliligi bilan o‘quvchi qalbini zabit etadi, ulardagi muhabbat va nafrat tuyg‘ulari hech kimni besfarq qoldirmaydi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga olgach, Miraziz A’zam ko‘proq adabiy-ma‘risiy merosni ko‘z qorachig‘iday asrashga da‘vat etuvchi bir qator tarixiy-adabiy va tilga oid maqolalar e’lon qildi, shuningdek, bolalar va o‘smlar uchun kichik sahna asarlari yozdi. „Qardoshlik yo‘llarida (Yassaviy)“, „Buxoriy darsi“, „Ulug‘bek va o‘g‘li Abdurahmon“, „Ulug‘bekning kulgusi“ pyesalari shular jumlasidandir.

Miraziz A’zamning jahon adabiyotidan qilgan tarjimalari ham e’tiborga loyiqidir. U Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy asarlarini, rus, nemis, fransuz, ingliz, turk, italyan shoirlarining ko‘plab she’rlarini, shuningdek, jahon bolalar she’riyati namunalarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

## QO'LNI QO'LGA BERAYLIK

Biz bu ozod diyorning  
Eng umidbaxsh unimiz.  
Birinchi sentabrda  
Mustaqillik kunimiz.

Baxtiyor turmush qurish  
Eng yaxshi, to'g'ri yo'ldir.  
Yo'lni topar olimlar,  
Bizda olimlar mo'ldir.

Birinchi sentabrda  
Chaqnab tursin charoqlar.  
Ko'chalar yorug' bo'lsin,  
Hilpirasin bayroqlar.

Birinchi sentabrda  
Yangi hayot boshlandi.  
Go'zal hayot qurishga  
Dadil qadam tashlandi.

Quramiz buyuk davlat  
Qoldirib izimizni.  
Xalqlar aro oq bo'lar  
Ko'rasiz yuzimizni.

Qo'lni qo'lga beraylik  
Vatan bo'lsin guliston.  
Hurlar aro hur bo'lsin  
Mangu buyuk Turkiston.

## VATAN O'G'LI

Yurtga ega bo'lish oson ish emas,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.  
Bahor keldi, endi ortiq qish emas,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Hammamizning onamizdir shu Vatan,  
Yov qoldirgan siynasida ming tikan,

Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov,  
O'z yeringni o'zing asra, bo'lib dov.  
Yo'qsa, kelib asrab berarmi birov?  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Ilmdorlar juda ko'pdir jahonda,  
Ortdaman deb hayallama armonda,  
Tez ilm ol sen hozirgi zamonda,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Tekinxo'rlar, o'g'rillardan hazar qil,  
Barin bir yoq qila olar es — aql,  
Vataning bor boshing uzra mustaqil,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Farqiga bor zulmat ila chiroqning,  
O'lqum dema, qadriga yet bayroqning,  
Osti ham bir, usti ham bir tuproqning,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu,  
Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu,  
Kelajakni sen qurasan, baxtni quv,  
Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.

### BEDANANING BUVISI

Bedananing onasi bor ekan, bor ekan,  
Bedaning otasi bor ekan, bor ekan,  
Qo'shiqlarin barchasi zo'r ekan, zo'r ekan,  
Buvisi ham ularga jo'r ekan, jo'r ekan:

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.  
Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Otasi va onasi yelarkan, yelarkan,  
Ularga don-dun olib kelarkan, kelarkan.

Mittivoya buvisi qararkan, qararkan,  
Tumshug'ida patlarin tararkan, tararkan.  
Turmushlari oqarkan bir marom, bir marom,  
Sayrasharkan yoppasi har oqshom, har oqshom:

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.  
Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Ammo bir kun buvisi suv totmay, suv totmay,  
Nevarasin ovqatga uyg'otmay, uyg'otmay,  
Yotib qolibdi o'zi isitmalab, isitmalab,  
Tura olmabdi hatto ertalab, ertalab...

Turmush oqmay qolibdi bir marom, bir marom.  
Hammalari bo'lishib beorom, beorom,  
Sayrasharkan xavfsirab hazinroq, hazinroq,  
Jaranglamas misoli qo'ng'iroq, qo'ng'iroq:

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.  
Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Bedananing otasi nor ekan, nor ekan,  
Onasiga oriyat yor ekan, yor ekan,  
Dori-darmon, o't-o'lan keltirib, keltirib.  
Qari qushga tutishib, ichirib-yedirib,  
Aylanishib boshida turdilar, turdilar,  
Sog'ayishning chorasin ko'rdilar, ko'rdilar.

Mittivoy ham qo'lidan kelgancha, kelgancha,  
Suv tutdi buvisiga bilgancha, bilgancha.  
Uch kun tandan arib bor dardi, bor dardi,  
Buvijon boshini ko'tardi, ko'tardi.  
Xursandlikdan ko'zлari yoshlandi, yoshlandi,  
Sayroqilik qaytadan boshlandi, boshlandi:

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Bedananing onasi bor ekan, bor ekan,  
Bedananing otasi bor ekan, bor ekan,  
Qo'shiqlari hali ham zo'r ekan, zo'r ekan,  
Buvisi ham ularga jo'r ekan, jo'r ekan:

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.

Va-vaq, va-vaq,  
Bit-bil-diq.





## To'lan Nizom

(1938-yilda tug'ilgan)



To'lan Nizom asli Andijon viloyatining Bo'z tumanidan. Cho'l farzandi. Shuning uchun ham uning asarlari cho'l-biyobonlarni bog'-rog'larga aylantirish, bu ishlarda bolalarning ishtiroki, mehnatlari masalalariga qaratilganligi bilan ham ajralib turadi. To'lan Nizom 1938-yilda tavallud topdi. U Andijon pedagogika institutini a'lo baholar bilan tamomlagach, uzoq yillar cho'lquvarlarning farzandlariga murabbiylik va muallimlik qildi. Bo'zdagi Saida Zunnunova nomli kasb-hunar kolleji rahbari sifatida samarali faoliyat ko'rsatdi.

To'lan Nizomning „Sening ertaklaring“, „Yoshlik bayozi“, „Iftixor“, „Quyosh yo'li“, „Ona tilim, ona elim“, „Andijonda bir qush bor“, „Cho'lpon“, „Chaman ichra“, „Muqaddas ruh“ kabi yigirmadan ziyodroq to'plamlari yosh kitobxonlarning dillariga quvonch ulashib kelmoqda.

Shoirning sara she'rlari mehnat, cho'llarni bog'-bo'stonga aylantirayotgan cho'lquvarlar va ularning farzandlariga atalgan. „Cho'pon bola“, „Bo'z“, „Daryo va men“, „Yoshligim, qaydasan?“, „Do'stimga“, „Yo'llar“, „Bolalikka qaytish“, „Qaldirg'och“ singari yuzlab she'rlarida ana shu ruh hukmron. „Cho'pon bola“ she'rini olib ko'raylik. Bu she'r o'zining o'ynoqi misralari bilan qalblarni larzaga soluvchi, shu kasbga kichkintoylarning mehrini jo'sh urdiruvchi da'vati bilan ajralib turadi. Mana bu mehnatkash, o'z ishining fidoyisi, jonkuyari bo'lgan cho'pon bolaga berilgan ta'rif qaysi bolaga yoqmaydi deysiz:

Cho'pon bola,  
Chaqqon bola,  
Yaylovga xo'p  
Yoqqan bola.

Qadimda Bo'z yerlari yaydoq cho'l bo'lgan. U bugun odamlar mehnati tufayli vodiyning gulzor maskanlaridan biriga aylanib ketgan. „Bo'z“ she'rida shoir bu cho'lni go'yo kelinchak kabi yasanib, go'zallahish, katta-kichikning havasini keltirganligini kuylaydi:

Andijonning hissasida,  
Ho', Marg'ilon jussasiday,  
Otalarning qissasida —  
Gul-chechak Bo'z!  
Kelinchak Bo'z!

Bolalar tabiatni sevishlari, o'lkamiz shaydosi bo'lib kamol topishlari zarur. Bu borada ham badiyj adabiyotning o'rni katta. Shoir „Manzara“, „Oftob ishqii“, „Ilk qor“, „Shabboda“, „Muz“ she'rlari bilan bu mavzuni chuqur yoritishga intilgанини ko'ramiz. Tabiatni sevish, e'zozlash, ehtiyyot qilish insonning burchi, vazifasi. Tabiat bilan hazillashib, o'ynashib bo'lmaydi. „Manzara“ asarida shoir xuddi shu g'oyani ilgari suradi. U bolalarni tabiatni asrab-avaylashga chorlaydi, aks holda uning qahr-g'azabiga duchor bo'lish mumkinligini she'r tili bilan uqtiradi:

Qora bulut bosib keladi,  
Hayqiriq-la bo'ron yeladi.  
Cho'g' irg'itib momaqaldiroq,  
Hovliqadi, qah-qah kuladi.  
G'azab qilsa yer ham otadi,  
Borliq to'fon, loyga botadi.  
Tabiatning jami farzandi —  
Mayjudoti to'zib yotadi...

„Oftob ishqii“ asarida bolalarga xos bo'lgan soddalik, tabiatdan unumli foydalanish istagi kichkintoylar o'y-xayollari bilan chambarchas holda berilganligi yosh kitobxon diqqatini tortadi:

Kuz shamoli esadi,  
Haroratni kesadi.  
Qizim der: „Qor yog'guncha“,  
Tomlar sadaf taqquncha,  
Suvsarimiz muzlamay,  
Pechka, ko'mir izlamay.  
Qoplab olib quyoshdan,  
Ishlataylik bir boshdan...

Kim tinchlik, osoyishtalikni xohlamaydi? Kattaning ham, kichikning ham o‘yi, fikrida tinchlik. Tinchlik To‘lan Nizomning ham suyukli mavzusi. Shoirning „Tinchlik uchun“ she‘rida bu g‘oya kichkintoylar ruhiyatiga mos tarzda ifodalangan. Ozodbek hali yosh, u urush nimaligini bilmaydi. Lekin tank, nagan, pulemyot, raketa urush qurollari ekanligini yaxshi bilib olgan.

Ozodbek plastilindan turli-tuman o‘yinchoqlar yasaydi. Bolaning o‘yi, xayoli yaxshi. U tank, nagan, samolyot, pulemyot, kema, raketani o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan, qo‘li bilan ushlagagan. Bularni u televizorda ko‘rgan, ta’rif va tavsifini kattalardan eshitgan, xolos. Ana o‘scha urush qurollarini u o‘yinchoq sifatida tasavvur qiladi. O‘zi yasagan o‘yinchoqning hayotda tutadigan o‘rni, vazifasini qalbiga singdirib, bilib olgan. Bu jihatdan ota-bolaning suhbati ibratlidir.

— Bular nima, Ozodbek?  
— Mana bu — tank, bu — nagan.  
Mana bu — to‘p, samolyot,  
Pulemyotdir bu turgan.  
Mana busi — kemadir,  
Dengizlarda suzadi.  
Bu — raketa juda zo‘r,  
O‘ydan uchqur, o‘zadi.  
Bu — bir askar, postida  
Juda botir, bemalol —  
Toshday qotib turibdi,  
Qo‘lida ushlab qurol.  
Dushman sira kelolmas,  
„Biznikilar“ mustahkam.

Otaning o‘g‘lidan, uning qilgan ishidan roziligi, minnatdorchiligi yosh kitobxon uchun bir saboq bo‘ladi. Negaki, bola tinchlikni xohlaydi, ota tinchlik tarafdori, otaning so‘nggi so‘zi — xulosasi yosh kitobxonning quvonchiga quvonch qo‘sadi:

„Yaxshi“, dedim ohista,  
Boshim chulg‘ab xayollar.  
— Tinchlikka qalqon bo‘lsin  
Sen yasagan qurollar!

To‘lan Nizom hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida ertak-doston ijodkori sifatida ham o‘ziga xos ovozga ega. Uning „Boychibor“ dostoni o‘quvchilar mehrini qozongan.

## ANDIJONDA BIR QUSH BOR

Istirohat bog‘ining  
Havaskor bulog‘ining —  
Ko‘rki bo‘lgan bir qush bor.  
Ko‘zi quyoshga o‘xshar,  
Parvozi mag‘rib-mashriq,  
Patlarida kumush bor.  
U nurga cho‘milganda,  
Ming rangga ko‘milganda,  
Ajib bahor-u qish bor!  
Tildan tilga o‘tilgan,  
Qo‘sinq bo‘lib yetilgan,  
Shuhratida bolqish bor.  
Yelkasida Andijon,  
Yaratgan paxta — xirmon!!!  
Ne ellardan olqish bor!  
Andijonda bir qush bor!

## QALDIRG‘OCH

O, qaldirg‘och, qaldirg‘och,  
Qora ko‘zlarin qiyg‘och.  
Duming o‘xshar xivichga,  
Qanotlaring qilichga.

Oyoqlaring tim qora,  
Tumshug‘ing tig‘day bor-a?  
Bo‘yinchangda oq sharf,  
Bir ko‘ray yaqin borib.

Loy ko‘tarib shiftdasan,  
In solishga ustasan,  
Me’mormisan, ayt, o‘zing,  
Buloqdek qaynar so‘zing.

Qushlar ichra donosan,  
Yomonlikdan tonasan.  
Qilgan ishing jasorat,  
Qiyratasan hashorat.

Qish kelganda ketasan,  
Janub tomon yetasan.  
Qaytganingda sen takror —  
Yurtga keladi bahor.

O, qaldirg‘och, qaldirg‘och,  
Ayvонimda bola och!

### OLMAXON

Arslonbobda — dovonda,  
Tog‘ bag‘rida, o‘rmonda  
Yashar edi Olmaxon,  
Quvonchi jahon-jahon.  
Shoxdan shoxga o‘tardi,  
Sakrab-sakrab ketardi.  
Butoqlarda o‘y surar,  
Daraxt uchida turar.  
Ko‘zi qora munchoqday.  
Dumi supurgi misol,  
Qayriladi bemalol.  
Oldingi oyoqlari,  
Tirnog‘i, barmoqlari,  
Odamnikiga o‘xshar,  
Yog‘ochni mahkam ushlar.  
Quloqlari ding xo‘pam,  
Sezgir, chopqir va o‘ktam.  
Fe‘li ham ancha durust,  
Bolalarga biram do‘st.  
Yo‘ldan o‘tgan har kishi,  
Bo‘lsa hamki tashvishi,  
Bir zum to‘xtab qoladi,  
Cho‘ntakka qo‘l soladi.  
Olmaxonga qarab u,  
Chaqirar: Kakku! Kakku!  
Qo‘liga nima kirsa,  
Dili nima buyursa,  
Donmi, danakmi, bodroq,  
Ishqilib bitta yemak,

Unga tutishar har dam.  
Shunda olmaxon biram  
Epchil bo'lib ketadi,  
Kishini shod etadi.  
Lekin yomon tomoni,  
Yeyolmas ekan nonni.  
Unga pista yo yong'oq  
Keltirmasangiz har choq,  
Sizga qiyo boqmaydi,  
Qilik'i ham yoqmaydi.  
Chiyillar ermak qilib,  
Sizni bir nodon bilib.  
Qochib ketadi uzoq,  
Dumini qilib baroq.  
Qay kuni bebosh Sobir,  
Shoshilib, qilmay sabr,  
O'zligini unutib,  
O'jar, shumligi tutib,  
Cho'ntagidan qand olib,  
Uni kaftiga solib,  
Olmaxonni chaqirdi,  
Hushtak chaldi, baqirdi.  
Olmaxon keldi darrov,  
Yuragi ham berib dov.  
Sobir qo'liga boqdi,  
Tumshug'ini bir qoqdi.  
Dumini likillatib,  
Oyog'in dikillatib.  
Jimirib qulog'ini,  
Tig'latib tirnog'ini,  
Qochmoqchi edi nari,  
Tez ayon bo'ldi bari.  
Sobir mahkam ushladi,  
Yosh ko'nglini xushladi.  
U talpinar har yoqqa,  
Qochmoq bo'lib uzoqqa.  
Sobir erkalab, qiy nab,  
Shum fe'li yana aynab.

Qulog‘ini chimchilar,  
Jonivor ko‘p chiyillar.  
Qandni tiqar og‘ziga,  
Hatto uning bo‘g‘ziga  
Solmoqchi bo‘lar barmoq,  
Olmaxon dumi baroq.  
Qo‘rqinchdan qaltiraydi,  
Ko‘zlari yaltiraydi.  
Shu zamon kelib qoldi,  
Sobirni tutib oldi  
Bir barvasta oqsoqol,  
Yuzi-ko‘zida malol.  
— Bolam, kimsan? Ne uchun  
Uni qilasan tutqun?  
Nega berasan azob?  
Sobir qilolmas javob,  
Chol so‘zladi tutoqib,  
Hatto ko‘zdan yosh oqib.  
Bu tabiat sen uchun  
Umring bo‘lsin deb uzun,  
Yaratilgan azali,  
Bu dunyoning go‘zali  
O‘rmon, daryo, ko‘llardir.  
Ularda yashayotgan,  
Rizqini oshayotgan  
Jonivorlar oz qoldi,  
Bu ish xatarga soldi.  
Aynidi zamin, samo,  
Olmaxon ham ko‘p emas,  
Ular soni xo‘b emas.  
U jonivor a’zosi,  
Tabiatning bolasi.  
Seni onang suyganday,  
Dilga mehrin tuyganday.  
Uni sevar tabiat,  
Shunchun qilar tarbiyat.  
Odamlar bilib qo‘ysin,  
Sendayni tiyib qo‘ysin.

Ha, sendayin bolalar,  
Keyin qilar nolalar.  
Sen qushlarga in yasa,  
Don ber agarda yesa.  
Olmaxonni o'ynabsan,  
O'ynab ancha qiyabsan.  
Sen-chi, unga mag'iz ber,  
Yong'oq, pista, mayiz ber.  
Quvnab yursin o'rmonda,  
Sen qolmagin armonda.  
Sobir o'rmon oralab  
O'zin o'zi qoralab,  
Chopib ketdi yo'lida,  
Qandi qoldi qo'lida.





## **Tursunboy Adashboev**

(1939- yilda tug'ilgan)



Taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboev 1939- yilda Qirg'izistonning O'sh viloyatiga qarashli Olabuqa tumanidagi Safed Bilol qishlog'ida tug'ilgan. U Toshkent davlat universitetini hamda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutini bitirgan. „Kamolning olmasi“ deb nomlangan birinchi kitobi 1967-yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdag'i „Yosh gvardiya“, Bishkekdag'i „Mektep“ nashriyotlarida „Biz sayohatchilar“, „Ola-Tovlik bo'laman“, „Arslonbob sharsharasi“, „Surnay“, „Nur daryo“, „Gul-dasta“, „Olatog'-lolatog““, „Oqbo'ra to'lqinlari“, „Sovg'a“, „Arslonbob afsonasi“, „Sichqonning orzusi“, „Uch bo'taloq va sirli qovoq“ to'plamlari bosilib chiqqan.

Tursunboy Adashboevning kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan asarlari boshqa xalqlar tillariga ham o'girilgan. Masalan, „Песня Жаворонок“, „Мельница“, „Подарок“, „Олти оyoqli xo'tikcha“, „Olatog' ohanglari“ singari bir talay asarlari rus, latish, qozoq, tojik tillarida chop etilgan. Eng sara she'rlari esa qirg'iz va o'zbek bolalar she'riyati antologiyalaridan o'rinn olgan.

Kichkintoylarga qisqa va lo'nda qilib she'rlar yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboev ijodining eng muhim fazilatlaridan biridir. Ijodkorning „Sumalak“ sarlavhali she'ri shu jihatdan xarakterli:

Boychechaklar nish urib,  
To turguncha o'rnidan.  
Bahor qishni tarnovga,  
Osib qo'ydi burnidan.

Yoki bolalarning cheksiz xayoloti bilan bog‘liq bo‘lgan „Tugma“ deb nomlangan mashqi ziyrak kuzatuvchanlikning mahsulidir:

Ruzvon xola qo‘schniga  
Chiqqanida elakka.  
Kamzulining tugmasi,  
Tushib qoldi yo‘lakka.  
Chumolilar to‘planib,  
Majlis qurar shoshilib:  
— Bir, ikki, uch ko‘tardik,  
Tegirmonning toshini...

Shoir quyosh botishini kuzatib, usqning loladay qizarib turishidan hayron bo‘lgan Kozimning taassurotini shunday bayon qiladi:

Kun botishi Kozimni  
Juda hayron etibdi.  
— Dada, quyosh dumalab,  
Tog‘ boshiga yetibdi.  
Yiqilibdi, shekilli,  
Burni qonab ketibdi...

Iqtidorli shoirning ravon she’larini o‘qir ekanmiz, ijodkor quvnoq, yengil kulgi vositasida kichkintoylar dunyosiga xos murakkab holatlarni ochib berishga har doim katta e’tibor berishini ko‘ramiz. Chunonchi, „Ahil do‘sstar“ she’rida Suhrob bilan Jahongir ismli ikki do‘sit bitta bog‘chaga qatnab, hatto muzqaymoqni ham teng bo‘lib yeishadi. Bu ikki oshna-og‘ayniga to‘p sovg‘a qilinadi. Ko‘ngilxiralik bo‘lmasligi uchun ular koptokni ham ikki bo‘lakka yorib o‘ynaydilar:

Sovg‘aga kelgan to‘pni,  
Yotsiramay olishib,  
Teng sherikka bo‘lishdi  
Shart ikkiga yorishib...

Kitob va daftarning qadr-qimmatiga yetmaydigan, xususan, daftarni isrof qiladigan bolakaylor ko‘p uchrab turadi. Shoir „O‘n ikki varaq daftar“ she’ri orqali ana shunday o‘quvchilarni qattiq hajv ostiga oladi:

O'n ikki varaq daftар  
Xolis xizmat etmadi.  
„Lo-la, osh, o-l“ so'zini  
Yozish uchun yetmadi...

Tursunboy Adashboyev jahon bolalar she'riyati vakillari-ning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir. Uolter De Lamer, Yan Bjexva, Korney Chukovskiy, Samuil Marshak, Musa Jong'oziyev, Qodir Mirzaliyev, Oq'ageldi Allanaazarov, Kanibek Junushev, Saydali Ma'mur, Leons Briyedis, Yesken Yelubayev she'rlarini yosh kitobxonlar Tursunboy Adashboyev tarjimasida sevib o'qishadi.

### TELEFONDAGI SUHBAT

— Allo-allo, Hakimjon,  
Sinfdosning Ro'ziman.  
Futbol qalay, dam oldingmi?  
— Endi keldim o'zimam.  
— Nima bo'lди, chiqardingmi  
Yuzinchi masalani?  
— Tashvish qilma, Nizom aytdi,  
Ishlabdi Hasanali...

### MAYIZ

— Oting nima, qizaloq?  
— Menmi, tog'a, Lolaman.  
— Ol mayizdan bir hovuch.  
— Yo'q, odobli bolaman.  
Hovuchingiz kattaroq,  
Siz bersangiz olaman...

### YALAYAPMAN

— Karimaxon, qayga ketding?  
— Kel, sochimni tarayapman.  
— Qatiqni tez olib chiq.  
— Hozir, opa, qarayapman.  
— Ozroq edi, ichib qo'yma.  
— Ichganim yo'q, yalayapman...

## ROSTDANMI?

Salim ota tamshanib,  
Novvot so‘rar kavshanib.  
Aylantirar lunjida,  
Nabirasi pinjida  
Boqar hayron, lol bo‘lib.  
— Ha, qaridik chol bo‘lib.  
— Tishingizga ne bo‘lgan?  
— Bari tushgan, to‘kilgan.  
— Unday bo‘lsa, — Hakim der:  
— Sizda tursin nokim, — der.

## BAQALAR

— Havo aynib, birdaniga  
Yomg‘ir quysa paqirlab.  
Nima uchun baqalar  
Suvga qochar vaqirlab?  
Obidjondan Zaynullo  
Shuni so‘ragan edi.  
Obid biroz o‘ylanib,  
Do‘sriga shunday dedi:  
— Yomg‘irdan qochmasami,  
Ust-boshi ivib qolar.  
Shuning uchun anhorga  
Sho‘ng‘ib ketar baqalar.

## YALQOV

Ko‘rganlar aytar, yoshmas,  
Sho‘xlikdan vaqtি oshmas.  
Bu qiliq‘i yarashmas,  
Haddan ortiq.

Ish buyursang uqmaydi,  
Qo‘lda kitob uxlaydi.  
Sal sovuqda „uslaydi“,  
Burnin tortib.

„To‘rt“ qayoqda, „uch“ olmadi,  
Shu ahvolda kuch olmadi,

Bu yil yana ko'cholmadi,  
O'sha Ortiq.

## NOVVOT

Xayri xola qog'ozga  
Bir bo'lak novvot o'rab,  
Tortmaga berkitdi-da,  
Nishonboydan gap so'rab  
Dedi: — Bugungi ishni  
Ertaga qoldirmagin.  
Darslaringni tayyorla,  
Jag'imni toldirmagin.  
Nishonboy boshin qashib:  
„Hozir, oyи“, deb qo'ydi.  
Kampir suv keltirguncha  
U novvotni yeb qo'ydi.  
Onasi buni bilgach,  
O'z ko'ziga ishonmay  
So'radi: — Novvot qani,  
Ko'rmadingmi, Nishonboy?  
— Bugungi ishni kechga  
Qoldirmayin deb qo'ydim.  
Shuning uchun, oyijon,  
Men novvotni yeb qo'ydim...

## QO'G'IRCHOQNI AVAYLAB

Ariqdan o'tayotib,  
Gulnora toyib ketdi.  
Muncha anqaydim deya,  
O'zini koyib ketdi.  
O'rnidan turib darhol,  
Ko'ylaklarini qoqdi.  
So'ngra qo'g'irchog'iga  
Mehr-la kulib boqdi:  
— Voy, qattiq yiqildingmi,  
Ko'zлari munchoqqinam?  
Boshing toshga tegdimi?  
Yig'lama, oppoqqinam.

## KAPADA

Sanjar bobosi bilan  
Qovun poylar kapada.  
Ko'kda yulduz marjoni,  
G'ir-g'ir esar shabada.  
Nabirasi bidillab,  
Cholni tutar so'roqqa.  
Yarmi kemtik oy chiqdi  
O'xshab oltin o'roqqa.  
— Bobo, qarang, tunov kuni  
Butungina oy edi.  
Birov uni sindirib,  
Qo'yanmi, deb koyidi...

## HALI YOSH-DA

— Doskaga chiq, Mukambar,  
Bo'rni ol-chi, xo'sh, qani.  
Bitta misol ishlaymiz,  
Uchga uchni qo'sh, qani?  
Lekin oddiy misolni  
Yecholmadi Mukambar.  
Sodiq aka so'rab qoldi:  
Ayt-chi, qancha ukang bor?  
— Oltita.  
— Ular birdan konfet yesa,  
Bo'lar nechta?  
— Beshta.  
— Hech-da!  
Shoshilmasdan o'yla boshda.  
— Bitta ukam konfet yemas.  
Hali yosh-da...

## TUPROQ

Ajdodlardan meros bo'lib,  
Qolgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri  
Tomgan tuproq.  
Qizg'aldoqlar ochilganda,  
Qilmay kanda,

Qir, adirlar gulxan bo‘lib  
Yongan tuproq.  
To‘kin-sochin dasturxonni  
Solgan tuproq.  
Dori-darmon, sinovlardan  
Tolgan tuproq  
Qotilni ham, botirni ham  
Sukut saqlab,  
Ehtiyyotlab, o‘z bag‘riga  
Olgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri,  
Tomgan tuproq...

### QIYOSI YO‘Q

Sen tug‘ilgan,	O‘sh, Buxoro,
Qutlug‘ xona.	Samarqandim.
Aziz diyor,	Qiyosi yo‘q,
Pok ostona.	Bu yagona.
So‘lim o‘lka,	Sen-u menga,
Kesh, Farg‘ona,	Vatan — Ona.
Qadim Urganch,	Shunday go‘zal,
Shu durdona	Ulug‘ yurtkim.
Ko‘rkam Toshkent,	Tuprog‘ini,
Asal-qandim.	Ko‘zga surtgim.



## **Muhammad Ali**

(1942- yilda tug'ilgan)



Shoir, adib, olim, tarjimon, jurnalist, rahbar Muhammad Ali (Ahmedov Muhammadali) Andijon farzandi. U 1942-yilda Bo'z tumanida tavallud topgan. O'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan Muhammad Ali O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining tavsiyasi bilan Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oladi. U o'z mehnat faoliyatini G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrirlikdan boshlaydi. So'ngra shu nashriyotda bosh muharrir; O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida Markaz raisi; Xalqaro „Oltin meros“ jamg'armasi raisi; ayni pallada esa xalqaro Amir Temur jamg'armasining raisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bolalik haqida asar yozmagan qalamkash bo'lmaydi. Muhammad Ali ham aslida kattalar adabiyotining vakili bo'lishiga qaramay, bolalarni samimiy sevadi, e'zozlaydi va o'zining bir qator asarlarini ertamiz kelajagi bo'lgan kichkin-toylarga bag'ishlagan.

Bolalar uchun ijod qiladigan qalamkash ularning dunyoqarashlarini, pedagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Boshqacha ibora bilan aytganda, bolalar mavzusini yoritish, bolalar uchun asar yozish ijodkordan katta mas'uliyatni talab qiladi. Bunday xususiyatlar Muhammad Alida bor. Adib o'zining tarixiy mavzuga bag'ishlangan „Boqiy dunyo“ (she'riy roman), „Ulug' saltanat“, „Sarbadorlar“, „Abadiy sog'inchlari“ nomli romanlarida bolalarning yorqin obrazlarini chizib berdi. Ayniqsa, bu „Ulug' saltanat“ tarixiy asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz unda Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek singari shahzodalarning bolalik davrlari tasvirlangan sahifalarni ko'ramiz. „Boqiy dunyo“ she'riy

romanida esa qahramon yigit Farhodning bolaligi tasvirlari, ayniqsa, uning ismi ma'nosining yangicha talqinda berilishi juda qiziqarli va ibratlidir.

Shoirning bolalarga bag'ishlangan she'r va afsonalari ham mavzularning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib bolalar uchun asar yozganda bolalar xarakterining o'ziga xosligini unutmaydi. Bolalar har narsaga hayrat bilan boqadilar, hamma narsa ularga qiziq tuyuladi. Ular har bir narsani ilk bor ko'radi, har bir narsaga qarab dunyoni o'zicha ilk bor kashf eta boradi, bundan beqiyos quvonadi. Shoir ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi.

„Bo'taloq“ she'rida bo'talog'iga boqib quvongan, atrofida parvona bo'lgan bolakay obraqi chiziladi. Bolaga, ayniqsa, bo'taloqning lo'k-lo'k etib chopishi, unga „cho'k-cho'k!“ deyish juda yoqadi, uning o'zi ham birga chopishga tayyor. Bo'taloq ham bolaning mehrini sezadi. She'rda „lo'k-lo'k, cho'k-cho'k“ so'zlarining takrorlanishi she'rga ajoyib ruh bag'ishlagan. She'r juda jozibali va hayotiy chiqqan:

Bo'talog'im yayraydi,  
Yantoq bersam, chaynaydi.  
Yam-yashil o'tloqlarda  
Lo'k-lo'k chopib o'ynaydi.

Bo'talog'im, lo'k-lo'k,  
Lo'killama, cho'k-cho'k!

Bo'talog'im to'ysin deb  
Barra o'tlar tutaman.  
Agarda qasd qilsam-chi,  
Undan o'zib ketaman!

Bo'talog'im, lo'k-lo'k,  
Lo'killama, cho'k-cho'k!

Muhammad Ali o'z she'rlariga ko'p hollarda tabiat manzaralarini, hayvonot olamini, o't-o'lanlarni mavzu qilib oladi. Bu esa she'rlarga tabiiylik baxsh etadi. „Shudring“, „Zubturum“, „Kungaboqar“, „Qo'zichoq“ kabi she'rlar ana shundaylar sirasiga kiradi. Bu she'rlarda dastavval onasining gapiga kirmay, kasal bo'lib qolgan, keyin peshanasiga zubturum bargini qo'ygandan so'ng sog'aygan bola, shudringga

cho‘milgan bog‘, o‘tloqda „olamda ne gaplar bor“ligidan bexabar sakrab yurgan begunoh qo‘zichoq tasvirlanadi.

Shoirning ko‘p she‘rlari kichik bolalarga bag‘ishlab yozilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib „Vagonlar“, „Maktabimiz hovlisi“, „Yigirma to‘qqiz do‘stimiz“ kabi she‘rlarni aytib o‘tish mumkin. „Shudring“ she‘riga e’tibor bering:

Bog‘imizga bir qarang,  
Gul ochildi rang-barang.  
Tongda shudring tushibdi,  
Gulga chiroy qo‘shibdi.

Bog‘dan nari poliz bor,  
Unda qovun-tarvuz bor.  
Qovunlar katta-katta,  
Yozda keling, albatta!

Onalarni ulug‘lovchi „Onamlarning bayrami“ she‘ri bayram munosabati bilan xonadonda yuz bergan quvonchli kayfiyat haqida. Bolaning nazarida butun tabiat aziz onajonini qutlug‘ ayyom bilan qutlashga shaylangan. Qushlar hovlini to‘ldirib uchib yurishibdi, ariqlarning labida ham o‘t-o‘lanlar ko‘karib chiqibdi, oppoq bodom esa, gullarga ko‘milgan shoxini ko‘z-ko‘zlab, darchadan onajonisi xonasiga „qo‘l“ cho‘zib turibdi... Bayramga bolaning ham sovg‘asi bor: u o‘nta „5“ olib qo‘yan!

Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan „Ninachi haqida ertak“, „Uch oltin g‘isht“, „Sirli qushlar“ nomli asarlari ham diqqatga sazovordir. „Ninachi haqida ertak“ xalqimiz orasida qadimdan mashhur bo‘lgan „Kim zo‘r“ degan afsonani eslatadi. Asar qahramoni — Ninachi. Qish kirib qolganini sezmagan uysiz-joysiz Ninachi qayga borishini bilmay, „xazon cho‘pni hassa qilgancha“ yo‘lda ketardi. Muz ustidan o‘tayotib, oyog‘i toyib ketadi va quyrug‘ini sindirib qo‘yadi. U bu falokatdan qattiq ozor chekadi va Muzga, sen zo‘r ekansan, deydi. Muz esa, men zo‘r emasman, agar zo‘r bo‘lsam, Quyosh eritib yuborarmidi, Quyosh zo‘r, deydi. Ninachi so‘ng Quyoshga, uni berkitolgan Bulutga, uning bag‘rini teshib o‘tgan Yomg‘irga, keyin yomg‘ir ipiga osilib yerga tushib, uni shimib olgan Yerga, yerni teshib chiqqan Maysaga, uni bosib keta olgan Otga va nihoyat uni minib olgan

Odamga keladi... Shoир adolat qidirib yurgan Ninachi sarguzashtini juda jonli va qiziqarli tasvirlaydi, o'qiganda tabiat manzaralari o'quvchi ko'z o'ngidan bir-bir o'tadi.

„Uch oltin g'isht“ afsonasini shoир o'z otasidan eshitgan. Voqeя juda qiziq va ibratli. Uch aka-uka — To'ng'ich, O'rtancha, Kenja uzoq safarga chiqishib uchta oltin g'isht topib oladilar. Har biriga bittadan g'isht to'g'ri keladi. Biroq nafs tuzog'iga tushgan To'ng'ich bilan O'rtancha fitna uyuştirib, Kenjani o'lдirmoqchi bo'ladilar va uni ovqat olib kelishga yuboradilar. Kenja ovqat olib kelib dasturxonga qo'yayotganda, boshiga g'isht bilan urib o'ldiradilar. Keyin xursand bo'lib, ovqat yeishiga tutinadilar. Va shu zahotiyoq til tortmay o'ladilar, chunki Kenja uchta g'ishtning hammasini o'ziga olmoqchi bo'lib, akalari ovqatiga pinhona zahar qo'shgan edi... Shoир bu afsonasida inoqlik, hamjihatlikni ulug'laydi, ochko'zlik, nafsga berilishni qoralaydi. Asarni o'qib chiqqan o'quvchi sadoqat-u ixlos yo'lini tutish, halol bo'lish kerakligi, ezgu ishlarda birlashish lozimligi, yomonlik qilish asil insonning ishi emasligini angelaydi, yaxshilikning umri uzun, yomonlikning esa davri qisqa, degan haqiqatning boqiyligini tushunib yetadi.

„Sirli qushlar“ shoirning hind xalq afsonalaridan ilhomlanib yozgan asaridir. Unda halollik, fidoyilik, chin insoniylik sifatlari ulug'lanadi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti sovrindori Muhammad Alining bolalarga atab yozgan she'r va afsonalari yosh kitobxonni ezgulik va yaxshilikka chorlaydi, ularni chin inson qilib tarbiyalashda, Vatanga sadoqatli bo'lishda xolisona xizmat qiladi.

### QO'ZICHOQ

Yashil o'tloq erkasi, sakray-sakray tinmaysan,  
Olamda ne gaplar bor, anglamaysan, bilmaysan...

Maysalarga egib bosh, kurt-kurt qilasan doim,  
Onang suyib yunglaring yalab qo'yar muloyim.

Napiroqda allakim seni kuzatar shu choq,  
Ko'zlarida nedir bor, yonida sovuq pichoq...

Senga boqib ko‘zları tinib ketsa ajabmas,  
Senga qadar pichog‘i sinib ketsa, ajabmas...

### HA-YU, CHITTIGUL

Akacham oy tomon boraman, deydi,  
Bulutlar ko‘ksini yoraman, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

Fazoda juda ko‘p sirlar bor, deydi.  
Chamanzor bo‘luvchi yerlar bor, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

Yulduzdan yulduzga o‘taman, deydi,  
Singiljon, yoningga qaytaman, deydi.  
Ha-yu, chittigul!  
Ha-yu, chittigul!

### UCH OLTIN G‘ISHT (*Otamning hikoyasi*)

Almisoqdan avvalmi  
Yo keyinmi, bir zamon,  
Farg‘onada yashardi  
Og‘a-ini — uch o‘g‘lon.  
To‘ng‘ichining yo‘q edi  
Bosh suqmagan ko‘chasi.  
Ul aytganni qilishar  
O‘rtanchasi, Kenjası.  
Chirsillar qish sovug‘i,  
O‘t gurillar o‘choqda...  
Barvasta To‘ng‘ich o‘g‘lon  
Tizzasini quchoqlab  
Ukalarga yuzlandi:  
„Gapim bordir sizlarga:  
Otamiz ham mol-dunyo  
Qoldirmadi bizlarga.  
Maslahat-da, yo‘l olsak  
Boshimiz oqqan tomon.

Peshonada nima bor —  
Yolg'iz O'ziga ayon.  
Qaratgan — qarab qolmas,  
Keng erur axir olam.  
Topsak — shukr, topmasak,  
Shukr deylik unga ham...“

Ul aytganni qilishar  
O'rtancha-yu Kenjası.  
Maslahat ham bo'ldi hal  
O'sha kuni kechasi.

Ko'p kezdilar dunyoni...  
Hammollik ham qolmadi.  
Bari bo'ldi va lekin,  
Lekin ular tolmadi.  
Nimanidir izlashar,  
Nimanidir. Kim bilsin?  
Mayli, hatto osmonning  
Ustunlari yiqilsin,  
Dunyoni-da olsin o't,  
Mayli bo'lsin qiyomat,  
Ishonardi uch o'g'lon,  
Bir kun kelar deb omad!

Yana safar, yana yo'l...  
Nainki bu yer behisht?  
Yotardi yo'l bo'yida  
Uch g'aroyib oltin g'isht!  
„Hazilingmi, xudo, bu?  
Aytaqol qilmay xunob!  
Ne bo'lsa ham ishqilib,  
O'ng bo'lsin-da, xobmas, xob!“  
Og'a-ini uch o'g'lon  
G'ishtlarni qo'ldan qo'y may,  
Goh siypalar, goh o'par,  
Termilar to'yib-to'y may:  
„Jilo berishin ko'ring!“  
„Hazil emas, sof oltin!“  
„Ko'zni olar muncha ham?“  
„Oltin, axir sof oltin!“

Xumdon kabi qizir kun,  
Havo cho'yanday og'ir.  
Salqin joyga chiqdilar;  
To'ng'ichi dedi oxir:  
„Xo'p ochqapti qorin ham,  
Ukalar, gap sirasi,  
Bu yer bilan shaharning  
Uzoq emas orasi.  
Kenjatoy, sen shaharga  
Tezdagina borib kel.  
Ma, pul! Shunga bir yemak,  
Ovqat-povqat olib kel!“

Pachoqqina Kenjaning  
O'chganida qorasi,  
To'ng'ich O'rtanchaga der:  
„Gapning o'g'il bolasi  
Shuki, shuncha yo'l bosdik,  
Topganimiz — uchta g'isht.  
Bu Kenjamiz bo'ldi-ku,  
Turgan-bitgani tashvish?  
U yosh bola, ne uchun  
U ham bir g'isht oladi?  
Lekin u-bu, desak-chi,  
Xo'p to'polon qiladi.  
Gap shu: bitta g'isht olib  
Paytni poylab turasan.  
Kenja ovqat qo'yganda  
Qoq miyaga urasan!..“

To'ng'ichining yo'q edi  
Bosh suqmagan ko'chasi.  
Ul aytganni qilishar  
O'rtanchasi, Kenjası.

Bir kosa osh ko'tarib  
Kenja kelib qoldi-ku.  
O'rtancha ham g'isht bilan  
Miyasiga soldi-ku!  
Til tortmasdan berdi jon

Kenjatoy o'sha asno.  
Oltin g'isht ham ikkiga  
Bo'lindi-ya, ajabo!  
Go'zal edi keng olam,  
Nurli edi bir yo'la.  
Akalar chehrasida  
Kezar tillavor shu'la...

Shosha-pisha yedilar  
Ovqatni aka-uka.  
Birdan ko'zлari tinib,  
Aylandi chikka-pukka!  
Tashnalikdan ezilar  
Dashtday qaqragan vujud.  
O't olganday yurakni  
Og'izdan chiqardi dud!  
Otash bo'lgan temirday  
Chirsillardi peshona...  
Faqat yumilmas ko'zlar —  
Tiriklikdan nishona.  
Kenjatoy ham uch g'ishtni  
Olgandi-ku nazarga.  
Shul niyatda ovqatga  
Solgan edi zahardan!..

To'ng'ich, O'rtancha — unda,  
Kenjatoy esa bunda,  
Do'ngrayishib yotardi,  
Yo'1 bo'yida, zabunda.  
Yo'1 uzra qolar yana,  
Yana kimgadir tashvish:  
Avvalgidek sehrgar,  
Endi to'rtta oltin g'isht...



## *Safo Ochil*

(1942 – 2009)



Safo Ochil 1942-yilda Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida tavallud topdi. Bog'ot tumanidagi Narimonov nomli maktabda ta'lif oldi. Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutining nemis tili fakultetini nemis, o'zbek tili va adabiyoti ixtisosи bo'yicha tamomlagan.

Safo Ochilning asli kasbi muallimlikdir. U uzoq yillar Xorazm davlat pedagogika institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri lavozimlarida mehnat qildi. Uzoq yillar „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyining O'zbek tili, adabiyoti va pedagogika adabiyotlari tahririyati mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Pedagogika fanlari doktori, professor Safo Ochil talaba-yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishga o'z hissasini qo'shdi.

Shoirning „Umidvor qushcha“, „Kamalak va sumalak“, „Aytsammi yo aytmasam“, „Burgut“, „Qalb gulshani“, „Muborak kunlar“, „Zamin sadolari“, „Orzular ko'kidagi shafaqlar“, „Inson ziynati odobdir“, „Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari“ nomli 20 dan ziyod kitoblari chop etilgan.

Safo Ochilning qo'shiqqa aylangan „Osmonimiz tiniq bo'lsin“, „Gullarim“ kabi she'rlari uzoq yillardan beri mamlakatimiz kichkintoylariga katta quvonch, shodlik ulashib kelmoqda. Pedagog-kuychingining „Gullarim“ she'ri rango-rang gullar to'g'risida. Gul hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Gul o'stirmoqchi bo'lgan har bir kishi, birinchidan, mehnatkash bo'lmog'i, ikkinchidan, gullarning nozikligini bilishi kerak. Mehnatga mahorat qo'shilsagina elning havasini keltiradigan, uning quvonchiga quvonch ulashadigan muattar hidli rang-barang gullarni o'stirish mumkin.

Safo Ochilning qahramoni o‘z ishidan, mehnatidan mammun. U peshana teri to‘kib, astoydil ishlagan. Shuning uchun u el havas qiladigan, hidlab-hidlab to‘ymaydigan, hatto „Bulbullarni sayratadigan“ gullarni yetishtirgan. Xo‘sish, mana bu jozibali misralarga singdirilgan bola mehnatidan kim faxrlanmaydi, deysiz.

Gul ekaman yer ochib,  
Gullarim, o, gullarim.  
Bo‘yi ketar tom oshib,  
Gulga to‘lar yo‘llarim.

Shamol silab tebratar,  
Hid taratar muattar.  
Bulbullarni sayratar,  
Gullarim, o, gullarim.

Qishlog‘imning jamoli,  
Bo‘y cho‘zadi niholi.  
Porloqdir istiqboli,  
Gullarim, o, gullarim.

Bu she’rni o‘qigan har bir o‘quvchi ko‘z oldida gulga burkangan qishloqlar, ko‘chalar, hovlilar namoyon bo‘ladi va u bolani gul ekishga ilhomlantiradi. Gul nafosat timsoli. Zero, nafosat tarbiyasi murg‘ak qalblarni yashnatadi va porloq istiqbolga umid tuyg‘ularini shakllantiradi.

Shoir biladiki, bolaning hayoti she’rsiz, kuysiz, qo‘shiqsiz o‘tmaydi. Kimki kuy, qo‘shiq tinglasa va o‘zi ham kuylasa, ko‘ngli toza, fikri teran, odobli, o‘qimishli, bilag‘on bo‘ladi. „Qo‘shiq aytaylik“ she’rida shoir kichkintoylarning kuylashga, qo‘shiq aytishga nechog‘lik ishtiyoqmandliklarini ochib beradi:

Keling, jo‘ralar,  
Qo‘shiq aytaylik,  
Orzu-o‘yimiz  
Qo‘shib aytaylik, —

kabi misralarda ezgu niyat va orzularga erishish g‘oyasi ilgari suriladi. So‘zlar sodda, xalqchil, lekin fikr samimi. Misralarga singdirilgan fikrlar bola ko‘nglida iftixor va rag‘bat tuyg‘ularini uyg‘otadi. Darhaqiqat, bolalarning orzu-umidlari, ezgu niyatlarini buyuk, ularga yetishish ishtiyoqi yanada yuksak. Shu sababli ular „Orzu-o‘yimiz Qo‘shib aytaylik“ deya baralla kuylaydi, dilidagi yashirin tuyg‘u, shirin va samimiy niyatlarini „Buloq kabi toshib aytaylik“ deb zavqlanadi.

Tabiatni sevish, jonivorlarni parvarish qilish g‘oyasi Safo Ochil ijodida bosh mavzulardan biri hisoblanadi. „Tush ko‘rgan bola“, „Suv“, „Ko‘klam qo‘shig‘i“, „Men, quyosh va qushlar“, „Qaysar bola“, „Ilon va tipratikan“ kabi she’rlari xuddi shu maqsadga qaratilgan. Bolalarning o‘yi, fazoviy xayolotini shoir tush misolida o‘ziga xos ifoda qilib beradi. Tush ko‘rgan bola qushlarga mehribon, g‘amxo‘r, shuningdek, ularni sevishga, parvarish qilishga, zarur bo‘lib qolsa, jarohatlangan parrandalarning yaralariga malham qo‘yib tuza-tishga va ularni erkin hayotga qaytarishga tayyor. Shoirning lirik qahramoni tushida qushchaga g‘amxo‘rlik, mehribonlik qildimi, uning jarohatiga malham qo‘ydimi, demak, u o‘ngida ham ona tabiatdagi jamiki parranda-yu darrandalarga ana shunday g‘amxo‘rlik qiladi, degan xulosaga keladi va o‘zining jippi kitobxonini qushni parvarish qilgan qahramondan ibrat olishga chaqiradi.

Shoir hayot va turmush voqe-a-hodisalarini, odamlar dilidagi turfa tuyg‘ularni bolalar tili vositasida ifodalashga harakat qiladi. Uning „Onam paxtakor“ she’ri shular jumlasidan. Bu she’r 1955-yilda yozilgan bo‘lib, unda onaning kecha-kunduz paxta dalalarida tinmay mehnat qilishi, lekin mehnat haqi olmasligi kabi ayanchli lavha tasvirlangan.

Ona „O‘tgan yil ko‘p paxta terdi. Davlat unga Nishon berdi“, biroq bola „Pul ber, — desa, Derlar, qoch-qoch, Bizlar esa Och, yalong‘och...“ deydi. She’r tili sodda, bola fikri samimiy va teran satrlar ruhiga katta ijtimoiy mazmun singdirilgan. Darhaqiqat, 50-yillarda paxtakor dehqonlar qul kabi ishlatilardi-yu, mehnat haqi berilmasdi. Xalqning turmush darajasi o‘ta past edi. Bunday she’rni yozishga o‘sha paytlarda hech kim jur‘at qilolmagan. Bular shoirning 50-yillarda ham dadil qalam tebratgani, o‘z fikrini rang-barang shakllarda she’rga ko‘chirganini ko‘rsatadi.

Hayotda o‘zgalarning ijobjiy tomonlaridan ibrat olib, ularga taqlid qilib yashash bolalarga xos odat-fazilat hisoblanadi. Shoir she’rlarining ko‘pchiligi bolaning xuddi shu ruhini ifoda etgan. „Kurashchan bola“ni olaylik. Shoirning ta’biricha, dardsiz, orzu-havassiz bola bo‘lmaydi. Agar bola oldinga intilsa, hayotda nom chiqarib, dong taratib, o‘tgan avlod-ajdodlarini har doim

yod aylab yursa, kam bo'lmaydi. She'r qahramoni juda qat'iyatli va bir so'zli. Bola biladiki, bobosi polvon o'tgan. Kurashda uning yelkasi yerga tegmagan. Ko'plab mashhur polvonlarni yiqitib, el-yurt o'rtasida shuhrat qozongan. Bola xuddi o'sha bobosi kabi polvon bo'lmoqchi, bobosi kabi el-yurtga tanilmoqchi. Bu ijobiy hol. Demak, bolada boboga o'xshab nom chiqarishga havas, intilish, talpinish bormi, u albatta, ajoyib inson bo'ladi, atrofsga o'ziga o'xshagan dili pok insonlarni to'playdi, el-yurt xizmatiga shay bo'lib kamol topadi. Zero, davrimiz, hayotimiz talabi ham shunday.

Olim va shoir Safo Ochil she'rlarida bolalarni ona tiliga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. To'g'ri, biz „qizil imperiya“ iskanjasida yashadik. Yurtimizda o'zbek tili ikkinchi tilga aylanib qoldi. Ollohga shukr, mustaqillikka erishdik. O'z tilimiz e'zozlanadigan zamonga yetishdik. Buni shoir yosh qahramon tilidan baralla kuylaydi.

Kunlar alla tingladim,  
Tunlar alla tingladim.  
O'zligimni angladim,  
O'zbek tilim o'z tilim.

Transport vositasi ko'paygan hozirgi paytda ko'chalardan o'tishda ehtiyyot bo'imaslik ko'p hollarda ko'ngilsiz voqealarga olib keladi. Shu sababli oilada, bog'chalarda, maktablarda yo'il qoidalarini bolalarga tushuntirish, o'rgatish ishlari qizg'in tus olmoqda.

„Svetofor“ she'ri bolalarning jon-dilidir. Bir necha yildirki, u bolalar ashula-raqs dastalarida, bog'cha va maktablar havaskorlik to'garaklarida, radio va televideniyada kuylanib kelinadi. O'zbek bolalar adapiyotida svetofor haqida juda ko'p asarlar yaratilgan. Lekin Safo Ochilning bu asari misralarining ravonligi, mazmundorligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. Bir o'qishdayoq har qanday bola uni qo'shiq qilib kuylab yuboradi:

Uch og'ayni botirmiz,  
Uch xil rangda nodirmiz.  
Qizil, yashil, sariqmiz,  
Kuch-qudratga qodirmiz.

Hamjihatmiz doim biz.  
Chorrahalar joyimiz.  
Vaqt bilan nur sochar,  
Uchta to'lin oyimiz.

Qizil yonsa, tek turing,  
Yashil yonsa, tez yuring,  
Sariq yonsa, ehtiyot  
Chorasini ham ko'ring.

Gapimiz shu sizlarga,  
Barcha o'g'il-qizlarga —  
Duch kelmaysiz xatarga,  
Qulq soling bizlarga.

Har qaysi shoirda bo'lganidek, Safo Ochil ijodida ham bola odobi masalasi yetakchi o'rin tutadi. Bola odobli, aqli-hushli bo'lsa, qanday yaxshi. Bunday fazilatga ega bo'lgan har qaysi bola ota-onaning, yurtning baxti hisoblanadi. Shoirning „Odobli bola“ she'rida hamma uchun zatur mavzu yoritiladi. She'r qahramonining o'zi odobli, aqli, farosatli, salom-alikni kanda qilmaydigan bola sisatida o'quvchida yaxshi taassurot qoldiradi. Bola qishda qorbobo yasaydi va aqli, hushli bo'lishni, salom-alikni kanda qilmaslikni uning qulog'iga quyadi. Bolaning orzusi yaxshi, tilagi zo'r.

Dunyoda ota-onan kabi mo'tabar zot yo'q. Kimki ota-onan xizmatini qilsa, duosini olsa, hech qachon kam bo'lmaydi. „Ota-onan duosi“ she'rida inson umr bo'yи ota-onaning xizmatini qilib, duosini olib yashasa, umrga umr, baxtga baxt qo'shuvchi bir cho'qqiga chiqishini shoir to'lib-toshib kuylaydi.

Xalqimizda „Ertaklar — yaxshilikka yetaklar“, degan hikmat bor. Bu bejiz aytilmagan. Odadta, ertak tinglamaydigan, ertakning kuch-qudratidan zavq-shavq olmaydigan bola bo'lmasa kerak. Negaki, ertak tufayli bola dunyoni aqli bilangina emas, qalbi bilan ham his etishga o'rganadi. Shu bilan birga, tashqi dunyo voqeа va hodisalariga ham javob topa oladi, yaxshilik va yomonlikka nisbatan o'z munosabatini ifodalaydi. G'oyaviy tarbiyaning dastlabki bosqichi ham ertak orqali amalga oshiriladi. Ha, ertakning tarbiaviy jihatlari Safo Ochilning „Nodir pahlavon“, „Qaldirg'och va beshiktervar haqida ertak“, „Temirchi bobo va boyo'g'li“ kabi ertak va dostonlarida yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Jamiki she'rlarida bolalarni a'lo o'qishga, mehnatkash bo'lishga, tabiatni sevishga, ona-Vatanga munosib o'rinnbosarlar bo'lib ulg'ayishga undaydi. Zotan, davr, zamon talabi ham shunday. Barkamol avlod qanchalik sog'lom, yorqin fikrli bo'lsa, bu ona-Vatan boyligidir.

Olim va shoir Safo Ochilning bolalarga bag'ishlangan she'riyati mavzu jihatdan rang-barang, janrlar turli-tuman. Ayniqsa, u Vatan, muqaddas zamin, poklik va halollik,adolat

va haqiqat, mehr-shavqat tuyg‘ularini, tabiat manzaralarini she‘r, qo‘sish, ertak va dostonlarida bolalarga xos til orqali jozibali tasvirlaydi.

## NODIR PAHLAVON

### 1

Nodir pahlavon,  
Botir pahlavon.  
Uyqusirardi,  
Mushtin tugardi...  
— Dada, dadajon,  
O’tmasin bir on.  
Ruxsat bersangiz,  
Kuchim ko‘ringiz.  
Ho‘, tog‘ ustida,  
Yurtning qasdida,  
Bir dev turibdi,  
Uy ham quribdi.  
Juda zo‘r emish,  
Odamxo‘r emish.  
O‘zi ko‘p ulkan,  
Qora dev ekan.  
Mo‘ylovi shopday,  
Og‘zi naq qopday,  
Ko‘zi mayoqday,  
Tuki tayoqday.  
Hamla qilsin-chi,  
Yo‘qolib tinchi.  
Qani, ko‘raman,  
Qilich uraman.  
Dada, dadajon,  
O’tmasin bir on.  
Ruxsat bersangiz,  
Kuchim ko‘ringiz! —  
Olganday javob,  
Kerishdi shu tob.

### 2

Dilda muddao,  
El uchun go‘yo

Jang qilmoqchi u,  
Tang qilmoqchi u,  
Devning o‘zini,  
O‘yib ko‘zini.  
Murg‘ak dildagi,  
Murg‘ak beldagi,  
Buyuk g‘ayrat bu,  
Suyuk g‘ayrat bu.

### 3

Ishga tutinib,  
Duldulni minib,  
G‘ayrati oshdi,  
Daryoday toshdi.  
Mag‘rur judayam,  
Mingta devni ham  
Pisand qilmasdan,  
Qo‘rqinch bilmasdan,  
Boradi uchib,  
Umidin quchib,  
(Umidki, omon —  
Devga ko‘p yomon)  
Bog‘lab u qanot,  
Belbog‘i po‘lat,  
Chaqnaydi ko‘zi,  
Belida gurzi.  
Qo‘lida qilich,  
Yuragida o‘ch,  
Ko‘zlari chaqin,  
Ishonchi yolqin!

### 4

Devmisan, dev-da,  
Qoyaday gavda.

Ikki shoxi bor,  
Dahshatli jondor.  
Yelkasida bir,  
Kokili qo'ng'ir,  
U nafas olsa  
Yoki yo'talsa,  
Titrar hamma yoq,  
Momaqaldiroq  
Gurlagan kabi,  
Turar asabiy.  
Og'zi o't purkar,  
Daraxtlar yonar  
Uning o'tidan.  
Hech kim u bilan,  
Olisha bilmas,  
Teng kela olmas.

Yurtning boshida,  
Dahshatli juda,  
Shunday u maxluq —  
G'am, alam, qayg'u.

## 5

Bola tez yelib,  
Devga duch kelib,  
To'lq'ab gurzini,  
Aytdi so'zini:  
— Hoy, yurtga ofat,  
Yovuz kasofat,  
Qon emar so'na,  
Bu yerdan jo'na!  
Ayni zahoti  
Nodirning oti  
Gijinglab birdan,  
Uchay deb qirdan,  
Qora dev shu on,  
Ko'tarib suron,  
O't sochdi lov-lov,  
Tutun va olov,  
Yer bilan ko'kni,

Hatto maxluqni,  
Ko'rsatmay qo'ydi.  
Achchiq dud tuydi,  
Nodir bir fursat,  
Mayli, kuch ko'rsat,  
Yana va yana  
Qilgum tantana,  
Baribir o'zim,  
Shu qat'iy so'zim.

## 6

Nodir pahlavon,  
Botir pahlavon,  
O'zin kam ko'rmay,  
Aslo tinch turmay,  
Dev tomon uchib,  
Tog'dayin ko'chib,  
Dudni yo'qotdi,  
Gurzisin otdi  
Devning boshiga,  
Borib qoshiga,  
Dev gangigan choq,  
Qilib u ilmoq,  
Bitsin deb kuning,  
Bo'yniga uning,  
Kamarin soldi,  
Bo'g'moqchi bo'ldi.

Dev ham bo'sh kelmay,  
Hech pisand qilmay,  
Kamarni darhol,  
Jo'n va bemalol,  
Otdi parchalab,  
So'ngra jangtalab,  
Qora dev yana,  
Minorday tana,  
Ko'tarib qo'lin,  
To'sdi g'or yo'lin.  
Kuchimni ko'r deb,  
Manglayi sho'r deb,

O‘rnidan jildi,  
 Toshni qum qildi!  
 O‘z ko‘nglin xushlab,  
 Xarsangni ushlab,  
 Otdi Nodirga  
 Otdi botirga,  
 Biroq pahlavon,  
 Chap berib shu on,  
 To‘g‘rilab boshni,  
 Otilgan toshni,  
 Oldi quchoqlab,  
 Dev dilin dog‘lab  
 Va unga otdi,  
 Asta qulatdi.  
 Yiqildi battol,  
 Yiqildi behol.  
 Payt keldi endi,  
 Duldul ham qo‘ndi.  
 Yerga burgutdek,

Nodir turmay tek,  
 Otni tezlatib,  
 Devni ko‘zlatib,  
 Qilichin urdi,  
 Dev gangib turdi,  
 Takror-u takror,  
 Qayg‘urmay ming bor,  
 Qilichin solib  
 Dedi: — Men g‘olib!  
 Baqirdi nega?  
 O‘z tovushiga,  
 O‘zi uyg‘ondi.  
 O‘yga cho‘lg‘andi...  
 O‘ylari shirin,  
 Dilda yashirin,  
 Hansirar edi,  
 O‘zicha dedi:  
 — Kuchga to‘laman,  
 Botir bo‘laman!

## KUNGABOQAR

Kungaboqar muloyimdir,  
 Uyati bor,  
 O‘ziga xos qiziq, ajib  
 Odati bor —  
 Tunda yerga, kunduz esa  
 Kunga boqar.  
 Shu boisdan yer-u kunga  
 Birday yoqar.  
 Qorni to‘ygach, „yig‘ib olar“  
 U esini.  
 Quyoshga ham ko‘rsatadi  
 Yelkasini.

## HALOL YUR

Amakimning do‘sti bor,  
 O‘zi katta mansabdor.  
 Jindek maqtashsa agar,  
 O‘zin sezar baxtiyor.

Men ham bir kun maqtasam,  
Erkalay ketdi meni.  
Maqtovimga shirsaqich  
Undirdim o'sha kuni.

Mumday eriydi ko'ngli,  
Xullas, topildi yo'li:  
Katta bo'lganda maqtab,  
Undiraman „Jiguli“

Deb yurgan edim, akam  
Meni koyib berdilar:  
— Rohatini ko'radi  
Har kimki mehnat qilar!

Qiliq qilma yasama,  
O'z kuningni o'zing ko'r!  
Tilyog'lama bo'limagin,  
Och qolsang ham halol yur!

### **OXIRGI SO'ZLAR**

Sarg'aygan barglar  
Yerga to'kildi.  
Go'zal chiroyi  
Zum o'tmay so'ldi.

Kimdir yoqipti —  
Barglar jizillar,  
Yonib chiqmoqda  
Oxirgi so'zlar...

### **YARADOR QUSHCHA**

#### **1**

— Oyi, oyi, oyijon,  
Bugun qiziq tush ko'rdim.  
Birdan chiqazib qanot,  
Osmonda uchib yurdim.

Xuddi shu hozirgidek,  
Qo'llarim ham bor emish.  
Bir qushchani otdilar,  
Shunda qo'llar berdi ish.

Ushlab qolib qushchani,  
Uyasiga yotqizdim.  
Yaralarini bog'lab,  
Tongni birga otqizdim.

Chiyillardi bechora,  
Yotar edi tovlanib.  
Yig'lab-yig'lab oxiri,  
Mana, qoldim uyg'onib.

Tushdagidek ne uchun,  
Uchib yura olmayman?  
Yarador qushchamni men  
Nahot ko'ra olmayman?

## 2

O'yinqaroq bir bola,  
Qoshi baroq bir bola,  
Sopqonidan otib tosh,  
Qush ko'zidan to'kdi yosh.

Qulab tushdi qushchajon,  
Tipirchilar chalajon.  
Armon qilar qushchajon,  
Shafqat kutar qushchajon.

Olib qochdim mushukdan,  
In tuzatdim yashikdan.  
Yarasini boyladim,  
Xavfsiz inga joyladim.

Don-dun berdim har kuni,  
Holin so'rdim har kuni.  
Tuzalgach asta-asta,  
Zerikdi u qafasda.

Qolgan kabi armonda,  
Uchsam derdi osmonda.  
Uni yaxshi ko'rardim,  
Darrov qo'yib yubordim.

## KO'KLAM QO'SHIG'I


Momaqaldoiroq Arava qo'shib, Tog'lar ustidan Kelmoqda tushib.	Giyohlar bilan Bo'lmoqqa sirdosh, Bulut ortidan Entikar quyosh.
Olam yarqirar, Yo'qdir qiyosi. Jaranglab ketdi Yomg'irning sasi.	Shamol uyg'onib, Yela boshladi. Maysalarni u Silay boshladi.
Yomg'ir yog'moqda Shitir-shitirlab, Ko'klam qo'shig'in Aytar shivirlab.	Haydab ketmoqda Bulutni shamol. Maysa va quyosh Ko'rishar visol.

\* \* \*

Havas bilan bolalar,  
O'ynashardi voleybol.  
„Tap-tup“ etib bitta to'p  
O'tar edi qo'lma-qo'l.

Yorilar, yirtilar u,  
Bunisi ma'lum bizga.  
Biroq uning ahvoli,  
Tushmasin boshimizga!..





## *Anvar Obidjon*

(1947- yilda tug'ilgan)



O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida 1947- yilning 8-yanvarida tug'ilgan. Uning shoirlik faoliyati maktab davridanoq boshlangan. 6- sinfdaligidayoq „G'uncha“ jurnalida uning „Shkafcham“ nomli birinchi she'ri chop etiladi. Shoир ijodining asosiy qismi kichkintoylarga bag'ishlangan. Ketma-ket e'lon qilingan „Siz eshitmagan qo'shiqlar“, „Dalalardan bolalarga“, „Botirvoyning kundaligi“, „G'alati maktublar“, „Ignalarim chirolyi“ singari turkumlarga jamlangan hamda turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar olamini yosh kitobxonga sirdosh etib, ularda tabiatga mehr uyg'otuvchi, ohang va uslub jihatdan juda o'ziga xos, ham kulgi, ham falsafaga boy she'rlari o'zbek bolalar she'riyatida yangi bir oqimni shakllantira bordi. „Bulbulning cho'pchaklari“ turkumi esa bolalar adabiyotiga g'azal janrini olib kirdi. Anvar Obidjonning qissa va hikoyalari, asosan, yumorga yo'g'rilgan bo'lsa-da, o'z zamonasi dardlarini bolajonlarga sodda va ta'sirchan ifodalar orqali yetkazib bera olishi bilan e'tiborga loyiqidir.

Adibning kattalarga atalgan asarlari orasida „Ketmagil“, „Alamazon va Gulmat“, „Oltiariq hangomalari“ kitoblari alohida tilga tushgan. U milliy hajvchilikda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad yanglig' kulgi ustalari an'analarining ko'zga ko'ringan davomchisidir.

Anvar Obidjon „Ona Yer“ (1974, she'rlar), „Bahromning hikoyalari“ (1980, she'rlar), „Ey, yorug' dunyo“ (1983, qissa), „Olovjon va uning do'stlari“ (1983, qissa, hikoyalalar), „Аламазон и его пехота“ (1984, qissa, hikoyalalar), „Ketmagil“ (1985, she'rlar), „Bezgakshamol“ (1985, hajviy she'rlar),

„Masxaraboz bola“ (1986, she’rlar), „Akang qarag‘ay Gulmat“ (1987, qissa, hajvlar, she’rlar), „Juda qiziq voqea“ (1987, she’rlar), „Oltin yurakli Avtobola“ (1988, qissa, hikoyalari), „Dahshatli Meshpolvon“ (1989, qissa, pyesalar), „Yerliklar“ (1990, hajviyalar, she’rlar), „Alamazon va Gulmat hangomas“ (1992, qissalar, pyesa, she’rlar), „Ajoyibxona“ (1993, she’riy taqvim), „Meshpolvonning janglari“ (1994, qissa, doston), „Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri“ (1996, she’rlar, doston), „Oltiariq hangomalari“ (1999, hangoma, hajvlar), „Bulbulning cho‘pchaklari“ (2001, she’rlar, hikoyalari), „Odobli bo‘lish osonmi?“, (2001, hikoya) „O‘q o’tmas bolakay“ (2005, qissa, hikoyalari), „O‘g‘irlangan pahlavon“ (2006, hikoya) kabi to‘plamlari nashr etilgan.

Respublika Yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg‘ona, Qarshi, Qo‘qon, Guliston teatrlarida Anvar Obidjonning „Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi“, „Pahlavonning o‘g‘irlanishi“, „Top-sang — hay-hay“, „Qorin botir“, „To‘tiqush“, „Alamazon“, „Navro‘z va Boychechak“ pyesalari sahnalashtirilgan. Uning sa‘y-harakati bilan „O‘zbekfilm“ kinostudiyasida bolalarga atalgan „Tilsimoy — g‘aroyib qizaloq“, „Dahshatli Meshpolvon“ komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she’rlariga o‘nlab qo‘shiqlar bastalangan.

## VATAN

— Senga bitta savol bor,  
Menga quloq sol, hoy, qush.  
Vayronada yashaysan,  
Noming esa naq Boyqush.  
Ayt-chi, nahot sen boysan?

— Asl boylik neligin  
Tushunmaysan, chamsasi.  
Bu — vayrona bo‘lsa ham,  
O‘zimniki hammasi.  
Shuning uchun men boyman!

## HANDALAK

Handalakman polizda,  
Lekin qandman og‘izda.

Yayrab o'sdim dalada,  
Ostob chiqsa, yalla-da.  
Suv kelmasa tomirga,  
Yalinaman yomg'irga.  
Mening faxrim shiramdir,  
Qovun katta enamdir.

### TURP

Menga tekkan choq og'zing,  
Tiniq bo'lar ovozing.  
So'ng ochilar ishtahang,  
Bo'pketmasang, bas, nahang.  
Po'stim yaproq rangida,  
Qishning sovuq tongidan —  
Simiraman yorug'lilik...  
O'zim —  
Oltiariqlik.

### OLMAZORGA HUJUM

Piyodalar to'plandi,  
Kamonchalar o'qlandi,  
Shaydir yog'och miltiqlar.

Qorinlarni qashlaymiz,  
Olg'a yurish boshlaymiz,  
Ikki yonda „otliqlar“.

Bog'ni qo'qqis bosamiz,  
Olma yeymiz rosa biz,  
Baqirishib, chinqirab.

Kelib qolsa qorovul,  
Hushtak chalar Matqovul,  
Chekinamiz tirqirab.

### QAHRATONDA

G'or ichida  
Och-nahor  
Barmoqlarin so'rishib,

O‘tirishar bo‘rilar  
Televizor ko‘rishib.

Paydo bo‘lgach ekranda  
O‘tlab yurgan qo‘y-qo‘zi,  
Birdan hamma yirtqichning  
O‘ynab ketdi och ko‘zi.

Tish qayrashib  
So‘ng ular,  
Ur-yiqitni boshlashdi.  
Televizor sho‘rlikni  
Paqqos g‘ajib tashlashdi.

### BULBULNING SALOMNOMALARI

Qo‘rqoqlarning qo‘rqog‘i — g‘ilay Quyonga salom,  
Yo‘qdir yaqin o‘rtog‘i, sho‘rlik Chayonga salom.

Shoxdan shoxga yugurgan, dumida uy supurgan,  
Yong‘oq chaqib tupurgan, sho‘x Olmaxonga salom.

Arg‘amchidek buralar, yantoqlarga o‘ralar,  
Qo‘ng‘iz o‘tsa mo‘ralar, bo‘g‘ma Ilonga salom.

Ho‘kizlarni yiqitgan, Bo‘rilarni qo‘rqitgan,  
Bor jonzotni hurkitgan, shoh Arslonga salom.

Xachirvoyning qondoshi, Bug‘udan zo‘r bardoshi,  
Kamroq bo‘lsa ham oshi, erkin Qulonga salom.

Uxlar Ayiqdek „pish-pish“, Fil singari pichoqtish,  
Birovga bermas yemish, xasis Qobonga salom.

Nafsi Kaklik tilagan, Tulkichani quvlagan,  
Asta mo‘ylov silagan pismiq Sirtlonga salom.

Meshkay qorni qovoqdir, burni tappak tovoqdir,  
Begemotdek lavoqdir, go‘l Karkidonga salom.

Tovus misol kelishgan, Laylak kabi kerishgan,  
Zarang daraxtni teshgan Qizilishtonga salom.

Chidab sovuq-ushukka, insof tilab Mushukka,  
Nonni sudrar teshikka, olg'ir Sichqonga salom.

Tuyaqush uchun ushoq, Sinchalakka dev biroq,  
O'g'ri-yu ko'zi o'ynoq, sur Zag'izg'onga salom.

Toshbaqa-yu Laqqaga, Pingvin — ko'zi soqqaga,  
Ashulachi Baqaga, shilliq Marjonga salom.

Tun-u kun yer qazigan, zaxda yotib ozigan,  
Ko'p tirishib, oz yegan, go'sxo'r Yumronga salom.

Ign-a-bigiz sotuvchi, Jayraga qon tortuvchi,  
O'lja poylab yotuvchi Tipratikonga salom.

Burgutdek rizq izlagan, Boyo'g'lidek bo'zlagan,  
Raqibini tuzlagan botir Tarlonga salom.

Jirafa-yu Bo'taloq, Zebra, Maymun, Ot, Uloq,  
To'q Yo'lbars-u och Timsoh, ayyor Qoplonga salom.

Bulbul kabi izillar, tog'-toshlarda g'izillar,  
Yirtqichlardan bezillar, do'stim Jayronga salom.

### CHIRMANDA QO'SHIG'I

Yum-yumaloq qosqonim,	Menga tushar shapaloq,
Bak-baka-bum.	Bak-baka-bum.
Bo'ynimda mis marjonim,	Siz otasiz shataloq,
Bak-baka-bum.	Bak-baka-bum.

### KARNAY QO'SHIG'I

Tomga chiqib baqiraman,	Eshitgan payt tovushimni,
Vaxax-xa.	Vaxax-xa.
Seni to'yga chaqiraman,	Darrov kiygin kovushingni,
Vaxax-xa.	Vaxax-xa.

### XO'TIKNING TARJIMAYI HOLI

Yo'rg'a hamda baqiroq  
Eshakovoya o'g'ilman.

Hali yoshman,  
Gohida —  
Sho‘xlik qilsam, bo‘g‘ilmang.

O‘sdim qaqshab-qaltirab,  
Tug‘ilganman ayoza.  
Maysalarga yumalab  
O‘ynab olay bir yozda.

Toqat qiling, odamlar,  
Ulg‘ayayin sog‘-bardam.  
Siz otamni mingansiz,  
Minasiz-da meni ham.

### KALISHNING BOTINKAGA YOZGAN XATI

Boshlandi-yu loychaydi,  
Tashvishlarim ko‘paydi.  
Tugamaydi hech ishim,  
Qurimaydi tash-ichim.  
Tishlarimning sog‘i kam,  
Qashqa bo‘ldi burnim ham,  
Cho‘gal teshdi tagimni...  
Qisqa qilay gapimni,  
Shoshilyapman,  
Bormish to‘y.  
Mendan salom aytib qo‘y:  
Ko‘n etikboy dadangga,  
Satang Xirom akangga,  
Dono Chorig‘ bobongga,  
Suluv Shippak opangga,  
Cho‘tir Kerza tog‘angga,  
Amirkoni xolangga,  
Mahsibibi oyingga  
Va ikkinchi poyingga.

### BOG‘CHADAGI SEVGI

Bog‘chamizda bir qiz bordir,  
Menga parvon etmasa-etmas.  
„Alisbe“ni bilmas hali,  
Ishqiy xatlar bitmasa-bitmas,

Oydek o'zi, ismi Oydin,  
Boshga balo bo'ldi qaydin?  
Uyga ketar mendan oldin,  
Birpasgina kutmasa-kutmas.

Yig'lar sochin tortib ko'rsam,  
Qandchoyimni ichmas bersam,  
Sevmas jinday sevgin desam,  
Unga gapim o'tmasa-o'tmas.

Tunlar eslab qolgan chog'im,  
Sutli oshdek qaynar ohim,  
Mayli, ko'nglimdag'i dog'im  
Cho'milsam ham ketmasa-ketmas.

Bunday go'zal zamona yo'q,  
Uyimizdek koshona yo'q,  
Oyimdan zo'r qaynona yo'q,  
Eh, qadrimga yetmasa-yetmas!

### OBBO KALAMUSH-EY!

Kalamushvoy,	Yoz desalar
Kalamush.	„Temir“ deb,
Savoding sal	Sen yozibsan
Chalamish.	„Kemir!“ deb.

### BAHONACHILAR KASALXONASI

Do'xtir Quyon sertashvish,  
Hamshira g'ozlar notinch.  
Kasalxona to'satdan  
Bo'lib ketdi tiqilinch.

Bo'ri keldi inqillab,  
Chivin chaqib oldi deb.  
Ayiq yotar,  
Olmaxon —  
Yong'oq bilan soldi deb.

Echki der:  
— O, do'xtirjon,

Bo‘l uvali-juvali.  
Panjasini ko‘zimga  
Tiqib oldi Chumoli.

Qo‘ng‘iz mayib qilganmish  
Bosib Itning oyog‘in.  
Sichqon esa cho‘zganmish  
Xachirvoyning qulog‘in.

Yig‘lamsirab keldi Sher  
Tepdi deb qo‘rs Suvarak.  
Otning boshin yorganmish  
Shoxdan tushgan duvarak.

Karavotda o‘tirar  
Ho‘kiz cho‘mib sukutga.  
Bechorani sababsiz  
Kaltaklabdi Chigirtka.


Og‘ir yotar, ayniqla,  
Karkidon degan nusxa.  
Bexos tishlab olganmish  
Uni yirtqich Qumursqa.

Alovida xonada  
Arslon uxlар shohona.  
...Ishlar faqat go‘l Eshak  
Topolmasdan bahona.

### KAMTARIN

Xunuk Laycha bor edi,  
Kaltatumshuq — puchuqcha.  
Akillardи unga ko‘p  
Chiroyli oq Kuchukcha.

Jim o‘tardi Laychavoy  
Xafa bo‘lmay kichikdan.  
Eslik edi u ancha  
Chiroyli oq Kuchukdan.



## *Hamza Imonberdiyev*

(1954 — 1997)



Hamza Imonberdiyev umrining chorak asrdan ziyyodrog‘ini o‘zbek bolalar adabiyotini, xususan, she’riyatini rivojlan-tirishga, uni yangi pog‘onalarga olib chiqishga baxshida etgan sertuyg‘u shoirlarimizdan biri edi.

Hamza Imonberdiyev nafaqat yaxshi shoир, shu bilan birga o‘z ishining, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mohir noshir, zukko, bilimdon muharrir ham edi.

Hamza Imonberdiyev 1954-yil 21-dekabrda Qozog‘iston respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli So‘zoq qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. O‘rta maktabni a’lo baholar bilan tamomlagach, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o‘qishga kirib, uni imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Shoир uzoq yillar „Tong yulduzi“ gazetasining adabiyot bo‘limini boshqardi, 1986-yilda tashkil topgan „Cho‘lpon“ bolalar nashriyotida o‘sha yildan umrining so‘nggi damlarigacha muharrir vazifasida xizmat qildi.

Hamza Imonberdiyev baxтиyor oilasi quchog‘ida, qadrdon do‘stlari, ustoz-u shogirdlari davrasida, sevimli jamoasida yashab, ijod qilib, ishlagan baxтиyor shoirlardandir. Uning turli yillarda chop etilgan „Quvnoqlar quvonchi“, „Shokolad-xo‘rlar“, „Kulgi shaharchasi“, „G‘aroyib pufak“, „Oydagi tomosha“, „Qutichada mitticha“, „Lofchilar — aldoqchilar“, „G‘aroyibkent hangomalari“ singari qator she’riy va nasriy kitoblari bolalarning tiliga tushib, qalblaridan mustahkam joy olgan.

Mehrni mo‘jiza, samimiyatni saodat, halollikni umr mazmuni deb bilgan Hamza Imonberdiyev deyarli har bir she’rida o‘quvchilarni to‘g‘riso‘zlik va to‘g‘rilikka, tabiatni, daraxtlar-u jonivorlarni asrab-avaylashga, sevishga undadi.

Hamza Imonberdiyev she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning g'oyatda samimiy, badiiy pishiq-puxta yozilganligidir. Shoirning 1998-yili (vafotidan bir yil o'tgandan so'ng) „Cho'lpon“ nashriyoti tomonidan nashr etilgan „Bir kunlik mo'jiza“ nomli saylanma kitobiga kirgan asarlari fikrimizga yorqin misol bo'la oladi.

Shoirning quvnoq, beg'ubor xandaga yo'g'rilgan va ayni zamonda ozginagina mahzun ruhdagi ixcham doston va ertaklarini o'qib, bolakaylarning yurak dukurlarini eshitganday, olis bolaligingizni ko'rganday, tovushini eshitganday bo'lasiz. Shoirning satrlarga jo bo'lgan fikrlari, qarashlari, mulohazalari qalbingizni hayajonga solibgina qolmay, ko'ng-lingiz osmonini daf'atan charog'on aylab yuboradi.

„Osonmas kurashmoq haqiqat uchun!“ deydi uning qahramonlaridan biri. Darhaqiqat, nafaqat haqiqat uchun kurashmoq, avvalo qutlug', rost so'zni aytmoq, unga yetmoq ham nihoyatda mashaqqatli, mushkul mehnatdir.

Hamza Imonberdiyev ana shunday og'ir va zahmatli vazifani uddalay olgan, o'zining mo'jizalarga boy she'rlari bilan XX asr o'zbek bolalar adabiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan ijodkordir.

## KIRPITIKAN

Barglar chirt-chirt uzilib  
Sho'ng'ib ketar har yonga.  
O'xshar go'yo mushukdan  
Qochgan sariq sichqonga.  
Barcha qush va jonzotlar  
Qish g'amida ushbu choq.  
Olmaxon yong'oq g'amilar,  
Pana joy izlar maymoq.  
Yashar faqat bir kirpi  
Boshqa bir tashvish bilan.  
Tinmay izg'ir qaygadir,  
Band qandaydir ish bilan.  
Qiziqsinib bir kuni  
Baqa to'xtatdi uni.  
Dedi: — Hoy, kirpitikan,  
Javob bergil so'roqqa,

Har kuni leykang bilan  
Shoshilasan qayoqqa?  
— E, qo'shni, bu sayyoohlar  
Rosayam tegdi jonga.  
Ermakka gulxan yoqib,  
Xavf solishar o'rmonga.  
Shunga bo'lib ko'z-qulqoq  
Yuribman kun kechirib —  
Ular yoqib ketishgan  
Gulxanlarni o'chirib...

### BIR SO'Z

Men Loladan xafaman,  
Boshqa o'rtoq topaman.  
— Shaddod, — degan so'zimga,  
Qarab turib ko'zimga,  
Dedi qasddan:  
— Bilvol, san  
Badbashara,  
Xumboshsan!  
Shunchalik aybim ko'pmi?  
O'zida-chi, ayb yo'qmi?  
Bo'ldi, undan xafaman,  
Boshqa o'rtoq topaman.  
Neki bersa oyimiz  
Bo'lib yerdik doim biz.  
Ranjitsa uni birov,  
O'ch olar edim darrov,  
Uni do'stim degandim,  
U deb kaltak yegandim.  
U bo'lsa bitta so'zga,  
Qaramay yuz-u ko'zga  
Shuncha gapni to'qidi,  
Bitta do'stim yo'q endi...  
Men Loladan xafaman,  
Boshqa o'rtoq topaman.

### URISHQOQLAR

Qo'lda yog'och — avtomat,  
„Urush-urush“ o'ynaymiz.

Kalishlar — granata  
Bir-birimiz poylaymiz.  
Goh ko'krakka uramiz:  
— Dushmanga yer yo'q, — deb.  
Goh yuztuban qulaymiz  
Naq yurakdan „o'q“ yeb.  
Ba'zida chinqiramiz:  
— Paq-puq, otdim, yiqil, — deb.  
Dushman tan olmas: — O'qing  
Qiyshiq ketdi, — nuqlu deb.  
Hamma bola o'yinda  
„Jang“ qiziydi tobora,  
Faqat Nodir raketa  
Yasash bilan ovora.  
— Urishqoqlar ichida  
Yashab netaman, — der u.  
— Olis sayyor alarga  
Uchib ketaman, — der u.  
Buni eshitib bizlar  
Darrov uni o'raymiz.  
— O'zing bilan bizni ham  
Ola ket, — deb so'raymiz.  
Rozi bo'lar do'stimiz:  
— Chiqinglar, — deb imlaydi.  
— Biz kashf etgan sayyora  
Urush nima bilmaydi!

### VAQTNING HAJMI QANCHА?

O'ylab ko'rsam, vaqt degan  
Rezinali to'rxalta.  
Neki tiqsang ichiga  
Sig'vevarar, zo'r xalta.  
Masalan, bir soatda  
Nimalar qilish mumkin?  
Kitob, gazeta o'qish,  
Samokat minish mumkin.  
Do'sting bilan urishib,  
Mumkin hatto yarashish.

Tort yeayotgan ukangga  
„Yordamlashish“, „qarashish“,  
Alg‘ov-dalg‘ov qilib so‘ng  
Mumkin yig‘ish uy ichin.  
Ko‘chirish mumkin hatto  
Telefonda uy ishin.  
Ha, shularning bariga  
Bir soatgina darkor.  
Bir kunda bu soatdan  
Yana, eh, qanchasi bor.  
Harakat zo‘r bo‘lsa, vaqt  
Rezinali to‘rxalta.  
Neki tiqsang ichiga  
Sig‘averar zo‘r xalta!

### NIMA BO‘LDI, ARCHAJON?

— Sovuq qotib qolibdi,  
Kim soldi bunday ko‘yga?  
Deb mehr-la kesishib  
Eltdilar issiq uyg‘a.  
Ana u uy to‘rida  
Liboslari yaltirar.  
Biroq nechun o‘yinchoq.  
Tutgan qo‘li qaltirar?!

### OLAMOSHIM

Tokchadagi qaymoqdan  
Ko‘tarmay sira boshin,  
Ichayapti qarasam,  
Uyalmay Olamoshim.  
Avvaliga „pisht“ deb bir  
Quvmoq bo‘ldim-u biroq,  
Rahmim kelib negadir  
Tikilib qoldim uzoq.  
Quloqlarin chimirib  
Ichar edi bir mayin.  
Beparvoligim sabab  
Qorni ochgani tayin.

Oyoq uchida asta  
Chiqib ketdim hovliga —  
Bir gal qaymoq yemasam  
Yemabman-da, mayliga.

### QO‘POLLIK

Afsus, qo‘pollik qildim,  
Akam urdi do‘q.  
— Bor, ko‘zimga ko‘rinma,  
Hech keraging yo‘q!  
— Bilmay qoldim, ishoning,  
Aka, so‘zimga.  
— Bas, dedim, bas, ko‘rinma  
Endi ko‘zimga.  
O‘tib ketdi bunday so‘z  
Jon-u tanimdan.  
Ko‘zlarimga to‘lib yosh  
Ketdim yonidan.  
Ko‘rinmayman ko‘ziga  
Bo‘pti, ketaman.  
Yolg‘iz akam toshmehr,  
Bunda netaman?!

Ha, ketaman bir o‘zim,  
Bosh oqsa qayga.  
Balki sharga osilib  
Uchaman oyga.  
Balki minib Qirko‘kni  
Jangga kiraman.  
Yog‘och qilichim sermab  
Yovni qiraman.  
Dushman bilan solishib  
O‘larman oxir.  
Nima qila olardim  
Akamsiz axir.  
Kelib qabrim boshiga  
Akam bosh egar.  
Kechir meni, uka, deb  
Balki yosh to‘kar.

Hech kim nobud bo‘lмаган  
Менинг ўшымда...  
— Ука!  
Boqsam turardi  
Акам башымда.  
Xayollarim har yoqqa  
Sochilib ketdi.  
Xufston dilim charaqlab  
Ochilib ketdi.  
Akam bo‘lsa yonimda  
Quvnab ketaman.  
Shunday akam turganda  
О‘lib netaman?!

### QISH TONGIDA

Erta tursam hovuzga  
Birov oyna solibdi.  
Ko‘m-ko‘k, tiniq, zilol suv  
Eng ostida qolibdi.  
Oynani solgan usta  
Unutgan-ov hoynahoy.  
Suv olishga ozgina  
Qoldirmabdi ochiq joy.



## **Kavsar Turdiyeva**

(1958- yilda tug'ilgan)



Kavsar Turdiyeva 1958- yil 6- avgustda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. 1975- yili Chilonzor tumanidagi 201-maktabni oltin medal bilan tugatib, so'ng Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirgan, keyinchalik Sankt-Peterburg davlat universitetini ham o'qib tugatgan. Hozir Toshkent Pediatriya-tibbiyot institutida kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Adabiyotshunos va tilshunoslar oilasida tug'ilgan Kavsar yoshligidanoq bolalar adabiyotiga o'z moyilligini bildirdi. Uning respublika bolalar nashrlariga qatnab yurgan paytida yozgan ilk she'rlari bolalar adabiyoti namunasidir.

Shoiraning „Varrak“, „O'ynayapman, o'ylayapman“, „Qush bo'lib uchgan ona“, „Raqamlar bo'y lab sayohat“, „Obod mahallam ko'chalar“i, „Ona isi“, „Obod mahallam bo'y lab“, „Hayvonot bog'i“, „Salomat bo'ling“, „Botu nidosi“, „Piyodalar qo'shig'i“, „O'n yumush“, „Tozalik — go'zallik“, „Quvnoq alifbo bo'y lab sayohat“ kitoblari chop etildi. Ular bolalar qalbining beg'ubor kengliklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb jarayonlarini ko'rsatishga bag'ishlangandir. Ammo ana shu jarayonda ma'naviy va axloqiy tarbiya bolalar shoirasining diqqat markazidan bir soniya ham nari ketmaydi.

Zero, Kavsar Turdiyevaning bolalar adabiyoti tadqiqotchiliga bag'ishlangan ishlari ham talaygina. Uning 1994- yili yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasining nomi ham „Hozirgi zamон о'zbek bolalar she'riyatida ma'naviyat muammolari“ mavzusiga bag'ishlangan. Hozirda ish olib borayotgan doktorlik dissertatsiyasi esa „So'nggi davr o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanish tamoyillari“ deb ataladi.

Kavsar Turdiyeva bolalar kinochiligi sohasida ham ijod qiladi. Uning „Zumrasha“ hajviy kinojurnali uchun ishlagan „Ma'naviyatlari bo'laylik“, „Sumalak va ming tilak“, „Yodlasam bo'lmas-midi?“ kabi mavzudagi ishlari yuqori baholandi. Uning mult-

filmlar, telefilmlar uchun yozgan qo'shiqlari ham ommalashib ketdi. Shoiraning „Irkitvoy va Kirketjon“ nomli multfilmi va M. To'ychiyev bilan hamkorlikda yozgan „Katta oy“ badiiy filmini „O'zbektefilm“ kinostudiyasi ekranlashtirdi. Bolalar qo'shiq-chiligi sohasida ham Kavsar Turdiyeva taniqli bastakorlar bilan o'z hamkorligini davom ettirmoqda. Uning she'rlariga A. Nazarov, M. Mahmudov, Sh. Yormatov kabi bastakorlar kuy bastalaganlar.

Kavsar Turdiyevaning „Toshkesarlar mamlakatida“ dramatik ertagi „Sog'lom avlod yili“ga bag'ishlangan tanlov sovrindori bo'ldi.

Serqirra ijodkor, olima, murabbiy Kavsar Turdiyeva bolalar she'riyatida o'z o'mni va uslubiga ega. U bir necha darslik va o'quv qo'llanmalarining muallifi hamdir.

Kavsar Turdiyeva 2001- yili „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan.

### BAXILLIK HAQIDA RIVOYAT

Juda qadim yillarda,  
Juda uzoq zamonda  
Kampir-u chol yasharkan,  
Bilmam qaysi tomonda.  
Odam yoqmas ularga,  
Baxil ekan nihoyat.  
Shu baxillik tufayli  
To'qilgan bu rivoyat.  
Qalam ojiz qolarkan,  
Ular haqda so'zlashga.  
Birovlarning rizqini,  
Ko'zlashgani ko'zlashgan.  
Shu tufayli yo'q ekan,  
Biror yaqin odami.  
Shu tufayli uzilgan  
Qarindoshlar qadami.  
Uylaridan kelmaskan,  
Hatto kulgu ovozi.  
Tomlariga chiqmaskan,  
Hatto qo'shni xo'rozi.  
Bo'lgan ekan ularning  
Yakka-yolg'iz bolasi.  
Er yetgan bir yigitcha,

Ko'zi oq-u qorasi.  
O'g'illari o'zgacha,  
Odamoxun, suxandon.  
O'zgalardan yordamin  
Ayamaydi bearmon.  
Gadolarga, yo'qsilga  
Ulashadi borini.  
Eshitmaydi hech kimsa  
Undan oh-u zorini.  
Kampir-u chol bir kuni  
Keldilar bir qarorga.  
Gadoylarning barisin  
Jo'nataylik mozorga.  
Yo'qsa saxiy bu o'g'lon,  
Bor-budimiz yo'q qilar,  
Qaysi gado yo'liqsa  
Uning qornin to'q qilar.  
Oqko'ngil o'g'illari  
Yo'l bermas qora ishga.  
Shunga undan yashirin,  
Kirishdilar yumushga.  
O'g'illarin giyohga  
Yubordilar tog' tomon.  
Xurjuniga soldilar,  
Bir kalla qand bilan non.  
Ishlari xo'p yarashar,  
Baxil chol-u kampirga,  
Non yasashdi ikkisi,  
Zahar qo'shib xamirga.  
Biror nochor, bechora,  
O'taversa ko'chadan,  
Tutqazdilar qo'liga,  
O'sha zahar kulchadan.  
Bechoralar quvonib,  
Saxiy ekan dedilar.  
Har narsadan bexabar,  
Alqab-alqab yerdilar.  
O'tar o'sha ko'chadan,  
Bir oyoqli devona.  
Chorlar uni uyg'a chol,  
Xatlang deya ostona.

Xurjuniga soladi,  
O'sha zahar nonidan.  
Duo qilib devona  
Ketar uning yonidan.

\* \* \*

Tuman oppoq ro'molin,  
Yer yuziga to'shaydi.  
Giyoh tergan o'g'ilcha,  
Adashganga o'xshaydi.  
Topolmadi yo'lini,  
Tentiraydi kun bo'yi.  
Noilojdan tog'larda  
Tunab qolar shu ko'yi.  
Bilolmay ne qilarin  
Usti yupun, qorni och.  
Ertasi ham kun bo'yi  
Yo'l izlaydi noiloj.  
Ba'zan ming xil xayol ham,  
Rejalar ham puch bo'lar.  
Tog'-tog' bilan uchrashmas,  
Odamlar-chi duch bo'lar.  
Bilolmadim qay yo'ldan,  
Bo'lsa hamki ravona,  
Ammo o'sha yigitga  
Uchrar tanish devona.  
Shunday ajib bu dunyo,  
Tasodifga to'liqdir.  
Taqdir ekan, devona  
Yigitchaga yo'liqdi.  
Ko'rib uni devona  
Biroz o'ylab qoladi,  
So'ng yigit xaltasiga  
O'z nonini soladi.  
Yigit esa hang-u mang,  
Devonaning ishidan.  
Oyoqsiz bir bechora  
Non berar sog' kishiga.  
U xayolga cho'mgan payt  
G'oyib bo'libdi darvesh.

Yigit uning ketidan,  
Yuguradi peshma-pesh.  
Gadoy rizqin qiydim deb,  
Bola sho'rlik qiyinalar.  
Yuragini ming tashvish,  
Ming bir xayol qiyimalar.  
Ochlik qancha chang solib,  
Qiynasa ham jonini,  
Vijdon qo'ymas yeishga  
Bechoraning nonini.  
Devonani izlay deb,  
Yigit rosa chopibdi.  
Ne ajabki, qishlog'i  
Tomon yo'lni topibdi.  
Baxil ota-onalar  
O'g'lin qarshilar shu choq.  
Yigitchani elitar  
Uyqusizlik va charchoq.  
Uxlab qolar bolishga  
Boshin qo'ygani zamон.  
Xurjunidan chiqadi  
Bizga tanish o'sha non.  
O'zim bergen non deya,  
Qora niyat, shum ayol,  
Eri bilan ikkisi  
Uni yerlar bemalol.

\* \* \*

Ertasiga uyg'ongach,  
Bola toshday qotganmish:  
Baxil ota-onasi  
Yerda o'lib yotganmish.

Alqissa shu: Har kimsa  
Ekkanini o'radi.  
Ertami-kech baxillik  
Nishonasin ko'radi.  
Omon qoldi saxiy qalb  
Bola bilan devona,  
Qazgan chohga chol-kampir  
O'zi bo'ldi ravona.



## ***Abdurahmon Akbar***

*(1962- yilda tug'ilgan)*



1976-yilning 28-oktabri shoir va tarjimon Abdurahmon Akbar hayotida chuqur iz qoldirgan kunlardan biridir. O'sha kuni uning qalamiga mansub „Oyijonim yopgan non“ nomli jajigina she'r ilk bor matbuot yuzini ko'rdi. Bor-yo'g'i sakkiz satrdangina iborat bu ijod namunasi Abdurahmonni shoir sisatidagi qismatini belgilab berish bilan birga, uning zimmasiga bolalar uchun ijod etishdek sharaflı, mashaqqatlı vazifani ham yukladi.

Mana o'ttiz yildirki, A. Akbar aynan kichkintoylar uchun she'rlar yozib kelmoqda. Ijodini maktab partasidan boshlagan qalamkash 1978—1979- yillarda O'zbekiston radiosи qoshida tashkil etilgan adabiy to'garakda ijod sirlarini o'rgandi. O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy rahbarlik qilgan bu to'garakda u yetuk bolalar adiblari va shoirlarining suhabatlaridan, maslahat va yo'l-yo'riqlaridan bahramand bo'ldi.

Bolalar adabiyotiga bo'lgan muhabbat, mehr u O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olib yurgan kezlarida ham, armiya safida, „Binokor“ gazetasida adabiy xodim bo'lib xizmat qilgan paytlarida ham, qolaversa, Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyidagi faoliyati davomida ham bir zumga bo'lsin susaymadi.

Birin-ketin shoirning „Kichkintoy va paxtaoy“ (1987), „So'zlovchi yomg'ir“ (1990), „Ehtiyyotkor toshbaqa“ (1991), „Yozning tug'ilgan kuni“ (1992), „Kuylayotgan bog“ (1994), „O'yinqaroq bulutcha“ (1996) „Jonli savatcha“ (2005), „O'rdakcham“ (2005), „Uyquchining tushlari“ (2006) nomli kitoblari dunyo yuzini ko'rdi.

„Ehtiyotkor toshbaqa“ nomli kitobi 1991-yilda Usmon Nosir nomidagi mukofotga sazovor bo‘ldi. „Oyijonim yopgan non“ nomli she’riy to‘plami 1998- yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi, Xalq ta’limi vazirligi hamda respublika „Mahalla“ xayriya jamg‘armasi tashabbusi bilan tashkil etilgan ko‘rik-tanlovda sovrinli o‘ringa loyiq deb topildi. 2006- yili Abdurahmon Akbar O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvonini olishga musharraf bo‘ldi.

Shoir 1962-yilda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumanidagi Niyozbosh qishlog‘ida tug‘ilgan. Shu qishloqdagi 23-o‘rta maktabda ta’lim olgan. U 1995-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

## BULBUL

Suvi mo‘l-ko‘l bog‘larda  
Yayrar ekansan, bulbul.  
Oqshom cho‘kkan chog‘larda  
Sayrar ekansan, bulbul.

Ovozing ko‘p xush ekan,  
Qanotlaring mallarang.  
Jussang kichikligidan  
Ko‘rinarkansan arang.

Bu gaplarni kitobdan  
O‘qib-bilib oldim men.  
Boqib mo‘jaz rasmingga  
Xayollarga toldim men.

Chamanga aylanguncha,  
Bo‘lguncha har yer bo‘ston,  
Bir o‘tinchim, o‘zingni  
Ehtiyot qil, bulbuljon!

## KITOBNI KO‘P O‘QIYDIGAN UKAM

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
Nimagadir juda ham kamgap.  
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
She’rlar yozar onamga atab.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
O‘yga tolar ba‘zida uzun,  
Va shivirlar: — Hali kelmabdi  
Suvlar suvga o‘xshaydigan kun.

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam  
Bir kun menga shundayin dedi:  
— Oq mo‘ynali qalpog‘ingiz ham  
Quyon edi, joni bor edi.

— Bunaqangi jumboq gaplarni  
Qaydan o'ylab topasan? — desam,  
Bosh chayqar-da „uf“ tortib qo'yar,  
Kitobni ko'p o'qiydigan ukam.

### ILTIMOS

Meni ko'rsa tog'amning ko'zlariga yosh kelar,  
Botirim, polvonim deb opichlab yurar uzoq.  
Yoshi dadajonimdan ancha kichik bo'lsa-da,  
G'o'zasi kabi rangpar, paxtasidek sochi oq.  
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?

Qiliqlari, yuzlari menga rosa o'xshaydi,  
Menga o'xshab arazchi, menga o'xshab hazilkash.  
Ammo bitta gapiga sira tushunolmayman,  
Nimaydi, ha, „Bunchalar, bunchalar qiyin yashash?“  
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?

Ertakdag'i parilar sarvqomat desalar,  
Ulardan go'zal derdim Lobaroy kennoyimni.  
„Kasal bo'lib qolasiz yig'layversangiz agar“,  
Desam ham ko'zin yoshlab solib berdi joyimni,  
Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi yo'q?

Akam, opachalarim xafa bo'lishsa bo'lar,  
Mening aytganimga ham bir borgina kiringlar —  
Ko'nmasangiz agarda uydan qochib ketaman,  
Meni kichik tog'amga o'g'il qilib beringlar,  
Ona, tog'amning axir bitta ham bolasi yo'q.

### INSHOLARDAN KO'CHIRMALAR

Barno depti: „Paxtamiz  
Momiq parga o'xshaydi“.  
Ra'no depti: „Paxtamiz  
Xuddi zarga o'xshaydi“.  
Uni oppoq bulutga  
Qiyoq qilibdi Davron.  
„Muzqaymoqning o'zi u“,

Deptı hazilkash Omon.  
Kımdır „Paxta — non“ deptı,  
Kim yozibdi „Kunduz“ deb.  
„Tunda oy — terimchi-yu  
Lo‘ppi paxta — yulduz“, deb.  
Inshosini shundayin  
Tugatibdi Shouzoq:  
„.... Aslı paxta qordekmas,  
Dadamning sochidek oq“.

### NODIRA

— Ancha qiyin bugungi mavzu,  
Quloq soling, — dedi muallim.  
Chor atrofni bosgandayin suv  
Zum o‘tmasdan sinf bo‘ldi jim.  
Mening esa Nodira bilan  
Suhbatlashgim kelaveradi.

Orqaga hech boqmas Nodira,  
Taqinchoqlar taqmas Nodira.  
Bir oyog‘i shikasta, shundan  
Bolalarga yoqmas Nodira,  
Mening esa Nodira bilan  
Suhbatlashgim kelaveradi.

Mensimasdim avvallar atay,  
Yig‘latardim sochidan tortib.  
Uzoq fursat unga gapirmay,  
Ranjitardim sho‘xligim ortib,  
Endi bo‘lsa Nodira bilan  
Suhbatlashgim kelaveradi.

Yuzlarida xol-poli ham yo‘q,  
Tovushi ham mosmas yoshiga.  
Ammo ancha yarashar ekan  
O‘sma qo‘ysa agar qoshiga.  
Endi o‘sha Nodira bilan  
Suhbatlashgim kelaveradi.

## BIR QISHLOQ BOLALARI

Nor Xolmatni „qo‘y“ dedi,  
Xolmat Norni dedi „kal“.  
Hazil-hazil bilan bo‘p  
Boshlanib ketdi janjal.

Ikki o‘rtoq — ikki yov  
Olishmoqchi bo‘ldilar.  
Do‘pposlashib, mushtlashib  
Solishmoqchi bo‘ldilar.

Sinfboshi Bahodir,  
Botir-u Habib, Hamdam,  
Yovlashsangiz do‘stlikdan  
Voz kechamiz desa ham,

Ikki „polvon“, „pahlavon“,  
Ikki o‘rtoq — „kal“ va „qo‘y“  
Bir-biriga o‘qrayib  
Sira berishmasdi bo‘y.

— To‘xtang! — dedi shu fursat  
Esh o‘rnidan turib dast.  
— Mayli siz baland bo‘ling,  
Mayli biz bo‘laylik past.

Dadamlar derdilarki,  
Ko‘zyoshi bo‘lar taxir.  
„Qahramon“ bo‘lish oson,  
Nomusli bo‘lmoq og‘ir.

Niyozbosh qishlog‘ining,  
Gulimiz, lolasimiz,  
Unutmanglar, biz axir  
Bir qishloq bolasimiz,  
Bir qishloq bolasimiz...

## ONALAR

Kim issiqni ko‘rmas xush?  
Issiq hammaga yoqar!  
Paxta pishar issiqda,  
Pishar don, kungabоqар.

Ayniqsa, yoz kunlari  
Issiqlab ketsak bormi,  
Suzib-sho‘ng‘ib, qiy-chuvga  
To‘ldiramiz anhorni.

Issiqni bizdan-da ko‘p  
Suyar onalarimiz.  
Shuning uchun barisi  
Chiroyli — qoramag‘iz.

Havo isib, harorat  
Qirq, ellikka yetsa ham,  
Ishlayverar onalar  
Dalalarda xotirjam.

O‘ttiz yettidan oshib  
Issig‘imiz, desak „voy!“  
Topa olmas onalar  
O‘zlarin qo‘yarga joy!

### QO‘RQQANGA QO‘SHA KO‘RINAR

Kech kirib, ko‘kda hali  
Oy kezmagan pallada,  
Norni kuchuk quvlabdi  
Sukut to‘la dalada.

Yetib olsa tishlaydi  
Degan xayolga borib,  
Chopibdi Nor bechora  
Oyog‘in qo‘lga olib.

Ortda qolibdi dala,  
Ortda qolibdi ariq.  
Toshko‘chaga yetganda  
Toyib ketibdi qattiq...

Ko‘zin ochib qarasa,  
Yuragi urib duk-duk,  
O‘zin Laychasi emish  
O‘sha... „quvlagan“ kuchuk.

### METRODA

Shoshib tushsam metroga  
Bitta bola joy berdi.  
Qo‘lin qo‘yib ko‘ksiga:  
— O‘tiring, aka, — dedi.

Yurmasimdan uch bekat,  
Bir chol kirdi vagonga.  
Shartta o‘rnimdan turib  
Biroz surildim yonga.

— Qo‘yavering, — desa ham,  
O‘tirolmay bemalol,  
Yoshgina kelinchakka.  
Joyin berdi o‘sha chol.

O‘n chog‘li katta-kichik  
Shu payt bo‘shatdi o‘rin.  
Bosh chayqadi otaxon,  
Qaysarligini ko‘ring.

Go‘zal edi bu holat,  
Nafosatga edi boy!  
Hamma yetdi manzilga  
Va hammadan qoldi joy...



## CHET EL BOLALAR ADABIYOTI

Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarining o‘rnii, ahamiyati katta. Negaki tarjima asarlarini o‘qigan har bir yosh kitobxonning dunyoqarashi, fikri, tasavvuri boyib, o‘sha xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo‘ladi.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan elga, tildan tilga o‘tib, dillarni yashnatib yurgan „Qizil Shapkacha“ (Sh. Perro), „Robinzon Kruzo“ (D. Defo), „Gulliverning sayohatlari“ (J. Swift), „Dyumchaxon“ (X. Andersen), „Oltin baliq“ (A. S. Pushkin), „Tom Soyerning boshidan kechirganlari“, „Shahzoda va gado“ (M. Tven), „Kapitan Grant bolalari“, „Ostin-ustun“ (J. Vern), „Don Kixot“ (J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarda olamga nisbatan qiziqishlarini jo‘shtirib yuboradi.

XX asrda bunyod etilgan „Maugli“ (R. Kipling), „Kichkina Shahzoda“ (A. de Sent-Ekzyuperi), „Katta va kichik Karlson“ (A. Lindgren), „Toshkent — non shahri“ (A. Neverov), „Vinni Pux“ (A. Miln), „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“ (S. Marshak), „Uch baqaloq“ (Y. Olesha), „Quvnoq bolalar“ (B. Kerbo-boyev), „Doktor Aybolit“ (K. Chukovskiy), „Chipollinoning sarguzashtlari“ (J. Rodari), „Styopa amaki“ (S. Mixalkov), „Kim bo‘lsam ekan?“ (V. Mayakovskiy), „Bilmasvoy quyosh shahrida“ (N. Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o‘zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingen asarlar yosh kitobxonni nimagadir o‘rgatadi, nimagadir da’vat etadi. Bu asarlarning ko‘philigidagi ona-Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish („Uch baqaloq“), noshukr bo‘lmaslik, ota-ona pand-nasihatiga quloi solish („Ahmoq sichqoncha haqida ertak“), inson va insonga mehr („Maugli“), tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish („Doktor Aybolit“), o‘ziga pishiq-puxta bo‘lish, ichki sirlarni o‘zgalarga oshkor qilmaslik („Qizil Shapkacha“), namunali o‘qish, kasb-hunar egasi bo‘lish („Kim bo‘lsam

ekan? ), sergak, tadbirkor, quvnoqlikka intilish („Quvnoq bolar“)dek olıyanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini o‘sti-radi.

Italiyaning butun jahon bolalari taniydigan yozuvchisi J. Rodari (1920—1980) qalamiga mansub „Chipollinoning sarguzashtlari“ asarini huzur qilib o‘qimagan o‘zbek kitobxoni bo‘lmasa kerak. Chipollino Chipollonning o‘g‘li. Uning yettita akalari ham bor edi. Chipolletto, Chipollootto, Chipollochcho, Chipolluchcho va boshqa piyoz xonadonining o‘g‘illari shular jumlasiga kiradi. Ayonki, qayerda piyoz bo‘lsa, o‘sha yerda ko‘zlarda nam bo‘ladi. Chipollinolar uncha keng bo‘limgan bir yashikdek joyda istiqomat qilar edilar. Mabodo uylarining oldidan olifta zodagonlar o‘tib qolgudek bo‘lsalar, darhol dastro‘mollari bilan burunlarini berkitib, ko‘zlaridan yosh oqizib o‘tib ketardilar. Negaki ular piyozning achchiq hidiga chiday olmas edilar-da!

Ana shunday quvnoq kuychingin „Hunarning hidi qanaqa?“ degan she’ri bog‘chalarimiz dasturidan uzoq yillardan beri joy olib keladi. She’r quvnoq misralar asosida qurilgan bo‘lib, o‘quvchini bir o‘qishda, tinglashda o‘ziga rom etib oladi. Boshda kitobxon: „Iya, hunarning ham hidi bo‘ladimi?“ deyishi tabiiy. Lekin she’rni o‘qigach, tinglagach, Rodariga ishonadi, qoyil qoladi, xulosa chiqaradi.

## HUNARNING HIDI QANAQA?

Har hunarning o‘zicha  
Bordir hidi — belgisi.  
Novvoyxonadan kelar  
Xamirturushning isi.  
Ustaxona yonidan  
O‘tib qolsang-chi agar,  
Yangi taxta, payraha  
Hidi dimoqqa tegar.  
Bo‘yoqchida bo‘yoqning  
Hidi bo‘ladi har xil.  
Oynachidan esa doim  
Zamazka hidi anqir.  
Shoferning kurtkasidan

Benzin hidi keladi.  
Ishchining kiyimidan  
Kelar mashina moyi.  
Qandolatchidan esa  
Mag‘izning hidi kelar.  
Doktorning xalatidan  
Anqir xushbo‘y dorilar.  
Omoch ortidan asta  
Dalada yurar dehqon.  
Tuproq va o‘tloq hidi  
Bo‘lar unda har qachon.  
Baliqchining ustidan  
Dengiz hidi chiqqanday.  
Faqat bekorchilarning  
Hidi bo‘lmas hech qanday.  
Ishyoqmas boy qanchalik  
Atir sepsin, behuda!  
Bolalar! Uning hidi  
Qo‘lansa bo‘lar juda!



## **Sharl Perro**

(1628 – 1703)



Buyuk fransuz shoiri va tanqidchisi Sharl Perro badiiy ertak asoschisi sifatida ma'lum va mashhurdir. U o'zining „Qizil Shapkacha“, „Zolushka“ va „Etik kiygan mushuk“ asarlari bilan jahonga tanildi.

Sh. Perro badiiy ertaklar ijod etishdan oldin xalq og'zaki ijodini mehr va ishtiyoq bilan chuqur o'rgandi. Shuning uchun ham u o'z ertaklarida xalq udumlarini dadil ilgari surdi. Perro qahramonlari o'z mehnatsevarliklari hamda saxiyliklari bilan ajralib turadilar. G'arazgo'ylik, maqtanchoqlik, qizg'an-chiqlik o'rnini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda.

Sharl Perrodan bor-yo'g'i 11 ertak saqlanib qolgan. Qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor ekanligini darrov payqaysiz. Dunyoda uning „Etik kiygan mushuk“ ertagini o'qimagan yoki ertak asosida yaratilgan multfilmni miriqib tomosha qilmagan bola topilmasa kerak.

Ertakda aqlilik, bilimdonlik, topag'onlik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Boshqa asarlari kabi Sh. Perro bu ertakda ham folklor an'analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni tegirmonchingen kenja o'g'li Karabas fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo'ladi.

Sharl Perroning barcha personajlari yorqin, pishiq-puxta tasvirlangani bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e'zozlaydigan oliyanob bolalardir. Zolushkani („Zolushka“) olib ko'raylik. Uni o'gay ona-yu qizlar hush ko'rmaydilar, xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani juda sevadi. Uning o'z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydi. Zolushka juda chiroyli, odobli, shirinso'z, kamtarin, odamlarga, jonivorlar-u parran-

dalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlari, mehnat, halollik va poklik bilan hayotda o‘z o‘rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo‘lishi ertak tinglovchisida yaxshi taassurot qoldiradi.

Sh. Perro ijodida „Qizil Shapkacha“ alohida o‘rinda turadi. Ertak nihoyatda ta’sirli va jozibalidir. Muallif Qizil Shapkachani tabiiy va jonli holda tasvirlashga katta e’tibor beradi. Ertak qahramoni bolalar ko‘z o‘ngida dunyoda tengi yo‘q, juda yoqimtoy qizcha qiyofasida gavdalanoladi. Bo‘rining yovuzligi, surbetligi, uning kampir qiyofasiga kirib olishi ertak tinglovchi har bir bolada chuqur nafrat hislarini qo‘zg‘aydi.

Boshqa ertaklarda bo‘lgani kabi „Qizil Shapkacha“da ham voqeа yaxshilik bilan tugashi bolalarning quvonchiga quvonch qo‘shadi.

Sharl Perroning „Havorang soqol“, „Bob“, „Eshak terisi“, „Uyqudagи malika“ kabi ertaklari xuddi „Qizil Shapkacha“ kabi bolalarning sevimli asarlariga aylangan.

## QIZIL SHAPKACHA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan: u dunyoda tengi yo‘q, juda yoqimtoy qiz ekan. Oyisi uni jonidan ham yaxshi ko‘rar ekan, buvisi bo‘lsa undan ham yaxshi ko‘rar ekan.

Buvisi nevarasining tug‘ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg‘a qilibdi.

O‘shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Shuning uchun qo‘ni-qo‘shnilar uni ko‘rganda:

— Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! — der ekanlar. Bir kuni oyisi somsa pishirib, qizchaga aytibdi:

— Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog‘ni buvingga oborib bergen, eson-omonligini bilib kelgin.

Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko‘rgani narigi qishloqqa ketibdi. U o‘rmondan o‘tayotsa, oldidan bir Bo‘ri chiqib qolibdi. Bo‘ri Qizil Shapkachani yamlab yuborgisi kelibdi-yu, lekin botinolmabdi, chunki shu yaqin orada o‘tinchilar daraxt kesib yurar, boltalarining taraq-turuq ovozi eshitilib turar ekan.

Bo‘ri qizdan:

— Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rabdi.

Qizil Shapkacha bo‘lsa, o‘rmonda to‘xtab, Bo‘ri bilan gaplashishning qanday qo‘rqinchli ekanini bilmas ekan. Shuning uchun ham u Bo‘ri bilan salomlashibdi-da, keyin:

— Buvimni ko‘rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog‘ olib boryapman, — debdi.

— Buvining uyi uzoqdami? — deb so‘rabdi Bo‘ri.

— Ha, ancha uzoqda, — deb javob beribdi Qizil Shapkacha, — tegirmon orqasidagi qishloq bor-u, hov ana, eng chekkadagi uyni ko‘ryapsanmi — o‘sha.

— Yaxshi, — debdi Bo‘ri, — men ham bivingni ko‘rib kelaman. Manavi yo‘ldan boraman, sen bo‘lsang anavi yo‘ldan bor. Ko‘ramiz, kim oldin borarkan.

Bo‘ri eng yaqin yo‘ldan g‘izillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha bo‘lsa, eng uzoq yo‘ldan ketibdi.

Qizcha yo‘lma-yo‘l to‘xtab, gullar teribdi, guldaста yasabdi. Qizil Shapkacha hali tegirmon yo‘liga yetmagan ekan, Bo‘ri kampirning uyiga yetib kelib, eshikni taqillatibdi.

— Kim? — deb so‘rabdi kampir.

— Men nevarangiz Qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi Bo‘ri, ovozini ingichka qilib. — Siznikiga mehmon bo‘lib keldim, somsa bilan kuvachada yog‘ olib keldim.

Kampir bu vaqt to‘sakda kasal bo‘lib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelgandir deb o‘ylab, shunday debdi:

— Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi!

Bo‘ri ipni tortibdi — eshik ochilibdi. Bo‘ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Bo‘ri judayam och ekan, negaki u uch kundan beri ovqat yemagan ekan-da.

Keyin Bo‘ri eshikni yopib, kampirning to‘shagiga kirib yotibdi-da, Qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda Qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi.

— Kim? — deb so‘rabdi Bo‘ri.

Qizil Shapkacha Bo‘rining xunuk ovozini eshitib, avval qo‘rqibdi, keyin: buvim tumov-pumov bo‘lgandir, — deb o‘ylab, javob beribdi:

— Men nevarangiz Qizil Shapkachaman. Sizga somsa bilan kuvachada yog‘ olib keldim.

Bo'ri yo'talib olib, ingichka ovoz bilan:

— Ipni tort, jonginam, eshik ochiladi, — debdi.

Qizil Shapkacha ipni tortgan ekan eshik ochilibdi.

Qizcha uyga kiribdi. Bo'ri bo'lsa ko'rpgaga burkanib olib debdi:

— Somsani stolga, kuvachani tokchaga qo'y, o'zing yonimga kelib yot! Juda charchagandirsan?

Qizil Shapkacha bo'ri bilan yonma-yon yotib, undan so'rabdi:

— Voy, buvijon, qo'llaringiz buncha uzun?

— Seni mahkamroq quchoqlash uchun, jonginam!

— Buvijon, oyoqlaringiz buncha katta?

— Tezroq chopish uchun, jonginam!

— Buvijon, qulqqlaringiz buncha katta?

— Yaxshiroq eshitish uchun, jonginam!

— Buvijon, ko'zlariningiz buncha katta?

— Seni yaxshiroq ko'rish uchun, jonginam!

— Buvijon, tishlaringiz buncha katta?

— Seni tezroq yeb qo'yish uchun, jonginam!

Qizil Shapkachaning dod-voylashiga qaramay, ochko'z Bo'ri uni shippagi va qizil shapkasi bilan qo'shib yutib yuboribdi.

Baxtni qarangki, shu vaqt uy yonidan o'tinchilar o'tib qolishibdi.

Ular shovqin-suronni eshitib, uyga bostirib kiribdilar va bo'rini o'ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi eson-omon chiqishibdi.



## ***Jonatan Swift*** *(1667 – 1745)*



„Gulliverning sayohatlari“ romani bilan jahonga tanilgan J. Swift Irlandiyaning poytaxti Dublinda ruhoniy oиласида tavallud topdi. 1698- yilda ona yurti Angliyaga keladi. Bu yerda yaqin qarindoshi, yozuvchi, davlat arbobi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Vilyam Templa ga kotiblik qiladi, yaxshi-yomon odamlar bilan tanishadi, hayotning pastbalandini o'rganadi, Vilyam Templning boy kutubxonasidan foydalanadi. Dublinga qaytgan Swift bu yerda universitetning diniy fakultetiga o'qishga kiradi. Uzoq yillar Dublin ibodatxonasining noziri vazifasida xizmat qiladi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Richard Stil tomonidan nashr etiladigan „Laqma“ hajviy jurnalida she'r va hikoyalari bilan ko'zga tashlana boshlaydi.

Natijada adibning „Kitoblar jangi“, „Bochka haqida ertak“, „Movutfurush ertaklari“ kabi romanlari yuzaga keldi. Swift o'nlab roman, ocherk, pamphlet va boshqa asarlar yozgan bo'lsa-da, ammo u faqat „Gulliverning sayohatlari“ asari bilan keng kitobxonlar ommasiga tanildi.

Bu asar zamirida Swift o'z zamonasidan, o'sha davr Angliyadagi chirkin turmushdan, urf-odatlaridan, davlat siyosatidan, fan va madaniyatning tubanligidan qattiq kuladi. Asar mazmunining teranligi, obrazlarning quyimaligi, lavhalarning ma'no va mazmunga boyligi uch asrdan ziyodroq vaqtadan beri yosh kitobxonlarga katta estetik shavq va zavq bag'ishlab keladi.

Asar qahramoni mittivoylar o'lkasida Tog' odamga aylanadi. Oyog'i ostida liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro'molchasida chavandozlar ot o'ynatadi, qahramon 600

ta to'shakda uxlaydi. Darozlar o'lkasida esa Gulliverning o'zi mitti bo'lib qoladi va kichkina quticha sandiqda yashaydi. So'ng sandiqchani burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Gulliver otlar o'lkasiga borib qoladi. Bu yerda otlar odamlarni minib yuradi... Gulliver afsonaviy joylarga borib, ajoyib-g'aroyib fantastik voqealarini boshidan kechirsa-da, uning xarakteri, fe'l-atvori, ichki dunyosi nihoyatda haqqoniy, realistik bo'yoqda chiziladi. U Liliputlar o'lkasidagi ahmoqona tartib-qoidalarga norozilik bildirmay, ularga boshqa fuqarolar qatori bo'ysunadi. Faqat hayoti xavf ostida qolgandagina quvlik qilib, qochib ketishga muvaffaq bo'ladi.

Swiftning qahramoni zamonasining sofdir, insonparvar, haqiqatgo'y vakili. U Liliputiyada ekan, bosqinchilik urushlariga qarshi chiqadi. Gulliver yerli aholiga yordam berishga, maslahatlarini ayamaslikka tayyor. U o'zining kamtarligi, samimiyligi bilan kitobxonning muhabbatini qozonadi.

Gulliver o'tkir aql egasi, u hamma yerda ko'rgan-kechirganlarini chuqur idrok etadi. Qahramon o'zi sayohat qilib yurgan mamlakat amaldorlarining zolim bosqinchi ekanligiga qarshi bo'lsa, o'tmishning Brut singari ajoyib respublikachilari bilan faxrlanadi. Qahramon obrazidagi bu xususiyatlar yozuvchining erkin, ijtimoiy tuzum tarafdori ekanligini ko'rsatadi. Gulliver obrazining xalqchilligi ana shunda.

## GULLIVERNING SAYOHATLARI

*(Romandan parcha)*

„Antilopa“ degan uch machtali kema Janubiy okeanga suzib ketdi.

Kema vrachi Gulliver kemaning orqa tomonida turib, durbin bilan pristanga qaradi. U yerda uning xotini va ikki bolasи: Jonni degan o'g'li bilan Betti degan qizi qolgan edi.

Gulliver dengizda ko'p sayohat qilgan. U sayohat qilishni sevardi. Maktabda o'qib yurgan vaqtlaridayoq, ota-sidan kelgan pullarning hammasini deyarli dengiz xaritala-

riga va chet mamlakatlar haqida yozilgan kitoblarga sarf qilardi. U geografiya va matematika fanlarini astoydil o'rganardi, chunki bu fanlar hammadan ko'ra dengizchi uchun zarurdir.

Otasi Gulliverni o'sha vaqtdagi londonlik mashhur bir vrachga o'qishga bergan edi. Gulliver unda bir necha yil o'qidi. Lekin dengiz haqida o'ylashini qo'yamadi.

Vrachlik ishi unga qo'l kelib qoldi: o'qishni tamomlagach, „Qaldirg'och“ degan kemaga vrachlik xizmatiga kirib, shu kemada uch yarim yil yurdi. So'ngra „Umidbaxsh“ nomli katta kemada Sharqiy va G'arbiy Hindistonga bir necha martalab sayohat qildi.

Dengiz safarida Gulliver hech qachon zerikmasdi. U kemadagi o'z hujrasida uyidan olib chiqqan kitoblarini o'qir, qirg'oqqa chiqqan mahallarida esa begona qabilalarning turmush kechirishlarini tomosha qilar, ularning tili va urfatlarini o'rganar edi. Safardan qaytishda u yo'lda ko'rgankechirgan hodisalarini mufassal yozib borardi.

Gulliver bu galgi dengiz sayohatiga chiqishda ham kattakon qo'yin daftarini yoniga solib oldi.

Bu daftarning birinchi betida: „1699- yil 4- mayda kema bilan Bristoldan jo'nab ketdik“, deb yozilgan edi.

„Antilopa“ Janubiy okeanda haftalab, oylab suzib yurdi. huzurbaxsh esgan shabada Gulliverning quvonchiga quvonch qo'shdi. Xullas, sayohat ko'ngildagidek bo'ldi.

Biroq kunlarning birida kema Sharqiy Hindistonga o'tayotganida juda qattiq bo'ronga uchradi. Shamol va to'lqinlar kemani qay tomonga surib ketayotgani ma'lum emasdi.

Kemada esa oziq-ovqat va suv tugay deb qolgan edi.

Charchoq va ochlikdan o'n ikki matros o'ldi. Qolganlarning ham tinka-madori qurib bitdi. Kema to'lqinda qattiq chayqalib, yong'oq po'chog'iday o'ynardi. Bo'ronli qorong'i kechalarining birida shamol „Antilopa“ni suv tagidan chiqib turgan katta qoyatosh tomonga surib ketdi. Matroslar bu hodisani vaqt o'tgandan keyingina sezib qoldilar. Kema qoyatosh qirralariga urilib, parcha-parcha bo'lib ketdi.

Faqat Gulliver bilan beshtagina matros qayiqchaga tushib omon qoldi.

Ular shu yaqin orada quruqlik borligini bilardilar, shuning uchun o'sha yerga yetib olishni ko'zladilar. To'lqinlar ustida harakat qilaverib, kuchlari obdan quridi. To'lqinlar esa tobora kuchaymoqda edi, nihoyat, eng baland bir to'lqin kelib, qayiqchani to'ntarib yubordi. Gulliverni suv ko'mib ketdi.

U suv betiga chiqqanda, yon-verida hech kimni ko'rmadi. Uning barcha hamrohlari suvgaga cho'kib ketgan edi. Yolg'iz qolgan Gulliverni shamol va to'lqin qayoqqadir oqizib ketaverdi. U oyog'ini dam-badam pastga uzatib, suv tagini bilmoqchi bo'lsa-da, biroq oyog'i suv tagiga yetmasdi. Uning endi suzishga sira ham madori qolmadi, ichlari liq-liq suvgaga to'lgan, ust-bosh, oyoq kiyimlari uni suv tagiga tortardi. Bo'g'ziga suv tigilib, dami qayta boshladi.

Shu paytda to'satdan oyoqlari qattiq yerga tekkanini sezib qoldi.

Bu sayoz joy edi. Gulliver suv tagidagi qumda ehtiyotlik bilan asta-sekin yura boshladi.

Yurish tobora yengillashaverdi. Oldin suv Gulliverning kiftidan kelardi, keyin beliga tushdi, nihoyat atigi tizzasidan keladigan bo'lib qoldi. Gulliver, qirg'oq juda yaqin bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi, lekin bu joyning tagi nishab bo'lgani uchun, Gulliverga yana uzoq vaqt tizzasidan suv kechishga to'g'ri keldi. Nihoyat, suv bilan qum orqada qoldi. Gulliver juda yumshoq va maysa o'tlar bilan qoplangan ko'kalamzorga chiqdi va yerga yonboshlab, qattiq uyquga ketdi.

Gulliver uyg'onganda hamma yoq yop-yorug' edi. U chalqanchasiga yotgani uchun ostob uning xuddi yuziga tushib turardi.

U ko'zini uqalamoqchi bo'lgan edi, qo'lini ko'tarolmadi; turib o'tirmoqchi bo'lgan edi, qimirlayolmadi.

Uning qo'ltiqlaridan ikkala tizzasigacha butun badani chilvirlar bilan chandilgan; qo'l-oyoqlari ustiga esa chilvirdan qilingan to'r tarang tortilgan; barmoqlari chilvirlar bilan mahkam bog'lanib, uzun va quyuq sochlari ham yerga qoqilgan qoziqchalarga chandib tashlangan edi.

Gulliver xuddi to'rga tushgan baliqqa o'xshardi. „Hali ham uyquda ekanman“, deb o'yADI u.

Shu choq oyog‘i ustida allanima xuddi sichqon singari pildirab yura boshladi. Hash-pash deguncha bu narsa Gulliverning qorniga chiqib olib, undan ko‘kragida sekinsakin emaklab yurdi, endi iyakka chiqib kelayotir, Gulliver „Bu nima ekan?“ degandek qilib, ko‘z qirini soldi.

Ajabo, bu nima o‘zi?

Uning xuddi iyagi oldida kichkinagina qurollangan chinakam odamcha turibdi.

Lekin bu odamcha bodringdan katta emas. Bunday-larning beshtasi Gulliverning kaftiga bemalol joylasha olardi.

Birinchi odamcha ketidan yana qirqtachasi Gulliver ustiga chiqib oldi.

Gulliver hayronlikdan qichqirib yubordi.

Odamchalar hovliqib-oshiqib, tumtaraqay qochishdi.

Ular qochib ketayotganlarida qoqilib yiqlidilar va o‘rinalardan yana turib, o‘zlarini birin-ketin yerga otdilar.

Ikki-uch daqiqa hech kim Gulliverga yaqin kelmadи. Faqatgina uning qulog‘iga xuddi chigirtkalarning chirillashiga o‘xhash tovush eshitilib turdi.

Lekin odamchalar tezda yana dadillanib, Gulliverning oyoqlariga o‘rmalab chiqa boshladilar. Ulardan jasurrog‘i esa Gulliverning betiga tirmashib chiqib, uning iyagiga nayza bilan bir turtdi hamda ingichka va aniq ovoz bilan:

— Gekina degul! — deb qichqirdi.

— Gekina degul! Gekina degul! — degan ingichka tovushlar har tomondan eshitila boshladi.

Gulliver tushunolmadi.

Gulliver shu zaylda chalqanchasiga uzoq yotib qoldi va qo‘l-oyoqlari kesakday uyushib ketdi.

U bor kuchini yig‘ib, chap qo‘lini yerdan uzib olishga intildi.

Nihoyat, yuzlarcha ingichka, pishiq chilvirlar bog‘langan qoziqchalarni sug‘urib, qo‘lini ko‘tardi.

Shu on allakim pastdan turib:

— Tolgo fonak! — deb chiyilladi.

Birdan Gulliverning qo‘li, yuzi va bo‘yniga yuzlarcha o‘q yog‘ildi.

Odamlarning o‘qlari igna kabi ingichka va o‘tkir edi.

Gulliver ko‘zini yumdi va tunga qadar shu taxlitda qimirlamay yotishga qaror qildi.

„Qorong‘ida bo‘shanish osonroq bo‘ladi“, deb o‘ylagan edi u, biroq maysazorda tunni kutishga imkon bo‘lmadi.

Gulliverning o‘ng qulog‘i yaqinida, xuddi birov taxtaga mix qoqayotganday, allanarsaning tez-tez tiqillagan tovushi eshitildi.

Bolg‘achalarning tiqillashi bir soatcha davom etdi.

Gulliver boshini burib, yoniga qaray degan edi, chilvir va qoziqlar imkon bermadi. U boshi yonida hozirgina yasalgan taxta minbarchanigina ko‘rdi.

Bir necha odamcha shu minbarga zinapoya yasadi.

So‘ngra odamchalar qochib ketishdi va uzun to‘n kiygan boshqa bir odamcha zinapoyadan sekin-sekin minbarga chiqdi.

Uning ketidan yana bir odamcha chiqaverdi. Bunisining bo‘yi oldingisining yarim belidan kelardi. Bu odamcha oldindagisining uzun etaklarini ko‘tarib chiqmoqda edi. Usaroy xizmatidagi bola bo‘lsa kerak. Bola Gulliverning jimjilog‘icha kelardi.

Eng keyin minbarga qo‘llarida o‘q-yoy ko‘targan ikki mergan chiqishdi. Uzun to‘nli odamcha:

— Langro degul san! — deb uch marta qichqirdi va keyin qayin daraxtining bargiday kichkina bir qog‘oz o‘ramini ochdi.

Shu onda Gulliver yoniga odamchalardan elliktasi yugurib kelib, uning sochlariiga chandilgan chilvirlarni qirqib tashladilar.

Gulliver boshini burib, uzun to‘nli odamchaning o‘qishiga qulqola sola boshladи. Bu odamcha xatni uzoq o‘qidi va uzoq gapirdi. Gulliver bundan hech narsa tushunmadи. Lekin shunday bo‘lsa ham, bo‘sh qo‘lini ko‘kragiga qo‘ydi va „xo‘p“ deganday qilib bosh qimirlatdi.

U o‘z oldida har holda biron mo‘tabar odam turganini, astidan qirol elchisi ekanligini payqadi.

Gulliver dastavval elchidan ovqat berib to‘yg‘azishlarini iltimos qilmoqchi bo‘ldi. Kemadan ajragandan buyon u tuz ham totmagan edi. Panjasini ko‘tarib, qayta-qayta lablariga tegizdi.

Uzun to‘nli odamcha, chamasi, Gulliverning bunday qilganiga tushungan bo‘lsa kerak, minbarchadan tusha turib, Gulliver yoniga bir necha uzun narvon qo‘yishni buyurdi.

Oradan chorak soat ham o'tmay, yuzlarcha hammol oziq-ovqat solingen savatchalarni shu narvonlar orqali Gulliver yoniga olib chiqib uyishdi.

Savatchalardagi ovqatlar: kattaligi no'xatdek keladigan necha ming dona mayda non, har biri yong'oqdek keladigan to'ng'iz nimtalari, qovurilgan jo'jalardan iborat bo'lib, har qaysi jo'ja go'shti pashshadan ham kichkina edi.

Gulliver ikki nimta bilan uchta kulchani birga yutib yubordi. U qovurilgan beshta ho'kiz go'shti, ostobda qoqlangan sakkizta qo'y, dudlangan to'qqizta cho'chqa va ikki yuzdan ortiq g'oz va jo'jalarni yedi.

Gulliverning qo'liga ikki bochka vinoni yumalatib kelтирдilar.

Bochkalar juda katta bo'lib, har biri stakanday edi.

Hash-pash deguncha, Gulliver bir bochkaning, so'ng-ra ikkinchisining qopqog'ini ko'chirib tashlab, bir-ikki qultum yutish bilan ikkala bochkani ham bo'shatdi.

Vinodan so'ng Gulliverni tezda uyqu bosdi. U uyqu aralash yon-veridagi odamchalarning o'z ustidan u yoqbu yoqqa chopib yurishlarini, tog'dan tushgandek ustidan o'mbaloq oshib tushishlarini, tayoqlar va nayzalar bilan qitiqlashlarini va uning u barmog'idan bu barmog'iga sakrashlarini sezib yotardi...





## Aka-uka Grimmlar



Aka-uka (Yakob 1785—1863, Vilgelm 1786—1859) Grimmlar Margburg universitetida o‘qib yurgan chog‘lari-dayoq nemis tarixi va madaniyati, huquq va morfologiyasi, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyot bilan shug‘ullana boshladilar.

O‘qish, o‘z ustlarida qattiq ishslash Grimmlar uchun baxt yo‘li bo‘ldi. Ular avval Gettingen, keyinchalik esa Berlin universitetining professorlari bo‘ldilar. Yakob nemis tili tarixi grammatikasi bilan mifologiyani, Vilgelm esa nemis adabiyoti va xalq og‘zaki ijodini o‘rgana boshladilar. Nemis xalq og‘zaki ijodining gullab-yashnashiga, olam kezishiga bir ko‘prik yasadilar. Nihoyat, 1812-yilda Grimmlar tomonidan yaratilgan ertaklarning birinchi jildi „Bolalar va oilaviy ertaklar“ yuzaga keldi. 1815-yilda ikkinchi jild, 1822-yilda esa har ikkala jildni umumlashtiruvchi, uchinchi jild bosilib chiqdi.

Grimmlar ertaklarning ko‘pchilik qismini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba‘zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib oladilar. Xalqdan olingan ertaklarning har biri Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, badiiy tus berilib, yana xalqqa qaytariladi.

Grimmlarning uch jildlik kitoblariga ikki yuzdan ortiqroq ertaklar jamlangan bo‘lib, unda mualliflar ko‘proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan birga, qo‘rroqlar ustidan kulish, dangasalik va yolg‘onchilikni qattiq qoralash birinchi o‘rinda turadi. Shunisi ham quvonchliki, ko‘pincha, bu ertaklarning

asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar emas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning o‘g‘il-qizi, cho‘pon yoki askar bo‘ladi. Ular o‘zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradilar.

Aql bilan ish ko‘rish, bilimdonlik mavzulari „Tilla g‘oz“, „Shishadagi arvoh“, „Uch aka-uka“ ertaklarida yaxshi aks ettirilgan.

Grimmlarning dunyoga mashhur bo‘lgan „Zolushka“, „Qorqiz“ ertaklarining qahramonlari hammadan turtki yeidi-gan, so‘kish eshitadigan va eng past, qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar bo‘lib, ertak davomida o‘zlarining halol mehnatlari, yoqimli so‘z va tabassumlari bilan baxtiyor bo‘ladilar.

„Yalqov Geys“, „Gansning baxti“, „Botir tikuvchi“, „Yosh pahlavon“, „Bremen musiqachilari“ kabi ertaklari o‘zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan.

## BIR XURMACHA SHAVLA

Bor ekan, yo‘q ekan, bir qizcha yashar ekan.

Qizcha bir kuni o‘rmonga maymunjon olib kelish uchun bordi va u yerda bir kampirni uchratdi.

— Assalomu alaykum, — dedi qizcha kampirga.

— Menga rahm etib maymunoningni bersang-chi!

— Mana oling — dedi qizcha.

Kampir maymunlonni yeb bo‘lib:

— Sen menga maymunjon berding, men ham senga biron narsa sovg‘a qilaman. Mana senga xurmacha, sen unga qarab „Bir, ikki, uch, Xurmachada shavla pish“ deysan. Shunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi! Shundan so‘ng aytasanki, „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech“. Xurmacha shavla pishirishdan to‘xtaydi.

— Rahmat, buvi, — dedi qizcha va xurmachani olib, uyiga — onasining oldiga ketdi.

Onasi bundan juda suyundi.

Mehnatsiz, ovorasiz, hamma vaqt shirin va mazali shavla bo‘lsa-yu, tag‘in nega suyunmasin?

Bir vaqt qiz uydan qayoqqadir ketdi. Onasi bo‘lsa xurmachani o‘z oldiga qo‘yib:

— Bir, ikki, uch, Xurmacha shavla pish, — dedi. Xurmacha shavla pishira boshladi. Ko'p shavla pishirdi. Onasi to'yib-to'yib yedi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraverdi.

Lekin onasi „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech“ deyishni esidan chiqarib qo'yan edi. Xurmacha hamon shavla pishiraverdi. Uy ham shavlaga to'ldi, uy oldi ham, tomda ham shavla, hatto ko'chalar ham shavlaga to'ldi, u hamon to'xtamay, shavla pishiraverdi. Onasi juda qo'rqli va qizchasiga yugurdi. Lekin yo'lda issiq shavla daryo bo'lib oqqani uchun o'tish juda qiyin edi. Yaxshiyam qizchasi uydan uzoqda emas edi. Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib darrov uygashadi. Juda qiyinlik bilan kelib, eshikning halqasidan ushlab ochdi va: „Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech,“ deb qichqirdi.

Shunda xurmacha shavla pishirishdan to'xtadi.

Ammo xurmacha shunday shavla pishirdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, unga bu shavla shaharga yetguncha kifoya qilar edi.

Hech kim bundan shikoyat qilmadi. Chunki shavla juda shirin va mazali edi.

## TULKI BILAN G'ÖZLAR

Bir kuni Tulki o'tloqqa kelibdi. O'tloqda ajoyib, semiz-semiz g'ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko'rib, juda sevinib ketibdi-da:

— Maza bo'ldi, hozir hammangni yeyman! — debdi.

G'ozlar esa:

— Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deb yalinishibdi.

— Rahm qilish-a, bo'limgan gap. Hammangni yeyman, — dedi yana Tulki.

G'ozlar endi qanday qilib qutulsak ekan, deb o'ylab qolishibdi.

Shunda bittasi:

— Tulkijon, o'lish oldidan bitta qo'shiq aytishimizga ruxsat ber. Qo'shiqni aytib bo'lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto o'zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semiz-ozg'inligimizni tanlashing oson bo'ladi, — debdi.

— Mayli, qo'shiq aystsanglar ayta qolinglar, — debdi Tulki.

Dastlab bitta g'oz qo'shiq aytibdi. Uning qo'shig'i mana bunaqa uzundan uzoq ekan: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Undan keyin ikkinchi g'oz jo'r bo'libdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Undan keyin uchinchi g'oz: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Ulardan so'ng to'rtinchisi xonish qilibdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

To'rtinchi g'ozdan keyin beshinchi g'oz ham: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“ — deb qo'shiq boshlabdi.

Oxiri hamma g'ozlar birgalikda qichqirib, „g'a-g'a-g'a“ lashishga tushibdi: „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a!..“

Qachonki g'ozlar qo'shig'i tamom bo'lsa, ertak ham tugaydi. Shundagina tulki g'ozlarni yeysi.

Biroq aqlli g'ozlar qo'shiqni to'xtatishni o'ylashmabdi. Ular hozir ham „G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a“, deb qichqirib turishgan emish.





## Aleksandr Sergeyevich Pushkin

(1799 – 1837)



Har bir xalqning donishmandligi va qalb nazokatini o'zida mujassamlantirgan shoiri bo'ladi. Rossiyada inson ma'naviy olamining musavviri, shubhasiz, Pushkindir. U nurga intilib, doim ozodlik uchun kurashuvchi shoир, buyuk optimist bo'lib yetishdi. Rus xalqining yana bir buyuk shoiri Aleksandr Blok: „Pushkinding nomi naqadar jarangdor“ deb ta'riflagan edi.

A. S. Pushkin xalq og'zaki ijodini bolalikdan berilib o'rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og'zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo'shdi. Kelajakda mashhur shoир bo'lib, jahonga tanilishida boy manba bo'lib xizmat qildi. U, ayniqsa, o'zining ertak-dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

A. S. Pushkin o'zining „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“ (1831), „Baliqchi ham baliq haqida ertak“ (1833), „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“ (1833), „Oltin xo'roz haqida ertak“ (1834) kabi ertak-dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

Yuqorida biz ta'kidlab o'tgan asarlarning hammasi boy va rang-barang xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan. Bu asarlar zamirida faktik materiallar yotganligini ko'ramiz. Masalan, shoир „Ajoyib bolalar“ xalq ertagi asosida „Shoh Saltan haqida ertak“, „Qurumsoq kampir“ ertagi va rus xalq folklorining to'plovchilaridan biri V. Dal hikoya qilib bergen sujet asosida „Baliqchi ham baliq haqida ertak“, „Sehrli ko'zgu“ ertagi asosida „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“, uzoq yillar xalqni ayovsiz ishlatib, unga rahm-shafqat nima ekanligini bilmay o'tgan va uning hatto pok

xizmatlarini o‘zida mujassamlantirgan „Shabarsha batrak“ asosida „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“ yotganligini ko‘ramiz. Bu ertaklarning hammasi shoirning ijodiy laboratoriyasida ishlanib, sayqallanib, yanada o‘qimishli, ta’sirli qilib yaratilgan.

A. S. Pushkin oddiy, mehnatkash xalqni yaxshi ko‘radi, uni iloji boricha himoya qilishga, yon bosishga harakat qildi. Shuning uchun ham uning ertak-dostonlarida xalqqa bo‘lgan cheksiz hurmat tuyg‘usi barq urib turadi.

Dadon shohni oling („Oltin xo‘roz haqida ertak“). U g‘irt ahmoq. Na xalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi. Dadon o‘taketgan darajada maishatparast va kaltabin. U butun podsholigidan, xalqidan, farzandlaridan o‘zga yurtli makkora ayolni ustun qo‘yadi. Buni xalq, xudo kechirmaydi. Natijada shoh xalq qahr-g‘azabiga duchor bo‘ladi. Oltin xo‘roz tepkisidan halok bo‘lgan shohga birovning rahmi kelmaydi, aksincha, shohning o‘limi ularga shodlik va ozodlik baxsh etadi.

Pop („Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“) obrazini shoir juda mahorat bilan ko‘rsatib berdi. Tekinxo‘r, ochko‘z, o‘zgalar hisobiga umr kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi. Unga qarama-qarshi qilib oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho‘qqisiga ko‘taradi.

Ikki qahramonning bozordagi o‘zaro suhbatidanoq kitobxon kim qanday odam ekanligini darhol sezadi:

„Bo‘lsin oshpaz, otboqar ham duradgor,  
Ayt-chi, bunday arzon malay qayda bor?“  
Balda debdi: „Yaxshi malay bo‘layin,  
Bergan obi-yovg‘oningga ko‘nayin.  
Xizmatimga haq to‘laysan shu xilda:  
Peshanangga uch chertaman bir yilda“.  
Pop bo‘lsa-chi ancha o‘ylab qolipti,  
Peshanasin qashib qo‘li tolipti.  
Pop o‘ylarmish: bir gap bo‘lar — to‘lar haq,  
Cherkilardan chertkilar ham qilar farq.  
Balda qo‘yan shartiga ko‘nib, debdi pop:  
„Bu shart senga va menga ham ma’qul xo‘p:  
Endi mening hovlimda kun ko‘raver,  
G‘ayrat bilan xizmat qilib yuraver“.

Ha, hayotda har bir narsaning, jumladan, tekinxo'rlik, ochko'zlikning ham poyoni, oxiri bor. Kaltabin pop chertkini yeb halok bo'ladi.

„Baliqchi ham baliq haqida ertak“ dostonida shoir pok muhabbat mangu bo'lishini orzu qiladi. Boylik, mansab deb o'tgan kunni unutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshana teri to'kib boylik orttirmasa, birovlar hisobiga boyiydigan bo'lsa, u hech qachon yuqmasligini, birovniki birovnikiligicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog'ish-tirib hikoya qiladi. Yer yuzi, butun olam hukmroni bo'lib olgan kampir cholni mensimaganligi uchun, ochko'z va badbaxtligi uchun yana eski hammom, eski tos bilan qolib ketaveradi:

Qaytdi kampir yoniga axir,  
Ko'rsa, tag'in o'sha yerto'la,  
Bo'sag'ada o'tirar kampir,  
Qarshisida teshik tog'ora.

Rostgo'y, haqiqatni yoqlovchi shoir „O'lik malika va yetti bahodir haqida ertak“, „Shoh Sultan haqida ertak“ asarlarida haqiqat bir kun emas, bir kun o'z o'rnini topadi, hamma baxtli bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A. S. Pushkinning xalq og'zaki ijodiga asoslanib yozgan „Ruslan va Lyudmila“ asari ham bolalar qalbiga ancha yaqin turadigan dostonlardan biri hisoblanadi. Rus ertaklari, qo'shiqlari, afsonalari bu g'aroyib asarga favqulodda go'zal mazmun bergen. Yuksak insonparvarlikni o'zida mujassamlashtirgan yorqin iste'dod egasigina shunday asar yarata olardi.

Mashhur rus romantik shoiri Jukovskiy „Ruslan va Lyudmila“ dostoni nashr etilgach, Pushkinga „G'olib o'quvchimga mag'lub murabbiydan“ deb yozilgan portretini sovg'a qiladi. Bu buyuk shoir dahosiga, qaysiki ustozdan g'olib kelib va zamondan ilgarilab ketgan kurashchan Insonga berilgan xolisona baho edi.

Mana shuning uchun Pushkinga rus xalqining mangu, otashin shoiri bo'lib qolmoq baxti nasib etdi.

## BALIQCHI HAM BALIQ HAQIDA ERTAK

O'tgan chog'da dengiz bo'yida  
Chol va kampir umr surgandi.  
Yerto'lada — eski uyida  
O'ttiz uch yil birga turgandi.  
Chol to'r solib ovlarkan baliq,  
Kampir esa yigirar urchuq.  
Chol dengizga to'r soldi bir gal,  
Baqqa yaproq ilindi yolg'iz.  
To'r solganda chol ikkinchi gal,  
Ilindi-ku dengiz o'lani.  
To'r solganda chol uchinchi gal,  
Chiqib keldi bir chavoq baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.  
Oltin baliq xuddi odamday,  
Tilga kirib, yolvorib qoldi:  
„Qo'yib yubor dengizga, bobo,  
Katta to'lov to'layman senga.  
Ko'ngling ne tilasa, bergayman“.  
Hayron bo'ldi chol, qo'rqib ketdi,  
Rosa o'ttiz uch yil ovladi baliq,  
Ammo baliq so'zlaganin u  
Eshitmagan edi umrida.  
Chol baliqni qo'yib yubordi,  
Shunday dedi unga mehribon:  
„Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,  
Kerak emas menga to'loving,  
Mayli tushgil zangor dengizga,  
Erkin-erkin o'ynab yuraver!“  
Chol qaytdi-da kampir yoniga,  
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:  
„Tutib oldim bugun bir baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.  
Baliq tilga kirib so'zladi,  
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb.  
O'z uyiga — yashil dengizga.  
Katta to'lov to'layin, dedi.  
Ne istasang berayin, dedi.

Men olgani botinolmadim,  
Qo'yvordim zangor dengizga“.  
Cholni qarg'ay boshladi kampir:  
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Ololmabsan baliqdan to'lov!  
Hech bo'lmasa bitta tog'ora —  
So'rab olmaysanmi undan sen,  
Tog'oramiz teshik-ku axir!“  
Chol jo'nadi zangor dengizga,  
Mavj urmoqda dengiz qarasa,  
Ham chaqirdi baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta'zim bilan javob berdi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Xo'p urishdi kampirim meni.  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Kerak emish yangi tog'ora.  
Tog'oramiz teshilgan, axir“.  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Borgil, yangi tog'orang bo'lur!“  
Chol qaytsaki kampir yoniga,  
Tog'oralik bo'libdi kampir.  
Lekin urishdi kampir battarroq:  
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kir tog'ora so'rab oldingmi?  
Kir tog'ora mol bo'larmidi?  
Jo'na, tentak, baliqqa borgin.  
Ta'zim qil-u uy so'rab olgin“.  
Chol jo'nadi zangor dengizga,  
(Zangor dengiz loyqalangandi.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta'zim qilib, shunday dedi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Meni kampir qarg'adi battar,  
Tinchlik bermas, qariding demas,

Jag'i tinmas, uy so'rар nuqul".  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin".  
Borgil, uy ham bo'ladi nasib!"  
Yerto'lasi tomon qaytsa chol:  
Yerto'ladan iz ham qolmabdi.  
Mo'rilar g'ishtdan, oqlangan,  
Eman yog'ochidan yasalgan —  
Darvozali bir uy turibdi,  
Uy yonida mehmonxona bor.  
Derazaning yonida esa,  
O'tiribdi kampir taltayib.  
Qarg'amoqda cholni battarraq:  
„Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!  
Jo'na darrov baliq yoniga,  
Ta'zim qilgil unga sen tag'in,  
Qora dehqon bo'lmayman ortiq.  
Men begoyim bo'lish istayman!"  
Chol jo'nadi zangor dengizga,  
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan.  
Baliq chiqib so'radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?"  
Ta'zim qilib, chol shunday dedi:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Kampirni jin urdi battarraq.  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,  
U begoyim bo'lish istarmish!"  
Oltin baliq aytadi javob:  
„Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin".  
Chol qaytdi-ku kampir yoniga,  
Nima ko'rар? Baland bir saroy,  
Peshayvonda turar kampiri.  
Suvsar po'stin uning egnida,  
Boshida ham alvon dakana.  
Qator-qator inju bo'ynida,  
Qo'llarida oltin uzuklar,

Oyog‘ida qirmizi etik.  
Atrofida oqsoch xotinlar,  
Qoq o‘rtada kampir turardi,  
Sochlardan sudrab urardi.  
Kampiriga so‘z qotdi chol:  
„Salom, aslzoda begoyim,  
Ko‘ngling endi to‘ldi, shekilli?..“  
Kampir unga o‘shqirdi battar,  
Otxonada ishlashga soldi.  
O‘tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir tag‘in mindi qahriga,  
Baliq tomon yo‘lladi cholni:  
„Tez bor, ta’zim qilgil baliqqa!  
Ortiq men begoyim bo‘lmayman,  
Podsho xotin bo‘lish xohlayman“.  
Qo‘rqib ketdi chol, shunday dedi:  
„Eshakmiya yedingmi, kampir?  
Yurish-turish nima, bilmaysan.  
Podsholik masxara bo‘ldimi?“  
Kampir battar mindi qahriga,  
Chol yuziga tarsaki urdi:  
„Qora dehqon, qanday botinding,  
Kim qo‘yibdi senga so‘z aytmoq.  
Menga — menday begoyimga-ya?  
Yaxshilikcha jo‘nab qol, deyman,  
Jo‘natgayman bog‘lab, bormasang“.  
Chol dengizga qarab yo‘l soldi.  
(Zangor dengiz qora rang oldi.)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so‘radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta’zim qilib, so‘z aytdi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Kampir tag‘in boshladi g‘avg‘o  
Bo‘lmas emish ortiq begoyim,  
Bo‘lar emish erkin malika!“  
Oltin baliq beradi javob:  
„Qayg‘urmagil, tangri yor bo‘lsin,  
Mayli, kampir bo‘lar malika“.


Chol qaytdi tez kampir yoniga,  
Qarasaki, shohona qasr.  
Qasr to'rida ko'rinar kampir —  
O'tirardi malika bo'lib,  
Xizmatida beklar, amirlar,  
Asl sharob quyib bermoqda  
Ham malika quymoq yemoqda.  
Atrofida talay yasovul,  
Yelkalarda oyboltalari,  
O'rab turar juda bahaybat.  
Buni ko'rib qo'rqib ketdi chol  
Va so'z aytar yetti bukilib:  
„Savlatli malika, salomalaykum!  
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling?“  
Qayrilib ham boqmadi kampir.  
Tez haydang deb buyurdi, xolos.  
Sakrab turdi beklar, amirlar,  
Cholni sudrab, haydab soldilar.  
Yasovullar eshik yonida  
Sal bo'lmasa chopacha yozdilar.  
Mazax qilib qoldi olomon:  
„Qilik'ingdan topding, nodon chol!  
Bundan keyin bo'lg'usi saboq:  
O'z ko'rpannga qarab cho'z oyoq!“  
O'tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir battar mindi qahriga.  
Erin izlar, chopar yuborib,  
Cholni topib keldilar axir.  
Kampir shunday dedi choliga:  
„Jo'na tag'in baliq yoniga,  
Ta'zim qilib, o'tingil darrov.  
Bo'limgayman ortiq malika  
Dengiz shohi bo'lish istayman.  
Dengiz-okeanda yashayman,  
Xizmatimda tursin baliq ham,  
Baliq bo'lsin menga xizmatkor“.  
Botinolmas so'z aytilishga chol,  
Bo'la olmas kampir so'zini.  
Tag'in bordi zangor dengizga,

Qora quyun ko‘rar dengizda.  
To‘lqinlar o‘shqirar g‘azabkor,  
Ham to‘lg‘anar, ham uvlar tinmay.  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so‘radi undan:  
„Nima kerak senga, chol bobo?“  
Ta’zim qilib, shunday dedi chol:  
„Podsho baliq, holimga achin,  
Jonga tegdi la’nati kampir,  
Ortiq bo‘lmas emish malika,  
Dengiz shohi bo‘lish istarmish  
Va dengizda yashash istarmish.  
Sen ham borarmishsan xizmatga,  
Bo‘larmishsan unga xizmatkor“.  
Bitta so‘z ham demadi baliq,  
Suvga urib dumini faqat  
G‘oyib bo‘ldi dengiz tagiga.  
Javob kutib turdi sho‘rlik chol,  
Uzoq qolib dengiz bo‘yida...  
Qaytdi kampir yoniga axir,  
Ko‘rsa, tag‘in o‘sha yerto‘la.  
Bo‘sag‘ada o‘tirar kampir,  
Qarshisida teshik tog‘ora.



## *Xans Kristian Andersen*

(1805 – 1875)



O‘zining ajoyib va g‘aroyib ertaklari bilan jahonga tanilgan buyuk so‘z ustalaridan biri Xans Kristian Andersen Daniyoning Odens shahrida 1805-yilda dunyoga keldi. Bo‘lajak adib Spagels maktabiga o‘qishga kirdi. 1828- yilda Kopengagen universitetida o‘qishni davom ettirdi. U 30-yillarda Fransiya, Shveysariya, Italiya, Gretsya va Ispaniya bo‘ylab sayohat qildi. Sayohat davomida yozuvchi juda ko‘p narsalarni ko‘rdi, eshitdi. Xalq og‘zaki ijodi bilan yaqindan tanishdi.

Ijodiy mashqini 20-yillardan boshlagan Andersen o‘z kuchini lirika, roman, dramaturgiya, sayohat ocherklarida sinab ko‘rdi.

Uning, ayniqsa, tarix-ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. „Bolalar uchun aytilgan ertaklar“ (1835—1842), „Yangi ertaklar“ (1843—1848), „Tarix“ (1852—1855), „Yangi ertaklar va tarix“ (1858—1872) va boshqa kitoblari Andersennenning nomini mashhur qildi, jahonga tanitdi.

Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu-armonlarini qog‘ozga tushishiga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun ham Andersen yaratgan barcha ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Andersen ertaklarining qahramonlari o‘zlarining samarali mehnatlari, aql-idroklari, axloq-odoblari bilan kitobxon tashiniga sazovor bo‘ladilar. Uning „Qo‘ng‘iroqli girdob“, „Kumush tanga“, „Kolbasa sixidan sho‘rva“, „Go‘ng-qo‘ng‘iz“ va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. Masalan, „Qo‘ng‘iroqli girdob“ asarini olib ko‘raylik. Ertakda asrlar mobaynida ezilgan, og‘ir mehnat va zulmdan tinka-madori

qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o‘z xo‘jasiga qarshi kurashi kitobxonni quvontiradi.

Ertakchining „No‘xat ustidagi malika“ asari ham yosh kitobxonning kulgisini qistatadi, ham tannoz malikaga nisbatan qahr-g‘azabini keltiradi.

Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qayerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo‘lgan, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi.

Kunlardan bir kuni ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan mo‘jiza yuz beradi:

„Bir oqshom havo aynigandan-aynibdi: shunday chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduros solibdiki, yomg‘ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o‘zginasi!

To‘satdan shahar darvozasi taqillab qolibdi: keksa qirol borib darvozani ochibdi.

Darvozada malika turardi. Yo qudratingdan, uni nimaga o‘xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko‘ylaklaridan sharillab oqib, to‘ppa-to‘g‘ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo‘lsa pinagini buzmay, men haqiqiy malikaning xuddi o‘ziman, derdi“.

Malikani sinab ko‘rish ishlari ham juda g‘alati bo‘ladi. Tunda qirq qavat ko‘rpa ostiga bitta no‘xatni yashirib, joy solib beradilar. Tannoz, oqbilak qiz ertalab o‘rnidan turar ekan, „Qanday uxlab turdingiz?“ deyilgan savolga nolish, ichki dard bilan javob beradi:

„Ey, juda yomon! — deydi u. — Ko‘zimni yummadir, desam ham bo‘ladi! Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a’zoyi badanim ko‘karib ketibdi! Naqadar dahshat!“

Shahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi.

## BOLALAR GURUNGI

Bir badavlat savdogar bolalarga ziyofat berdi. Ziyofat kechasiga boy va dongdor xonadonlarning bolalarini taklif qildi. Savdogar ishlari gumburlab yurishib turgan, o‘zi ham o‘qimishli odam edi, o‘z vaqtida gimnaziyani bitirgandi. Gimnaziyada o‘qishga uning hurmatli otasi majbur qilgan edi. Otasi

yoshligida chayqovchilik qilgan bo'lsa-da, lekin halol, mehnatkash odam edi. Serharakat ota qancha mol-dunyo orttirgan bo'lsa, o'g'li uni yanada ko'paytirdi. Savdogar hushyor, rahmdil kishi bo'lsa-da, lekin odamlar uning bu fazilatlaridan ko'ra, boyliklari haqida ko'proq gapirishardi.

Uning „aslzodalar“ va „ulug'vor boyonlar“dan tanishbilishlari ko'p edi. Shuningdek, na u va na bu mo'tabar toifaga aloqasi bo'lmanan kishilar bilan ham muomala qilar, tanishbilish orttirar edi.

Xullas, uning uyida kattagina yig'ilish bo'ldi, yig'ilganlar faqat bolalar edi. Ular tinimsiz javrashar, tillariga kelganini qaytarmay gapirishar edi. Bolalar orasida g'oyat chiroyli, lekin o'taketgan dimog'dor bir qizcha ham bor ekan. Qizchaning jismiga kibr-havo ataylab kiritilmagan, balki maqtov-e'zozlar bilan singdirilgan ekan. Yana kimlar deng, qizchaning otanasi emas, unga qaraydigan xizmatkorlar uni shunday „kasalga“ chalintirib qo'yishgan ekan. Qizchaning otasi kamer-yunker bo'lган ekan. Qizchaning tasavvurida bu „favqulodda muhim“ unvon bo'lib tuyulgan.

— Men kamer-yunker qiziman! — derdi u.

Bu qizcha baqqol yoki biror boshqa kasb-korli kishining farzandi bo'lib tug'ilishi ham mumkin emasmidi? Ha, darvoqe, u yoki bu oilada tug'ilish bizning istak-ixtiyorimizdan mustasno hol. Xullas, qizcha boshqa bolalarga o'zining „aslzoda“lardan ekanini, oqsuyaklar nasabidanligini uqtirib:

— Kimki oddiy toifadan bo'lsa, undan biror e'tiborli odam chiqmaydi. Har qancha o'qima, intilma, o'rganma — baribir qoning toza bo'lmasa, aslzoda bo'lmasang hech narsaga erisholmaysan, — derdi. — Familiyasi „sen“ bilan tamomlanadigan kishilarni tilga olmasa ham bo'laveradi — ulardan odam chiqmaydi! Biz aslzodalar har qanday „sen“lardan nariroqda, qo'lni belga qo'yib, ularga qiyo boqmay turishimiz lozim.

Shundan so'ng fuqaro oldida o'zini qanday tutish kerakligini ko'rsatish uchun nozik qo'llarini ikki biqiniga qo'yib, tirsaklarini oldinga chiqargancha g'urur bilan turardi. Uning nozik qo'llari chiroyli, o'zi bag'oyat istarasi issiq, go'zal edi.

Biroq savdogarning qizi undan ranjib qoldi, nega desangiz, uning otasining familiyasi Massen edi. Mana shu zahoti u boshini baland ko'tardi-da, shunday dedi:

— Mening otamni bilasanmi, otam yuz regsdalerning hammasiga novvot sotib olishi va uni sochib tashlab yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qila oladimi?

— Mana, mening otam esa, — dedi bir yozuvchining qizchasi, — sening otang, hozirgi dunyodagi hamma otalar haqida ham gazetaga yozishi mumkin. Oyim „Hamma otangdan qo'rqadi“, deydi, axir gazeta uning aytganini qilar ekan-da.

Shu so'zlardan so'ng qizcha takabburona kekkaygancha turib oldi, uning kibr-havosiga go'yo olam torlik qilardi.

Devor orqasida kambag‘al bir bola turgan edi, u qiya ochiq turgan eshikdan astagina mo‘ralab bolalarga qaradi. Eshikni ochib, tengqurlari oldiga kelishga jur’at eta olmas-di. Bunday kambag‘al, bechora bolaga badavlat, aslzoda bolalar davrasiga kirish yo‘l bo‘lsin? Bola bugun oshpaz xotinning buyrug‘iga ko‘ra oshxonada qarashib yurgan edi, yumushni tugatgach, bolaga qiya ochiq eshikdan yasanib-tusanib olib, o‘yin-kulgi qilayotgan bolalarni tomosha qiliшга ruxsat berildi. Shuning o‘zi ham kambag‘al bola uchun katta baxt edi.

„Qani endi men ham shularning o‘rnida bo‘lsam!“ dedi o‘zicha havasi kelib, biroq shu paytda u mahmadonalik qilayotgan qizchalaryning gap-so‘zlarini eshitib qoldi. Bola ularning gapidan o‘sال bo‘lib, umidsizlikka tushishi mumkin edi. Nega desangiz, bu bolaning ota-onasida ortiqcha qora chaqa ham yo‘q edi-da, gazetaga obuna bo‘lishiga kelganda, hech imkonni yo‘q edi. Bunday odamlar gazeta nashr etishni loaqla xayoliga keltira olarmidi? Lekin eng yomoni shundaki, otasining familiyasi, demak, uning o‘z familiyasi ham „sen“ bilan tamom bo‘lardi! „Xullas, mendan hech qachon biror durust odam chiqmaydi! — deb o‘yladi kambag‘al bola. — Mana baxtsizlik. Lekin mening tomirimda chinakam toza qon aylanyapti! Bu haqda tortishib o‘tirishga o‘rin ham yo‘q!“

O‘sha kuni kechqurun bolalar gurungida mana shundai gap-so‘zlar bo‘lib o‘tgan edi.

Oradan ko‘p yillar o‘tib ketdi, o‘sha bolalar allaqachon ulg‘ayib, katta bo‘lishdi.


Bu vaqtida o‘sha shaharda xazinalar liq to‘la bir uy paydo bo‘ldi. Hamma shu uyga kirishni, undagi mo‘jizalarni tomosha

qilishni istardi, hatto bu yerga o‘zga shaharlardan ham odamlar kelishardi.

Xo‘sh, savdogar uyiga yig‘ilishgan o‘sha bolalardan qaysinisi endi bu mening uyim, der ekan-a? Bunday qaraganda „Falonchi aslzodaniki bo‘lishi mumkin“, deb aytish turgan gap, lekin bunday emas. Ha, bu uy o‘sha kuni kechqurun oshxonada xizmat qilib, eshikdan mahmadonalik qilayotgan bolalarga qarayotgan kambag‘al bolaniki! Ana o‘sha bolaning familiyasi „sen“ bilan tamom bo‘lsa-da, lekin undan odam chiqdi. Mashhur rassom Torvaldsenni kim tanimaydi, deysiz?

Boshqa bolalar-chi? Nasl-nasabi, boylik va otasining o‘tkir farosatini pesh qilib, gerdagan bolalar endi kim bo‘lgan ekan? Albatta, biror kimsa bo‘lgani turgan gap. Axir ular hammasi bola edi-da, bolalarda sodda, sof tushuncha, murg‘ak, o‘tkir zehn bo‘ladi. O‘sha kechki gurungdagi ularning fikr-xayoli, gap-so‘zлari shunchaki bir bolalik edi, xolos.





## *Nikolay Alekseyevich Nekrasov*

(1821—1878)



Taniqli rus adibi Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalik yillari Volga bo'yalarida — o'zi tug'ilib o'sgan joylarda o'tgan edi. Shoirning yoshlik tarbiyasida oqila onasining roli katta bo'lган. Shu bois u keyinchalik „Ona“ dostonini onasiga bag'ishlab yozgan edi. O'g'lining dehqon bolalari bilan o'ynashi, yayrab yurishini xohlagan ona — Elena Andreyevna bo'lajak shoirning xalqparvarlik ruhida tarbiyalanib o'sishiga munosib hissa qo'shgan edi.

Bugina emas, Nekrasovning enagasi ham dehqon hayoti va xalq og'zaki ijodi ruhi bilan sug'orilgan ajoyib ertaklar aytib, bo'lajak shoir xayolini qanotlantirar edi. Shu-shu Nekrasov ertaklarni juda sevib qoldi. O'z vatanining dala va o'rmonlariga, qor va sovuqlariga, bahorgi „yashil shovqiniga“ muhabbat bog'ladi.

Nekrasov dehqon bolalari bilan hamisha hamnafas bo'lganligi uchun dovyurak, botir va jasoratli bola bo'lib o'sdi. Bo'lajak shoir 10 yoshga to'lganda uni Yaroslavl gimnaziyasiga o'qishga berishadi. O'qituvchilar bilinga havasmand, iste'dodli bolaga durust saboq bera olmadilar. Natijada u gimnaziyani tashlab, mustaqil o'qishga berilib ketadi. Otasi uning ofitser bo'lib yetishishini istar edi. Shuning uchun ham uni Peterburgdagi kadetlar korpusiga o'qishga yuboradi. Lekin ilm-fan cho'qqilarini egallashga intilgani tufayli Peterburg universitetiga o'qishga kiradi. Otasi o'g'lining o'zboshimchaligidan tajang bo'lib, moddiy yordam bermay qo'yadi. Biroq maqsad yo'lida sobitqadam Nekrasov moddiy mahrumliklar sharoitida yashash va olg'a harakat qilishga intiladi. Ana shu yillarda oddiy odamlar turmushi og'ir ekanligini sezadi va umrining oxirigacha ular haqida to'lib-toshib kuylaydi.

Buni biz shoirning bolalarga bag‘ishlab yozgan asarlarida, ayniqsa, yaqqol ko‘ramiz. „Dehqon bolalari“, „O‘zi mitti — juda miqtin“, „Bolalar yig‘isi“ kabi she’rlarida bolalarning turlituman yumushlarni bajarib, tirikchilik qilganliklarini, ularning mehnatkash tabiatini va og‘ir qismatini chuqur xayrxohlik bilan ifodalaydi. Endigina olti bahorni ko‘rgan bolaning kattalardek fikr yuritishi kishini hayratga soladi:

Nonxo‘rlar yetgulik, ishlovchi kam,  
Faqat ikki erkak: otam bilan man!

Nekrasovning she’rlari go‘zal, ohangdor, mazmunan boy va ayni zamonda sodda tilda yozilgan.

Nekrasov o‘zining dam olish kunlarida, ko‘pincha, Kostroma, Yaroslavl, Novgorod o‘rmonlariga borar, ov qilish bilan kunini o‘tkazar edi. Kostroma o‘rmonining Maliye Veji degan qishlog‘ida yashovchi Mazay bobo uning eng yaqin do‘stilaridan biri edi. Shoir Mazay bobodan ko‘p ajoyib voqealarni maroq bilan eshitadi. Shular asosida „Mazay bobo va quyonlar“ nomli she’rini yozadi.

Nekrasovning tasvirlashicha, oddiy ovchi Mazay bobo go‘yo o‘rmon hokimi. U qushlar va yirtqich hayvonlarning yaqin do‘sti.

Nekrasov ishlamay tishlaydiganlarni yomon ko‘radi. Ularni o‘z asarlarida qattiq qoralaydi. Chunonchi, „Daraxt kesish“, „Hovli qaroli qo‘srig‘i“ kabi she’rlari fikrimizga dalil bo‘la oladi.

„Daraxt kesish“da xalq boyligi — o‘rmonlarni shafqatsizlik bilan kesib yuborilishini qalamga oladi. Birorta pomeshchikka pul kerak bo‘lib qolsa, o‘rmonni sotib yuborishi, puldur boy esa o‘rmonni tag-tubi bilan kesib yuborishi hech gap emas, u zumrad o‘rmonlarning kamayib ketishidan shoir singari qayg‘urmaydi. Shuning uchun Nekrasov:

Bir vaqtlar asriy o‘rmonlar,  
Shovullagan katta maydonlar,  
Endi o‘sha bepoyon bo‘ston  
Bo‘m-bo‘sh, jimjit, go‘yo qabriston! —

deb alam chekadi. „Temiryo‘l“ nomli she’rida Peterburg bilan Moskva o‘rtasidagi temiryo‘l qurilishida Rossianing turli shahar va qishloqlaridan haydab keltirilgan ishchi va

dehqonlarning alamlı hayoti Vanya degan bolaga hikoya qilib beriladi. Buning bilan Nekrasov yosh avlodning diqqat va e'tiborini zamonning muhim ijtimoiy masalalariga — xalqning kuchi va qudratiga tortadi, uni chuqur tushunishga, o'ylashga undaydi.

Shoir Volga daryosiga muhabbat bilan munosabatda bo'ladi:

Ey, sen, xalqning to'yg'izuvchisi,  
Barakali, muqaddas daryo!

Shoir „Bo'lajak Volga“ she'rida rus xalqining yorqin istiqboliga ishonch hislarini dilga jo etadi:

Otib qullik kishanlarini,  
Charchash bilmas xalqim mardona.  
Qirg'oqdag'i qaqroq cho'llarni,  
Aylantirar bog'-u bo'stonga.  
Suv qudrati fan bilan ortar:  
Shunda daryo sathida yotib,  
Son-sanoqsiz va qator bo'lib  
Suzar bundan gigant kemalar.  
Mangu yashar shu bardam mehnat  
Mangu daryo ustida har vaqt...

Ulkan san'atkorning ijodi poyoni yo'q bir dengiz kabidir.  
Unga bizning ham mehr va ixlosimiz cheksiz.

### YEREMUSHKANING ALLASI

— To'xta, yamshik, kun issiq juda,  
Bo'g'ilguday odam nafasi.  
Ko'rmaysanmi, o'roq vaqtida,  
Pichanzorda qishloq hammasi.  
Hovlisida, ayvon tagida  
O'ltilradi enaga yolg'iz.  
Belanchakni tebratar asta  
Va o'zi ham mudrar yumib ko'z.  
Zo'rg'a-zo'rg'a chiqar ovozi,  
Esnar og'zin ochib baralla,  
Men yoniga borib o'ltirdim,  
Kampir mudrab aytardi alla:  
„Uzoq davron surayin desang,

Badavlat bo'l, xotiring jam qil,  
Buning uchun yetimcham, bo'tam,  
Xushomad qil, boshingni xam qil.  
O'zni past tut xor-u xasdan ham,  
Tubanroq qil, o'g'lim, boshingni,  
Shoyad yetaklasa ulug'lar,  
Shoyad artsa ko'zda yoshingni.  
Amaldorlar bilan hamma vaqt  
Do'stlasharsan, birga yurarsan.  
Yosh va tannoz xonimlar bilan  
O'ynab-kulib umr surarsan.  
Erkinlikda turmushing o'tar  
Quvnoq, g'amsiz qurib tantana.  
— E-ha, allang bemaza ekan,  
Go'dagingni ber menga, ena!  
— Ol, jonginam, o'zing qayerdan?  
— Shahardanman, o'tkinchi mehmon.  
— Ma, ol, tebrat, bir nafas men ham,  
Mizg'ib olay... Kuylagin, o'g'lon.  
— Nega aytmay, aytaman, ena.  
Senikiga o'xshamas, ammo  
O'zim sevgan o'lanlarim bor:  
„Alla, qo'zim, alla-allayo!  
La'nat senga, dono hayotni  
Yalqovlikka sudraguvchisi, —  
Senga-senga, e, ahmoqlarning —  
Farosatin kir tajribasi!  
Biz tug'ilgan bu ona yurtning  
Tuprog'iga tushganicha yo'q:  
Toza hayot va kishiga xos  
Mo'l hosilli birorta urug'.  
Endi, sen-chi, o'z yoshlivingning  
Kunlaridan quvvat ol, so'lma.  
Baxtiyor bo'l, yangi odam bo'l,  
Eski shakllarga, quyulma!  
Hayot erkin, shod bo'lsin desang,  
Unga jo'shqin yurak bilan kir,  
Kishilikning amallariga  
Ko'kragingdan to'ldirib joy ber.


Shular bilan sen tug‘ilgansan,  
Mehringni qo‘y, dilingda saqla.  
Bular: Do‘slik, Tenglik, Ozodlik —  
Deb atalar — shularni yoqla!  
Sev ularni! Unga xizmat qil,  
So‘ng damgacha intil — quchoq och!  
Bundan oliv maqsad yo‘q, go‘yo —  
Yo‘qdir boshqa porlovchi gultoj,  
Shunda, inim, go‘zal Vatanda  
Nodir va zo‘r odam bo‘lursan,  
Xushomadgo‘y bir maxluq bo‘lsang,  
Unga talay zarar berursan.  
Beboshroq ham ezuvchi, vahshiy —  
Zolimlarga qo‘rqmay dushman bo‘l,  
Ta‘ma qilmay, ulug‘ mehnatga  
Ishonching ber va g‘ayratga to‘l.  
Shu muqaddas huquq va ishonch —  
Bilan bu olamga boqarsan.  
Adolatsiz hayot ustida  
Gurullatib chaqmoq chaqarsan...  
Ana shunda... bola uyg‘onib,  
Birdan qattiq yig‘lab yubordi,  
Enaga ham cho‘chib ko‘z ochib,  
Cho‘qindi-yu go‘digin oldi.  
„Ma, jonginam, ma, ol mammangni,  
Qorning to‘qmi?.. — deb, bolasini —  
Ovuntirib, boshlab yubordi  
Bir ohangda o‘z allasini...“

### BOLALAR YIG‘ISI

Hayot kurashida halok bo‘lganlar —  
Qarg‘ishni tinglaysiz nechun xotirjam?  
Do‘sstar! Tinglang, unga qo‘silib kelar  
Sho‘rlik bolalarning ohi-zori ham:  
„Yoshlikning eng noyob oltin chog‘ida  
Qandayki jonlik bor — yashar baxtiyor.  
Mehnat nima bilmay hayot bog‘ida  
Yashar quvnoq hamda beozor.  
Faqat bizga nasib bo‘lmadi shunday

Dala, adirlarda o'ynamoq, kulmoq.  
Qismat: fabrikada kun bo'yi tinmay  
G'ildirak burmog'-u burmog'-u burmoq!  
Tinimsiz aylanar cho'yan g'ildirak;  
Guvullar shamoli, ko'ngil aynitar,  
Boshing misdek qizir, tez urar yurak.  
Ko'z tinib, bor narsa charx urib ketar;  
Ko'zoynak ostida ta'qib etadi.  
Sho'rtumshuq kampirning yovuz ko'zları,  
Hattoki bu joyda uchgan pashshalar,  
Eshiklar, devorlar, oynalar — bari.  
G'azabimiz toshib, so'ng qichqiramiz:  
— To'xta, ey, dahshatli sabil g'ildirak!  
Fursat ber, charchadik, horidik, ojiz —  
Es-u hushimizni yig'moqqa andak!  
Yig'lash-u yolborish soydasiz — bekor,  
G'ildirak eshitmas, rahm etmas, bilmas.  
O'lsang ham la'natı aylanar takror.  
O'lsang ham guvullar, guvullar, tinmas!  
Biz erksiz, qiyalgan bechoralarga  
Qani sho'xlik bilan quvnashlik, shodlik?  
Yuborsalar edi bizni qirlarga,  
O'tlarga ag'anab uxbab ketardik.  
Avval uyga ketsak edi va tezroq,  
Lekin uyda ne bor, qanday ko'rgilik?  
Uyda ham topilmas halovat biroq.  
Bizni kutib olar ochlik, yo'qchilik:  
U yerda charchagan — horg'in bosh bilan  
Ona ko'kragiga tashlanib zor-zor,  
Nolib bu qismatdan, achchiq yosh bilan,  
Uning yuragini ezamiz takror...“





## **Lev Nikolayevich Tolstoy**

(1828 – 1910)



Rus bolalar adabiyotining taraqqiyotida L. N. Tolstoy katta rol o'ynadi. Bolalar uchun asarlar yozish har bir qalam-kashning fuqarolik burchi deb bilgan pedagog-adib ijodda ko'p narsalarga erishdi.

Tolstoy 1859-yilda o'z ona qishlog'i Yasnaya Polyanada maktab ochib, muallimlik qilar ekan, o'quvchilar-u o'qituvchilar uchun darslik va qo'llanmalarning yo'qligini, borlari ham talabga javob bera olmasligini tajribadan o'tkazdi. Endigina savod chiqarish ishiga kirishgan bolalarga mos ertak, she'r, masal va hikoyalari darsliklarda o'z aksini topishi darkor, deb tushundi va bu xayrli ishga qo'l urdi.

Darslik juda qiyinchilik, og'ir ijodiy mehnat bilan 1872-yilda „Alifbe“ nomi bilan nashr etildi. Dehqon bolalariga mo'ljallangan bu kitob, alisbedan tashqari, ruscha o'qish uchun to'rt kitob, slavyancha o'qish uchun to'rt kitob, arifmetika va muallim faoliyatidan tashkil topgan edi. Bu darslik ham bolalarga hech qanday yengillik bermadi. Ayniqsa, badiiy asar ko'p bo'lsa-da, kitobda davr, zamon ruhi deyarli yo'q edi. Shu sabablarga ko'ra pedagog-olim qattiq tanqidga uchradi. Zahmatkash adib tanqidlardan to'g'ri xulosa chiqaradi. Iloji boricha mehnat ahli bolalariga o'qimishli, ta'sirli, eng muhim, ularning savodini chiqarishga mo'ljallangan „Yangi alifbe“ va unga qo'shimcha qilib „Rus tili o'qish kitobi“ni 1875- yilda nashr ettiradi. Bu kitob uchun adib juda ko'p hikoya, ertaklar yozadi. „Uch ayiq“, „Filippok“lar shular jumlasiga kiradi. Adabiy jamoatchilik va pedagoglar asarni zo'r mammnuniyat bilan qabul qiladilar. Bu kitob har tomonlama bolalarga mos tushadi. Tolstoy kitob haqida: „Mazkur „Alifbe“ haqidagi orzularim ro'yobga chiqqanidan, uni rus bolalarining ikki avlodи o'qib, dastlabki poetik zavqni shu kitobdan olishlaridan

faxrlanaman. Bu kitobga hammasidan ham ko‘p mehnat va muhabbatimni jo qildim, u hayotimning muhim sahifasi bo‘lishiga aminman“, deb yozgan edi.

Bu darslik qayta-qayta bosildi. Hatto, 1921-yilda ham uning so‘nggi nashri chop etiladi.

Tolstoyning har bir asari turmushning, bolalar hayotining bir tomonini ochib berishga qaratilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hayotni, bolalarni qattiq sevgan va unga mehr-oqibati juda katta bo‘lgan adib kichkintoylarga qarata yozilgan har bir katta-kichik asar hayotiy bo‘lishini istaydi va o‘zining bu qaroriga butun ijodi davomida sodiq qoladi.

Tolstoyning bolalarga bag‘ishlab yozgan asarlari juda ko‘p. Muhimi shundaki, bu asarlardan ham o‘qituvchilar, ham ota-onalar bab-baravar foydalanishlari mumkin. Ular bir tomonidan dars materialini boyitsa, ikkinchi tomondan ota-onalar va tarbiyachilarining bolalar bilan qiladigan tarbiyaviy suhbatlarida qo‘l kelishi mumkin.

Tolstoyning „Bolalik“, „Kavkaz asiri“ kabi qissalari ham bolalar sevib o‘qiydigan asarlar sirasiga kiradi.

L. Tolstoyning ibratlari hikoya, ertak va masallari hozirgi kunda ham o‘zining badiiy hamda tarbiyaviy kuchini yo‘qotmagan. Uning bu mavzudagi asarlari qator darslik va majmualarga kirgan, alohida kitob holida ham chop etilgan.

## IKKI O‘RTOQ

Ikki o‘rtoq o‘rmonda ketayotgan edi. Oldilaridan bir ayiq chiqib qoldi. Ulardan biri qochib, daraxtga chiqib bekindi, ikkinchisi esa yo‘l ustida qoldi.

U nima qilishini bilmay, uzala tushib yotib olib, o‘zini o‘likka soldi. Ayiq uning yoniga kelib, hidlay boshladi. Shunda bola nafas olishdan ham to‘xtadi.

Ayiq uni hidladi-da, o‘lik deb gumon qilib, qaytib ketdi.

Ayiq ketgandan so‘ng sherigi daraxtdan tushdi va kulib so‘radi:

— Xo‘s, ayiq qulog‘ingga nima dedi?

— Ayiq menga: „Xavfli paytlarda o‘z o‘rtog‘ini tashlab ketadiganlar — yomon odamlar“, — deb aytdi.

## SOQCHI MUSHUK

Bog'da bir necha chumchuq bolasi sakrab, o'ynab yurar edi. Ona chumchuq daraxtning baland shoxiga qo'nib, yirtqich qushlar kelib qolmasin deb, ziyraklik bilan qarab turar edi.

Uzoqdan qaroqchi qirg'iy uchib kela boshladi. U mayda qushlarning ashaddiy dushmani. Qirg'iy astagina tovushsiz uchib kelar edi.

Biroq ona chumchuq yomon niyatli qirg'iyni darrov ko'rdi va kuzata boshladi.

Qirg'iy juda ham yaqinlashib qoldi. Ona chumchuq qattiq chirqilladi, shunda hamma chumchuq bolalari duv etib uchib, shoxlar orasiga bekindi va tovush chiqarmay jim turdi.

Ona chumchuqning o'zi shoxda qimirlamay, ko'zini qirg'iydan uzmay qarab turdi.

Qirg'iy ona chumchuqni ko'rib qoldi. Qanot qoqib, changallarini ochib, ona chumchuq tomonga o'q kabi otildi.

Ona chumchuq esa o'zini darrov shoxlar orasiga oldi. Qirg'iyning harakati bekor ketdi, qirg'iy atrosga alanglab qaray boshladi, jahli chiqdi, sariq ko'zları olov kabi yondi. Keyin qanotlarini qoqib, uzoqqa uchib ketdi.

Ona chumchuq avvalgi shoxga yana qo'nib oldi-da, shodlik bilan chirillay boshladi.

Shoxlar orasidan chumchuq bolalari yana duv etib uchib chiqdi va bog'da sakrab yura boshladi.

## QIZCHA VA QO'ZIQORIN

Ikkita qizcha qo'ziqorin ko'tarib, uyga qaytar edilar. Ular temir yo'lni bosib o'tishlari kerak edi.

Qizchalar: „Paravoz hali uzoqda“ deb o'ylab, ikki iz o'rtasidan yurib boraverdilar.

Birdan paravoz vishillab kelib qoldi. Kattaroq qizcha orqaga qarab qochdi, kichkinasi esa temir yo'lidan oldinga qarab yugurib ketdi.

Opasi singlisiga qarab: „Orqangga qaytma!“ deb qichqirdi. Lekin paravoz juda yaqinlab qolgan edi, shuning uchun ham singlisi opasining so'zini fahmlamay qoldi, u „Orqangga qarab qoch“, deyapti deb o'yladi-da, orqaga qarab qochdi va qoqilib ketib, qo'ziqorinlarni sochib yubordi, keyin ularni tera boshladi.

Paravoz juda yaqinlashib qolgan, mashinist zo'r berib xushtak chalar edi.

Opasi „Qo'ziqorinlarni tashla“ deb qichqirdi. Singlisi bo'lsa, opasi „Qo'ziqorinlarni terib ol“, deyapti, deb o'ylab, yo'l ustida o'ralasha berdi.

Mashinist paravozni to'xtata olmadi. Paravoz qattiq xushtak chalib, qizchaning ustiga yurib kela boshladı.

Opasi dod solib yig'lay boshladı. Yo'lovchilarning hammasi vagonlarning derazalaridan boshlarini chiqarib qaradilar. Konduktor bo'lsa qizchaga nima bo'lganini bilish uchun poyezdning oxiriga qarab yugurdi. Poyezd o'tib ketgandan so'ng, qizchaning ikki iz o'rtasida boshini yerga egib, qimir-lamay yotganini ko'rdilar.

Poyezd ancha nari ketgandan keyin qizcha boshini ko'tardi va tiz cho'kib qo'ziqorinlarini terdi-da, opasinig oldiga chopib bordi.





## **Korney Ivanovich Chukovskiy**

(1882 — 1969)



Rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Chukovskiy yirik yozuvchi, shoir, olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so'z ustasi edi. U o'z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni — rahmdillik va insoniylik, do'stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni targ'ib etadi. Korney Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratish, ijod qilishni o'zi uchun katta baxt deb bildi.

Kichkintoylar va ularning adabiyotini umr bo'yи ardoqlagan Korney Chukovskiy 1882-yilda Peterburg shahrida dunyoga keldi. Tez orada chukovskiylar oilasi Odessaga ko'chadi. Bu yerda ona ming mashaqqat bilan o'g'lini gimnaziyaga joylaydi. Bu baxt uzoqqa cho'zilmaydi. „Oshxona xizmatchisining o'g'li“ bo'lganligi uchun K. Chukovskiy gimnaziyadan haydaladi.

Korney oilaga ko'maklashish, tirikchilik o'tkazish maqsadida turli yumushlarni bajarishga majbur bo'ladi. Shunga qaramay, u bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishga, Pushkin, Nekrasov, Chexov asarlarini mutolaa qilishga harakat qiladi.

Chukovskiyning dastlabki „San'at nima?“ maqolasi 1901-yilda „Одесские новости“ gazetasida bosilib chiqqan. 1903-yilda u gazeta muxbirasi sifatida Angliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagi faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to'lamay qo'yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o'tkazishga majbur bo'ladi.

1905-yilda K. Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda „Signal“ degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi.

Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti bilan mashg‘ul bo‘ladi, bolalar adabiyoti to‘g‘risida ko‘plab maqolalar yozadi. 1907-yilda „Bolalar tili“ asari maydonga keladi.

K. Chukovskiy dastlab M. Gorkiy hikoya qilib bergen sujet asosida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, badiiy baquvvat „Timsoh“ ertagini yozdi. 1918-yilda esa „Archa“ nomli to‘plami bosilib chiqdi. O‘sha yili „Jahon adabiyoti“ nashriyotiga ishga kirdi. 1919-yilda N. A. Nekrasov asarlarining to‘la to‘plamini nashr ettirdi. Shu yillarda uning mashhur „Moydodir“, „Suvarakxon“ ertaklari, „Kichik bolalar“ kitobi bosilib chiqdi.

„Pashsha — xarxasha“, „Barmaley“, „Telefon“, „Fyodora o‘tkazgan alam“, „O‘g‘irlangan quyosh“, „Doktor Aymbolit“ asarlari Korney Chukovskiyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi.

Korney Chukovskiyning ertak-dostonlarida ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurashtib turadi. Masalan, shoirning „Moydodir“ asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to‘g‘riso‘z bo‘lish va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan.

Asar qahramoni qator fazilatlarga ega. Lekin bir aybi bor, faqat kir-chir yuradi. Shuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o‘girib, qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo‘lib turganida joniga yuz-ko‘l yuvgich oro kiradi.

Yosh kitobxon hayvon, jonivor va hasharotlar haqidagi voqe-a-sarguzashtlarni sevib o‘qydi. K. Chukovskiyning „Suvarakxon“ asari ham kichkintoylarning sevimli asarlaridan hisoblanadi. Asarda shoir hayvon, hasharot va yirtqichlarning tuzilishlari, fe‘l-atvorlari, dovyuraklik va qo‘rqoqliklari to‘g‘-risida bahs yuritadi:

Sho‘rlik, baxtsiz hayvonlar,  
Bo‘kirib, dodlab yig‘lar!  
Har bir uyada  
G‘or-u qiyada —  
Ochko‘z yovga  
Tiz cho‘kar.

Ana shunday vaziyatda paydo bo'lib qolgan chumchuqning tadbirdorligi, ishbilarmonligi, chaqqonligi qo'l keladi, u suvarakni tiriklayin yutib yuboradi. Shu zaylda chumchuq o'rmon-u quruqlikda yashaydigan qushlar, jonivorlar, hayvon va yirtqichlarni ozodlikka, erkka, baxtli va totli hayotga olib chiqadi. Bu voqeа esa bolalarning estetik didlarini oshiradi, hayvonot olamiga nisbatan qiziqishlarini shakllantirishda, ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatlarini kamol toptirishda yetakchi omil bo'ladi.

Shoirning „Pashsha-xarxasha“, „Telefon“, „Fyodora o't-kazgan alam“, „O'g'irlangan quyosh“, „Filnisa kitob o'qir“, „Kirpilar kuladi“ singari asarlari ham bolalar uchun maroqlidir. „Doktor Aybolit“ asari bir umr bolalarga shodlik-quvonch bag'ishlab kelmoqda. Aybolitning oqko'ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do'stligi ibratomuz chizib berilgan.

Korney Chukovskiy sevimli shoir, iste'dodli adib, shuningdek, yirik adabiyotshunos olim bo'libgina qolmay, bilimdon tarjimon ham edi. Uning „Ikkidan beshgacha“ nomli mashhur tadqiqotida kichik yoshdagi bolalar xarakter xususiyatlari, nutqi va ruhiyati xususida qiziqarli hayotiy ma'lumotlar beriladi.

Ulkan so'z san'atkori Korney Chukovskiy bolalar qalbini to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan kitoblar muallifi sisatida hurmatga sazovor. E'zozli muallifning umri, bosib o'tgan hayot yo'li ham xuddi kitoblari singari e'zozlanadi.

## YUVIN, DO'MBOG'IM

(Moydodir)

To'shagim ham  
Qochdi birdan,  
Choyshab-chi, parvoz etdi  
Turmayin tek,  
Qurbaqadek  
Yostig'im sakrab ketdi.

Qo'l uzatsam,  
Shamga endi,  
U pechkaga —  
Yashirindi.

Yaqin borsam  
Irg‘ib kitob,  
Karavotga qochdi shitob.

Choy ichgim kelib tursam,  
Samovarga yugursam —  
U baqaloq mendan afti —  
O‘tdan qochganday chopdi.

Nima bo‘ldi?

Ne gap rosti?

Hamma narsa

Ostun-ustun.

Bir aylanar,

Gir aylanar.

G‘ildirakdek —

Zir aylanar.

Yugurar

dazmol

etik,

Somsa ham

chopar

tetik,

Ortidan —

dazmol

kosov —

Belboqqa

bo‘lmas

yetib.

Hamma narsa o‘mbaloq,

Tinmay oshar do‘mbaloq.

Oyim yotgan uydan shu choq,  
Qo‘lyuvgich qing‘ir oyoq  
Chopib chiqib tarak-tarak  
Va der boshin qilib sarak:

„Senimi, irkit, yaramas,  
Bet yuvmagan cho‘chqacha.  
Mo‘rkonchidek basharang,

Es kirarmi xo'sh qachon?  
Bir qaragin o'zingga:  
Bo'yin-boshing qaqoch-yasmoq,  
Burning osti qurum-qasmoq,  
Shu ham qo'lmi, uyat-ku o!  
Tashlab ketdi shiming hatto,  
Shiming hatto, shiming hatto  
Qochdi kirmay so'zingga.

Bilsang har kun ertalab,  
Sichqon, mushuk erkalab,  
O'rgimchak, qo'ng'iz va g'oz,  
Yuvinishar ro'yirost.  
Yuvinmading sen faqat,  
Kir-chirlaring qatma-qat.  
Mog'or uchun boshbog'ing  
Qochdi paypoq, boshmog'ing...

Men-chi ulkan qo'lyuvgich,  
O'sha mashhur Moydodirman.  
Qo'lyuvgichlar boshlig'i,  
Mochalkalar komandiri —  
Tan-sog'liqqa foydadirman.

Yerni tepib chaqirsam,  
Shu xonada bo'lar jam  
Mening barcha askarim,  
Qo'lyuvgich lashkarlarim.

To's-to'polon ko'tarib,  
Adabingni berishar.  
Sendek mog'or irkitning  
Holiga voy deyishar.

Eshit asli, gap tagin,  
Bilsang, Peterburgdagi —  
Moyka degan anhorga,  
Xuddi shunday joy bor-da,  
Naq boshingni tiqishar“.  
U mis jomni urdi turib,

Jarangladi: „Taraq-turuq!“  
Yetib keldi shu payt cho’tka,  
O’zin urib suvdan o’tga,  
Rosa ishqab so‘zlar edi,  
So‘zlar edi:

„Mo‘rkonchini yuvamiz,  
Toza, toza, xo‘p toza.  
G‘uborini quvamiz,  
Soz-a, soz-a xo‘p soz-a!“  
Birdan sovun irg‘ishlab,  
Sochlaringa yopishdi.  
Ariday chaqib, tishlab,  
Ko‘pirdi, terga pishdi.

Quturgan ishqagichdan,  
Qochdim kaltak yeb badan.  
Bog‘ko‘cha, sayhon bo‘ylab,  
Quvar meni hoy-hoylab.

Tavr bog‘idan shoshib o‘tdim,  
Devoridan oshib o‘tdim.  
Ortda qolmay quvar birdek,  
Goho tishlar qashqirdek.

Xiyobonda uchrab qoldi,  
Shu payt tanish Timsoh polvon.  
Sayr qilarkan o‘g‘il-qizi,  
To‘tash, Ko‘ktash uchovlon.  
Ishqagichni zum o‘tmayin,  
Laqqa yutdi zaxchadayin.

Keyin Timsoh baqirdi  
Menga qarab.  
Oyoq tirab chaqirdi,  
Menga qarab;  
Ko‘p yashasin sovunlarni —  
Atirlisi,

Hamda yumshoq sochiqlarning —  
Tatir isi.

Yaxshi, biroq  
Mayin taroq,  
Tish poroshok bizlar uchun —  
Qadrlisi!

Qani endi, yuvinaylik zavqqa botib,  
Cho'milaylik, sho'ng'iylik, quloch otib;  
Tog'orada, jomoshovda, paqirda,  
Daryo, ariq, okeanda axir-da.  
Vanna, jomda, hammomda,  
Hamisha, har dam, har on —  
Suvga bo'lsin sharaf-shon!



## *Samuil Yakovlevich Marshak*

(1887—1964)



Samuil Yakovlevich Marshak rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she'riyat yaratib bergen ulkan san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

S. Y. Marshak 1887-yilda Voronej shahrida tish texnigi oilasida tug'ildi. Bo'lajak san'atkorda shoirlilik iste'dodi juda erta uyg'ondi. „To'rt-besh yoshlarimda, — deb eslaydi shoir o'zi haqida, — she'rlar yoza boshladim. O'n bir yoshimda bir qancha dostonlar yaratdim. Goratsiyning „Odamlar“ini tarjima qildim“.

S. Y. Marshak 1897-yilda Ostrogoj gimnaziyasiga o'qishga kirdi. Lekin bu yerda o'qimay, Peterburgga boradi, badiiy gimnaziyaga o'qishga joylashadi. Bu yerda bo'lajak shoir o'z zamonasining yetuk san'atkorlari bilan yaqindan tanishadi. Marshakning ijodiy faoliyati shu yerda chechak otadi. 1906-yildan boshlab feletonlari, she'r hamda tarjimalari bilan matbuotda chiqa boshlaydi.

S. Y. Marshak 1912-yilda Angliyaga jo'naydi. London universitetining san'at fakultetiga o'qishga kiradi. Ta'til kunlari u mamlakatning diqqatga sazovor joylarini yayov kezib tomosha qiladi: baliqchilar bilan dengizda sayr qiladi, qishloq maktablarida bo'ladi. Ingliz xalq qo'shiqlarini, ertaklarini sevib tinglaydi. Bu yerda Marshak V. Bleyk, Rabin-dranat Tagor va boshqalarning she'r va dostonlarini ingliz tilidan tarjima qiladi.

1914-yilda Rossiyaga qaytib kelgan Marshakning hayoti va ijodi bolalar olami bilan chambarchas bog'lanib ketadi. U 1915—1922 yillarda bolalar uylarida tarbiyachi, o'qituvchi

bo'lib ishlaydi. Bu esa Marshakning bolalar shoiri bo'lib kamol topishida katta rol o'ynaydi.

S. Y. Marshak 20-yillarda o'zining she'r, ertak va dostonlari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. „Qayerda ovqatlanding, ey chumchuq?“, „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“, „Kecha va bugun“, „Sirk“ va boshqa shu kabi mashhur asarlari o'sha yillarda maydonga kelgan edi.

S. Y. Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun M. Gorkiy hamda V. V. Mayakovskiylar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi.

1939-yilda Marshakning „Petya nimadan qo'rqrar edi?“, „Korablcha“ singari mashhur she'rlari bosilib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida shoir ijodining asosiy mavzusini urush, bosqinchilarga qarshi kurash tashkil etdi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan „O'n ikki oy“ nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi.

S. Y. Marshak 1964-yilning 4- iyunida Moskva shahrida vafot etdi. „Har qanday bolalar adabiyotida ikki yosh mavjud bo'ladi, u olamga bolalar nigohi bilan qaraydi, ammo uni kattalardek idrok qiladi, aql-tajribasiga suyanib ish ko'radi“, degan shoir bir umr bolalarni sevdi, ular uchun g'oyaviy-badiiy yuksak asarlar yaratish uchun tinmay ijodiy ish olib bordi.

S. Y. Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she'rlaridan biri „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“dir. Bu ertakda shoir bolalar hayoti va xarakteriga xos bo'lgan qiziqarli sujet topa olgan. Kimki o'ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o'ylamay ko'r-ko'rona ish tutsa, o'zidan kattalarning pand-nasihatiga amal qilmasa, hayotda ko'p narsa yutqazadi, o'z baxtini qo'ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

S. Y. Marshak „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“ asarida majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukr, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi.

S. Y. Marshak „Yong'in“, „Pochta“, „Musobaqalar dos-kasi“ asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta

hissa qo'shdi. U yaratgan juda ko'p qahramonlar shaxsan o'zi tanigan, bilgan yoki eshitgan bo'ladi, ba'zan esa gazeta materiallari asosida yaratadi. Binobarin, bu qahramonlarning hayotiy timsoli mavjud. Jumladan, talaba V. Buratskiy („Noma'lum qahramon haqida qissa“), Igor Chkalov („Qahramonning o'g'li“), Katya Budanova („Katya Budanova“), Seryoja Smirnov („Sizning kitobingizni qanday nashr qiladilar“) va boshqalar shunday qahramonlar sirasiga kiradi. Shoir „Noma'lum qahramon haqida qissa“ poemasida oddiyigina hayotiy bir voqeani aks ettirish bilan 30-yillar rus bolalar dostonchiligida ijobiq qahramon obrazini yaratish yo'llarini ko'rsatib berdi.

S. Marshak Rossiyada hayot kechirayotgan har bir kishi bir-biriga mehribon, jonkuyar, shuningdek, vaqtin kelganda mardlik, jasorat ko'rsatishga tayyor ekanligini, ayni paytda, oddiy, kamtarin, o'zining qo'lga kiritgan ulkan muvaffaqiyatlari, erishgan jasoratlari bilan kerilmasligini, manmanlikka berilmasligini oddiy hayotiy misol — o't ichida qolgan bir qizchaning hayotini saqlab qolgan bola orgali tasvir etadi. Bola mana, ko'rib qo'yinglar, men jasorat ko'rsatdim, deya ko'kragiga urib maqtanish o'rniqa, tezgina odamlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu qahramonni keyinchalik barcha qidiradi. Lekin hech kim topa olmaydi.

Hozir ham o'quvchilar o'rtasida maktab mebellarini asrabavaylab tutmaydiganlari topilib turadi. Bunday bolalarga shoir o'zining „Stol kelgan qayerdan?“ degan she'rida maktab mebellari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan qancha vaqtiali, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib bersa, „Bir yil nima?“ asarida esa juda qimmatli vaqtini behuda o'tkazib, maktabda yaxshi o'qimay, o'qituvchi-ustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o'z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan sinfga o'ta olmay xijolat bo'lib yuradigan qoloqlarga qarata:

Dalalarda saranjom ish,  
Zavodda ham reja qoyil,  
Maktabda yo'q  
Qoloqlar hech.  
Bil, bir sinfda o'qish — bir yil! —

deydi shoir.

Marshak bizning bolalar adabiyotimizning asoschisi va bilimdoni, — deb yozgan edi mashhur rus yozuvchisi M. Gorkiy. Bunday yuksak maqtovga u halol mehnati, kichkintoylarni astoydil sevishi, ardoqlashi sababli erishdi.

### AHMOQ SICHQONCHA HAQIDA ERTAK

Tunda sichqon inidan  
Alla aytar: — Jon qo‘zim,  
Jim yot, bolam, kuyuk non  
Va sham beray yulduzim.

Javob berar sichqoncha:  
— Ovozing ip-ingichka.  
Chiyillamay sen menga,  
Topib ber bir enaga.

Ona sichqon tez borib,  
Der o‘rdakka yolvorib:  
— O‘rdak xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur.

Alla aytib, der o‘rdak:  
— G‘a-g‘a-g‘a, tinch yot go‘dak.  
Yomg‘ir tinsa bog‘chadan  
Topib beray loyxo‘rak.

Ammo ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing‘ircha:  
Aytar: — Yoqmadi sozing,  
Baqroq ekan ovozing.

Ona sichqon tez borib,  
Der baqaga yolvorib:  
— Baqa xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur.

Uni allalar baqa:  
— Yig‘lama, qo‘y, vaq-vaqa,  
Tong otguncha tinchib yot,  
Chivin beray mukofot.

Ammo ahmoq sichqoncha,  
Uyqusirab zing‘ircha,  
Aytar: — Yoqmadi sozing,  
Qur-qur ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,  
Otga deydi yolvorib:  
— Amma, amma, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur!

Kishnab alla aytar ot:  
— Hi-hing, jonim tinch yot!  
Yonboshlagin, bo‘lgin jim,  
Senga beray to‘rva yem.

Ammo ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing‘ircha,  
Der: — Menga yoqmas sozing,  
Shang‘i ekan ovozing.

Ona sichqon tez borib,  
Der cho‘chqaga yolvorib:  
— Cho‘chqa xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur!

U bo‘g‘ilib, xirillab,  
Shunday deb alla qildi:  
— Jonginam, qilma g‘avg‘o,  
Juft sabzi senga sovg‘a!

Ona sichqon tez borar,  
Oq tovuqqa yolvorar:  
— Tovuq xola, uyga, yur,  
Bolamni tebratib tur!

Tovuq allalar quvnoq:  
— Do‘ndiqcham, qo‘rqma, qa-qaq.  
Qanotim ostiga kir,  
U yer issiq, tinch, axir.

Ona sichqon tez borib,  
Der baliqqa yolvorib:  
— Cho'rtan xola, bizga yur,  
Bolamni tebratib tur!

Baliq ochib og'zini,  
Darrov allalar uni.  
Biroq eshitilmas soz,  
Chunki chiqmas hech ovoz.

Shunda ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing'ircha,  
Aytar: — Yoqmadi sozing,  
Chiqmas ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,  
Der mushukka yolvorib.  
— Mushuk xola, uyga yur,  
Bolamni tebratib tur!

Mushuk kelib bir palla,  
Xirillab aytar alla:  
— Miyov, miyov! Yulduzim,  
Karavotga yot qo'zim.

Shunda ahmoq sichqoncha  
Uyqusirab zing'ircha.  
Deydi: — Yoqimli sozing,  
Buncha shirin ovozing!

Ona sichqon kelib tez  
Karavotdan o'sha kez  
Topolmay o'z bolasin,  
Axtarar ko'z qorasin.



## MUNDARIJA

<b>Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....</b>	3
<b>Bolalar folklori .....</b>	8
Qo‘shiqlar .....	10
Maqollar .....	16
Topishmoqlar .....	23
Tez aytishlar .....	29
Masallar .....	33
Ertaklar .....	40
<b>O‘zbek bolalar adabiyoti .....</b>	73
Alisher Navoiy .....	80
Muhammad Sharif Gulxaniy .....	86
Hamza Hakimzoda Niyoziy .....	91
Abdulla Avloniy .....	96
G‘afur G‘ulom .....	103
Oybek .....	122
Mirkarim Osim .....	129
Hamid Olimjon .....	139
Zafar Diyor .....	154
Quddus Muhammadiy .....	161
Ilyos Muslim .....	168
Shukur Sa’dulla .....	173
Hakim Nazir .....	184
Po’lat Mo’min .....	199
Qudrat Hikmat .....	208
Nosir Fozilov .....	214
Xudoyberdi To’xtaboyev .....	224
Farhod Musajon .....	235
Latif Mahmudov .....	240
Miraziz A’зам .....	246
To’lan Nizom .....	252
Tursunboy Adashboyev .....	260
Muhammad Ali .....	267
Safo Ochil .....	275
Anvar Obidjon .....	286
Hamza Imonberdiyev .....	294
Kavsar Turdiyeva .....	301
Abdurahmon Akbar .....	306
<b>Chet el bolalar adabiyoti .....</b>	312
Sharl Perro .....	315
Jonatan Swift .....	319
Aka-uka Grimmilar .....	326
Aleksandr Sergeyevich Pushkin .....	330
Xans Kristian Andersen .....	339
Nikolay Alekseyevich Nekrasov .....	344
Lev Nikolayevich Tolstoy .....	350
Karney Ivanovich Chukovskiy .....	354
Samuil Yakovlevich Marshak .....	361

**Jumaboyev, Mamasoli.**

**Bolalar adabiyoti:** (Darslik-majmua): Kasb-hunar kollejlarining „Maktabgacha ta’lim“ bo‘limi o‘quvchilari uchun/ M. Jumaboyev; Mas’ul muharrir Safo Ochil; O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. 4-nashri. — T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2010. — 368 b.

ББК 83.8я722

## MAMASOLI JUMABOYEV

### BOLALAR ADABIYOTI

(Darslik-majmua)

*Kasb-hunar kollejlarining „Maktabgacha  
ta’lim“ bo‘limi o‘quvchilari uchun*

To‘rtinchi nashri

*, „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2010*

Muharrir S. Xo‘jaahmedov  
Badiiy muharrir Sh. Xo‘jayev  
Texnik muharrir T. Greshnikova  
Kompyuterda sahifalovchi S. Musajonova  
Musahhih A. Ibrohimov

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 02.09.2010. Bichimi  $60 \times 90 \frac{1}{16}$ .

Garn. Tayms. Kegli 11 shponli. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli b. t. 23,0. Nashr. t. 20,0. 1236 nusxada bosildi.

Buyurtma №

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko‘chasi, 1- uy. Sharhnomasi № 07-95-10.